

ISSN 2010-7498

# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL



**2022**  
**4-son**

# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2022-yil, 4-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim  
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

**Bosh muharrir:** M.XOLMUXAMEDOV

**Ijrochi direktor:** H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

Z.Y.XUDAYBERDIYEV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy  
**Tel.:** 90-979-75-89; 94-677-90-32;

**E-mail:** kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

## Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

## Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 10.06.2021-yil.  
Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.  
Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

## КАСБИЙ ТАЪЛИМ

Сирожиддинова Н.Р. Тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар .....	2
Абрайкулов А.У. Профессионал таълим тизими педагог ходимларининг фаолиятини методик таъминлаш тизимини такомиллаштириш .....	7
Юсуфжонова Н.Н. Қардош тили мактабларда халқ дostonларини ўқитишнинг илмий-методик муаммолари .....	12
Сaidova M.J. Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy modeli .....	17
O'roqova Sh.B. Elektron o'quv resurslari va ularni yaratishga qo'yiladigan talablar .....	21
Mamarajabov O.E bulutli texnologiyalar asosida tarqoq servislardan foydalaniish .....	24
Bagbekova L.Q. Ommaviy ochik onlayn kurs raqamli ta'lim resurslariga kuyiladigan asosiy talablar .....	27
Muratov E.I. Problemy vybora innovatsionnykh strategii obrazovatel'nogo protsessa na osnove empiricheskikh metodov .....	30
Karimov K.A. Professional ta'lim tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari .....	33
Ergasheva G.A. Orfografiya adabiy tilning yozma shaklini tartibga soluvchi tilshunoslikning bo'limi .....	37
Abdullaev A.K. Professional ta'lim o'quvchilarining Virtual modelash tirish vositasida Arxitekturaviy loyiha-larni o'rgatishning zamonaviy usullari .....	42
Eshkobilova G.N. Boshlang'ich sinflarda tenglamalarni o'rgatishda uzviyilgini ta'minlash .....	49
Alibekov S.A. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda corel draw dasturining afzalliklari .....	55
Eshbaeva Z. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasini takomillash tirishda ustuvor tamoyillarning o'рни .....	58
Alibekov S.A. Meyliyev S.X. Ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati .....	63
Gulyamov K.M. Ikmov M.X. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayirlash jara'oni bulajak pedagog-rassomlarni badiiy-ijodiy kobilialtlarini rivojlan tirish .....	66
Abdullaev S.S. Talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlan tirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	73
Xolmatova M.M. Talabalarda gigienik madaniyatni rivojlan tirish .....	79
Juraeva G.Z. Bulajak horijiy til o'qituvchilarining axborotlarga ta'xliiy va tanqidiy munosabatini shakllan tirish .....	85
Alimjonova M.I. Globalashuvning madaniyatlararo mulokotga ta'siri va uni tadqiq etishning ilmий-педагогик asoslari .....	90
Igamberdieva Sh.A. «Bit-dars» texnologiyasi asosida bulajak horijiy til o'qituvchilarida motivatsiya .....	96
Umurzakova B.A. B'ulgusi horijiy til o'qituvchilarini fanlararo xamkorlik asosida media madaniyatini rivojlan tirish tuzilmasi .....	99
Jarqinov D.U. Talabalarda ijodiy xamkorlik k'nikmalarini rivojlan tirishning pedagogik tuzilmasi va komponentlari .....	104
Usmonov N.A. O'quvchilarida jismoniy madaniyatni shakllan tirishning pedagogik modeli .....	109
Alimjonova G. Texnozitik madaniyat tushunchasining mazmun-mo'xiatini, uni rivojlan tirishning pedagogik zarurati .....	114
Toshboltaev F.U. Bulajak o'qituvchilarini metodik tayirgarligini rivojlan tirish ijtimoiy-педагогик zarurati .....	118
Evatov S. Usmir e'shidagi o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlan tirishning pedagogik mazmuni .....	122
Nazarova G.A. B'ulgusi iktisodchilarida analitik tafakkurni rivojlan tirish .....	126
Parmonov A.A. Bulajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayirlash tizimining takomillash tirish .....	130
Abdullaev O.K. Bulajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayirlash tizimining takomillash tirish va unga yangicha e'ndashuvlar .....	135

# ДИФФЕРЕНЦИАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЎҚУВЧИЛАР РУҲИЯТИГА ИЖОБИЙ ТАЪСИР КЎРСАТИШГА ДОИР БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИ

АБДУЛЛАЕВ ОЙБЕК  
ҚЎҚОНДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ МУСТАҚИЛ  
ТАДҚИКОТЧИСИ.

**Аннотация.** Мақолада дифференциал ёндашув асосида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини ўқувчилар руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантириш модели ҳақида сўз боради. Мақолада олиб борилган илмий изланишлар ушбу мавзу доирасидаги қонунчилик ҳужжатлари ва олимларнинг илмий тадқиқот ишланмаларидан фойдаланилган.

**Калит сўзлар:** жисмоний тарбия, жисмоний маданият, акмеологик тарбия, соғлом турмуш тарзи, спортни оммалаштириш.

**Аннотация.** В статье рассматривается модель развития знаний будущих учителей физической культуры на основе дифференцированного подхода, которая оказывает положительное влияние на психику учащихся. В научном исследовании, проведенном в статье, использовались законодательные акты и научно-исследовательские разработки ученых в рамках данной темы.

**Ключевые слова:** Физическое воспитание, физическая культура, акмеологическое образование, здоровый образ жизни, популяризация спорта.

**Annotation.** The article discusses the model for the development of knowledge of future physical education teachers on the basis of a differential approach, which has a positive effect on the psyche of students. The scientific research carried out in the article used legislative acts and scientific research developments of scientists within the framework of this topic.

**Keywords:** Physical Education, Physical Culture, acmeological education, healthy lifestyle, popularization of sports.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида жисмоний таълимга доир касбий компетентликни ривожлантириш билан бирга уларда ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга, иродасини мустаҳкамлашга, руҳий барқарорлигини шакллантиришга доир билимларини ривожлантириш зарурати кундан-кунга ортиб бормоқда. Чунки ўқувчиларнинг руҳиятига тўғри таъсир кўрсатиш, уларнинг илм олишга, жисмоний ва маънавий баркамолликка эришишга доир иродасини мустаҳкамлаш долзарблик касб этмоқда. Бунинг учун эка дифференциал ёндашувдан фойдаланиш ва шу асосда таълим модели ва технологиясини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ иш бўлади.

Дифференциал ёндашув асосида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантиришда моделлаштириш методидан фойдаланамиз. Модел тушунчасини машҳур немис файласуфи Г.Лейбниц биринчи бор ишлатган ва уни атрофдаги дунё ҳақидаги билимларнинг қулай шакли, муайян амалий мақсадлар учун қурилган объектнинг бир хил аҳборот эквиваленти деб ҳисоблади. Бу талқин бугунги кунда илм-фан ва техниканинг кўплаб соҳаларида қўлланилмоқда. Чет элда мутахассиснинг келажакдаги касбий фаолияти ҳақида аниқ ва етарли тасаввурга эга бўлиш ва унга мос таълим олиш учун

самарали технологияларни ишлаб чиқиш учун ишлатиладиган турли хил моделларда кўпгина тадқиқотлар олиб борилган.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантириш тизимига нисбатан тизимли ёндашув, бизнинг назаримизда, ушбу тизимнинг турли жиҳатлари ҳақида ўзига хос илмий-назарий билимларни қуришдир, бунинг учун:

- бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини педагогик касбий фаолиятга тайёрлаш методик тизимининг асосий элементларини аниқлаш;

- тизим тузилмасини ушбу элементлар ва унинг турли даражалари ўртасидаги барқарор тизим ҳосил қилувчи иерархик муносабатларнинг бирлиги сифатида аниқлаш;

- тизимнинг шахсий даражалари ва элементларининг функцияларини аниқлаш ишлари муҳимдир.

2019-2023 йиллар мўлжалланган спортни ривожлантириш концепциясида «Спорт - турмуш тарзи» остида жисмоний тарбия ва оммавий спортни оммавийлаштириш компаниясини ташкил этиш ва ижтимоий тармоқларда илгари силжитиш, SPORTS.UZ ахборот порталини яратиш вазифалари<sup>1</sup> ҳам белгилаб олинган эди.

Кейинроқ Жисмоний тарбия Дастури қайта таҳрир қилинди ва ўзгартирилди. Унда ўқувчи-ёшларни “Алпомиш” ва “Барчиной” махсус талабларига ҳам тайёрлаш ва жисмоний ривожлантириш шартлари киритилди. Бу орқали ёшларни меҳнат, касб-ҳунар ва мудофаа ишларига тайёрлаш вазифалари юклатилган эди.

Бу жараёни давом эттирган ҳолда олий таълим муассасаси талабаларини ҳам касбга йўналтириш, «руҳий ва маънавий иродасини спорт орқали чиниқтириш»<sup>2</sup>, жисмоний тайёргарлигини ўстиришга доир педагогик амалиёт ишлаб чиқилди.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантириш методик тизими бир бутунликни ташкил этади, унинг элементлари бир-бири билан ўзаро алоқада бўлади, бир-бирини тўлдиради ва ягона мақсад билан бирлашади.

Дифференциал ёндашув асосида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантиришнинг концептуал моделини ишлаб чиқишда моделларга қўйиладиган умумий талаблар қўйидагилар:

- тўлиқлик, етарлилик ва тадрижийлик каби сифатларга эга бўлиш; жисмоний тарбия объекти, ҳодиса, жараёни қайта ишлаб чиқиш учун кенг кўламдаги ўзгаришлар, қўшимчалар имкониятини таъминлаш;

- мавжуд имкониятлардан фойдаланиб амалга оширишга эътибор қаратиш, яъни жисмоний таълимнинг маълум даражасида фаолият олиб бориш;

- тадқиқот вазифаси бўйича жисмоний таълим объекти ҳақида янги фойдали маълумотлар бериш;

- ўз фаолиятини ўрганилаётган жисмоний тарбия объекти, ҳодиса ва жараёнга мувофиқлиги тўлиқлигини текшириш.

Шундай қилиб, тадқиқотчи олим-

<sup>1</sup> 2019-2023 йиллардавида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2019 йил 14 февраль. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>2</sup> Мартын И.А. Формирование мотивации к занятиям физической культурой и спортом у студенческой молодежи // Universum: Психология и образование: электрон.научн. журн. 2017. № 6(36). URL: <http://7universum.com/ru/psy/archive/item/4887>

лар В. С. Лазарев ва М. М. Поташникда “таълим майдони” тушунчаси куйидаги асосий хусусиятлар орқали аниқланади:

- субъектив фаолият (ўқув фаолияти субъектлари, уларнинг турлари, кўплиги, хилма-хиллиги, боғланиш ва муносабатлар характери);

- қадриятли (таълим талаблари, қадриятлар ва йўналишлар, мақсадлар, минтақавий, шаҳар, маҳаллий ва сублокал даражаларда таълимни пастга қараб фарқлаш ва диверсификация қилиш йўналишлари дарс ва педагогик тадбир майдонига қадар);

- мазмуни (концептуал, жумладан, таълим мазмунини ташкил этиш моделлари - субъект-ахборот, фаолият-технологик, шахсга йўналтирилган, ижтимоий-маданий; предмет проекциялари-таълим муҳити, таълим муассасаси, таълим жараёни);

- ташкилий-бошқарув (таълим сиёсати, унинг мақсад ва воситалари орқали очиб берилганлиги, таълимни ташкил этишнинг асосий шакллари - таълим тизими, таълим лойиҳаси, таълим мажмуаси, таълим ҳудуди, идоралараро, соҳани бошқариш усуллари).

Таълимда кўп функцияли макон деганда махсус ташкил этилган педагогик муҳит, инсон шахсини шакллантириш учун педагогик омиллар ва шарт-шароитлардан тузилган тизим тушунилади.

Жисмоний таълимнинг кўп функцияли майдони куйидаги тамойилларга асосланади:

- изчиллик - объектнинг яхлитлигини ва уни таъминловчи механизмларни очиб беришга, мураккаб объектнинг хилма-хил муносабатларини аниқлашга ва уларни ягона намунага келтиришга қаратилган;

- яхлитлик - объектнинг ички бирлигини, унинг нисбий автономлигини,

атроф-муҳитдан мустақиллигини акс эттиради;

- субъективлик - талабани мақсадларни белгилаш ва ростлаш, мотивлардан хабардор бўлиш, ҳаракатларни мустақил амалга ошириш ва режага мувофиқлигини баҳолаш, ҳаёт режаларини тузиш қобилияти нуқтаи назаридан кўриб чиқишни ўз ичига олади;

- интеграллаш - тартибсиз ҳодисалар, қисмлар, элементларнинг бир бутун (тартибли ва структурали) интегралланишини таъминлайди.

Диверсификация - таълимда хилма-хиллик, кўрсатиладиган хизмат турларини кенгайтириш ва янги фаолият турларини ривожлантиришни назарда тутади. Бу тамойил кўпроқ ўзига хос тамойиллари мажмуини ўз ичига олади: сифатли таълим, шахсий йўналтирилганлик, танлов эркинлиги

Жисмоний таълимнинг инновацион методикаси асосида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатиш, уларнинг жисмоний иродаси ва матонатини мустаҳкамлашда тарихий қадриятлар урф-одат, анъаналарини жонлантириш, улар асосида шаклланган ўйинлар, мусобақалар ва халқ миллий ўйинларини жонлантириш, тиклаш ва ҳаётга олиб кириш билан боғланган ҳолда олиб борилиши ҳам дифференциал ёндашувнинг асосидир. Чунки, ўқувчиларнинг жисмоний имконияти, соғломлиги ва камолотига болалиқдан шаклланган ўйинлар ва жисмоний машқлар пойдевор вазифасини ўтайди. Ўзбек халқида миллий ўйинлар, байрам сайилларидаги беллашувлар асарлар давомида шаклланган ва ёшларни иродали, бақувват ва чидамли бўлиб улғайишида муҳим аҳамиятга эга бўлган. Миллий анъаналар намойишида халқ ўйинлари ва беллашувлар орқали ўқувчиларнинг руҳиятига таъсир кўрсатиш,

уларнинг матонатини мустаҳкамлаш ва жисмонан чиниктириш традициясини шакллантиришда таълим муассасалари ва уларда ўтказиладиган спорт мусобақалари ва жисмоний тарбия билан боғлиқ тадбирларнинг аҳамияти ҳам юқори бўлади.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантириш методик тизимининг таркибий функционал блок диаграммаси ўқитувчилик, профессионал гностик, прогностик мувофиқлаштирувчи тизимлаштирувчи модуллари ўртасида ўзаро ҳамкорлик шаклида пайдо бўлади, уларнинг ҳар бири ўз мақсадларини амалга оширади. Узлуксиз таълимда жисмоний тарбия ўқитувчиларини педагогик фаолиятга тайёрлаш қуйидаги функциялар орқали амалга оширилади: аксиологик, маркетинг, ташкилий жараёний, мониторинг.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билимларини ривожлантиришда рақобатбардошлик фазилатларини шакллантирадиган комплекс ҳамда узлуксиз ўқитиш ғоясига мувофиқ, касбий ривожланишнинг кўп функцияли фазовий модели қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади: жисмоний фазовий, таълимий фазовий ва шахсий фазовий.

Олий ва ўрта махсус таълим соҳасидаги асосий тенденция бўлажак мутахассиснинг ижодий салоҳиятини очиб бериш, ўз мақсадини рўёбга чиқариш учун шахсий масъулиятини мустаҳкамлаш ҳамда аниқ муаммоларни ҳал этишдир. Олий таълим муассасалари талабаларининг билимлилик даражасини, дунёқарашини ўстириш билан бирга уларда ватанпарварлик, ватанга содиқлик, миллий

қадриятларни асраб-авайлаш ва авлоддан авлодга ўтказиш билан боғлиқ миллий халқ ўйинлари ва беллашувлар фестивалларини ташкил қилиш орқали бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида касбий кўникмаларини шакллантириш ва миллий халқ ўйинлари бўлган кураш, от ўйинлари, дорбозлик, тош кўтариш, арқон тортиш, биллак кучини синаш, ҳаракатли ўйинларни ўргатиш, уларнинг тарихини, пайдо бўлиш асоси ҳақида маълумотлар бериб бориш уларда ақлий ва жисмоний юксакликни шакллантиради.

Бўлажак мутахассис шахсини тўлақонли фаол ижтимоий ривожлантириш шартларидан бири жамоавий ўз-ўзини ташкил этишнинг турли шаклларини яратишдир. Талабаларнинг ўз-ўзини бошқарувини янгилаш жараёни ижтимоий амалий характерни беришга қаратилган бўлиб, бу талабаларнинг касбий ва маданий-ахлоқий ўз-ўзини ташкил этиш ҳамда касбий педагогик фаолиятни амалга ошириш имкониятлари ва истиқболларига онгли, масъулиятли муносабатда бўлиш заруриятдан келиб чиқади.

Замонавий талаба ўз-ўзини бошқаришда қуйидаги муаммоларни ҳал қилишга қаратилган.

- таълимий, илмий, касбий ва маданий соҳаларда ижодий фаолият ва ҳаваскорлик фаолиятини амалга ошириш;

- тегишли ҳуқуқий билимга ва масъулиятга эга бўлиш;

- ижтимоий ва ҳуқуқий ўз-ўзини ҳимоя қилиш.

Талабанинг ўз-ўзини бошқариши - бу фаол ҳаётий позицияга эга бўлган, меҳнат бозорида рақобатбардош бўлган замонавий мутахассисларни тайёрлайдиган, ўзини ўзи етарли, ижодий шахсни шакллантиришга қаратилган ўқув-тарбия ишларининг шакллари билан бирдир.

Олий таълим тизимида Абу Али ибн

Сино томонидан илгари сурилган инсонга хос бўлган ижобий фазилатларни талаба-ёшларда ҳам шакллантириш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Булар:

1. Жасурлик – бирор ишни бажаришда кишининг жасурлиги, чидамлилиги, инсон бошига тушган ёмонликни тўхтатиб турувчи қувват.

2. Ақллилик – бирор ишни бажаришда шошма-шошарлик қилишдан сақловчи қувват.

3. Зийраклик – сезги берган нарсаларнинг ҳақиқий маъносини тезлик билан тушунтиришга ёрдам берувчи қувват<sup>3</sup>.

Хулоса қилганда, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ўқувчиларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатишга доир билим ва кўникмаларни шакллантириш орқали таъслим сифати ва жисмоний тарбия самарадорлигига эришиш мумкин бўлади. Бу эса ўқувчиларнинг руҳий-ахлоқий муаммолари асосида жисмоний таълимда ўзининг имкониятларини тўлиқ кўрсата олмаслик муаммосини бартараф этади. Шу билан бирга ўқувчиларнинг иродаси, шижоати ва руҳий барқарорлиги мустаҳкамланади.

<sup>3</sup> 2019-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2019 йил 14 февраль. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

# YANGI O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY MUHITIDA ZAMONAVIY FORMATSIYADAGI MAKTABGACHA TA’LIM MENEJERINI TARKIB TOPTIRISH

AKMALOVA MOXINUR ZAFAR QIZI  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning yangi ijtimoiy muhitida zamonaviy formatsiyadagi maktabgacha ta’lim menejerlarini tarkib toptirish, maktab ta’lim muassasalarining bugungi holati va uning oldida turgan eng muhim strategik vazifalarni o‘rganishga harakat qilindi. Ta’lim-tarbiya holatini ilmiy tahlil qilish va tanqidiy baholash asosida uni rivojlantirishning eng dolzarb tendentsiyalari taraqqiyotning yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta'lim, menejment, tamoyillar, maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim tashkilotining reytingini baholash, maqsadli boshqaruv, kasbiy va pedagogik tayyorgarlik.

**Аннотация.** В данной статье предпринята попытка найти состав руководителей дошкольного образования современной формации в новой социальной среде Узбекистана, изучить современное состояние школьных образовательных учреждений и стоящие перед ними важнейшие стратегические задачи. На основе научного анализа и критической оценки состояния образования рассматриваются наиболее современные тенденции его развития как важный фактор воспитания зрелого поколения на новом этапе развития.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, менеджмент, принципы, управление системой дошкольного образования, оценка рейтинга образовательной организации, целевое управление, профессионально-педагогическая подготовка.

**Annotation.** In this article, an attempt was made to find the composition of preschool education managers of modern formation in the new social environment of Uzbekistan, to study the current state of school educational institutions and the most important strategic tasks facing it. Based on the scientific analysis and critical assessment of the state of education, the most current trends in its development are considered as an important factor in raising a mature generation at a new stage of development.

**Keywords:** preschool education, management, principles, management of the preschool education system, evaluation of the rating of the educational organization, target management, professional and pedagogical training.

Kirish. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash

ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tarbiya va ta'lim, xalqimiz aytganidek, beshikdan boshlanadi. Zero, ta'limgina shaxs va jamiyatning uyg'un



rivojlanishini beradi. Binobarin, ta'lim sohasidagi davlat siyosati bog'chadan boshlab, insonning butun hayoti davomida uning uzluksizligiga asoslanishi kerak". [1]

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Model - bu moddiy yoki aqliy jihatdan ifodalangan jarayon bo'lib, u o'rganilganda dastlabki ob'ektni almashtiradi, shuning uchun uni bevosita o'rganish asl ob'ekt haqida yangi bilimlarni beradi. Ularning muvaffaqiyati, rejalashtirilgan natijalarga erishish ko'p jihatdan zamonaviy O'zbekistondagi mavjud ta'lim amaliyotida nimani, qanday va qachon o'zgartirish kerakligini aniqlay olish qobiliyatiga bog'liq. Bizning tadqiqotimizda maktabgacha ta'lim muassasasini tizimli yangilash resurslaridan biri bo'lgan menejer

va pedagogik xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar modelini yaratishda asosiy tamoyil sifatida tizimli yondashuvdan foydalanamiz.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Bizning fikrimizcha, pedagogik jamoaning kommunikativ faoliyatini tashkil etish birinchi navbatda uning maqsadlarini belgilash bilan bog'liq. Maqsad deganda muloqotning yakuniy natijasining ideal istalgan tavsifi tushuniladi, maqsadning aniqligi va o'ziga xosligi esa muloqotning yakuniy natijasini aniqlash imkonini beradi.

Maqsadli komponent juda muhim va bizning modelimizda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu komponentning ahamiyatiga e'tibor qaratib, u ko'pincha faoliyatning qiymat-semantik yadrosi, uning asosiy integratsiya omili deb ataladi. Kommunikativ faoliyatning birgalikdagi maqsadini shakllantirishning zarur sharti - bu ta'lim muassasasini muammoli tahlil qilish natijalari, natijada uning asosiy yoki asosiy muammosini belgilash. Ushbu tartib ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining kamida ko'pchilik a'zolari faoliyatining faqat kollektiv xarakterini nazarda tutadi.

Pedagoglar jamoasining kommunikativ faoliyatini tashkil etish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim muassasasining pedagogik va uslubiy maslahatlari maqbuldir. Kommunikativ faoliyatni tashkil etish samaradorligi, agar faol va interfaol usullar, masalan, aqliy hujum, nominal guruhlar usuli, ekspert baholash usullari va boshqalar qo'llanilsa, yuqori bo'ladi.

Tarkib komponenti. Pedagoglar jamoasining kommunikativ faoliyati mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, bizningcha, uni belgilovchi omillarning quyidagi guruhlarini yodda tutish kerak. Birinchidan! ta'lim muassasasining asosiy maqsadini (missiyasini) amalga oshirish bilan bog'liq; ikkinchisi - pedagogik jamoaning birgalikdagi faoliyatining jamoaviy

maqsadlariga erishish bilan; uchinchi - pedagogik jamoa a'zolari tomonidan individual (shaxsiy) maqsadlarga erishish bilan; to'rtinchi - o'quvchilarning, ularning ota-onalarining, bevosita ijtimoiy muhitning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan.

Boshqaruv komponenti. Pedagoglar jamoasining kommunikativ faoliyatini tashkil etish boshqariladigan jarayondir. Innovatsion faoliyatni tashkil etishning xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun ishlab chiqilayotgan modelning boshqaruv komponentining mohiyatini aniqlashimiz kerak. Pedagoglar jamoasining kommunikativ faoliyatini tashkil etish jarayonida ta'lim muassasasi rahbarining vakolatiga quyidagi asosiy talablar qo'yilishi mumkin: muloqot asoslarini bilish, jamoa a'zolari o'rtasida ijobiy motivatsiyani yaratish qobiliyati; innovatsiyalar muxoliflari qarshilik ko'rsatishni to'xtatadigan sharoitlar va boshqalar.

Shunday qilib, professor-o'qituvchilarning muloqotini boshqarish yanada muvaffaqiyatli va samarali bo'ladi, agar:

- ta'lim muassasasining muammoli tahlili malakali amalga oshirilgan va uning asosiy vazifasi to'g'ri belgilangan;

- aniqlangan muammoni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar va ularning oqibatlarini aniq tushunish darajasi va tayyorligi aniqlandi;

- asosiy muammoni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda professor-o'qituvchilar tarkibining kamida to'rtidan bir qismi jalb qilingan;

- rejalarni rejalashtirish va amalga oshirishda qarorlar qabul qilishning kollegial shakllariga ustunlik beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida xodimlarni boshqarish tizimi muvaffaqiyatli ishlaydigan xodimlar bilan istiqbolli faoliyatni ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli, ba'zi rahbarlar o'zlarining malakalariga ko'ra, ta'lim tashkilotidagi har qanday muammo inson omili va uning resurslarining sababi deb hisoblanadilar. Demak, maktabgacha

ta'lim tashkilotidagi ta'lim faoliyati sifatini maktabgacha ta'limning yangi ta'lim dasturlarini amalga oshirish, faoliyatning yangi uslublari va usullarini izlash bog'liq bo'lgan xodimlarni boshqarish tizimi deb hisoblash mumkin.[2] Shunday qilib, muayyan mas'uliyatli toifalarga ega bo'lgan ishchilar jamoasining mahsuldorligi muvaffaqiyatli bo'ladi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Menejment muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun menejer o'z xodimlarining ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olishi kerak. Shu sababli, xodimlarni boshqarishning vazifalaridan biri maktabgacha ta'limni motivatsion boshqarishdir.

Menejment oson va samarali bo'lishi uchun o'z yordamning va resurslarni olish uchun yordami kerak. Shu sababli, maktabni harakatning harakatlaridan birigacha ta'limni motivatsion boshqarishdir.

Vakolat delegatsiyasi (rahbar va unga bo'ysunuvchilar birgalikda mahorat darslarida ishlaydi, seminarlarda, GMOlarda, maslahatlarda qatnashadi).

Xodimlarning ehtiyojlari va manfaatlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

O'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish (yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ilg'or pedagogik tajribani efirga uzatish, ish tajribasini nashr etish).

Binobarin, uning boshqaruv tizimida ular o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ularning kasbiy o'sishi va rivojlanishi, unga bolalarni o'qitish va ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan o'z missiyasini optimal tarzda amalga oshirishga imkon beradigan faoliyat usullarini faol ko'rib chiqish boshladilar [3].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

O'zbekistonda "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Maktabgacha ta'lim kontsepsiyasi uning rivojlanishining yuqori

bosqichidir. 2017-2018-yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining 752 ta filiali negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan to'laqonli maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Bugungi kunga qadar O'zbekistonda 7104 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 5604 tasi (79%) davlat mulki, 63 tasi idoraviy va 1437 tasi (21%) nodavlat ta'lim muassasalaridir.

Respublika aholisining umumiy soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 32,7 million kishini tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra aholining o'rtacha uzoq muddatli o'sish sur'ati 1,7-1,8 foizni tashkil etadi. Respublikamizda barcha yosh guruhlariga nisbatan maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'lim darajasi past bo'lganligi sababli 3-7 yoshli bolalarning o'sish sur'ati butun aholi sonining o'sishidan yuqoridir.

3-7 yoshli bolalarning umumiy sonidan (2,5 mln.) 932310 nafari (37,7%) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan, shundan 500236 nafari (20,2%) shaharda, 432074 nafari (17,4%) qishloqda.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Natijani olish uchun blok ma'lumotlari professional o'qituvchilar tomonidan sinchkovlik bilan tahlil qilinadi, ijobiy va salbiy fikrlar aniqlanadi, bolalar uchun samaradorligi va xavfsizligi uchun sinovdan o'tkaziladi va kelgusida amalga oshirish uchun taklif etiladi. Agar qo'shimcha ma'lumot olish kerak bo'lsa, ehtimol yangi maqsad va vazifalarni aniqlash

uchun innovatsiyalar haqida ma'lumot olishning birinchi blokidan fikr-mulohazalar mavjud.

Binobarin, maktabgacha ta'lim tashkilotida xodimlarni boshqarish mobil va strategik xususiyatga ega bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotining me'yoriy hujjatlari talablari bilan tartibga solinadi, barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq va ochiq amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ta'lim munosabatlarining ishtirokchilari ham metodist, ham o'qituvchilar, ham otionalardir va maktabgacha ta'lim vazifalarini rejalashtirish va amalga oshirishning strategik yo'nalishida tashkiliy rol o'ynaydi.

Olingan natijalarni tahlil qilish blokini umumlashtirish, bundan tashqari, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning muqobil yondashuvlarini o'rganishda ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlarning ijobiy yo'nalishi shakllanadi. O'qituvchi o'z-o'zini takomillashtirish zarurligini tushunadi: uni qiziqtirgan muammoga boshqa yondashuvlarni o'rganish istagi bor, kurslarga borish istagi, seminarlarda ishtirok etish va hokazo. Bu ham birinchi blokdan ma'lumot talab qiladi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimidagi boshqaruv - bu menejer va uning xodimlari o'rtasidagi sifatli natijani bartaraf etishga qaratilgan o'zaro munosabatlarning ishlab chiqilgan jarayoni. Bu tashkilotni boshqarishning tashkiliy shakllari, usullari va usullari tizimi bo'lib, uning ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan.



#### Фойдаланилган адабиётлар:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018.
2. Potashnik M. M. Ta'lim sifatini boshqarish: darslik. - M.: Feniks, 2016. - 443 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son.
4. <https://hp.jdpu.uz/index.php/presedu/article/download/2790/1861>
5. <https://journal.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3862>
6. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/1944>
7. <https://lex.uz/docs/-4372737>

## ТАЛАБАЛАРНИ МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МОДЕЛИ

АЛИМЖОНОВА МЕХРИНСО ИБРОХИМЖОНОВА  
Фарғона Давлат университетининг мустақил тадқиқотчиси.

**Аннотация.** Мақолада талабаларни маданиятлараро мулоқот компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик модели ҳақида сўз боради. Шунингдек, Мақолада глобаллашувнинг маданиятлараро мулоқотга таъсири ва уни тадқиқ этишнинг илмий-педагогик асослари ҳақида сўз боради. Мақола мавзусини ёритиш мақсадида хорижий манбалар ва маҳаллий материаллардан фойдаланилди.

**Калит сўзлар:** маданиятлараро мулоқот, маданият, компетент, глобаллашув.

**Аннотация.** В статье рассматривается педагогическая модель развития компетентности студентов в области межкультурной коммуникации. В статье также говорится о влиянии глобализации на культуры и научно-педагогических основах ее исследования. Для освещения темы статьи были использованы зарубежные источники и местные материалы.

**Ключевые слова:** межкультурная коммуникация, культура, компетентность, глобализация.

**Annotation.** The article discusses the pedagogical model of the development of students' competence in intercultural communication. The article also talks about the impact of globalization on cultures and the scientific and pedagogical foundations of its research. In order to cover the topic of the article, foreign sources and local materials were used.

**Keywords:** intercultural communication, culture, competence, globalization.

Бугунги кунда маданиятлараро мулоқот қийинлашиб бориши шароитида ёшларда бу компетентликни ривожлантириш масалалари долзарблик касб этмоқда. Замонавий шароитда фан ва техника ривож таълим ва унинг натижаларига қўйиладиган талабларни тубдан ўзгартиришни талаб этмоқда ва ана шу асосдан келиб чиққан ҳолда янги авлод стандартларини яратишнинг даврнинг ўзи педагогларнинг олдига муҳим вазифа қилиб қўймоқда. Ҳозирги вақтгача яратилган олий таълим стандартлари тизимли-фаолиятли ёндашувга асосланган бўлса, олий таълим муассасаларининг мақсадини бўлажак мутахассисларнинг билим, кўникма ва малакаларини ошириш тарзидан ўз-ўзини ривожлантиришга қаратилган компетенцияларни компетентли-фаолиятли ёндашувга асосланишдан келиб чиққан ҳолда белгилаш талаб этилмоқда. Чунки олий таълим тизимида ташкил этилаётган ўқув-тарбия жараёнининг моҳияти талабаларнинг эҳти-

ёжлари ва қобилиятларини ривожлантириш эмас, балки ўқув фанлари бўйича асосан билимларни ахборот-вербал тарзда етказиш, кўникма ва малакаларни шакллантиришдан иборат бўлиб қолмоқда. Бундай репродуктив тарзда ўзлаштирилган маълумотлар талабанинг амалий фаолият тажрибасини ривожлантиришга етарлича имкон бермайди. Оқибатда талабаларда жуда кўп ахборотларнинг беҳуда жамғарилаётганлиги, таълимнинг самараси паст бўлиши ва унинг реал воқеликка мос келмаслиги каби тафовутлар кўзга ташланмоқда. Аниқроғи, талаба реал ҳаётдан узоқлашиб қолгандек, унинг олдига фақат илгаридан тўпланган ахборотларнигина ўзлаштириш мақсади қўйилгандек туюлади. Таълимнинг мақсадини бундай тарзда белгилаш талабанинг фаоллигини чеклаб қўяди, оқибатда унинг ҳам шахсий, ҳам ижтимоий жиҳатдан анланган маъноси йўқолади.

Бундай муаммоли вазиятдан чиқиш-

нинг ягона йўли олий педагогик таълимда янги, яъни компетент ёндашувни жорий этишдир. Албатта, олий таълим тизимида компетент ёндашувни жорий этиш, энг аввало, уни илмий жиҳатдан ҳар томонлама чуқур ўрганишни тақозо этади. Гарчи олий педагогик таълим учун компетент ёндашувни феномен сифатида талқин этиш мумкин бўлсада, у педагогика фанида чуқур англаб етилганлиги ва ўз ўрнига эга эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Айниқса, сўнги вақтларда таълимга доир муаммоларни таҳлил этишда «компетенция», «компетентлик», «таянч компетенциялар» каби атамалардан кенг фойдаланилмоқда. Педагогик ҳамжамиятда компетенция ва компетентлик, улардан қайси бири универсалхисобланиши, уларни шакллантириш ва баҳолаш усуллари аниқлаш жараёни жадаллик билан бормоқда, мазкур тушунчаларни аниқлаштириш бўйича қизгин мунозаралар давом этмоқда.

Компетент ёндашув талабадан алоҳида-алоҳида билим ва кўникмаларни ўзлаштиришни эмас, балки уларни яхлитликда эгаллашни талаб этади. Мазкур талаб билан боғлиқликда ўз навбатида ўқитиш методларини танлаш тизими ҳам ўзгаришга учрайди. Ўқитиш методларини танлаш ва амалиётда қўллаш ўз навбатида таълим жараёнида қўйиладиган талабларга мувофиқ келадиган компетенция ва функцияларни такомиллаштиришни талаб этади.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, компетент ёндашув олий таълимни модернизациялаш нуктаи назаридан янги педагогик воқелик ҳисобланади. Мазкур ёндашув доирасида амалий фаолият тажрибаси, компетенция ва компетентликни дидактик бирликлар сифатида кўриб чиқиш ҳамда таълимнинг анъанавий уч элементи (триада) – «Билим – Кўникма – Малака»ни олти бирлик (сикстет) – «Билим – Кўникма – Малака – Амалий фаолият тажрибаси – Компетенция – Компетентлик» тарзида таҳлил этилиши талаб этилади.

Бизгача амалга оширилган тадқиқотларга таянган ҳолда, дастлаб кўпгина ҳолатда синоним сўзлар сифатида қўлланиладиган «компетенция» ва «компетентлик» тушунчаларининг моҳиятини аниқлаштириб олиш зарур. Замонавий иқтисодий-ижтимоий ривожланиш таълим тизими олдида қўяётган талаблар билан боғлиқликда ўтказилган кўплаб тадқиқотларда компетент ёндашув таълим мазмуни ва методларини ўзгартиришнинг янги босқичи сифатида кўриб чиқилган. Ана шу нуктаи назардан кўплаб тадқиқотларда компетенция продуктив ва ижодий фаолият учун зарур ўзаро алоқадор шахсий сифатлар мажмуи, компетентлик эса, маълум соҳага доир бирон-бир муаммони ҳал этишга имкон берувчи шахснинг зарурий компетенцияларни эгаллаганлиги сифатида талқин этилган[1].

Компетенция (лотинча сўз бўлиб, эришаман, тўғри келаман маъноларини билдиради) – субъектнинг мақсадни қўйиш ва унга эришиш учун ташқи ва ички заҳираларни самарали бирга ташкил қила олишга тайёргарлиги, бошқача қилиб айтганда, бу субъектнинг муайян касбий масалаларни еча олишга шахсий қобилиятидир[2]. Шунини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, «компетенция» тушунчасига берилган аксарият таърифлар касбий таълим, касбий фаолият билан боғлиқликда баён этилган.

Олий таълимга хос компетенция шахсий ва ижтимоий аҳамиятли продуктив фаолиятни амалга ошириш зарур бўлган реал воқеликнинг аниқ белгиланган объектларига муносабатини тақозо этувчи талабанинг семантик (маъно-мазмун) йўналганлиги, билим, кўникма ва малакалари ҳамда фаолият тажрибалари мажмуида акс этувчи таълимий тайёргарликка қўйиладиган талабдир.

Демак, олий таълимга хос компетенциялар олий таълимда ўқитиладиган фанларни ўзлаштиришга йўналтирилган фаолиятнинг таркибий қисми сифатида қаралиши ҳамда унинг мақсадини тўлиқ рўёбга чиқаришни таъминлай олишини эътироф этиш мақ-

садга мувофиқдир. Яна шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, олий таълимдоталаба энг асосий – фуқаролик компетенциясини ўзлаштиради ва касбий фаолият жараёнида мазкур компетенциянинг етакчилик роли сақланиб қолиши зарур.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, универсал компетенцияларнинг қатъий белгиланган тартиби мавжуд эмас ва бўлиши ҳам мумкин эмас. Чунки компетенция жамиятнинг ўз фуқароларини тайёрлашга қўяётган ижтимоий буюртмасидир. Ана шу сабабли олий таълимга хос компетенциялар ҳам давлатнинг таълим соҳасидаги сиёсатининг асосий тамойилларига мувофиқ белгиланиши зарур. Масалан, Иқтисодий ҳамкорлик ташкилоти ҳамда Швейцария ва АҚШнинг таълим статистикаси Миллий институтлари томонидан амалга оширилган «Универсал компетенцияларни аниқлаш ва танлаш» халқаро лойиҳаси доирасида ҳам қатъий ўрнатилган тартибдаги универсал компетенциялар ишлаб чиқилмаган.

Европа Иттифоқининг «Европа учун универсал компетенциялар» мавзусидаги симпозиумида қуйидаги универсал компетенциялар тавсия этилган:

билишга доир: тажрибадан фойдалана олиш; ўз билимлари орасидаги ўзароалоқадорликни ташкил этиш ва уларни тартибга солиш; ўқиб-ўрганишга доир ўзининг шахсий усулларидан фойдаланиш; муаммони ҳал этиш; таълим олиш билан мустақил шуғулланиш;

изланишга доир: турли маълумотлар баъзасига мурожаат қилиш; ён-атрофдагилардан суриштириш; эксперт билан маслаҳатлашиш; ахборот олиш; ҳужжатлар билан ишлай олиш ва уларни таснифлаш;

фикрлашга доир: ўтмиш ва замонавий воқеликнинг ўзаро алоқадорлигига асосланиш; жамиятнинг у ёки бу жиҳатларига танқидий муносабат билдириш; ишончсизлик ва мураккабликка қарама-қарши туриш; мунозараларда ўз нуқтаи назарида туриш ва шахсий фикрларини билдириш; таълим

олиш ва ишлаш учун сиёсий ва иқтисодий шарт-шароитнинг муҳимлигини кўриш; саломатлик, истеъмолчилик ва атроф-муҳит билан боғлиқликда ижтимоий одатларни баҳолаш; санъат ва бадиий асарларни баҳолаш;

ҳамкорлик: ҳамкорликда ва гуруҳларда ишлаш; қарор қабул қилиш – қарама-қаршилик ва низоларни бартараф этиш; муро-са қилиш; шартномаларни ишлаб чиқиш ва бажариш;

амалиётда қўллаш: лойиҳага аъзо бўлиш; маъсулиятли ўз зиммасига олиш, гуруҳ ёки жамоага қўшилиш ва ўз ҳиссасини қўшиш; ўз ишини ташкил этиш; ҳисоблашга ва моделлаштирувчи жиҳозландан фойдаланиш;

мослашув: янги ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланиш; тез ўзгарувчан вазиятларга мослашувчанлик; қийинчиликларни мардоновор енгиб ўтиш; янги қарорлар қабул қилиш[3].

Россия гуманитар илмий фонди ҳомийлигида амалга оширилган «Универсал компетенциялар – шахсга йўналтирилган таълим парадигмасининг таркибий қисми сифатида» номли лойиҳа доирасида эса олий таълим талабалари учун қуйидаги компетенциялар ишлаб чиқилган:

қадриятга йўналтирилган маъно-мазмунга эга компетенциялар. Мазкур компетенциялар қадриятли йўналганлик билан боғлиқ бўлиб, талабанинг атроф-муҳитни англаш ва тушуниш, мўлжални олиш, ўзининг ўрни ва аҳамиятини англаш, ўз хатти-ҳаракатлари учун мақсадга йўналтирилган ва маъно-мазмунга эга установкаларни танлай олиш қобилиятларини таркиб топтиришни талаб этади;

умуммаданий компетенциялар. Миллий ва умуминсоний маданият; инсоният ва инсон ҳаётининг маънавий-ахлоқий асослари; оила, ижтимоий ҳодиса ва анъаналарнинг маданиятшуносликка доир асослари; инсон ҳаётида фан ва диннинг ролини англаш ва фаолият тажрибасини эгаллаш;

ўқув-билишга доир компетенциялар: мантиқий, методологик, умумўқув фаолияти элементларини ўзида акс эттирувчи мустақил билиш соҳасига доир ўқувчи компетенциялари йиғиндиси. Бу ердан мақсадни белгилаш, режалаштириш, таҳлил этиш, рефлексия, ўз-ўзини баҳолаш келиб чиқади;

ахборотга доир компетенциялар: ўқув фанлари, таълимий соҳага доир ва атроф-оламдаги ахборотларга муносабатига доир фаолият кўникмалари. Замонавий ахборот воситалари ва ахборот технологияларидан фойдаланиш ҳамда зарурий ахборотларни излаш, таҳлил этиш ва танлаш ҳамда уларни қайта ишлаш, сақлаш ва узатиш малакаларини эгаллаш;

коммуникатив компетенциялар: тилларни билиш, яқин-атроф ва узоқдаги воқеаликлар ва одамлар билан ўзаро ҳаракатда бўлиш усуллари; жамоада ва гуруҳларда ишлаш кўникмалари, турли ижтимоий ролларни эгаллаш;

ижтимоий-меҳнатга доир компетенциялар: фуқаролик, кузатувчи, сайловчи, раис, истеъмолчи, сотувчи, мижоз, ишлаб чиқарувчи, оила аъзоси ролларини бажариш. Иқтисодиёт ва ҳуқуққа доир масалалар ҳамда ўз касбий йўналишини аниқлашга оид ҳуқуқ ва мажбуриятлар;

шахсий ўз-ўзини такомиллаштиришга доир компетенциялар жисмоний, маънавий ва интеллектуал ўз-ўзини ривожлантириш, эмоционал ўз-ўзини бошқариш ва ўзининг руҳини кўтариш усуллари ўзлаштиришга йўналтирилган[3].

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ва Республика таълим маркази томонидан 2015 йилда лойиҳа сифатида ишлаб чиқилган узлуксиз мажбурий таълим тизими битирувчиларининг тайёргарлик даражасига ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар ишлаб чиқилган бўлиб, унда талабаларнинг қуйидаги универсал компетенцияларга эга бўлишлари белгилаб берилган:

коммуникатив компетенция: жами-

ятда ўзаро мулоқотга киришиш учун она тили ва бирорта хорижий тилни мукамал ўзлаштириш ҳамда мулоқотда самарали фойдалана олиш; ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда аниқ ва тушунарли баён қила олиш, мавзудан келиб чиқиб саволларни мантиқан тўғри қўя олиш ва жавоб бериш; ижтимоий мослашувчанлик, ўзаро мулоқотда муомала маданиятига амал қилиш, жамоавий ҳамкорликда ишлай олиш; мулоқотда сухбатдош фикрини ҳурмат қилган ҳолда ўз позициясини ҳимоя қила билиш, уни ишонтира билиш; кундалик фаолиятда учрайдиган ҳужжатлар билан ишлай олиш (оддий табрикномалар ёза олиш, анкеталарни тўлдириш, меҳмонхона рўйхатида ўзи тўғрисидаги маълумотларни қайд эта олиши ва бошқалар);

ахборот билан ишлаш компетенцияси: мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудио-видео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқалар) фойдалана олиш; медиа воситалардан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш, хавфсизлигини таъминлаш ва фойдаланиш; маълумотлар базасини ярата олиш, асосийларини танлай олиш ва уларни таҳлил қила билиш;

шахс сифатида ўзини-ўзи ривожлантириш компетенция: шахс сифатида доимий равишда ўз-ўзини ривожлантириш, жисмоний, маънавий, руҳий ва интеллектуал камолотга интилиш; касбий мавқеининг ўсишига интилиш билан жамият ва оиласи манфаатлари учун хизмат қилиш, ёрдамга муҳтожларга саховатли бўлиш; ҳаёт давомида ўқиб-ўрганиш, билим, тажрибани мустақил равишда мунтазам ошириб бориш; ўз хатти-ҳаракатини адекват баҳолаш, ўзини назорат қила билиш, ҳалоллик, тўғрилиқ каби сифатларга эга бўлиш; мавжуд билимларини бир босқичдан икинчи босқичга ўтказа олиш;

ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси: жамиятда бўлаётган воқеа, ҳодиса ва жараёнларга дахлдорликни ҳис этиш ва

фаол иштирок этиш; ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиши, унга риоя қилиш (яъни харидор, сайловчи, миждоз, ишлаб чиқарувчи сифатида фаолият юрита олиш); ўқиб-ўрганганлари ва ҳаёт тажрибасидан фойдаланган муаммо ва келишмовчиликларни ҳал этиш, зарур (конструктив) бўлган қарорларни қабул қила олиш; мафқуравий иммунитетга эга бўлиш.

умуммаданий компетенция: Ватанга садоқатли, инсонларга меҳр-оқибатли ҳамда умуминсоний ва миллий қадриятларга эътиқодли бўлиш; бадий ва санъат асарларини тушуниш, таъсирлана олиш; инсоният томонидан эътироф этилган мадиний кўникмаларга эга бўлиш (тиббий маданият, экологик маданият, ҳуқуқий маданият, нутқ маданияти, муомала маданияти, мусиқа маданияти, кийиниш маданияти, иқтисодий маданият, медиа маданияти, ва ҳоказо); умумбашарий аҳамиятга эга бўлган қадриятларни (урф одатлар, маросимлар, миллий-маданий анъаналар ва.х.к.) билиш, унга ҳурмат билан муносабатда бўлиш; халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асраш, жамиятда ўрнатилган одоб-ахлоқ қоидаларига риоя қилиш;

математик саводхонлик, фан техника янгиликларидан хабардор бўлиш компетенцияси: ахборот коммуникатив технологияларидан фойдалана олиш; шахсий, ижтимоий ва иқтисодий муносабатларда ҳисоб-китоб билан иш юритиш; инсон меҳнатини енгиллаштирадиган, меҳнат унумдорлигини оширадиган ва қулай шарт-шароитга олиб келадиган фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдалана олиш[5].

Компетенциялар таълим амалиётида қўлланилиш даражасига кўра фарқланиши лозим. Республика таълим маркази томонидан ишлаб чиқилган лойиҳада универсал ва хусусий компетенциялар аниқлаштирилган, бироқ умумий (фанларга доир) компетенциялар эътибордан четда қолдирилган. Ана шу сабабли компетенцияларни лойиҳалашда тадрижийлик бузилган. Демак, олий

таълим тизимига компетент ёндашувни таъбиқ этиш талабаларни биринчидан, билим, кўникма ва малака ҳамда амалий фаолият усулларини шахсий тажрибага айлантириш имкониятини беради, иккинчидан, улар ўртасидаги интеграциясини таъминлашга хизмат қилади, учинчидан, талабанинг ўз-ўзини ривожлантириши, мустақиллиги, ижодий фаоллигини оширишини кафолатлайди, тўртинчидан, ўз навбатида маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш яхлит мажмуавий компетенцияларни эгаллашни шарт қилиб қўяди.

Турли маданият вакилларининг ўзига хос миллий ва этник тафаккури кўпинча маданиятлараро ўзаро муносабатларда тўсиқ сифатида намоён бўлади. Бу ўринда онгнинг қуйидаги жиҳатлари алоҳида қизиқишни юзага чиқаради:

- этносцентризмга бўлган мойиллик – ўзга маданият соҳибини ўз маданияти стандартларидан келиб чиққан ҳолда салбий баҳолаш;

- ўз маданияти ва бошқа маданият вакилларининг этник онгидаги юзаки образларнинг шаклланиши, яъни стереотиплашиши;

- маданиятлараро алоқалар жараёнига ёлғон тасаввурлар, шу жумладан, ўтмишдаги салбий тажрибаларни ва ҳ.к. дахлдор қилиш. Мазкур ҳодисалар маданиятлараро ўзаро муносабатлар жараёнининг ҳамкорлар шахси ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлмаган дастлабки босқичларда кучли тўсиқлар сифатида кўзга ташланди[6].

Талабаларда маданиятлараро мулоқот компетентлигини ривожлантириш инновацион ҳамкорликка асосланган таълим тизими билан боғлиқ жараён ҳисобланади. Сўнги йилларда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитилиш тизимини қониқарсиз ҳолатга келиши, таълим сифатини ортда қолиши талабаларда ижтимоий дунёқарашини ривожланишига салбий таъсир кўрсатди, тарихни етарлича билмаслиги, ижтимоий муносабатларни тушунмаслик ҳолатлари





# STEAM TEXNOLOGIYALARINING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI (BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MISOLIDA).

BULTAKOVA ROZIYA

Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim shakllari va ularning dunyo ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida fikr yuritilib zamonaviy ta'lim shakllaridan hisoblangan STEAM ta'limning rivojlanishi, nazariy asoslari, imkoniyatlari, yutuqlari haqida keng molohaza yuritilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida STEAM ta'limidan foydalanish afzaliklari va bu ta'lim shaklining fan sifatida ta'lim muassasalarida o'qitilayotganligi asoslab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, fan, texnologiya, maktabgacha ta'lim, dual ta'lim, enkulziv ta'lim, eksternat ta'lim.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные формы образования и их значение в мировой системе образования, дается широкий обзор развития, теоретических основ, возможностей, достижений STEAM образования, рассчитанного на современные формы образования. Обоснованы преимущества использования STEAM-образования в системе дошкольного образования и тот факт, что эта форма обучения преподается в образовательных учреждениях как дисциплина.

**Ключевые слова:** STEAM, наука, технология, дошкольное образование, двойное образование, Инклюзивное образование, внешнее образование.

**Annotation:** This article discusses the development, theoretical foundations, opportunities, achievements of STEAM education, considered from modern forms of education, reflecting on modern forms of education and their importance in the world educational system. In the preschool education system, the use of STEAM education is justified by the aphasia and the fact that this form of education is being studied in educational institutions as a subject.

**Keywords:** STEAM, science, technology, preschool education, dual education, enculziv education, eksternat education.

**Kirish.** Maktabgachata'lim muassasasi bu davlat kelajagini ta'minlovchi kichik avlodni tarbiyalovchi ta'lim muassasasidir. Ushbu muassasalardagi ta'lim va tarbiya jarayoning samaradorligini ta'minlashda albatta, unda ishlovchi tarbiyachilar va unda kelajakda ishlaydigan tarbiyachilarning kompetensiyalari alohida ahamiyatga ega. Pedagog faoliyatida albatta, eng muhim kompetensiyalardan biri, bu kasbiy kompetensiyalardir.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq

islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Bo'lajak tarbiyachilarni bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan

belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

«Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: tarbiyachining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi

O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida bugungi kunda rivojlangan Yevropa davlatlari ta'lim tizimi tajribasidan na'muna olish orqali dunyo ta'limi bilan yuzlasha olish, tajriba almashish, raqobatga kirishish, uzluksiz aloqada bo'lish ishlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Jumladan dual ta'lim, enkuliziv ta'lim, eksternat ta'lim, masofaviy ta'lim va STEAM ta'lim shakllari fikrimizga yaqqol misol bo'loladi. Mazkur ta'lim shakllaridan bugungi kunda keng foydalanilib yuqori natejalarga erishilmoqda. Hozir biz fikrimizni STEAM ta'lim texnologiyasi haqida davom etiramiz.

STEAM ta'lim texnologiyasi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi ta'lim bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu tushunchalarga Art qo'shildi va endi STEAM butunligicha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular,

aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashdi. STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi, bu esa bu ta'lim texnologiyasining keng yoyilishiga sabab bo'ladi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori “Mens et Manus” (Aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi[2].

Statistikaga ko'ra, 2011-yildan buyon STEAM-kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi. Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog'liq? Ko'pgina mamlakatlarda STEAM-ta'lim ba'zi sabablarga ko'ra ustuvor ahamiyatga ega. Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi. Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi. Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli

sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi. STEAM ta'lim texnologiyasi ta'limni yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikadan farqli metodikadan keng foydalanilishida ko'rinadi.

Bu ta'lim texnologiyasida bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitish amalga oshiriladi. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llashkoniyatini beradi. Mazkur ta'lim texnologiyasidan Kanada va Buyuk Britaniya davlatlari ta'lim tizimida keng foydalanilmoqda. STEAM ta'lim texnologiyasi quydagicha ma'no kasb etadi.

S - Science (Fan)

T - Technology (Texnologiya)

E - Engineering (Muhandislik)

A - Art (San'at)

M - Mathematics (Matematika)

Science (Fan)-bo'lg'usi

mutaxassislariga texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli tayyorgarlik darajasini mujassamlashtiradi.

Technology (Texnologiya)-STEAM bizning farzandlarimiz – bo'lajak ixtirochilar, novatorlar va yetakchilarni olimlar kabi tadqiqotlar olib borish, texnologlar kabi modellashtirish, muhandislar kabi loyihalash, rassomlar kabi yaratish, matematiklar kabi tahliliy fikrlash va bolalar kabi o'ylashga yo'naltiradi.

Engineering (Muhandislik)-STEAM yondashuvi tufayli bolalar sodir bo'ladigan hodisalarning mantig'ini anglash, ularning o'zaro munosabatlarini tushunish, dunyoni tizimli ravishda o'rganish va shu bilan birga qiziquvchanlikni va tanqidiy vaziyatlardan

chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

Art (San'at)-STEAM asosini loyihalashtirishning muhandislik yondashuvi tashkil etilib, bunda avvalo mahsulot yoki jarayonning prototipi yaratiladi.

Mathematics (Matematika)- Tadqiq etish, prototipni yaratish yoki takomillashtirish jarayonida bola bir nechta fandan bilimlarini qo'llashiga to'g'ri keladi, bu esa unda olamning yaxlit tabiiy-ilmiy suratini shakllantirishga yordam beradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu ta'lim oluvchilarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. STEAM ta'lim texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tarbiya sohasida foydalanilganda bolalar STEAM ta'lim muhitida bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emasligini tushunadilar[1].

Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish zarur. STEM(STEAM) ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik vo hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat – muammoni hal qilish (problemsolving skills) qobiliyati shakllanadi. «STEM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan

paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Sifatli kitob bolani STEM tizimiga olib kirishda kuchli vosita bo‘la oladi.

STEAM ta‘lim texnologiyasi maktabgacha ta‘limning asosiy ta‘lim shaklli mashg‘ulotlar jarayonidagi integratsiyalashuvni yuzaga olib chiqadi. STEAM ta‘lim texnologiyasini maktabgacha ta‘lim-tarbiya sohasiga olib kirish nafaqat 88 maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxxaslar va shu sohada tahsil olayotgan oliy o‘quv yurti talabalariga tanlov fan sifatida o‘qitish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan talabalarning STEAM ta‘lim texnologiyasidan foydalanishlari ta‘limga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e‘tibor berib, talabalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini

rivojlantiradi va atrof-dagilar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta‘kidlashni istardikki, an‘anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta‘lim muassalaridagi STEAM yondashuvi bolalarni kelgusida mustaqil tajribalar o‘tkazishga, aniq-tabiiy fanlar borasida yuqori o‘zlashtirishlar qilishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta‘lim yondashuvi maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyachilariga yuqori kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirishga va bu orqali tarbiyalanuvchilarni nazariy va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtira oladigan va uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarini oson zabt eta oladigan darjada tarbiyalashga yordam beradi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. S.T.Turg‘unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” «O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITl » nashriyoti, T.:2014
2. J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov “Pedagogik diagnostika” o‘quv metodik qo‘llanma T.:2014
5. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019

## OILADA SOG‘LOM MA’NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIC AHAMIYATI.

DAVRONOVA DILDORA SAIDOVNA

O‘zbekiston Jahon tillari universiteti “Pedagogika-psixologiya” kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi.

**Annotatsiya.** Maqolada oilada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishning pedagogik ahamiyati va hozirgi kunda sog‘lom ma’naviy muhitning ahamiyati haqida so‘z boradi. Ushbu jarayonda oila va unda ota onaning roli katta ahamiyatga egadir. Sog‘lom farzand deganda faqatgina ta’na sog‘lomligi emas, balki ruhiy sog‘lomlik ham katta ahamiyatga egadir. Bolalarda ruhiy sog‘lomlikni ta’minlash eng avvalo, oiladagi ma’naviy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida o‘rta asrlardagi Sharq allomalarining asarlaridan tortib to zamonaviy adabiyotlargacha foydalanilgan. Maqoladan olingan xulosalarni oliy ta’lim muassasalarida pedagogika va psixologiya fanlarida oila bilan bog‘liq mavzularni o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar.** oila, ma’naviy muhit, tarbiya, ta’lim, ruhiy sog‘lomlik, farzand.

**Аннотация.** В статье рассматривается педагогическое значение формирования здорового духовного климата в семье и значение здорового духовного климата в настоящее время. Большое значение в этом процессе имеет семья и роль в ней отца и матери. Под здоровым ребенком понимается не только физическое здоровье, но и психическое здоровье. Обеспечение психического здоровья детей прежде всего тесно связано с духовной атмосферой в семье. Чтобы раскрыть тему статьи, были использованы все, от произведений средневековых восточных ученых до современной литературы. Выводы из статьи могут быть использованы при преподавании тем, связанных с семьей, в педагогике и психологии в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова.** семья, духовная среда, воспитание, образование, психическое здоровье, ребенок.

**Annotation.** The article will talk about the pedagogical significance of the formation of a healthy spiritual environment in the family and the importance of a healthy spiritual environment today. In this process, the family and the role of the father in it are of great importance. By a healthy child, not only reproach health is of great importance, but also mental health. Ensuring mental health in children is, first of all, closely related to the spiritual environment in the family. In order to reveal the topic of the article, the works of medieval Oriental scholars were used, from modern literature. The conclusions drawn from the article can be used in higher educational institutions in pedagogy and psychology to teach topics related to the family.

**Keywords;** family, spiritual environment, upbringing, education, mental health, children.

Ma’lumki, mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o‘rtaga tashlamoqda. Oiladagi ma’naviy muhit axloqiy tarbiya o‘chog‘i sifatida milliy axloq va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatini shakllantiradi. Oila muhiti bilan aloqaga kirishish jarayonida xulq-atvor me’yorlari, ma’naviy-ijtimoiy va madaniy tushuncha hamda tasavvurlar, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlar egallanib ijtimoiy muhitda rivojlanib boradi. Shaxsning ma’naviy

shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida gapirilganda, birinchi navbatda, shaxsning o‘zi, ikkinchidan, mikro muhit, uchinchidan mezo muhit va to‘rtinchi navbatda, jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiy holatini namoyon bo‘ladi.

Oila-kishining hayot yo‘li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk bor insonni shu yerda ko‘radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo‘ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng

yaqin kishilar, uning ota- onasidir. Shuning uchun hambolaning xulq-atvori, fe'li, odat va ko'nikmalari oilada shakllanadi. Chunki oilada oilaa'zolari uzluksiz o'zaro bir-biriga ta'sir etib, farzandning, yurish - turishini nazorat yetibboradi.

O'zbek oilalardagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammalshaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetukqiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Buqadriyatlarining mazmun - mohiyati farzandlar ongida dastlab oilada singdiriladi. Xalqimizda bola boshidan, degan naql bejiz aytilmagan. Chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o'sishi va voyaga yetishi uchunasos mavjud. Sog'lom muhit, munosabatlarda iliqlik, o'zaro tushunish mavjudbo'lgan oilada nafaqat farovon, baxtli turmush, balki farzand o'stirish va voyagayetkazish munosib amalga oshadi. Shuning uchun farzandning sog'lom tug'ilishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'libshakllanishi uchun oiladagi kattalarning o'gitlari ham muhim hisoblanadi. Oilaning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomonidan yetuk qilib ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ertangi kunimiz egalari bo'lmish yoshlarimizniyuksak ma'naviyat va ilmu ma'rifatga yo'naltirishda ota-onalar tomonidan oila muhitisog'lomlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhimdir. Ota-onaningo'zi jismonan, ma'nan, ruhan va intellektual barkamollikka intilib, farzandlariga shaxsiy namuna ko'rsata olsagina, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Zero, Qush uyasidako'rganini qiladi. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun oiladaijtimoiy-psixologik, tibbiy, ma'naviy sog'lom muhit zarurdir.

Asosiy qism. Inson va boshqatirikjonzotlar har birining hayot muhiti uning o'y fazosidan boshlab ijtimoiy muhit va yashaydigan muhitigacha bo'lgan sharoit hisoblanadi. Muhit – bu odamlarga ta'sir ko'rsatadigan tashqi voqealarning yig'indisi sifatida insonni o'rab turgan, uning dunyoqarashi, kayfiyati, ruhiyati, orzu-umidlari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir etadigan tashqi olam. Muayyan muhit turli ko'rinish va shakllarda namoyon bo'ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotida mavjud bo'lgan va bo'layotgan qonun qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatdagi moddiy, ma'naviy va madaniy boyliklardan bahramand bo'ladi, shuningdek, mazkur boyliklarni yaratishda ishtirok etadi. Jamiyatda yaratilgan moddiy, ma'naviy va madaniy boyliklar rivojlanish darajasiga ko'ra shaxs kamolotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zidan rivojlanish yuksak bo'lsa, u shaxsga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va shaxs faoliyati davomida mehnati orqali o'z moddiy, ma'naviy va madaniy boyligini yaratish jarayonida ongini, dunyoqarashini, hayotini, turmush tarzini ham yaxshilab boradi. Muhit keng ma'noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o'z ichiga oladi. Tor ma'nodagi (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o'quv va boshqa guruhlardan iborat. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi, bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi. Shaxsning jamiyatga ta'siri maqsadsiz, rejasiz, ko'r-ko'rona faoliyat orqali amalga oshmaydi. Inson ijtimoiy qonunlarni, o'z hayot sharoitlarini bilib olgandan keyin, ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan ijtimoiy muhitni, jamiyatni o'zgartiruvchi kuchga (insonga) aylanadi. Shu sababli ham shaxsning xulq-atvori,

intilishlari, imkoniyatlari, fikrlashi, qobiliyati, axloqiy tamoyillar (mehnatsevarligi, vatanparvarligi, insonparvarligi) asosidagi faolligi, sadoqatliligi va boshqa xislat va fazilatlarini shuningdek, illatlari ular yashayotgan ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Insonning ta‘lim-tarbiyasida uni o‘rab turgan muhit yetakchi rol o‘ynar ekan, oila, ta‘lim-tarbiya muassasalaridagi muhit sog‘lom bo‘lsa, yoshlarning ijtimoiy sifati, tayyorgarlik darajasi va bilimi yuqori bo‘ladi. Aynan oila muhiti eng avvalo, shaxsning xulq-atvorini shakllanishida jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini sifatida muhim rol o‘ynaydi. Vaholanki, oilada ma‘naviy-axloqiy muhit shaxs axloqiy ongi, xulq-atvori va faoliyatida tamal toshi, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Dastlab aynan, oiladagi ma‘naviy-axloqiy muhit shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, uning ijtimoiy borliq bilan munosabatlarini va muloqotini yuzaga keltiradi. Shu bois ham oilani shaxsning g‘oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarak-atrofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya‘ni dunyoqarashi, e‘tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo‘nalishini belgilovchi mikromuhit sifatida tadqiq etiladi. Shu bois ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” deb qayd etar ekanlar yoshlar axloqi ularning ma‘naviy kamoloti masalasi nafaqat bugungi kun, balki ertangi porloq kelajak garovi ekanligiga urg‘u beradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq mahalliy va global muammolar yechimi esa, aynan oila muhiti va undagi ma‘naviy-ma‘rifiy daraja bilan bevosita va bilvosita bog‘liq masala hisoblanadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oilalar muhiti sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin,

mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Shu bois ham jamiyatda oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etish, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish doirasida qaralmoqda. Oila muhitida shakllantirilgan onglilik va xulqlilik shaxsni illatlardan saqlaydi. Shu ma‘noda, oila ma‘naviy-axloqiy muhitini o‘rganishda fikr yangiligi va ma‘naviy yetuklik paradigmasi asosli bo‘lib, o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ma‘naviy yetuklikka intilish bu jamiyat hayoti va inson faoliyatida shaxsning o‘z insoniy pozitsiyasiga mustahkam ega bo‘lishi bo‘lib, u ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida xulq-atvoriga muvofiq yashashidir.

Inson ma‘naviyatini shakllantirishning eng maqbul maskani oiladir. Oila qaysi millatga mansub bo‘lsa, o‘sha xalqning ma‘naviyatini o‘zida mujassamlashtirib, bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan an‘analarni, ma‘naviyatni avloddan-avlodga yetkazadi. Zero, shaxs ma‘naviyati, uning dunyoqarashi, e‘tiqodi, hayotiy tamoyillari, ideallari, qadriyatlarini, ko‘nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma‘noda, oila ma‘naviyat qo‘rg‘oni hisoblanib, oila qaysi millatga taalluqli bo‘lsa, o‘sha millatning ma‘naviyatini o‘zida aks ettiradi. Demak, o‘zbek oilasining o‘ziga xos milliy xarakteri, oiladagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lishi, turli oilaviy marosimlar, urf-odatlar, an‘analar, milliy-ma‘naviy qadriyatlarimiz oila orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtiram, ota-onaga e‘zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma‘naviy jihatdan go‘zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarini rivojlantiradigan qadriyatlar



bo'lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oila muhitida tarbiya orqali singdiriladi. Bunda insonning axloqiy ongi, xulq-atvori va faoliyati aksiologik asoslarda yo'naltirilib boriladi. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti ongli ravishda o'z oldiga Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni ta'lim-tarbiya islohoti va yoshlar salohiyati orqali amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Demak, tarbiyaga ijtimoiy hodisa sifatida qarab, tarbiya jamiyat manfaatlarini ko'zlab va uning rivojlanganlik darajasiga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim. Xo'sh nima uchun tarbiyaga ijtimoiy hodisa sifatida qarashimiz kerak degan o'rinli savol tug'iladi albatta. Chunki tarbiyaning mohiyatida ijtimoiylik, jamoatchilik mavjud bo'lib birinchidan oila muhitidagi tarbiyaning o'zi ham ota-ona, katta avlod, qarindosh urug'lar, (bobo-buvi, amma-xola, tog'a-amaki, opa-akalar), qo'ni-qo'shnilar, mahalla tomonidan, farzandlarimizni, ijtimoiy hayotga tayyorlashni, ikkinchi tomondan, esa jamiyat muhitining o'zi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'lum yo'nalishda tarbiyalashga ko'maklashadigan tizim sifatida tashkil etilishida o'z ifodasini topadi. Unda ijtimoiy voqelikdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqadorlik, boshqarish, nazorat qilish va ijtimoiylashtirish kabi bir qator ijtimoiy omillar mavjud. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi".

Xulosa va takliflar. Har bir oila muhitida saxovat, yaxshilik, karamlilik, halimlik shakllantirilsa, bu istiqbolda jamiyat muhiti mo'tadilligini, istiqbolini ta'minlaydi. Bilamizki, karamli inson nafaqat yaxshi

xulqlar bilan bezanadi, balki el manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya oladi. Oila muhitida shakllantirilgan halimlik asosida shaxs-xulq atvorida afv (kechirimlilik); murosa (kelishuvchanlik); muloyimlik (mo'tadillik) kabi hulqiy sifatlar shakllantiriladi. Demak, o'zligida halimlik fazilati bo'lgan kishi ruhan kuchli inson hisoblanadi. Halimlik shaxs-xulq atvoridagi nodonlikka qarshi xushxulqlikdir va ushbu fazilat kishini tinchliksevar inson sifatida voyaga yetkazadi. Or-nomus va andisha insonning xulq-atvorida, e'tiqod-iymonida, yurish-turishida, fikr-mulohazasida namoyon bo'ladi. Or-nomusli va andishali kishi qat'iy intizom egasi bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy faoliyat kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi ma'naviy yuksak norma hamda qoidalarni ifodalaydi. Jamiyatdagi munosabatlar ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida shakllanadi, ijtimoiy rivojlanishning muhim jihati sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki bosqichidayoq kishilarning tafakkurini uyg'otish, tashabbuskorligini, faolligini oshirish ma'naviy islohot asosini tashkil etadi, chunki, hurfikrlik tamoyillariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda fikrlar erkinligi va ongli faoliyat, axloqiylik jamiyat taraqqiyotining omilidir. Jamiyat taraqqiy etgan sari axloqiy munosabatlarga e'tiborni kuchaytirish ehtiyoji tug'ilishi aniq. Rivojlanish, o'sish, taraqqiy etish uchun tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy faoliyat, fidoyilik va vatanparvarlik kerak. Tarbiya, tarbiyaviy faoliyat esa axloqiy fazilatlarni singdirishdan, ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish va shakllantirishdan boshlanadi. Inson ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan jamiyatni o'zgarturuvchi kuchga aylanadi va sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratadi. Inson faqat tarixiy sharoit va uning mahsuligina bo'lib qolmay, balki shunday sharoitlarning

yaratuvchisi hamdir. Ijtimoiy hayot har bir shaxsning o'z burchini ko'r-ko'rona bajarish emas, balki unga ongli munosabatda axloqiy tamoyillar asosida yondoshishni talab qiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O.Xasanboyeva. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. T.1998y.
2. O.Xasanboyeva. Oila pedagogikasi Toshkent.Aloqachi. 2007y
3. Oila muhiti barqarorligida ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi. M.Qahhorova.Islom tafakkuri.4-son.58-67 bet.

# ТАБАҚАЛАШТИРИЛГАН ТАЪЛИМ АСОСИДА БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСЛАНИШИ

ФАЙЗУЛЛАЕВ АБДУМУХАММАД

Гулистон давлат университети докторанти

**Аннотация.** Бу мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг табақалаштирилган таълим асосида бошланғич синф ўқитувчисининг тайёргарликларининг такомиллаштиришнинг асосланиши, усул ва воситалари баён этилган.

**Калит сўзлар:** Бўлажак бошланғич синф, талаб, ўқитувчининг тайёргарлиги, ДТС.

**Аннотация.** В данной статье описаны обоснование, методы и средства совершенствования подготовки будущего учителя начальных классов на основе дифференцированного обучения.

**Ключевые слова:** предстоящий начальный класс, спрос, подготовка учителей, ГСП.

**Annotation.** This article describes the rationale, methods and means of improving the training of the future primary school teacher on the basis of differentiated education.

**Keywords:** upcoming primary class, demand, Teacher Training, STS.

**Кириш.** Таълимнинг янги қирраларини очиш, янгича ёндашиш давр талаби бўлганлиги сабабли Ўзбекистон Республикасининг Қонун Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Таълим тўғрисидаги қонуннинг принципларидан давлат таълим стандартлари ва давлат таълим талаблари доирасида табақалаштирилган ўқув дастурларини танлашга доир ёндашув билан белгиланган. Таълим устуворлигида таълим олиш шаклини танлаш, таълим олишга доир тенг имкониятларнинг эришиш, таълим ва тарбияга миллий ҳамда умуминсоний қадриятларнинг сингдириш, таълим ва тарбиянинг инсонпарварлик, демократиянинг сингдирилиши, таълимнинг узлуксизлиги ва изчиллиги таъминлашни назарда тутати. Миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида таълим бериш жараёнида шахснинг индивидуал қобилиятларига максимал эътибор берилиши кўзда тутилган. Ҳар бир талабанинг имкониятлари ўқитувчи томонидан ҳисобга олинадиган ва ижодий таълимий муҳит яратилади. Олий таълим муассасаларида таълим оловчиларнинг интеллектуал қобилиятларининг жадал ривожланишини, шунингдек, чуқур,

табақалаштирилган, шахсга йўналтирилган таълим олишини таъминлаши асосий жиҳатларидан биридир[1].

Мавзуга оид адабиётларнинг тахлили. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, XIX-XX асрлардан эътиборан табақалаштириб ўқитишни ташкил қилиш ва амалга ошириш ривожланган давлатлар Англия, Франция, АҚШ нинг илмий мактабларида йўлга қўйилганлигига гувоҳ бўламиз. Бу борадаги илмий таҳлиллар шуни кўрсатадики, классик педагогика намоёндалари Я.А.Коменский, И.Г.Песталоцци, К.Д.Ушинский кабилар индивидуал ёндашувга асосланган табақалаштирилган таълим тамойили сифатида тавсифлайди ва бу табиий равишда барча ёшдаги ўқувчи ҳамда талабаларнинг табиатига мос келиши зарур деб ҳисобланади[2].

М.И.Фишернинг фикрига кўра, дастлаб табақалаштириш жараёни турли мақсадларни кўзлаган гимназияларда ташкил этилади. Давлатда таълим беришни ташкил этишга кўра келиб чиқиб аниқ мақсадга йўналтирилган ва хусусий мактаблари ривожланади. Кўриниб турибдики, биринчи марта табақалаштириш шаклида ўқитишнинг ташкил этилиши натижасида синф-дарс системаси

шаклланди.

Умуман олганда, табақалаштирилган таълим тизимига ўтиш билан бир қаторда ўсмирларнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари юзасидан олимларнинг тадқиқотлар Л.С.Выготский, И.А.Зимняя томонидан чуқур таҳлил этилган. Яна бир масалага ойдинлик киритиш тодқиқот жараёнида аниқ бўлиб қолди. Ўзлаштириш жараёнида ўқувчиларнинг ақлий ривожланиш аниқлаш ва бу борадаги илмий фаразларни асослаш учун П.П.Блонский, Е.Д.Божович, А.А.Вербицкий, О.С.Газман, П.Я.Гальперин, В.И.Загвязинский, М.И.Махмутов, М.Н.Скаткин, Н.Ф.Талызина каби олимларнинг назариялари ушбу фаннинг асосланишига олиб келди.

Вақт ўтган сари илмий мулоҳазаларнинг чуқурлашиб бораётганлигига гувоҳ бўламиз, XX асрнинг 80-90-йилларда фанлараро дифференциация ва интеграция жараёнлари, фанлараро ва фанлараро интеграцияни йўлга қўйиш педагогика муаммо сифатида қаралишини Р.Г.Гурова, Ф.Ф.Королев, М.А.Данилов, В.В.Краевский, В.Г.Гмурман, Инга Унт томонидан таҳлил қилинган ва тавсиялар ишлаб чиқилганлиги таҳсинга лойиқ. Табақалаштирилган таълим билан таълим олишнинг бошқа шакллари узвий боғланганлигини ҳисобга олиб, таниқли педагоглар К.Д.Ушинский, П.П.Блонский, В.М.Бехтерев талабаларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олишга алоҳида эътибор қаратдилар. Таълим-тарбия майдонида шахсни шакллантирилади унинг қирралари очилади, қобилиятлари ривожлантирилади. Бунинг учун тарбиячи боланинг индивидуал хусусиятларига эътибор қаратишнинг муҳимлигини таъкидлаб, ўқишга бўлган эҳтиёж ортиб бориши таъкидлайди.

Тадқиқот методологияси. XX асрнинг 20-йилларида табақалаштириб ўқитиш тарафдорлари биринчидан, профессионал мактаблар ташкил этиш зарурлигига тўхталиб, бундай таълим шакллари ташкил этиш мамлакатнинг иқтисодий аҳволини ях-

шилашга иқтисодий ривожлантиришга, стратегик мақсадларни тўғри белгилашга хизмат қиладини таъкидлашади. Иккинчидан, табақалаштириш – таълим олувчиларнинг илмий-ижодий қобилиятларини ривожлантиради. Учинчидан, ижтимоий эҳтиёжлар талабларидан келиб чиқиб "эркин тарбия", яъни эркин ўқитиш шакллари танлашдан иборат.

XX асрнинг дастлабки йилларида педагогикада табақалаштирилган таълимга эга бўлишда махсус назарий ва амалий машғулотлар умумий таълим ўртасидаги боғлиқликни таъминланиши сезилиб қолди. Педагогикада "индивидуал ёндашув" тушунчаси, дидактик тамойили мақомига эга бўлиб, "табақалаштирилган ёндашув" тушунчасининг билан боғлиқ.

Педагогикада "табақалаштирилган таълим" тушунчаларнинг чегараларини бир неча вариантларда таърифланади:

индивидуаллаштириш ва табақалаштириш маънодош эмас, аммо илмий таҳлилларда бу сўзлар синоним сифатида ишлатилади;

фақат муддатли "индивидуаллаштириш" ва "табақалаштириш" махсус белгилар билан фарқ қилмайдиган тушунчалар;

индивидуаллаштириш дифференциациялашнинг таркибий қисми ҳисобланади.

И.Э.Унт таълимни "индивидуаллаштириш" ва "табақалаштириш" тушунчаларини педагогика фанининг мураккаб ҳодисаси сифатида қараб биргаликдаги процесс деб баҳолайди. Бундай тушунчаларга "индивидуал таълим" деб номланади. Тегишли адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ҳар бири алоҳида ҳолатда ушбу тушунчанинг аниқроқ мазмунини индивидуаллаштириш ҳақида гапирганда қандай мақсад ва воситалар назарда тутилганига боғлиқ. Бу концепцияни қўллашда турли мамлакатларда, турли муаллифлар орасида ва кундалик мактаб амалиётида катта фарқлар мавжуддир. Педагогик энциклопедияда "индивидуаллаштириш"... "таълим жараёнини ташкил этиш,

унда метод, техникани танлаш ва ўрганиш суръати ўқувчиларнинг индивидуал фарқларини, уларнинг ўқув қобилиятларининг ривожланиш даражасини ҳисобга олади”. “Индивидуаллаштириш” ва “табақалаштириш” атамалари кўпинча синоним сифатида ишлатилади. Демак, худди шу маънода синфдаги ўқувчиларга индивидуал ва табақалаштирилган ёндашувга тўхталади.

Бизнинг фикримизча, бугунги кунда “индивидуаллаштириш” тушунчасини биз таълим олувчининг шахсий хусусиятларини ва билиш даражасини риволантириш деб қараш зарур[.

Бундан ташқари, глобаллашув даврида таълимда бўлаётган ўзгаришлар ва унга бўлган эҳтиёжлардан келиб чиқиб, замонавий таълимнинг муаммолари сифатида табақалаштирилган ёндашув татбиқ этилмоқда. Табақалаштирилган ёндашув боланинг индивидуаллигини ва шахсий хусусиятларини шакллантиради ҳамда қобилиятини ошқор этишга ёрдам беради. Умуман олганда, ушбу ёндашув индивидуаллик тушунчаси таҳлил этади. Психологлар индивидуалликни “шахснинг – ўзига хос сифатлари ва иқтидори сифатида – таърифлашади. Шахс тушунчаси билан ёнма-ён ишлатиладиган яна икки тушунчага изоҳ беришни ўринли деб ҳисоблаймиз. Илмий манбаларда “индивид” ва “индивидуаллик” тушунчалари тадқиқотчилар томонидан турлича таъриф берилган[10].

Таҳлил ва натижалар. Демак, шахс индивидуаллиги: қобилиятлар, характер, иродавий сифат, ижтимоий кўрсатмалар, хулқиға хос мотивация киради. Индивидуал сифатлар онги ҳаётимизнинг ажралмас қисми, идрокимиз, хотирамиз ва фикрларимиз йўналтирилган муҳим предмет ҳисобланади. Бундан ташқари, ўқув, меҳнат ва ижодий фаолиятидаги ўзига хосликни тушунтириш учун психология фани биринчи навбатда, қобилиятлар ва иқтидор масаласига мурожаат қилишини олимларимиз томонидан асослаб берилган. Психологияда

туғмалик аломатлари бор, индивидуал сифатлар лаёқатлар деб юритилади ҳамда шахснинг индивидуал хусусиятлари туғма, биологик хусусиятларга эга бўлиши мумкин. Ҳар бир шахс ҳар қандай бошқа шахсдан ўзининг индивидуал-психологик хусусияти билан ажралиб туради. Бунда шахснинг характери асосий ўринни эгаллайди. «Характер» сўзи айнан таржима қилинганда, грекчадан «тамға» деган маънони англатади. Лекин ҳар қандай индивидуал хусусиятлар ҳам характер бўла олмайди. Масалан, кўриш ва эшитишнинг ўткирлиги, тез эсда олиб қолиш бу характер эмас[7].

Умуман олган, характер шахснинг типик хусусияти бўлиб фаолиятида яққол намоён бўладиган индивидуал-психологик хусусиятлар йиғиндиси- дир. Характер хусусиятларининг намоён бўлиши ҳар бир типик вазият ҳиссий кечинмаларининг индивидуал, ўзига хос хусусияти шахс муносабатларига боғлиқ. Иккинчи томондан, ҳар бир типик вазиятдаги ҳаракат сифатлари ва индивидуал ўзига хос усуллари шахс муносабатларига боғлиқ. Характернинг интеллектуал, ҳиссий ва иродавий ҳислатларини ажратиш мумкин. Асосли қилиб айтган, характер деганда, шахсда муҳит ва тарбия таъсири остида таркиб топган ва унинг иродавий фаоллигида, теварак атрофга, оламга (бошқа кишиларга, меҳнатга, буюмларга) ўз-ўзига бўлган муносабатларда намоён бўладиган индивидуал хусусиятларини тушунамиз.

Юқоридагиларни ҳисобга олиб, характернинг жуда кўп ҳислатлари одамнинг иш-ҳаракатларини белгиловчи чуқур ва фаол майллар ҳисобланади. Хуллас, мана шу мойилликларда характер ҳислатларининг ундовчилик кучи намоён бўлади. Одам характер-ҳислатларининг ана шундай ундовчилик кучи туфайли кўпинча объектив шароитга зид иш қилади ва мутлақо мақсадга номувофиқ ҳаракат усулларини қўллайди. Айрим одамлар билиб туриб қийин вазифани танлайдилар. Характер ҳислатлари маълум тарзда ҳаракат қилишга, баъзан эса

шароитга қарама-қарши ҳаракат қилишга ундар эканлар, улар ҳаётий қийин дақиқаларда фаол бўладилар. Характер қаршилик кўрсатувчи шароитлар билан курашда синалади. Бу баркамол авлодни тарбиялашнинг марказий ва муҳим вазифаларидан биридир. Қатъиятлилиқ танқидий қараш, фаҳм-фаросат, кўзғатувчанлик, хушфёъллик сингари ҳислатлари-интеллектуал(ақлий), қувноқлик, меҳрибонлик-ҳиссий-иродавий хусусиятларга киради[6].

Қобусномада индивидуаллик тушунчаси (лот. *individuum* – бўлинмас)

– муайян нарса ва ҳодиса, шахс ва жониворнинг ўзигагина хос, бетакрор, хусусий белгилар сифатида берилган. Белги сифатларининг ўзига хослиги билан индивидуал шахснинг умумий белгилари қарама-қарши қўйилади. Индивидуаллик антик даврда атоқли юнон файласуфлари Левкипп ва Демокрит томонидан муайян шакл ва мазмунга, яъни ўзига хос белгиларга эга бўлган нарса ва ҳодисаларга, жумладан, индивид (яъни, бўлинмас) кабиларга хос хусусиятларни аниқлаш жараёни сифатида қаралган. Қадимги Рим файласуфи Сенека индивидуаллик тушунчасини янада такомиллаштиради. Индивидуаллик ўзига хос хусусиятларни ва мазмунини йўқотмай туриб, бошқа бўлақларга бўлинмайдиган аниқ бир нарса (мавжудот) эканлигини эътироф этган. Ўрта асрлар фалсафасида индивидуаллик инсон шахси тушунчасини ифодалаган. XVII асрда индивидуаллик билан боғлиқ фикр-мулоҳазалар немис файласуфи Лейбниц таълимотида атрофлича ривожлантирилади. Индивидуаллик немис адиби Гёте ижодида ҳам ўз ифодасини топди. Бундан ташқари, у романтизм дунёқараши учун ҳам хос хусусиятдир. Ҳозирги даврда индивидуаллик тушунчаси илм-фанда турли маъноларда ишлатилади. Масалан, биологияда индивидуаллик организмда ўзига хос ирсий белги ҳисобланса, психологияда шахснинг фикрлаши, сезгиси, иродаси, истак ва интилиши, эҳтиёжи, қизиқиши, кайфияти, ҳиссиёти,

аҳволи, хатти-ҳаракати, одати, майли, қобилияти ва сифатларини, шунингдек, мижози ва табиатининг ўзига хослигини англатади. Ижтимоий фанларда индивидуаллик оломонга, гуруҳга зид тушунча сифатида ўрганилади. Адабиётшуносликда эса бадиий образнинг ўзига хос хусусиятлари асарда қай даражада ҳаётий, ҳаққоний акс эттирилганини кўрсатадиган мезон бўлиб хизмат қилади. Бадиий асар қаҳрамонининг ўзига хослиги унинг миллийлиги ва қайси ижтимоий қатламга мансублигини ҳам белгилайди. Ёзувчининг ўзига хос тили ва услубига хос белгилар ҳам индивидуалликни ташкил этади[4].

Б.В.Авво янги педагогик парадигмалар тамойиллари таълим стратегияларнинг аниқ белгилашди. Педагогик фалсафадан таълимнинг истеъмолчисига талаба ҳисобланади. Улар фаоллиги креатив сифатларда намоён бўлади. Ўқитувчининг вазифаси инновацион таълим муҳитда унинг имкониятларини рағбатлантиришдан иборат.

Касбий тайёргарлик стратегиялари ўқув жараёнида интеграциялашув натижасида шахсий ривожланиш таълим стратегияси учун амалга оширишга асосланган ёндашувлар (Тао), анъанавий Шарқ мактаблари ва замонавий Ғарб манбаларида (P. Gringer, M. Erickson) келтирилган[3].

А.А.Акрамов бўлажак ўқитувчиларда фуқаролик позициясини ривожлантиришга доир умуммаданий, методик, умумкасбий компетенцияларнинг интегратив, ташкилий, диагностик функциялари ва ижтимоий-амалий компоненти аниқлаштирилган. Бўлажак ўқитувчиларда динамик ўзгаришларнинг самарадорлигини аниқлаш ва баҳолашнинг когнитив мезонини, ижтимоий аҳамиятнинг анланганлиги, хулқ-атвор ва натижавий мезонларнинг сифатларни шаклландирилганини, ташхислаш натижасида талабаларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этишни таклиф этган[5].

Педагогик технология — зарур ахборотларни топишнинг қулай

шакл ва усуллардан фойдаланишдир.

Педагогик технологияларнинг асосий мезонларини куйидагилардан иборат:

1. Маълум концепцияга таяниш.
2. Ўқув-тарбия жараёни таркибий қисмларининг ўзаро манتيкий боғликлиги.
3. Таълим стандартларига эришишни кафолатлаши.
4. Бошқалар томонидан қайта амалга ошириш мумкинлиги.

Хулоса. Педагогик технология рационал асосдаги илмий мезонларга асосланган

бўлиши билан бирга, унинг янада ривожланишида интуитив (эмпирик) билимлар ҳам муҳим аҳамиятлидир. Педагогик технологиянинг ривожланиш жараёнида ҳам ушбу ҳолатларни кузатиш мумкин. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлашда табақалаштирилган таълим технологияларидан фойдаланиш ўқитиш жараёнида самарали натижаларни таъминлайди ва талабаларнинг ўзига бўлган ишончини оширади, мустақил лойиҳалар тузишга ўргатади.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев «Таълим тўғрисида»ги қонунни янги таҳрири. ЎРҚ-637-сон // 2020. 23.09.Қонунчиликмаълумотларимиллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармон. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь, ПФ-6097сон "Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғриси"да Фармон. 09.11.2021 й., 06/21/3/1037-сон
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон «Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармон., 26.08.2021 й., 07/21/5234/0826-сон)
5. Авво, Б.В. Современные образовательные модели и эффекты обучения [Текст] / Б.В. Авво. – СПб. - 2004. – 48 с.
6. Андрюхина Л.М., Аладина И.А. Информационная образовательная среда гимназии и непрерывное развитие личности [Текст] / Л.М. Андрюхина, И.А.Аладина// Эксперимент и инновации в школе. – 2014. – том 6. – С. 36-38.
7. Артамонова, Е.И. Становление культуры педагога в социальном поле культуры [Текст] / Е.И. Артамонова // Педагогическое образование и наука. - 2014. - № 6. - С.10-14.
8. Асмолов, А.Г. Дополнительное образование как зона ближайшего развития образования в России: от традиционной педагогики к логике развития [Текст] / А.Г. Асмолов // Внешкольник, 2010. – № 9. – С. 6.
9. Асмолов, А.Г. Стратегия социокультурной модернизации образования: на пути к преодолению кризиса идентичности и построению гражданского общества [Текст] / А.Г. Асмолов // Психологопедагогический поиск. – 2010. - № – С.21-29.
10. Ахиезер, А.С. Социальная философия в усложняющемся мире [Текст] / А.С. Ахиезер // Общественные науки и современность. – 2005. - № 3. – С.137-143.

## 6-7 YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI VA MUSOBAQALARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-VALEOLOGIK YONDOSHUV MAZMUNI

HOLIQOV FARXOD

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi"  
kafedrasi o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Maqolada 6-7 yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sport musobaqalarda do'stona munosabatlarni shakllantirish va ularni musobaqalarga tayyorlash masalalari ko'rib chiqilgan. 6-7 yosh bolalarda bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayoni hisoblanib, bu davrdagi fiziologik jarayonlar bolalar organizmida o'ziga hos bir o'tish davri hisoblanadi. Bu davrda bolalarda o'ziga hos injiqliklar mavjud bo'ladi. Sport musobaqalaridagi ishtirokida ushbu holat bazan yaqqol ko'zga tashlanadi. Maqoladan olingan xulosalarni 6-7 yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sport musobaqalariga tayyorlashda murabbiylar tomonidan foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar.** jismoniy tarbiya, sport musobaqalari, yosh davrlar, musobaqalar, sport turlari.

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы формирования дружеских отношений детей 6-7 лет в физкультурно-спортивных соревнованиях и подготовки их к соревнованиям. У детей 6-7 лет считается переходным периодом от одного периода к другому, физиологические процессы в этот период являются своеобразным переходным периодом в детском организме. В этот период у детей будут свои прихоти. При участии в спортивных соревнованиях это состояние иногда становится очевидным. Выводы из статьи могут быть использованы тренерами при подготовке детей 6-7 лет к физкультурно-спортивным соревнованиям.

**Ключевые слова.** физкультура, спортивные соревнования, возрастные периоды, соревнования, виды спорта.

**Annotation.** The article examines the issues of shaping friendly relations in physical education and sports competitions for children aged 6-7 years and preparing them for competitions. In children aged 6-7 years, the process of transition from one period to another is considered, and physiological processes during this period are a special transition period in the children's body. During this period, there will be special whims in children. With participation in sports competitions, this situation is sometimes obvious. The conclusions drawn from the article can be used by coaches in the preparation of children 6-7 years old for physical education and sports competitions.

**Keywords.** physical education, sports competitions, age periods, competitions, sports.

**Kirish.** Jismoniy madaniyat shaxsni kompleks shakllantirish tizimining uzviy qismidir. O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'ligi haqida g'amxo'rlik, ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil shug'ullanish hamda jismoniy salomatligini diagnostik nazorat qilish ko'nikmalarini singdirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish,

imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa sport mashg'ulotlarini ommalashtirish bolalar ta'lim olayotgan boshlang'ich ta'lim maktablari va maktabgachata'limuassasalarda ushbu tadbirlarni o'tkazish va ularga to'g'ri pedagogik yondoshuv olib borish hozirgi zamonaviy sport murabbiyining dolzarb



vazifalaridan biridir. Mavzu dolzarbligini asosiy ahamiyatini ochib ebrish uchun datslab sport mashg'ulotlari tarixiga nazar tashlasak, qadimgi yunonlar davridan beri yosh bolalarda jismoniy faoliyat intellektual qobiliyatlar bilan bog'liq degan e'tiqod mavjud. Biroq, bolalarda jismoniy mashqlar va aqliy funktsiya o'rtasidagi munosabatlar nisbatan yaqin vaqtgacha tizimli ravishda baholanmagan. Kirkendall tomonidan taqdim etilgan tarixiy sharh (1986) nima uchun bunday bo'lganiga oydinlik kiritadi. Uning 1985 yilgacha chop etilgan tadqiqotlarini ko'rib chiqishi shuni ko'rsatdiki, jismoniy faoliyatning psixologik foydalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar 1950 va 1960 yillarda o'tkazilgan. 1960-yillarda o'tkazilgan bir qator tadqiqotlarda jismoniy mashqlar ta'sirini baholash uchun global IQ ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlar tarixan eskirgan bo'lsa-da, ular birinchi bo'lib muntazam jismoniy faoliyatning bolalarning aqliy faoliyatiga ta'siriga bevosita e'tibor qaratganligi sababli muhim ahamiyatga ega. (Ellis, 1969, Korder 1966) 2017 yildan boshlab O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi [3]. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolaning to'laqonli jismoniy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, psixomotor va intellektual qobiliyatli bolalarni o'z vaqtida aniqlash va qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Bog'chada sport maydonchasi va sport zali keng assortimentdagi trenajyorlar, sport anjomlari va maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshlikdan boshlab jismoniy rivojlanishi va chiniqishiga xizmat qiladigan barcha sport anjomlari bilan jihozlangan. Jismoniy tarbiya tizimida gimnastika va musobaqalardagi an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan bir qatorda "taekvando", "badiiy gimnastika" "ochiq havoda o'yinlar" kabilarga bolalar keng jalb qilingan.

Ta'kidlash lozimki, bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, sporto'yinlariga jalb qilish ularning intellektual rivojlantirishni ta'minlaydi. Jismoniy faoliyat nafaqat mushaklarning faolligini oshirishga, balki deyarli barcha sohalarni, shu jumladan miya yarim sharining oldingi zonalarini rag'batlantirishga imkon beradi, bu esa kognitiv va jismoniy mashqlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydi.

Albatta, biz o'zimiz ko'zlagan maqsadlarga yetishishimiz uchun avvalambor, 6-7 yoshli bolalarni sport musobaqalariga tayyorlaydigan sport murabbiylarini tayyorlashimiz muhimdir. Sport murabbiylarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun, bolalar bog'chasida tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi jismoniy mashqlar dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu dastur kompleks maqsadli bo'lishi, kognitiv-nutq faoliyatini tashkil etish tadqiqot o'yinlari, o'z-o'zidan va ijodkorlikni rivojlantirish uchun ijodiy vazifalar bilan to'ldirilgan, ochiq havoda bajariladigan mashqlar to'plami, gimnastika mashg'ulotlari, ijodiy fikrlar va tasavvurga asoslangan mushaklarni bo'shashtirish mashqlaridan iborat bo'lishi muhim.

6-7 yoshli bola uchun valeologik yondashuv kundalik tartib va mashg'ulotlarni jismoniy madaniyat va intellektual faoliyatni uyg'unlashtiradigan tarzda qurishga imkon beradi, shu bilan birga turli xil o'yin mashg'ulotlariga vaqt ajratadi - bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlanishni davrlashtirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. (Elkonin) jismoniy mashqlar, jumladan, yurish, yugurish, sakrash, otish, balandlika chiqishga asos bo'lib, ular davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishiga asos bo'ladi, birinchi navbatda, rivojlanish darajasini aks ettiruvchi turli xil kognitiv

yo'naltirish harakatlarini o'zlashtirish uchun sharoitlar yaratilishi muhim. 6-7 yoshdagi bolalarni idrok etish (identifikasiya qilish harakatlari, standartga murojaat qilish, persektiv modellashtirish) va aqliy (majoziy va mantiqiy fikrlash harakatlari). Bundan tashqari, sensorimotor muvofiqlashtirish, nutq, tasavvur, xotira va e'tibor jarayonlarini rivojlantirish uchun topshiriq va mashqlardan foydalaniladi. Masalan, mashg'ulotning tayyorgarlik qismiga kiritilgan yurish va yugurish "Tingla-harakat!" o'yini, uning davomida bolalar musiqa asaridan parchaga mos keladigan harakatlarni bajarishlari kerak edi: polkaga sakrash; vals ostida - aylanma va boshqalar, bu nafaqat tayyorgarlik qismining aniq vazifalarini hal qilishga, balki diqqatni, eshitish idrokini va eshitish-harakatni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. Fikrlashning rivojlanishi tushunchalar doirasini, shu jumladan jismoniy faoliyat jarayonida aqliy harakatlar va sport va o'yin jihozlari bilan manipulyasiyalarni kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Tahlil, sintez, taqqoslash, ob'ektlardagi o'xshashlik va farqlarni topish, tasniflash, umumlashtirish operatsiyalari har bir jismoniy tarbiya mashg'ulotini to'ldiradi. Masalan, to'siqlarni yengib o'tishdan oldin ma'lum bir xususiyatga (shakli, rangi, maqsadi) mos keladigan sport jihozlarini tanlash yoki pedagog, trener tomonidan taklif qilingan sxematik tasvirga muvofiq tartibga solish vazifasi qo'yilsa. Sport modullari va jihozlarini tozalash "o'xshashini yoki sherigini top" qo'shimcha topshirig'i bilan amalga oshiriladi. Bolalarni jamoalarga bo'lishda har bir Sardor o'z jamoasini bo'yi, soch uzunligi va jismoniy tayyorgarligiga qarab safga qo'ydi. Ob'ektlarning muhim xususiyatlarini ajratib olish qobiliyati "menga javobni ko'rsat" o'yinida yaxshilanadi, bunda bolalar nafaqat topishmoqni topadilar, balki harakatlar yordamida javobni ham ko'rsatadilar. Harakatlarning asosiy turlarini

bajarishda ob'ektlarning miqdoriy va sifat nisbatlarini tushunish qobiliyati mashq qilinadi. Murakkab harakatlarni o'rgatish vosita harakatini tahlil qilish (bolalar va o'qituvchi bilan birgalikda), uning tarkibiy qismlarini ko'rsatish va talaffuz qilish, bolaning harakatini mos yozuvlar bilan taqqoslash, xatolar, noaniqliklar va tuzatish usullarini izlash bilan birga bo'ladi[1,25].

Bunday vazifalar barcha bolalar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinadi. Pedagogik kuzatishlar bolalarning bilim faolligining o'sishini, intizomning yaxshilanishini va guruhda hissiy yuksalishni aniqlaydi. Jismoniy tarbiyaning o'quv jarayoniga kognitiv jarayonlarni, nutqni va u bilan bog'liq bo'lgan yuqori ramziy funktsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni kiritish nafaqat bolalarning aqliy rivojlanishiga, balki qayta qurishga ham yordam beradi.

6-7 yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg'un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofida ahyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish, hissiyotlari, jismoniy rivojlanishini kuzatamiz[2,86]. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga

kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi 5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (selektsiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlang'ich gimnastika va harakatli o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori[4], maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk jismoniy rivojlantirish, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

6-7 yoshli bolalarda quyidagi sport mashg'ulotlari yuzasidan musobaqalar tashkil qilish mumkin.

Emaklab yurish va tirmashib chiqish mashqlari. Emaklab yurish gimnastikai o'rindig'i bo'ylab qorinda va daraxti mavludi iso bilan yetib qo'llarga tayanib va oeqlarni itarib xona bo'ylab emaklab yurish, gimnastikai o'rindig'i ustidan qator qilib qo'yilgan to'siklar ichidan emaklash.

#### **Umumrivojlantiruvchi mashqlar.**

Qo'llar va yelka kamari uchun mashqlar. Qo'llarni yuqoriga oldinga, yon tomonlarga ko'tarish, tovonlarni juftlab oyoq uchlarini ochib, tik tutgan holatda oyoq uchida ko'tarilish, bir oyoqni uchini orqada qoldirib, devorga suyanish. Ko'llarni ko'krak oldida tutgan yoki yelkalarga ko'ygan holatdan ularni yuqoriga yon tomonlarga cho'zish.

#### **Bolalarni suzishga o'rgatish.**

**MAQSAD:** Bolalar sog'ligini mustahkamlash, organizimning shakl va funksiyalarini uyg'un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko'rishni ta'minlash. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni suzishga o'rgatish uchun eng avvalo bolada suv bilan chiniqtirish ishlarini olib borish lozim. Suv bilan chiniqtirish ishlari jismoniy tarbiya yo'riqchisi, tarbiyachi hamda hamshira nazoratida olib borilishi kerak. Suv bilan chiniqtirish ishlarini olib borishda bola hayoti va sog'ligini muhofaza qilish qoidalariga rioya etish lozim.

Bolalar maydonchanning bir tomonida terib qo'yilgan stullarda o'tiradilar. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi qaramaqarshi tomonda turadi. U: "Yugurib keling oldinga, hammangiz – hammangiz, yugurib keling oldinga!" – deydi. Bolalar jismoniy tarbiya yo'riqchisiga qarab yugurishadi. Bolalar jismoniy tarbiya yo'riqchisining yonida to'plangach, u maydonchanning narigi tomoniga ketadi. U tomondan turib, yana: "Yugurib keling oldinga!" – deb, bolalarni chaqiradi. O'yin to'rt-besh marta takrorlanadi. Keyin, jismoniy tarbiya yo'riqchisi: "O'yingizga yuguring – deb, murojaat etadi. Bolalar shu zahotiy o'z stullariga qarab yugurishadi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi: "Yugurib keling oldinga!" – deb chaqiradi. Bolalar yana uning yoniga yugurib borishadi. Yugurganda bir-birlarini turtmasligi, itarishmasligi, halaqit bermasligi kerak.

**Xulosa.** Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilmiy – uslubiy adabiyotlar tahlili davomida ma'lum bo'ldiki, 6-7 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar juda kam. Maktabgacha tarbiya muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etish masalalari ishlab chiqilmagan, pedagogik jarayon yo'nalishlari bo'yicha



## ТЕХНИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИШБИЛАРМОНЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ(ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА).

**КАЛАНДАРОВА САФИЯ ТОХИРОВНА-Ўзбекистан Республикаси Курол-  
ли Кучлари Академияси, Тиллар кафедраси доценти.**

**КУРГАНОВА РОЗА НУРИДДИНОВНА-Ўзбекистан Республикаси Курол-  
ли Кучлари Академияси, Тиллар кафедраси ўқитувчиси.**

**Аннотация.** Мақолада техника олий таълим муассасаларида хорижий тилларни ўқитишда ишбилармонлик компетенциясини шакллантириш ҳақида сўз боради. Мақола мавзусини ёри-тиш мақсадида мавзуга оид хорижий ва маҳаллий адабиётлардан фойдаланилди.

**Kalit soʻzlar:** texnika, oliy taʼlim muassasalari, xorijiy tillar, kompetensiya, ishbilarmonlik kompetensiyasi, kommunikativlik, muloqot, xorijiy hamkorlik, texnik infratuzilmalar.

**Аннотация.** В статье рассказывается о формировании деловой компетентности при обучении иностранным языкам в технических вузах. Для освещения темы статьи была использо-вана зарубежная и отечественная литература по данной теме.

**Ключевые слова:** техника, высшие учебные заведения, иностранные языки, компетен-ция, деловая компетентность, коммуникативность, коммуникация, иностранное сотрудниче-ство, теневая инфраструктура.

**Annotation.** The article talks about the formation of business competence in teaching foreign languages in technical higher educational institutions. In order to cover the topic of the article, Foreign and local literature on the topic was used.

**Keywords:** technical, higher education institutions, foreign languages, competence, business competence, communicativeness, communication, foreign cooperation, technical infrastructures.

Kirish. Rivojlanayotgan dunyoda global o'zgarishlar va raqamli ta'lim islohotlari davrida nafaqat davlat ta'lim standartlari asosidagi bilimlarga ega bo'lgan kadrlarga, balki turlicha kasbiy muammolarni yuqori madaniy darajada bartaraf qila oladigan, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, o'zida sifatli kasbiy munosabatlarni aks etadigan va sifatli ish darajasini amalga oshira oladigan mutaxassislarga talabning mavjud bo'lishi ayon bo'lib qoldi.

Ma'lumki XXI asr texnika asri hisoblanadi. Ilm-fanda texnikaning taraqqiyoti hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyotning kelajagi albatta sifatli va yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni zamonaviy dunyoda raqobatbardoshligini ta'minlash va kelgusida

ish samaradorligini ta'minlash uchun ushbu mutaxassislarni har tomonlama mukammal, o'zida kerakli kompetensiyalarini jamlay oladigan mutaxassi sifatida tayyorlash muhimdir. Hozirgi kunda jahon tajribasini o'zlashtirish va yutuqlarni o'rganishda xorijiy tillarni o'rganish birlamchi zaruratdir. Bu masala yuzasidan prezidentimiz xorijiy tillarni o'rganishni hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida ko'tarib, olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini qonunchilikda ham mustahkamlab kelmoqdalar. Jumladan, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari» to'g'risida, 19.05.2021 yildagi

312-son «Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari» to'g'risida, 19.01.2022 yildagi 34-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida qonunchilik hujjatlari orqali respublikamizda xorijiy tillarni o'rganishni va o'zlashtirishni imtiyozlari va imkoniyatlari borasida amaliy fundament vazifasini bajara oladi.

Tehnikaborasidagi jahondagi o'zgarishlar ilm-fan yutuqlari bizdagi mutaxassislarni yutuqlarni o'rganishi borasida xorijiy til va u bilan bog'liq kompetensiyalarning ahamiyati katta.

Chet tilida munosabatlar madaniyatini shakllantirish sharoitida kommunikatsiya jarayoni makonga aylanib und abo'lg'usi tehnika mutaxassisining rivojlanishi amalga oshadi. O'quv va kasbiy faoliyatlarini shakllanadi. Muloqotga layoqat kasbiy tayyorgarlikning muhim mezoniga, ichki dialog esa o'zini-o'z tadqiq, tahlil qilish va o'ziga baho berishning vositasiga aylanadi. Kommunikativ yondoshuv shaxsiy faoliyatga yondoshuv bilan birgalikda insonparvarlikka asoslangan pedagogikaning mohiyatini tashkil qiladi, shaxs rivojlanishiga doir munosabatlarni taminlaydi. Ushbu yondoshuv pedagogik jarayondagi har bir ishtirokchining shaxsiy o'ziga xosliklarini inobatga olishini taqozo qiladi. Kommunikativ yondoshuvni amalga oshirishning shartlari quyidagicha: hamkorning subektiv xislatlarini ifodalashga tabiiylik va spontanlik; o'zgaralar haqidagi qayg'urish, uni o'ziga teng huquqli hamkor sifatida qabul qilish; hamkor bilan munosabatlarda uning kayfiyatiga qarab, ish tutish va fikrlariga quloq solishdan iboratdir. Ishbilarmonlik kompetensiyasini shakllantirish talabani shaxsi rivojlanishiga yoqdam beriladi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Xorijiy tillarni o'qitishda ishbilarmonlik kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish mavzusi borasida ilmiy ish olib borgan olimlar borasida ko'proq Rossiya va Yevropa olimlarini misol qilish mumkin.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarni chet tilida o'qitishda ishbilarmonlik kompetensiyalarini takomillashtirishning umumiy pedagogik masalalari A. A. Verbitskiy, N. D. Galskova, N. I. Gez, N. A. Gorlova, I. A. Zimnaya, A. A. Leontieva, E. S. Polat, V. V. Safonova, E. N. Solovova va boshqalar. Chet tili, madaniyatlararo ishbilarmonlik muhiti, vositachilik va madaniyatlararo nizolar sohasida mutaxassislarni tayyorlashning turli jihatlari, nazariy, uslubiy va uslubiy darajalarda madaniyatlararo ishbilarmonlik muhitining mazmunli va tashkiliy jihatlarni ishlab chiqish borasida A. V. Xurvich, A. A. Zaychenko, ya. V. Levkovskaya, O. V. Chuksina, chet tilidagi kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish muammolari S. N. Barishnikova, G. K. Borozenets, E. V. Klimenko, O. A. Mineeva, G. A. Petrova, L. T. Rudometova, N. S. Saxarova, yu.yu. Solodovnikova, S. A. Chichilanova asarlarida keng ilmiy-metodologik tahlil sifatida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda ushbu mavzu borasidagi ilmiy adabiyotlar yetarli emas. Bunga sabab ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligidir. Lekin yuqorida aytib o'tilgandek XXI asr tehnika asridir, jahon ilm-fan tehnika sohasidagi yutuqlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish sohasiga xalqaro korxonalar bilan hamkorlikda ish olib borish va Respublikaga yuqori turdagi infratuzilmalarni olib kirish ehtiyojlari ham Respublikamizdagi tadqiqotchilar uchun mavzuning dolzarbligini oshiradi. Chet tilidagi kasbiy tayyorgarlik muammolariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar bilan madaniyatlararo ilm-

fan aloqalarining mazmuni va vakolatlari tuzilishini, ishbilarmonlik ingliz tili sohasida qo'shimcha chet tilini o'qitishni amalga oshirishda uni shakllantirish imkoniyatlarini ochib beradigan savollar yetarli darajada o'rganilmagan. Tadbirkorlarning chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish texnologiyalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, ushbu maqsadlar uchun madaniyatlararo yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari to'liq o'rganilmagan; qo'shimcha xorijiy ta'lim sohasida qo'llaniladigan madaniyatlararo biznes nizosi vakolatlarini shakllantirish darajasini baholash uchun yagona mezonlar tizimi mavjud emas. Shunday qilib, ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlarga hurmat ko'rsatib, shuni ta'kidlaymizki, tadbirkorlarni chet tilida o'qitishni takomillashtirish va xususan, qo'shimcha ta'lim tizimida ishbilarmonlik ingliz tilini o'qitish jarayonida texnika oliy ta'lim muassasalarining talabalari madaniyatlararo ishbilarmonlik nizosi vakolatlarini shakllantirish muammosi maxsus o'rganish mavzusi emas edi. Ushbu jihatning ahamiyati va dolzarbligini yetarlicha baholamaslik, chet tilidagi aloqa sohasida ma'lum bilimlarga ega bo'lgan texnika oliy ta'lim muassasalarining talabalari madaniyatlararo ishbilarmonlik muhitida professional muloqotning turli holatlarida o'zlarining nutq xatti-harakatlarini kommunikativ ravishda tashkil etish uchun ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lmasliklariga olib keladi, bu esa o'z navbatida kasbiy muammolarni samarali hal qilishga to'sqinlik qiladi. Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 200ga yaqin oliy ta'lim muassasasi mavjud. Shulardan 90 taga yaqini texnika sohasiga ixtisoslashgan yoki texnika yo'nalishlari mavjud. Texnikaning xar bir soxasi bo'yicha izlanishlarda xorijiy hamkorlarga tayaniladi, muloqot uchun esa o'zga davlat tilini bilish

qo'shimcha imkoniyatlar eshigini ochadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida esa mutaxassislariga xorijiy tillarni o'qitilishi va unga oid atamalarni ko'proq o'qitilishi ham tuzilayotgan o'quv rejalarida va namunaviy fan dasturlarini tayyorlash jarayonida inobatga olinishi kerak bo'lgan eng asosiy omillardan biridir. Jahon tajribasida texnika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish va u orqali ishbilarmonlik kompetensiyalarini shakllantirish tajribasi Singapur va Hindiston tajribasidir. Hindiston xozirgi kunda texnika va IT taraqqiyoti bo'yicha yetakchi mutaxassislariga ega davlatdir. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonda texnik mutaxassislarning 90 %i xorij bilan hamkorlikda ish olib boradi. Mutaxassislardan 42,7%i xorijiy tillardan bittasini(ingliz tili)32.6% foizi 2tasini(ingliz tili va fransuz tili),14.7 %i 3ta yoki undan ortiq(ingliz, fransuz, italyan, ispan va undan ortiq) tillarni o'zlashtirgan.

Dunyoning yana bir rivojlangan davlati Singapur davlatidir. Dunyoning yetakchi davlatlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan ushbu davlatdagi mutaxassislarini yetkazib beradi. Texnika oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifati bo'yicha reytingda ham yetakchi o'rinlarni bir necha yillardirki, bermay kelmoqda. Singapur ta'lim tajribasida ham xorijiy tillarni texniklarga o'qitish masalasida nafaqat ingliz tilini qo'shimcha ravishda, ispan, fransuz, nemis va arab tillarini o'qitiladi. Singapur tajribasida arab va ingliz tillarini texnik mutaxassislariga ishbilarmonlik kompetensiyasini shakllantirishda ustivor deya biladi. Va ushbu tillar alohida urg'u beriladi.

Taxlil va natijalar. Shunday qilib, ishbilarmonlik ingliz tili sohasida qo'shimcha xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida, bir tomondan, yetakchi texnik mutaxassislariga ehtiyoj o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi va boshqa tomondan, ushbu maqsadga erishishga

qaratilgan pedagogik jarayonni ilmiy va uslubiy qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada rivojlanmaganligini anglatadi. Ushbu jarayonda, tizimli metod qo'llanganda, chet tilda kasbiy munosabatlarning shakllanish jarayonini quyidgicha tavsiflash maqsadga muvofiq:

-bu jarayon kasbiy tayyorgarlikning sof asosiy tizimi hisoblanadi va pedagogikaning umumdidaktik mezonlari asosida amalga oshiriladi;

-mazkur jarayon boshqariladi va mukammallikka moyil;

-uning natijadorligi talabalarga tizimli ravishda ta'sir ko'rsatishi va maxsus pedagogik sharoitlar yaratilganligiga bog'liq;

-chet tildagi kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi;

-chet tilda kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish talabalarning faolligi va interfaol texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Xulosa. Chet tilida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondoshuvni qo'llash uchun o'quv jarayoniga interfaol texnologiyalarni joriy etish talab qilinadi. Ushbu yondoshuv yana muammoli-nutqiy, ijodiy mashq va topshiriqlarning sof lingvistik, reproduktiv-trening mashq va topshiriqlardan ko'ra ko'proq bo'lishini, munosabatlarda autentik vaziyatlarni qo'llashni, kommunikatsiya jarayonida spontan ravishda qo'shib keta olish, ko'nikmalarining mavjud bo'lishini, chet tilidagi kasbiy munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyor bo'lishini taqozo qiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ломов Б.Ф. Системность в психологии: Избранные психологические труды. – Москва; Издательство Московского психолого-социального института и Издательство НПО «МОДЕК», 2003. -С.42-49.
2. Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование. Концепция развития индивидуальности в диалоге культур. – Липецк; Изд-во Липецкого гос. Ун-та. 1999. С.242.
3. Kalandarova S. Chet tilida kasbiy ishbilarmonlik muloqoti shakllanishini tadqiq qilish metodologiyasi. "Til va adabiyot" jurnali. 2022 yil 2 son. 13-14 bet.



## SOG'LOM INSON -JAMIYATNING BEBAHO BOYLIGI TARGG'IBOTI(O'QUVCHILARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA TAYYORLASH)

**KARIMOV DAVRON AKULOVICH-Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya.** Maqolada sog'lom inson jamiyatning bebaho boyligi ekanligi, o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning asoslari va pedagogic ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola mavzusini ochib berishda qadimgi asrlardan torib to hozirgi kungacha bo'lgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzining targ'ibotini olib borishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar.** sog'lom turmush, salomatlik, sog'lom inson, shaxsiy gigiena, ruhiy salomatlik.

**Аннотация.** В статье речь пойдет о том, что здоровый человек является бесценным достоянием общества, об основах и педагогическом значении пропаганды здорового образа жизни среди читателей. При раскрытии темы статьи были использованы научно-исследовательские разработки ученых с древних времен до наших дней. Выводы из статьи могут быть использованы при проведении пропаганды здорового образа жизни в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова.** здоровый образ жизни, здоровье, здоровый человек, личная гигиена, психическое здоровье.

**Annotation.** The article will talk about the fact that a healthy person is an invaluable asset of society, the basics and pedagogical significance of promoting a healthy lifestyle among students. In revealing the topic of the article, scientific research developments of scientists from ancient centuries to the present day were used. The conclusions obtained from the article can be used to promote a healthy lifestyle in educational institutions.

**Keywords.** healthy living, health, healthy person, personal hygiene, mental health.

Kirish. Salomatlik bu ulkan boylikdir. Xar qanday davlatdajamiyat qurilishining sifatini shu jamiyat a'zolari bo'lgan insonlar ta'minlaydi. Sog'lom inson xar qanday jamiyatning bebaho boyligi hisoblanadi. Ulg'ayotgan yosh avlodning ongi va ta'nasi va ruhiyatini sog'lom qilib tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Ta'lim muassasa o'quvchilarini o'qitish jarayonida faqatgina ularni nazariy bilimlar bilan o'qitmay, ularni ta'na, ruh va ong salomatligi borasida ham tushunchalar berish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish xarq anday bosqich pedagogining asosiy vazifalaridan biridir. Avvalombor, sog'lom turmush tarsi o'zi nima? U bizga nimalar beradi?Ushbu savollarga javob bersak.

Sog'lom turmush tarzi – bu sog'liqni saqlash va mustahkamlashga, ish

qobiliyatining yuqori darajasini ta'minlashga, faol uzoq umr ko'rishga qaratilgan, ilmiy asoslangan tibbiy va gigienik me'yorlarga asoslangan gigienik xulq-atvor, ya'ni odamlarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi.

Sog'lom turmush tarzining asosiy aspektlari:

- salomatlikni mustahkamlovchi turmush tarzi, jismoniy va ruhiy zo'riqish o'rtasidagi mutanosiblik;
  - jismoniy tarbiya va chiniqish;
  - muvozanatli ovqatlanish;
  - odamlar o'rtasidagi uyg'un munosabatlar;
  - ish va turmush tarzida shaxsiy gigiena va mas'uliyatli gigienik xatti -harakatlar;
  - yomon odatlarga salbiy munosabat.
- Sog'lom turmush tarziga rioya qilish

istisnosiz hamma odamlarga taalluqlidir: ham sog'lom, ham sog'lig'ida ayrim nuqsonlari bo'lganlarga. Insonning o'zi sog'lom turmush tarziga rioya qilish orqali sog'lig'ini mustahkamlashi mumkin, lekin tana o'sishi va qarishi bilan zarur harakatlar oshib boradi. Afsuski, sog'lik, u yoki bu maqsadga erishishning muhim hayotiy ehtiyoji sifatida, qarilik yaqin haqiqatga aylanganda, odam tomonidan anglab yetiladi.

Har qanday harakatning qiymati maqsadning ahamiyati, unga erishish ehtimoli va tatarbiyasi bilan belgilanadi. Insonning xulq-atvori yoki turmush tarzi qoniqtirilishi lozim bo'lgan biologik va ijtimoiy ehtiyojlarga bog'liq (masalan, ochlik va chanqoqlikni qondirish, ish topshirig'ini bajarish, dam olish, oila qurish, bolalarni tarbiyalash va hok). Ma'lumki, zamonaviy odamning kasalliklari, birinchi navbatda, uning turmush tarzi va kundalik xatti-harakatlariga bog'liq. Hozirgi vaqtda sog'lom turmush tarzi kasalliklarning oldini olishning asosi hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzining shakllanishi odam tomonidan tashqaridan olingan ma'lumotlar orqali, turmush tarzini teskari aloqa, o'z his-tuyg'ularini, ob'ektiv morfofunksional ko'rsatkichlar dinamikasini, ega bo'lgan valeologik bilimlar bilan o'zaro munosabatini tahlil qilish yordamida to'g'rilash orqali amalga oshiriladi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish juda uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, butun umr davom etishi mumkin. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish natijasida tanada sodir bo'ladigan o'zgarishlardan kelib chiqadigan teskari aloqa darhol ish bermaydi, ratsional turmush tarziga o'tishning ijobiy ta'siri ba'zan yillar davomida kechiktiriladi. Sog'lom turmush tarzi odatiy hol bo'lib qolgan ko'plab yoqimli hayot sharoitlaridan voz kechishni (ortiqcha ovqatlanish, qulaylik, spirtli ichimliklar va hok) va aksincha, ularga o'rganmagan odam

uchun doimiy va muntazam zo'riqishlarni va qattiq cheklovlar mavjud bo'lgan turmush tarzini ko'zda tutadi. Sog'lom turmush tarziga o'tishning birinchi davrida odamning intilishlarini qo'llab-quvvatlash, uning sog'lig'i, funktsional ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatish uchun zarur maslahatlar berish o'ta muhimdir[2].

Shaxsning sog'lom turmush tarziga o'tishida quyidagilar kelib chiqsa samaradorligini bildiradi:

- ijobiy va samarali tarzda xavf omillarining ta'sirini, kasallanishini kamaytirganda yoki yo'q qilganda va natijada davolanish xarajatlarini kamaytirganda;

- inson hayotining sog'lom va bardoshli bo'lishiga hissa qo'shganda;

- yaxshi oilaviy munosabatlar, bolalar salomatligi va baxtini ta'minlaganda;

- shaxsning o'zini o'zi anglash ehtiyojini qondirish uchun asos bo'lib, yuqori ijtimoiy faollik va ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlaganda;

- shaxsning yuqori ish qobiliyatini, ishda charchoqning kamayishini, yuqori mehnat unumdorligini va shu asosda katta moddiy boylikka olib kelganda;

- yomon odatlardan voz kechish, faol dam olish vositalari va usullaridan unumli foydalanish bilan vaqt byudjetini oqilona tashkil etish va taqsimlash imkonini berganda;

- quvnoqlik, yaxshi kayfiyat va optimizmni ta'minlaganda[3].

Inson salomatligi ko'p omillarga va aksariya hollarda insonning turmush tarziga bog'liq:

- genetik omillar – 15-20%;

- atrof-muhit holati – 20-25%;

- tibbiy ta'minot – 10-15%;

- odamlarning yashash sharoitlari va turmush tarzi – 50-55%.

Xavf omillarining odamga ta'siri faqat individualdir va ma'lum bir kasallikning rivojlanish ehtimoli organizmning moslashish

qobiliyatiga bog'liq.

Sog'lom turmush tarzi targ'ibotining eng asosiy mohiyati butun dunyo bo'ylab COVID 19 pandemiyasi davrida katta ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi.

Aynan shu jarayonda bizda sog'lom turmush tarzi va unga oid ta'limlar kam ekanligi yohud yetarlicha emas ekanligi yaqqol o'z isbotini topdi. Sog'lom turmush tarzi targ'iboti borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonga oid islohotlar xatto qonunchilik hujjatlarida ham o'z aksini topdi. 30.10.2020 yildagi PF-6099-sonli "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ham bunga yaqqol misoldir.

O'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi ratsional kun tartibi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni o'z ichiga oladi. Gavdani va og'iz bo'shlig'ini o'z vaqtida yuvib, tozalab turish, salomatlik va mashq qilishga putur yetkazadigan yomon odatlarni tashlash va boshqalar shular jumlasidandir. Maktab o'quvchisining kun tartibida quyidagilar bo'lishi nazarda tutiladi:

- uyqu,
- ovqatlanish,
- maktabda o'qish,
- uyda dars tayyorlash,
- toza havoda sayr qilish,
- uy ishi,
- yaxshi ko'rgan ish bilan shug'ullanish,
- sinfdan va maktabdan tashqari o'tkazilgan har xil tadbirlarda qatnashish,
- shaxsiy gigiyena qoidalarini bajarish.

O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun kun tartibiga ertalabki

badantarbiya, ko'ngil ochuvchi sport o'yinlari kabi mashg'ulotlarning faol turlari rejalashtirilgan bo'lishi shart. Shuning uchun kun tartibiga rioya qilish, sog'liqni saqlash va darsda muvaffaqiyatga erishish muhim omildir. Maktab, oila, pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi ish sifatini yanada yaxshilaydigan jismoniy tarbiyani, sog'lom hayot tarzini o'quvchilarning kundalik hayotiga tatbiq etadigan muhim vositadir deb hisoblaymiz. Bola sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi muhimdir[1]. Kishi salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya qanday ahamiyatga ega ekanligini mashg'ulot davomida o'quvchilarga tushuntirib borishimiz zarur. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullangan kishi kuchli, chaqqon, chidamli, irodali, bardam, jasur, go'zal va harakatchan bo'ladi. Shuning uchun har bir harakatni mustaqil, yaxshi va kam kuch sarflagan holda bajarishga harakat qiladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, o'zbek xalqining milliy sport va milliy o'yinlari aholini yashash sharoitiga qarab xilma-xil bo'lgan va kishilarni faol, sermahsul ishlashga tayyorlagan. Jismoniy savodsizlikka qarshi erta yoshda, bolalar bog'chalarida va maktabgacha ta'lim muassasalarida kurashish kerak. Jismoniy savodxonlik uchun erta ta'lim muhim rol o'ynashi va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishni rag'batlantirish jarayonining ajralmas qismi bo'lishi mumkin. 6 yoshgacha bo'lgan bolalar bog'chalarida jismoniy savodxonlikning asosiy dasturini o'yinlar va qiziqarli mashqlar shaklida boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy shakllangan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ko'p vaqti o'tirgan holatda bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarni dars vaqtida o'tirish holatlarini nazorat qilishlari, darslarda jismoniy tarbiya daqiqalarini

o'tkazishlari, ijobiy ta'sir qiladigan harakatlar tartibini tashkil qilishlari, jismoniy tarbiya mashqlariga gavgani to'g'ri tutishga yo'naltirilgan mashqlarni kiritishlari zarur. Mashqlarni musiqa ijrosida bajarish yanada ko'proq ijobiy samara beradi. Maktabda o'qishning birinchi kundan boshlab birinchi sinf o'quvchilarida to'g'ri o'tirishni shakllantirishga e'tibor qaratish zarur. Bolalarni maktabda va uyda o'tirish holatini nazorat qilishning oddiy usullarini pedagoglar o'rgatishlari zarur. Pedagoglar bolaning o'tirishini sabr bilan boshlang'ich sinflarda kuzatishlari kerak. Yozma ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan egilib o'tirish holatida orqa mushaklarga og'irlik tushadi, yurak urushi tezlashadi, nafas olish harakatining amplitudasi kamayadi. Bunday holatda

tenglikni saqlash uchun o'quvchilar stol ustiga ko'krak bilan suyanadilar, bu esa ichki organlar ishini yanada og'irlashadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazorati bolalarning sog'lom bo'lishlari uchun katta ahamiyatga ega. Darslarda jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish o'quvchilarning ishga layoqatlilikini ushlab turish uchun samarali vositadir.

Xulosa. Jamiyatimiz ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishini, yuksak ma'naviyat, odob-axloq, sog'lom aql sog'lom tanga ega bo'lgan sog'lom avlod jamiyatning taraqqiyot kalitidir. Izlanishlar natijasida jamiyatning bebaho boyligi bo'lgan sog'lom insonni o'stirishda katta vazifani ota onadan keying o'rinda ta'lim muassasasi o'qituvchi-pedagoglarida asosiy ma'suliyat bo'ladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. V.C.Алексеев, Е.О.Муродова, И.С.Давыдова. Безопасност жизнедеятельности "Перспект" Москва-2006 г.
2. О.Қудратов, Т.Ғаниев. Ҳаётий фаолият хавфсизлиги. Тошкент. "Меҳнат"-2004.
3. Н.Е.Ғоипов. Меҳнат муҳофазаси. Тошкент. "Меҳнат"-2000.

## OLIV TA'LIM MUASASSALARI TALABALARINING JISMONIY MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

**KULBOYEV NODIRJON SALAYDINOVICH-Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent vazifasini bajaruvchi.**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy madaniyatini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari haqida so'z boradi. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida mavzu borasidagi jahon va mahalliy adabiyotlardan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy madaniyat, sport, qadriyat yo'nalishlari, talabalar

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические особенности совершенствования физической культуры студентов высших учебных заведений. С целью раскрытия темы статьи была использована мировая и отечественная литература по данной теме. Выводы из статьи могут быть использованы при обучении будущих учителей физической культуры.

**Ключевые слова:** физическая культура, спорт, ценностные ориентации, студенты.

**Annotation.** The article will talk about the pedagogical features of improving the physical culture of students of Higher Education. World and domestic literature on the topic was used in order to reveal the topic of the article. The conclusions drawn from the article can be used in the training of future physical education teachers.

**Keywords:** Physical Culture, Sports, value orientations, students

Kirish. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi. Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarida yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsada, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni

boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, Prezidentning 2017 yilning 31 oktabr kunidagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida belgilangan chora-tadbirlarda ko'rsatib o'tilgan talabayoshlarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha o'rtasida voleybol sport turini yanada rivojlantirish va uning ommaviyligini oshirish, ular o'rtasida o'tkaziladigan

musobaqalarning muntazamligini ta'minlash kabi vazifalarni belgilaydi[1]. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, inson salomatligi maxsus vositalarini yaratish va foydalanish ishida jamiyat erishgan muvaffaqiyatlarning yig'indisidir. Demak, bu tushuncha faqat salomatlik va u bilan bog'liq tadbirlarni aks ettiradi, uning, ya'ni insonning tabiatda va jamiyatda yashashi va mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan jismoniy tayyorgarligi va uning zarur darajasini ta'minlashni aks ettirmaydi. Shuning uchun, yuqoridagi ta'rifning "inson salomatligi" degan so'zdan keyin va "jismoniy kamolatini" degan so'zni qo'shish maqsadga muvofiq bo'lib, shunda u "Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, inson salomatligi va jismoniy kamolatining maxsus vositalarini yaratish va foydalanish ishida jamiyat erishgan muvaffaqiyatlarning yig'indisidir",-deyilib, faoliyat sohasini to'laroq aks ettirar edi[3,55]. Jismoniy tarbiyaning sog'liqqa foydalari:

- sport bilan muntazam shug'ullanish uzoq umr ko'rishning eng oddiy yo'lidir.

- kishi sport bilan shug'ullanganida organizmi yaxshi chiniqadi, muskullari tez charchamaydi. Chiniqqan odamning nerv-endokrin, yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa hayotiy muhim a'zolari hamda to'qimalarining ish faoliyati ortadi.

- sport mashg'ulotlari odam tanasidagi to'qimalarning tez yangilanishi, uning yosh, sog'lom va tetik saqlanishiga sabab bo'ladi.

- taloqda limfotsitlar hosil bo'lishi ko'payib, organizmning yuqumli kasalliklardan himoyalaniish qobiliyati (immunitet) kuchayadi.

- kam harakatlilik (gipodinamiya) yurak faoliyatini kuchsizlantiradi. Natijada yurak-qon tomir va boshqa kasalliklar yuzaga keladi.

- mashqlar orqali qon aylanishi

tezlashadi, miyamizga kislorod boradi, mushaklar kuchayib, bo'g'imlarning harakatini ta'minlaydi, ruhiy taranglik yo'qolib, energiya ortadi.

- sport bilan shug'ullanuvchilarda yurak klapanlari va muskullari yaxshi rivojlanib, uning hajmi boshqalarnikiga qaraganda kattaroq bo'ladi.

- o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi (4500-6500 ml.ga etadi), nafas olish va qon aylanish a'zolari yaxshi rivojlanadi.

- odatda zaiflashgan, chiniqmagan tanada mikroblar yashashi va ko'payishi uchun qulay sharoit topadi. Natijada bunday odam kasallanadi.

- jismoniy mashqlar tufayli yurak, buyrak, o'pka va tomirlar kuchga to'ladi, tomirlar kengayadi va elastik holatga keladi. Shunday qilib tomirlardagi yog' nisbati, xolesterin, shakar va insulin pasayadi. Tananing yog' nisbati kamaysa, o'zimizni kuchli his etamiz, asab tizimi sog'lom bo'ladi.

- xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog'lom bo'lishidir. Buning uchun esa badantarbiya bilan shug'ullanish lozim.

- uy sharoitida jismoniy mashqlar bajarish yoki biron sport turi bilan shug'ullanish hozirda keng tarqalgan semirishning oddiy davosidir. Zero, semirish ish faoliyatini pasaytiradi, sog'liqni zaiflashtiradi.

- jismoniy tarbiya mashqlari kishiga ko'tarinkilik va ruhiy dalda bag'ishlaydi. Bunday holda ishlar unumli va sog'liq joyida bo'ladi[2,25].

- agar kishi bir kunda 10 daqiqa jismoniy mashqlar bajarsa, u daqiqasiga yuragining 10 marta urishini "tejab" qolar ekan. Bu bir yilda 500.000 martani tashkil qiladi. Mana shu yo'l bilan yurak-qon tomir kasalliklaridan forig' bo'lish, yurakni sog'lom qilish, infarktdan qutulish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy

madaniyat hozirda eng muhim ijtimoiy hodisa sifatida kishilar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Dastlab, u halq og'zaki ijodi namunalarida (Alpomish, Go'rug'li va boshqa halq dostonlari) tilga olingan bo'lsada, u keyinchalik Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Pahlavon Maxmud va boshqa ko'pgina sharq mutafakkirlarining asarlarida uchraydi. Ular jismoniy tarbiyani inson hayotidagi ahamiyati, uni shaxsni shakllantirishdagi o'rni masalalariga keng to'xtalgan. Shuningdek, "Temurnoma", "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi asarlarda ham jangchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni qo'rqmas, kuchli, chidamli, halq himoyasiga doimo tayyor turish kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalash vositasi sifatida ko'rsatib o'tilgan[1]. Zamonaviy jamiyatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish va ushbu tendentsiyalarning ta'lim muassasalari uchun jismoniy tarbiya dasturlarida aks etishi jismoniy tarbiya mazmuniga ma'lum dolzarb talablar qo'yilayotganligini ko'rsatadi. Demak, bugungi kunda ham oliy ta'limda talabalarda salomatlikni saqlash va mustahkamlash borasida bilimlarga ehtiyoj bor. Oliy o'quv muassasasi talabalarining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan asosiy qadriyatlari yurtimizdagi zamonaviy yoshlarning umumiy ahamiyatli qadriyatlari tizimida yuqori reytingga ega. Talabalar faol jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini yuqori baholaydilar. Katta kurslardagi talabalar orasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini baholash biroz pasayib borishi kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv obyekti: Jizzax davlat pedagogika instituti talabalaridan 1050tasi o'rganildi. Bularndan: 695 (63,3%) – 1 kurs talabalar,– 2-kurs talabalar 89 kishi (3,3%) , 3kurs talabalar 266(25,5%) respondentlar – erkaklar(550ta)

va ayollar(500 ta) qatnashdilar. Tadqiqot usullari: Ushbu mavzuni tadqiq qilishda maxsus adabiyotlarni o'rganish, so'rovnoma o'tkazish, matematik ma'lumotlarni qayta ishlash kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz esa tadqiqot usuli sifatida so'rovnoma maxsus savollardan tuzilgan anketalar yordamida o'tkazdik.

Tahlil va natijalar. O'rganish natijalariga ko'ra, talabalar jismoniy tarbiya va sportning zamonaviy inson uchun ahamiyatini yuqori baholashi ma'lum bo'ldi. 53,3% hozirda faol jismoniy tarbiya va sport inson uchun juda muhim, deb hisoblaydi va 33,5% bunday qadriyatni unchalik muhim emas deb tan oldi. Respondentlarning atigi 3,3 foizi inson uchun jismoniy tarbiya va sportni muxim emas deb hisoblaydi. Biroq, bu tadbirlarning o'zlari uchun ahamiyatini baholashda, ularni juda muhim deb baholagan talabalar soni 46,1% ga kamaydi va ular uchun juda muhim bo'lmagan talabalar soni -47,1% ga oshdi. Ushbu tadbirlar ahamiyatsiz bo'lgan talabalar soni, amalda bir xil darajada saqlanib qoldi -4,9%. Shunday qilib, agar talabalar jismoniy tarbiya va sportni muhimligini juda yuqori deb bilishgan bo'lsa: 1-2 kurs - 63,4% - 71,0%, 3- kurslar - 76,5% ekanligi ma'lum bo'ldi.

Oliy ta'lim talabalari uchun ijtimoiy motivatsiyalar ham muhim o'rinni egallaydi: qarama-qarshi jinsdagi odamlarni e'tiborini qozonish (23,6%); aloqa doirasini kengaytirish (37,3%); kelajak kasbi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallash (25,0%). Shunisi e'tiborga loyiqki, "boshqalar sizning jismoniy rivojlanishingiz va sog'ligingizni qanday baholashi sizni qiziqtiradimi" degan savolga javob? atigi 31,0% "menga farqi yo'q" deb javob bergan. 21,5% bundan juda xavotirdaman, 47,4% esa biroz xavotirdaman, deb javob bergan. Bu shuni anglatadiki, faol jismoniy tarbiya va sport talabalarining sog'lig'i va

jismoniy holatining madaniy ahamiyatga ega standartlariga rioya qilish kabi ijtimoiy muammoni hal qilishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Jismoniy madaniyat va sportning talabalar orasida ahamiyati katta ekanligi fikrlarini o'rganish orqali aniqlandi. Jismoniy salomatlik ko'rsatkichlari ushbu shaxsning xususiyati sifatida aqliy qobiliyatlarning mavjudligidan keyin ikkinchi o'rinda turadi (74,7%): 56,9% salomatlik yaxshi ekanligini ko'rsatdi; mukammal jismoniy holati uchun -50,3%. Bu ko'rsatkichlar talabalar uchun musiqa va adabiyotga (34,9%), shuningdek, kino va teatr (28,7%) jalb qilishdan ko'ra muhimroqdir. Zamonaviy madaniyatli shaxsning muntazam ravishda jismoniy mashqlar (sport) bilan shug'ullanishi zarurligini respondentlarning 27,1 foizi bildirgan. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar jismoniy tarbiya qadriyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishadi. Jamiyatning kundalik hayotiga sport ham faol kirib bomoqda. Sport tomosha sifatida, dam olish maskani sifatida tobora ommalashib bormoqda. Tadqiqotda talabalar ommaviy tomosha shaklida sportga

qiziqish bildirishdi. Respondentlarning 66,3 foizi sport musobaqalarini televizor orqali tomosha qiladi, musobaqalarga borib ko'rishadi -30,8%, sport gazeta va jurnallarini o'qish (gazeta va jurnallarda sport bo'limlari, sport haqidagi maqolalar va boshqalar) - 19,1%.

Xulosalar va tavsiyalar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari jismoniy tarbiya darslarini va umuman jismoniy tarbiya va sport ishlarini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida ta'lim organlari tomonidan "Jismoniy tarbiya" faniga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi va uning roliga yetarlicha baho bermayotganligini ko'rsatdi. Tadqiqot yosh avlodni ijtimoiylashtirishning qudratli omili va axloqiy, axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirishning kuchli omili va shaxsni har tomonlama rivojlantirishda faol jismoniy tarbiya va sportning roliga jiddiy baho bermaslik aniqlandi. Boshlang'ich kurs talabalari orasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati katta ekanligi va yuqori kurs talabalari orasida pasayib borishi aniqlandi. Bunga sabab o'quv yuklamalarning ortishi, vaqt yetishmasligi sabablari aniqlandi.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. Фирсин С.А. Пути модернизации физического воспитания в общеобразовательных школах / С.А. Фирсин // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2014. – № 11 (117). – С. 159-162.
3. Фирсин, С.А. Отношение учителей физической культуры к новациям в процессе физического воспитания учащихся общеобразовательных школ / С.А. Фирсин, Н.И. Ковалева // Физическая культура, спорт – наука и практика. – 2014. – № 3. – С. 10-12



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA GENDER TENGLIK TUSHUNCHASINI SINGDIRISH (MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA)

KUSHAKOVA GULNORA-Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlanayotgan raqamli ta‘lim muhitida gender tengligi tushunchasini singdirish haqida so‘z boradi. Maqola mavzusini yoritib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar.** gender tengligi, ijtimoiy tenglik, huquqlar barovarliligi, ta‘limda gender tushunchasi.

**Абстракт.** В статье говорится о внедрении концепции гендерного равенства в развивающую цифровую образовательную среду у будущих учителей. В целях уточнения темы статьи использованы научные разработки наших зарубежных и отечественных ученых. Выводы из статьи могут быть использованы при подготовке будущих учителей.

**Ключевые слова.** гендерное равенство, социальное равенство, равноправие, концепция гендера в образовании.

**Abstract.** The article talks about inculcating the concept of gender equality in the developing digital educational environment in future teachers. In order to clarify the topic of the article, the scientific research developments of our foreign and local scientists were used. Conclusions from the article can be used in training future teachers.

**Keywords.** gender equality, social equality, equality of rights, concept of gender in education.

Kirish. XXI asrning so‘nggi 10 yilligida ommalashgan tushunchalardan biri bu gender tengligi tushunchasidir. Ushbu tushuncha xayotimizning xar bir jabhasida xar bir sohasida kirib bordi. Avvalombor, gender tengligi tushunchasi va uning mazmun mohiyatiga to‘xtalib o‘tsak, Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba‘zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichidir. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash

uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi.

O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

So‘nggi 5 yil mobaynida gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bilan

bog'liq ikkita qonun, Prezidentimizning 6 ta farmon va qarori, hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi. Gender tenglik nafaqat inson huquqini ta'minlash, balki, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ezgu qadriyatdir. Qolaversa, gender tenglik — bu, mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Shu bois, bugungi globallashuv davrida jamiyatda bu masalaga yurtboshimiz tomonidan ustuvor e'tibor qaratilmoqda.

Gender tenglikning huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu borada 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan umuminsoniy tamoyillarni alohida e'tirof etish joiz. Unda erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak”, deya ta'rif berilgan. BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida “Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktga ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi”, deb ta'kidlangan.

Ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat bermoqda. Xususan, so'nggi yillarda bu sohadagi huquqiy va amaliy

ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Oxirgi to'rt yil mobaynida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bilan bog'liq ikkita qonun, Prezidentimizning 6 ta farmon va qarori, hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi.

Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi[1]. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi. Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan “2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Shunday o'zgarishlar va islohotlarning natijasini ko'rishimiz uchun biz avvalo, xalqimizning ongiga bu boradagi ijobiy tushunchalarni singdira bilishimiz zaruratdir. Ma'lumki, xar qanday g'oyaning singdirilishida eng avvalo, ta'lim jarayoni yotadi. Shunday ekan, biz xalqimizni gender tengligi tushunchasini

milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz ila singdirishimiz uchun avvalombor, ta'limda ushbu tushunchani shakllantirishimiz kerak. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lg'usi o'qituvchilarda gender tengligini singdirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak:

1) Gender tengligi tushunchasi bu faqat ayollarning huquqlarini himoya qilishgina emasligini tushuntirish;

2) Ushbu tushuncha aslida jamiyatda jinsidan qa'tiy nazar, xar qanday jarayonda ham erkak va ayolning teng huquqlari mavjudligini anglatish;

3) Gender tengligi tushunchasi ortida ijtimoiy munosabatlarning eng normal ko'rinishi turishini tushuntirish;

4) Gender tengligi tushunchasi faqat huquqlardan emas, balki majburiyatlardan iborat ekanligi haqida batafsil tushuntirish;

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlar bu so'nggi yillarning ijtimoiy va siyosiy adabiyotlar va qonunchilik manbalarini aytish mumkin. Respublikamzida gender tengligi masalasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan olimlar bir qator, shular sirasiga, A.Mavlonov, I.Siddiqov, T.Norboyeva va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Ushbu mavzuning dolzarbligi ham shundaki, ta'limda gender tengligi tushunchasi masalasida aynan biror bir ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. Respublikamizda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarning aksariyati gender tengligi tushunchasini ijtimoiy va siyosiy tushuncha sifatida o'rganishgan.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga Yevropa va Rossiyaalik olimlarning asarlarini kiritish mumkin. Bunda asosiy e'tiborni o'qituvchi shaxsini tarbiyalash, ularning

bu masaladagi ko'nikam, malakalarini shakllantirish zarurligiga qaratish zarurligini bunga sabab aynan o'qituvchi shaxsi jamiyatning bo'lajak a'zolarini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlarda o'qitadigan va tarbiyalaydigan shaxs ekanligidir deya urg'u beradi Rossiyalik pedagog olimlar. Ko'pgina rus tadqiqotchilari (I.S.Kon, O.M. Zdravomyslova-Stoyunina, L. V. Shtyleva, L. V. Popova, S. G. Aivazova, G. G. Sillaste, E. N. Kamenskaya, M. L. Butovskaya va boshqalar)[2,3] o'z asarlarida so'nggi o'n yil ichida ta'lim jarayonida gender tushunchasi borasida va ijtimoiy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar ro'y berganini ta'kidlashadi. Ulardan eng ko'zga ko'ringanlari: tenglik rivojlanayotgan davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda, bu esa ayollarning turli jamoat sohalaridagi o'rni va rolini qayta ko'rib chiqishning qaytarilmasligiga olib keladi; ayol va erkak ijtimoiy rollarining qutblanishining zaiflashishi-mehnat taqsimotining qat'iyligini kamaytirish; erkaklik va feminizmning madaniy stereotiplari kamroq qattiq va qutbli bo'lib bormoqda; nikohni tenglashtirish o'sib bormoqda, nikoh munosabatlari, zamonaviy ayolning nikoh va oilaviy holatining ahamiyati o'zgaradi. Shubhasiz, ta'lim sohasi ham sivilizatsiyalashgan jamiyatning o'zgaruvchan me'yorlariga amal qilishi kerak, shuning uchun pedagogika va ta'lim belgilangan o'zgarishlarni tushunishi va gender masalalarida o'z pozitsiyalarini sozlashi kerak. Rus olimi ayollaridan biri E. R. Yarskaya-Smirnova ta'limning aniq va yashirin funksiyalarini tahlil qiladi va ta'lim talaba shaxsining gender identifikatsiyasini shakllantirishga katta hissa qo'shadi degan xulosaga keldi.

Barcha darajadagi ta'lim muassasalari

(bolalar bog'chasi va oliy ta'limdan keyingi ta'limgacha) gender munosabatlari bo'yicha darslar o'tkazadilar va madaniyatga xos bo'lgan gender stereotiplarini takrorlaydilar. Zamonaviy ta'limda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlagan, gender stereotiplari va tenglik masalalarini tahlil qilgan ta'limdagi gender tadqiqotchilari V. N. Argunova, T. V. Barchunova, I. S. Kletsina, T. B. Kotlova, N. V. Osetrova, L. V. Popova, A. V. Smirnova, L. V. Shtileva, E. R. Yarskaya-Smirnova va boshqalarni misol sifatida aytib o'tish mumkin. Ushbu olimlar o'quvchilarning patriarxal gender stereotiplarini qanday o'rganishini va maktablar o'quvchilarni jinsi asosida qanday kamsitishini ko'rsatib beradi. Va buning yechimi sifatida bo'lajak o'qituvchilarni diskriminatsiya xolatini qoralaydigan qilib tarbiyalashni taklif qiladi[4,58].

Tahlil va natijalar. Mavzu borasidagi tushunchalarni tahlil qilar ekanmiz, albatta, milliy qadriyatlarimiz va mentalitetimizga ko'ra bizda uzoq asrlar davomida jamiyatda erkak kishi yetakchiligi singdirilgan. Ayollar ko'p hollarda oilada ro'zg'or va farzand tarbiyasi borasidagi tashvishlar bilan band bo'lib kelgan. Ta'lim jarayonida ham qizlarni maktabdan keying ta'limni davom etirmasligi qizlarimizning ongiga singdirilgan. Bo'lg'usi pedagogning gender tengligi tushunchasi bilan tarbiya qilinishining ma'naviy mohiyati ham aslida shundan iborat. Pedagog o'z faoliyati jarayonida o'quvchilarni jins nuqtai nazaridan ajratmasligi o'ta muhimdir. Masalan birgina o'quvchida kasb tanlash jarayonida ham o'qituvchilar bazan xatolarga yo'l qo'yishadi. Qiz bola o'quvchi uchuvchi yoki boshqa biror murakkabroq kasb egallashga bo'lgan qiziqishi haqida gapirsa o'qituvchi ushbu kasbni qiz bola

uchun murakkabligi haqida aytadi. Aslida mana shu jarayonning o'zi ham gender tengligi tushunchasini buzilishiga olib keladi. Va o'qitish jarayonida ham qizlar ham o'g'il bolalar kabi istalgan kasb egallashi mumkinligi haqida tushuncha singdirilishi o'ta muhimdir[3,65].

Shu bilan birga, psixologik va pedagogik yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, "gender tushunchasi" atamasi kamdan-kam qo'llaniladi va tavsiflanadi. Ko'pincha "gender tushunchasi" va "gender kompetentsiyasi" tushunchasi pedagogik faoliyat kontekstida (o'qituvchi, bitiruvchi, talabaning gender kompetentsiyasi) ko'rib chiqiladi. Bu holat nafaqat tadqiqot jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi, balki "gender kompetentsiyasi" tushunchasini talqin qilishda ham, uning tarkibiy va mazmunli xususiyatlarini aniqlashda ham aniqlik kiritish zarurligini ochib beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, gender tushunchasining tarkibiy qismlarini ishlab chiqish, ularni maksimal darajada konkretlashtirish kelajakdagi mutaxassislar orasida uni shakllantirish samaradorligining asosiy shartidir.

Albatta, xar bir sohada jahon tajribasi muhimdir. Lekin gender tengligi tushunchasi o'zbek xalqi uchun ozgina nozikroq tushunchadir. Sharq mamlakatlarida azal-azaldan ayol va erkak o'rtasidagi notenglik islom dini bilan bog'liq bo'lib kelgan. Va ushbu jarayon qadriyatlarimiz bilan mutassil bog'lanib ketgan. Lekin dunyo kundan kunga rivojlanib borayotgan bir paytda ushbu o'zgarishlarni qabul qilmalsikni va islohotlarni shu jarayonga moslamaslikning iloji yo'qdir.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarni gender tengligi

tushunchasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng avvalo mentalitetimiz va ongimizdagi o'zgarishlar bilan birgalikda olib boriloshi muhim. Zero, uyda onalar o'zining bir necha farzandlarini tarbiyalaydi, pedagog esa bir necha shaxslar guruhini tarbiyalaydi. Pedagog shaxsigina

o'quvchiga irq, jins va kelib chiqishidan qat'iy nazar, tenglikni va o'zaro xurmat tushunchalarini singdira oladi. Bunday tarbiyalangan o'quvchi esa kelgusida xar qanday taraqqiy topayotgan jamiyatning tayanchiga aylana oladi.



#### Foydalanilgan Adabiyotlar:



1. 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni
2. Бурякова О. С. Проблема соотношения понятий «информация» и «знание» в контексте современных зарубежных и отечественных исследователей // Гуманитарные и социально-экономические науки. — 2010. — № 1. — С. 47–51.
3. Краткий психологический словарь / ред. А. В. Петровский, М. Г. Ярошевский ; ред.-сост. Л. А. Карпенко. — Рос тов н/Д. : Феникс, 1998. — 512 с.
4. Лежнина Л. В. Современный стандарт профессионального обучения: каким он может быть? // Психология обучения. — 2014. — № 12. — С. 5–15.

## OILADAMA'NAVIYQADRIYATLARNIRIVOJLANTIRISHNI NGPEDAGOGIK IMKONIYATLARI

MIRAZIMOVA MUHABBAT  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan oilada ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'rganilib chiqilgan. Bundan tashqari farzand tarbiyasida, uning ijtimoiy hayotida, jamiyat orasida o'zini tutishi va odob-axloqida oila va oilaviy qadriyatlarining o'rni to'g'risida izlanishlar va tahlillar keltirilgan.

**Kalitso'zlar:** milliy, qadriyat, ma'naviy - ma'rifiy, oila, jamiyat, qarindoshlar, do'stlar, bolalar, pedagogik imkoniyatlar.

**Аннотация.** В данной статье автор изучил педагогические возможности развития духовных ценностей в семье. Кроме того, есть исследования и анализы о роли семьи и семейных ценностей в воспитании ребенка, в его социальной жизни, поведении и манерах в обществе.

**Ключевые слова:** национальное, ценностное, духовно-воспитательное, семья, общество, родные, друзья, дети, педагогические возможности.

**Annotation.** In this article, the author has studied the pedagogical possibilities of developing spiritual values in the family. In addition, there are researches and analyzes about the role of family and family values in the upbringing of a child, in his social life, behavior and manners in society.

**Keywords:** national, value, spiritual - educational, family, society, relatives, friends, children, pedagogical opportunities.

Kirish. Axborotlashgan dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi jarayoni kuchaymoqda. Bu ijobiy holat bo'lib, uning natijasida odamlarning tasavvur dunyosi, ong va tafakkuri o'zgaradi. Ammo, shu bilan birga, u yosh avlodning ma'lum qismida an'anaviy qadriyatdan, axloq-odobdan uzoqlashish holatlarini vujudga keltiradi. Zero, mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, madaniyati, qadriyatlari tarixini anglashga qiziqishi kuchaydi. O'zbek xalqi asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelgan milliy qadriyatlari bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini keng qamrab oldi. Buning natijasida xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlar rang-barang va beqiyosdir.

Oila - bu muhabbat va hurmatda

yaratilgan insonlar va qonunlarga ega bo'lgan kichik davlat. Har bir mustahkam va birlashgan oilada o'zlarining oilaviy qadriyatlari mavjud bo'lib, bu jamiyatning tuzilishiga, butunligini saqlashga yordam beradi. Oila va oilaviy qadriyatlar har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Aynan oilada shaxsiy rivojlanish boshlanadi, chunki qadriyatlar yaxlit tabiatning uyg'un rivojlanishi uchun zarur ko'nikmalarni singdira boshlaydi.

Har bir millat o'z qadriyatlarining nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajak avlodlarga yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarining saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Ushbu mas'ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan ma'naviy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo'lishini anglatadi. Hatto mustamlakachilik sharoitida yashagan xalqlarda ham milliy

qadriyatlar butunlay yo‘qolib ketmaydi. [1]

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Oila va qadriyatlar abadiy bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va alohida mavjud emas. Agar oila yo‘q bo‘lsa, unda oilaviy yo‘nalish bexosdan o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Agar biz har bir oilaning oilaviy qadriyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, unda hamma uchun farq qiladi. Ba'zilar ota-ona, qarindoshlik, turmush qurish, sog‘liq kabi qadriyatlarni ta'kidlashadi. Oilada qadriyatlarning asl mezoni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Sevgi;
2. Bolalar;
3. Adolat;
4. Sog‘lom turmush tarzi;
5. Hurmat;
6. An'analar.

Bolalarning ahamiyati - bu jamiyat, qarindoshlar va do‘stlar, shuningdek shaxsning bolalarga, oiladagi ma'lum bir bolalarga bo‘lgan munosabatining ijobiy darajasi. Oila uchun hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a'zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga intiladi.

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-urug‘chilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o‘ylasak, ko‘z oldimizga birinchi galda Abdulla

Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o‘zbek xalqining milliy fazilatlarini ulug‘lovchi, uni dunyodagi eng nozikta‘b xalqlar qatoriga olib chiqib, ko‘z-ko‘z qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yo‘q. O‘quvchilar hatto etnografik yo‘nalishda bo‘lsa-da, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini o‘yg‘otadigan o‘zbekona asarlarga chanqoq bo‘lib yurgandek tuyuladi.

Rivoyatlarga ko‘ra, bir odam farzandi uch yoshlik bo‘lganda Aflotunning oldiga boradi: “Taqsir, farzandim uch yoshga to‘ldi, endi uni qanday tarbiyalasam ekan, maslahat bersangiz”, – deydi. Aflotun esa “Afsus, farzandingiz tarbiyasiga uch yil kechikibsiz”, – deb javob beradi. Demak, donishmandlarning xulosalariga ko‘ra, farzand dunyoga kelgan kundan boshlab tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Boshqacha qilib aytganda, farzand tarbiyasi u dunyoga kelgan kundan boshlanadi. Ota-ona buni juda chuqur tushunishi, anglab olmog‘i lozim. Balki, tug‘ilmasidan oldin, ona qornidanoq tarbiya bilan shug‘ullanmoq kerakdir. Shuning uchundir, ayrim mutaxassislar homilador onaga ko‘proq mayin, sokin musiqa tinglashni, shovqinsuronlardan, baqir-chaqirlardan uzoqroq bo‘lishni tavsiya etadilar. Pedagoglarning xulosalariga ko‘ra, bolaga to‘rt-sakkiz yoshlarida ko‘pdan ko‘p ijobiy ma‘lumotlar berish kerak. Aytaylik, oila, ota-ona, qarindosh-urug‘, Vatan, tarixiy

9	
7	
	8
6	

qahramonlar, ulug‘ donishmandlar, shoirlar, sarkardalar haqidagi latifalarni, voqealar va hodisalarni tushuntirib borish kerak. Toki bolaning murg‘ak qalbida ezgulikka, yaxshilikka moyillik hislari kuchayib, uning fe‘l-atvorini, xarakter xususiyatlarini shakllantirsin. Bolaning to‘rt-sakkiz yoshlarida to‘plagan ma‘lumotlar bazasi qandayligidan kelib chiqibuning bir umrlik hayot yo‘lini, inson sifatidagi fazilat-u nuqsonlarini belgilab berar ekan. Demak, ota-ona farzand tarbiyasi uchun mas‘ul, to‘la javobgar shaxs.

Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko‘ra Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi ma‘naviy manba deb e‘tirof etilgan “Al-Jome‘ as-Sahih” va undan keyingi “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo‘lishga, onani e‘zozlashga, mehr-oqibatli, ilm o‘rganishga, pok va iymonli bo‘lishga da‘vat etgan. Imom al-Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda, ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm ahlini doimo moddiy tomondan qo‘llabquvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko‘plab zamondoshlari tomonidan e‘tirof etilgan. Shuningdek, o‘zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagani va nihoyatda sabr-toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan.[2]

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Davlat statistika Qo‘mitasining ma‘lumotiga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 8 871 412 ta oila yashamoqda. Eng ko‘p oilalar yashayotgan viloyatlar Farg‘ona viloyati bo‘lib, u yerda 1 023 042 ta, Samarqand viloyatida 935 265 ta oila. Oilalar soni eng

kam Navoiy viloyati bo‘lib, unda 277 706 ta oila istiqomat qiladi. Farg‘ona viloyatida eng ko‘p oilalar istiqomat qilayotgan bo‘lsa-da, lekin Qashqadaryo viloyati serfarzand oilalari ko‘pligi, xususan, 784 635 ta oilaning 114 959 tasi 4 yoki undan ko‘proq farzandlari borligi bilan ajralib turadi.

Oilada milliy tarbiya va farzand tarbiyasi haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma‘rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [3] degan chuqur ma‘noli so‘zlari inson e‘tiborini tortadi. Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma‘naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma‘lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e‘tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya‘ni oilada farzand tarbiyasiga e‘tiborsizlik illati millatning ma‘naviy tanazzulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Yuqoridagi masalani nechog‘lik xavotirli va dolzarbligi to‘g‘risidagi mulohazalarni asoslashda biz tomonimizdan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atrofficha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta‘sirini o‘rganish va zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari mavzusi bo‘yicha joylarda tekshiriluvchilar bilan suhbat, ekspert-intervyu, so‘rovlar (ijtimoiypsixologik), kuzatish, kontent tahlil, modellashtirish, matematik statistika (spss dasturi), gipotetik-deduksiya, vizualizatsiya,



longityud monitoring va ma'naviy marketing va quyidagicha empirik natijalar qayd kabi metodlar orqali o'rganishlar olib borildi qilindi(1-jadval).

1-jadval

**Respondentlardan “Ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima xalaqit beryapti”, deb o‘ylaysiz?” deb berilgan so‘rovnoma natijalari**

Mezonlar	Hududlar kesimida					
	Navoiy vil.	Jizzax vil.	Sirdaryo vil.	Samarqand vil.	Buxoro vil.	Toshkent shahri
Ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi mas'uliyatini anglamaydi	60%	57.4%	57%	53%	44%	50%

Taqiqtimiz davomida milliy tarbiyada aniqlashtirishga qaratilgan o'rganishlarimiz tayanch ma'naviy fazilatlarini shakllanganlik darajalari va aholining ichki va tashqi tahdidlardan habardorlik darajalarini quyidagicha empirik ko'rsatkichlarni qayd qildi (2-jadval).

2-jadval

**Aholining ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajasi**

№	Tahdidlar nomi	past	o'rtacha	yuqori
1.	Oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik	55%	22.2%	22.8%
2.	El-yurt taqdiriga loqaydlik	49%	31%	20%
3.	Milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik	47%	22%	31%
4.	OITS	43.3%	27.1%	28.8%
5.	Erta turmush qurish	42.2%	35.5%	22.3%
6.	Terrorizm, Diniy ekstremizm	41.5%	26.6%	31.8%
7.	Oilaviy ajralishlar	41.2%	35.5%	23.3%
8.	Narkobiznes	40.6%	33.4%	26%
9.	O'z joniga qasd qilish	40.4%	23.4%	36.2%
10.	“Ommaviy madaniyat”	39%	29.3%	31.7%
11.	Odam savdosi	38.8%	28.8%	32.4%
12.	Mahalliychilik, urug'-aymoqchilik	36.6%	31.2%	32%



## KOLLOBORATIV YONDASHUV ASOSIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

**GULNORA KUSHAKOVA**-Jizzax Davlat Pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.  
**MIRZAYEVA KAMOLA IKROM QIZI**- Jizzax Davlat Pedagogika  
instituti bosqich magistranti.

**Annotatsiya.** Maqolada kolloborativ yondoshuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish va uning hozirgi kundagi zamonaviy raqamlashtirilgan ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi. Maqola mavzusini ochib berishda xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi.

**Ка’lit so‘zlar:** kollobrativ, zamonaviy ta’lim, pedagog, dars mashg‘ulotlari.

**Аннотация.** В статье рассматривается организация обучения на основе коллоборативно-го подхода, его место и значение в современной цифровой системе образования. В раскрытии темы статьи использованы научно-исследовательские разработки зарубежных ученых.

**Ключевые слова:** коллоборационист, современное образование, педагог, урок.

**Annotation.** The article will talk about the organization of training on the basis of a collaborative approach and its role and significance in the modern digitized educational system of the present day. In revealing the topic of the article, scientific research developments of foreign scientists were used.

**Keywords:** collaborative, modern education, pedagogical, lesson training.

Kirish. Butun dunyoda xar bir soha islohotlar bilan boyitib borilayotgan bir davrda ta’lim tizimi ham islohotlar bilan qadamba qadam rivojlantirib borilmoqda. Xayotimizning xar bir qismi axborot texnologiyalari bilan o‘ralgan bir paytda ta’limda o‘quvchilar uchun dars mashg‘ulotlari jarayonini zamonaviy metodlar va jarayonlar olib borilishi uning samaradorligini ta’minlaydi. XXI asrda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi juda katta o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Endi zamonaviy pedagog doimiy ravishda o‘z amaliyotida innovatsion usullarni qo‘llashi, ijodiy izlanuvchan bo‘lishi kerak. Yangi asrning jahon pedagogikasi talabani faol pozitsiyaga qo‘yadigan bunday ta’lim modellariga o‘tish bilan tavsiflanadi. Zamonaviy Yangi O‘zbekiston ta’limining paradigmasi har kimga, istisnosiz, har bir insonga tabiatan xos bo‘lgan ko‘p qirrali rivojlanish, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish imkoniyatini berishdir. Maktab tizimidagi eng muhim yo‘nalish-

bu o‘quvchining hayotida keyinchalik shaxsiy va kasbiy rivojlanish cho‘qqilariga erishishda muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishdir. Bunday shaxsni tarbiyalash uchun bolani til vositalari bilan muloqotning turli sohalari va vaziyatlarida muayyan kommunikativ vazifalarni hal qilishga o‘rgatish, kelgusida talaba shaxsini ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish kerak.

So‘nggi yillarning ta’limda dars jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy va samarali usullaridan biri bu kollobrativ yondoshuvdir. Xo‘sh avvalo kollobrativ yondoshuv nima? Ushbu so‘zning ma‘nosi nima? U qanday kelib chiqqan? Kabi savollarga javob bersak.

Kollobrativ so‘zi rus tilidan hamkorlik deya tarjima qilinadi. Hamkorlikdagi ta’lim, qo‘shma ta’lim (hamkorlikda o‘rganish) interfaol jarayon bo‘lib, unda o‘rganish talabalar o‘rtasidagi yoki talabalar va o‘qituvchining muayyan maqsadga erishish

uchun o'zaro ta'siriga asoslanadi. Jarayon ishtirokchilari ma'lumotni birgalikda faol qidirish, uni muhokama qilish, tushunish va guruh loyihalari formatida qo'llash, birgalikda ishlab chiqish, ijodiy sessiyalar, aqliy hujum va boshqalar orqali bilimga ega bo'ladilar.

Zamonaviy pedagogikada kollobrativ ta'limning samaradorligi quyidagilardan iborat:

Bir-biri bilan tajriba almashishi mumkin bo'lgan tajribali xodimlar ustun bo'lgan guruhlar va kamroq tajribali hamkasblar bilan mashg'ulotlar o'tkazilganda hamkorlikda o'rganish eng samarali usuli hisoblanadi. Bu jarayonda quyidagilarga amal qilinadi:

► loyiha bo'yicha guruh ishini tashkil etish, bunda loyihani tayyorlashning butun siklidan o'tish kerak - maqsadlarni belgilashdan tortib, natijalarga erishishgacha;

► yarim tizimli muammolarni hal qilish, ko'p o'lchovli tahlil qilish va boshqa hollarda muammoning yechimini topish uchun bir nechta (ko'p) ishtirokchilarning

birgalikdagi intellektual harakatlari talab etiladi;

► jamoada muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish, namunalarni kuzatish va tahlil qilish va loyiha guruhlarini shakllantirish;

► mashg'ulotlarning oldingi bosqichlarida ishtirokchilar tomonidan olingan bilimlarni yetkazish;

► o'quv muhitini yaratishda, chiqarishdan oldin kerak bo'lganda, ma'lum bir loyihani sinab ko'rish;


Hamkorlikdagi ta'lim samaradorligini baholash ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan omillarning ko'pligiga bog'liqligi sababli sub'ektiv jarayonga aylanadi:

► davomiylik - hamkorlikda o'rganish bilan vaqt oralig'ini belgilash har doim ham mumkin emas;

► olingan bilimlar hajmini va ularning rivojlanish darajasini baholashning murakkabligi;

► treningning spontan tabiati - aniq dastur / trening rejasining yo'qligi;

Kollobrativ o'qitish o'qitishning



turlariga qarab (masofaviy yoki an'anaviy) vositalari quyidagi jadvalda aks etgan;

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tendensiyalarini tahlil qilish kasbiy maktabni ilg'or rivojlantirishning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, o'qitish asosiy faoliyat jarayonida olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, kasb, mutaxassislikni egallash strategik va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga hissa qo'shishi, kadrlar tayyorlash esa insonga va ishlab chiqarishga ikki tomonlama investitsiya aspektida ko'rib chiqilishi kerak. Uchinchidan, xodimlarning kasbiy malaka tuzilmasini va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllarini takomillashtirish kasblarni almashtirish jarayonining keskin o'sishini, kasbiy malaka kompleksi tarkibida ilgari to'plangan tajribaning ahamiyatini qayta baholashni hisobga olishi kerak. Kasb-hunar ta'limida AKTdan foydalanish axborot jamiyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda ta'lim tizimi "kelajakdagi zarba" sharoitida rivojlanmoqda: inson bir dunyoda tug'iladi va o'qiydi, lekin u boshqa dunyoda mustaqil harakat qilishi kerak. Bunday sharoitda kasb-hunar maktabi o'quvchilarda yangi ko'nikmalarni - bu dunyoga moslashish va o'zini topish qobiliyatini, mustaqil ravishda ma'lumot to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa odamlarga etkazish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirishi kerak. Faoliyatning turli sohalarida AKTning joriy etilishi, yangi kommunikatsiyalarning shakllanishi nafaqat kasb-hunar ta'limining an'anaviy tizimini o'zgartirishning, balki axborot jamiyatining ochiqligi va shaffoqligini shakllantirishning ham boshlanishi bo'ldi. Hozirgi vaqtda kasb-

hunar maktabini modernizatsiya qilishning asosiy vazifasi izolyatsiya, tashqi ta'sirlarga ochiqlik muammolarini hal qilish, ta'limning sifat jihatidan o'sishi va uning jamiyat va mehnat bozori talablariga muvofiqligi uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Zamonaviy sharoitda bu faqat kasb-hunar ta'limi sohasida innovatsion jarayonlarni faollashtirish, o'quv, ilmiy va amaliy faoliyatni integratsiyalashuvi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining tarmoq o'zaro hamkorligi bilan mumkin. Ta'limda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish mavjud ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishi mumkinligi shubhasiz. Ta'limning analitik, amaliy va eksperimental tamoyillarini keng qo'llash o'quv jarayonini innovatsion formatda tashkil etishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida ijtimoiy va hamkorlikdagi o'quv dasturlarini yaratish, boshqarish va tartibga solish zarurati kundan kunga dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zgartirish zarurati ko'plab omillar bilan bog'liq:

- bilimga asoslangan iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish;
- kasbiy va pedagogik xodimlar uchun Internet tarmog'iga kirish;
- ijtimoiy tarmoqlar uchun dasturiy vositalar va platformalar portlashining boshlanishi.

Bundan tashqari, keyingi yillarda o'quvchini ta'lim tizimining markazi deb hisoblaydigan bir qancha yangi nazariyalar paydo bo'ldi. Bu g'oyalar vaziyatli ta'lim (situated learning), hamkorlikda o'rganish (collaborative learning) va o'rganishga konstruktivistik yondashuvlar tushunchalaridan kelib chiqqan bo'lib, ular bilimga asoslangan iqtisodiyotning yangi modeli uchun ham asos bo'la oladi. Masofaviy ta'limda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar uchun ham

bu yondashuvlar katta qiziqish uyg'otadi. Bugungi kunda hamkorlik obro'li va istiqbolli degan ma'noni anglatadi. "Hamkorlik" atamasini keng tarqalgan ishlatiladigan atama bilan bog'lash qiyin. Ayni paytda, bunday kontseptsiya yashash huquqiga ega va Internetdagi hamkorlikdagi barcha narsalarga mingdan ortiq havolalar buning ishonchli dalilidir. Texnologiyalar, loyihalar, jarayonlar, dasturlar, ilovalar, ishlar, treninglar, tadqiqotlar hamkorlikda bo'lishi mumkin. Ingliz tilidan - hamkorlik - umumiy, birlashgan, qo'shma. Kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalarining ishi kasbiy-pedagogik xodimlarning, tarkibiy bo'linmalarining va ulardan tashqari boshqa tashkilotlarning, davlat-xususiy sheriklarning faol o'zaro hamkorligiga asoslanadi.

Agar biz ta'limda o'zaro ta'sirning ushbu shakllarini qo'llab-quvvatlaydigan kompyuter texnologiyalari haqida gapiradigan bo'lsak, ular mos ravishda:

- elektron pochta va xabar almashish tizimlari;
- jamoaviy foydalanishning ta'lim ma'lumotlar bazalari;
- ta'limning jarayonlarini avtomatlashtirish vositalari (work flow)[1].

Online ta'limda aloqalarni tartibga solish uchun mo'ljallangan va marshrutlash funksiyalari bilan jihozlangan qo'shma ishlarni ta'minlash tizimlarining asosi yuqorida sanab o'tilgan texnologiyalardir.

Ko'pgina ta'lim muassasalarida Internet darslar uchun materiallarni tarqatish, o'qituvchilar va talabalar, talabalar o'rtasidagi kollobrativ muloqot, shuningdek, asosiy ta'lim texnologiyalari va vositalarini tarqatish uchun faol foydalaniladi. Bugungi kunda o'quv materiallarini tom ma'noda hamma joyda topish mumkin: YouTube dan tortib toki oddiy ijtimoiy tarmoqdagi bloggerlarning bloglarigacha shu kabi

ma'lumotlar bilan to'lgan. Endi biz ushbu materiallarni zamonaviy mobil telefonlar, noutbuklar va kompyuterlar yordamida hamma joyda ko'rishimiz va ular bilan ishlashimiz mumkin. Bundan tashqari, elektron ta'limning asl "kontseptsiyalari" ham ba'zi o'zgarishlarga duch keldi. Dastlabki bir necha yil ichida ta'lim muassasalari mavjud slaydlar va o'quv materiallarini imkon qadar tezroq onlayn tarzda olishga intilishdi. Ushbu yondashuv ta'lim kontenti bozoridagi eng yirik kompaniya SkillSoft tomonidan kashf etilgan. Bugungi elektron ta'lim dasturlari o'qituvchi rahbarligidagi ta'limdan juda farq qiladi: ular real vaqtda filmlar, onlayn video o'yinlar va immersiv virtual tajribalar kabi ko'rsatiladi va ishlaydi. Bugun biz We-Learning ("bir-biridan o'rganish") davriga kiraymiz. Bu davr "ijtimoiy ta'lim", "norasmiy ta'lim" va "kollobrativ o'rganish" deb nomlanadi[2].

1. We-Learning e'tiborni an'anaviy ta'limdan chetga suradi va yangi fanlarni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Biz o'rganish har qanday ta'lim muassasasida baham ko'rish kerak bo'lgan bilim va tajriba to'planganligi haqidagi oddiy va chuqur haqiqatni o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'zini hamkorlikda o'qitishning yetakchisi roliga o'tkazishi kerak. Biz bir nechta eski paradigmalardan voz kechishimiz kerak. Hozirda ko'pchilik o'z o'quv dasturlari modellarini hamkorlikda va ijtimoiy ta'limning "o'rnatilgan" xususiyatlarini o'z ichiga olgan "ta'lim muhiti"ni yaratish uchun qayta belgilamoqda. O'z qadr-qimmatini oshirish yo'llari bor - bugungi ta'lim va kasbiy rivojlanish jamoasining muvaffaqiyati butunlay yangi fanlar to'plamini talab qiladi. Biz electron ta'lim davrida Flash, media dizayn, kontentni ishlab chiqishni o'rganishimiz kerak, siz hamjamiyatni boshqarish kabilarni

singdirishimiz kerak.

2. Ko'plab tahminlarga qaramay, elektron ta'lim an'anaviy ta'lim va ta'limni o'ldirmadi. Aksincha an'anaviy ta'limni yanada sifatini oshirishga xizmat qildi. Ko'plab ilmiy nashrlar an'anaviy ta'limning yaqin orada halokatini bashorat qildi. Ammo ta'lim muassasalari va tashkilotlari ko'plab lavozimlarda bilim va ko'nikmalarning asosiy darajasini shakllantirish uchun hali ham rasmiy tayyorgarlik va an'anaviy darslarga muhtoj, shuning uchun biz an'anaviy ta'limning yo'qolishidan xavotir olishimi xato bo'ladi.

3. We-Learning ko'plab yangi vositalar va platformalar uchun bozor yaratadi. Elektron ta'lim zamonaviy LMSni, turli xil rivojlantirish vositalarini va kontentni boshqarishga katta investitsiyalarni keltirib chiqarganidek, biz o'rganish ham odamlarni boshqarish, kuzatish va birgalikda ishlashni osonlashtirish uchun ko'plab yangi vositalar va tizimlarni yaratadi va qo'llab-quvvatlaydi.

4. We-Learning kasbiy rivojlanish va qayta tayyorlashdagi xatti-harakatlarni o'zgartiradi. Elektron ta'lim odamlarni xizmat safarlariga jo'natish amaliyotini to'xtatganidek, biz o'rganish odamlarning qayerda va qanday qilib o'rganish usullarini o'zgartiradi. Sun Microsystems kompaniyasining yangi Sun Learning Exchange dasturini ko'rib chiqing. Ushbu platforma odamlarga mutaxassislardan video, audio va boshqa materiallarni topish va ko'rish imkonini beradi; Bu sizga mobil telefonigizga yuborilgan qiziqish sohasi bo'yicha pochta ro'yxatlarini yuklab olish va obuna bo'lish imkonini beradi, foydalanuvchilar yangilanishlarni olishlari va o'z sharhlarini elektron pochta orqali joylashtirishlari mumkin. Elektron ta'lim bizni sinfda o'qish zaruratidan xalos qilgani kabi, biz o'rganish ham bizni ish

stoli kompyuterida o'tirish zaruratidan xalos qiladi. Birgalikda o'rganish tobora ko'proq mobil telefonlar va boshqa mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Hamkorlikda o'rganish deyarli har qanday rasmiy ta'lim shakllari bilan o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Dars oldidan odamlar o'z maqsadlarini muhokama qilish uchun Internetda yig'ilishadi. Mashg'ulot davomida ular o'qituvchidan olingan tajribani almashish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Mashg'ulotdan so'ng amaliyotchilar hamjamiyati yaratiladi, unda odamlar trening davomida o'rganganlarini amalda qo'llash haqida ma'lumot almashishlari mumkin.5. We-Learning madaniyat va yetakchilikni o'zgartirishni talab qiladi. Rahbarlarni tushunish juda muhim - ularni o'rganishga jalb qilish uchun odamlarni qo'llab-quvvatlash, madaniyat va motivatsiya berish kerak.

Ko'plab aqlli kasb-hunar ta'limi rahbarlari "butashkilotdagi odamlarni imkon qadar tezroq ma'lumot almashish va tezroq o'rganishni boshlash uchun nima qilishim kerak" deb o'ylashmoqda. Hamkorlik (qo'shma) ta'lim - bu o'rganish talabalar o'rtasidagi yoki talabalar va o'qituvchining yaqin o'zaro ta'siriga asoslangan yondashuv. Jarayon ishtirokchilari ma'lumotni faol birgalikda qidirish, muhokama qilish va ma'nolarni tushunish orqali bilimga ega bo'ladilar. Hamkorlikdagi ta'lim guruh loyihalari, qo'shma ishlanmalar va boshqalar kabi formatlarni o'z ichiga oladi[3]. Hamkorlikdagi ta'lim vaqt o'tishi bilan kengaytiriladi, bundan tashqari, ishtirokchilar bir-biri va o'qituvchi bilan muloqot qilish uchun doimiy foydalanish imkoniyatiga ega.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan ilmiy izlanishlarni sarhisob qilsak, o'quv jarayonini axborotlashtirishning eng katta samarasi

quyidagi vazifalarni hal etishda namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin

- qog'ozbozlikdan yanada tejamkor va qulay - elektronga o'tish;

- o'qitishni avtomatlashtirish va taraqqiyot monitoringi (o'quv va monitoring

dasturlarini qo'llash hisobiga);

- ta'limjarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi su'niy va vaqtinchalik chegaralarni yo'q qilish (birgalikda o'rganishning mohiyati bo'lgan jamoaviy aqlning ishi tufayli).



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Н. В. Павельева Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса // Образование. Карьера. Общество. 2010. №3 (29).
2. Дочкин, С. А. Информатизация дополнительного профессионального образования профессионально-педагогических кадров: организационно-педагогический аспект [Текст] : монография / С. А. Дочкин. – СПб. : Арден, 2010. – 226 с.
3. <http://pedgazeta.ru/report/177>



# АКМЕОЛОГИК МОТИВАЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ- НИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ

ПАРМОНОВ АКМАЛ

Қўқон давлат педагогика институти мустақил тадқиқотчиси.

**Аннотация.** Мазкур мақолада бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларига акмеологик мотивацияни ривожлантиришнинг технологияси, мотивацион ёндашувлар ва муносабатлар тизими яратиш ва шу асосида акмеологик мотивацияни шакллантиришнинг ижтимоий зарурати, педагогик асослари ва психологик омиллари тадқиқ этилган. Мақола мавзусини очиб бериш мақсадида хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишланмаларидан фойдаланилди.

**Калит сўзлар:** жисмоний тарбия, акмеологик тарбия, жисмоний тарбия ўқитувчи, дунёқараш ва тафаккур.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается технология развития акмеологической мотивации у будущих учителей физической культуры, социальная необходимость, педагогические основы и психологические факторы создания системы мотивационных подходов и взаимоотношений и, на основе этого, формирования акмеологической мотивации. Для того чтобы раскрыть тему статьи, были использованы научные разработки зарубежных и отечественных ученых.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, акмеологическое образование, учитель физической культуры, мировоззрение и мышление.

**Annotation.** This article examines the technology of the development of acmeological motivation for future physical education teachers, the social necessity, pedagogical foundations and psychological factors of creating a system of motivational approaches and relationships and, on the basis of this, the formation of acmeological motivation. In order to reveal the topic of the article, scientific developments of foreign and domestic scientists were used.

**Keywords:** physical education, acmeological education, physical education teacher, worldview and thinking.

Таълим ислоҳотида асосий эътибор таълим-тарбиянинг миллий заминини мустаҳкамлашга, таълимнинг бошқарув тизимларини такомиллаштиришга, унинг моддий-техника базасини замон талабларига мослаштиришга, таълим-тарбия жараёнини жаҳон андозалари даражасига кўтаришга қаратилади. Шу таълимий тадбирлар доирасида олий жисмоний тарбия таълими тизимининг мазмуни қайта ишлаб чиқилди, янги ўқув дастурлари ва дарсликларини ишлаб чиқиш эса таълим сифатини оширишда ягона мезон бўлди.

Шу боис бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида аксиологик ёндашув

асосида акмеологик мотивацияни ривожлантиришнинг инновацион педагогик технологиясини ишлаб чиқиш ва жисмоний тарбия ўқитувчиларини тайёрлаш тизимида жорий этишнинг назарий асосларини яратиш зарурати юзага чиқмоқда. Профессор Н.Муслимов ўзининг докторлик диссертациясида мутахассисларнинг касбий фаолиятини ташкил этиш борасидаги фикрларни бериб, қуйидаги фикрларни баён этади: “Шахсда касбий сифатларнинг мавжудлиги унинг мутахассис сифатида шаклланганлик кўрсаткичи орқали ифодаланади. ... Мутахаснинг касбий фаолиятини ташкил этиш жараёни маълум босқичларда кет-

ма-кетликда амалга оширилади”[1]. Педагогика фанлари номзоди С.Бозорова “Олий таълимда касбий- йўналтирилган ўқитиш технологияси” монографиясида касбий-йўналтирилган ўқитиш технологиясига қуйидагича таъриф беради: “Таълим олувчиларда уларнинг бўлажак касбий фаолияти учун муҳим шахсий сифатларни, шунингдек, вазифаси бўйича функционал мажбуриятларни бажаришни таъминлайдиган кўникма ва малакаларни шакллантирадиган технология тушунилади”[2]. Мазкур технологияни акмеологик мотивацияни ривожлантиришга йўналтириш, унинг имкониятларидан касбий фаолиятни такомиллаштиришда қўллаш самарали бўлади.

Шунингдек, бўлажак педагоглар тайёрлашда акмени ўстириш, акмеологик мотивацияни ўз йўналиши бўйича ижодкор бўлишга йўналтириш устувор вазифалардан биридир. Ижодий шахсни тарбиялаш муаммолари Ян Амос Коменскийнинг тадқиқотларида алоҳида ўрин тутган бўлиб, у борлиқни ўрганишга ёрдам берувчи шахс сезги органларининг билиш тизимидаги етакчи ўринни эгаллашини таъкидлаган, билиш жараёнларининг ривожланишида эмпирик, илмий ва амалий босқичларини, билишнинг асосий манбалари бўлган онг ва сезгилар хусусиятини тавсифлаб берган[3]. Бошқа бир олим К.Д.Ушинский тасаввур, фикрлаш ҳамда ирода сифатларини ривожлантиришдан иборат ижодкорлик фаолиятини ривожлантириш механизмини биринчилардан бўлиб асослаган. У ижодкорлик сифатларини ривожлантириш учун ишонч ва қатъиятни тарбиялаб бориш заруратини қайд этади[4]. Шунингдек, педагог олимлар С.Нишонова, М.Қуроновларнинг тадқиқотларида

маънавий-ахлоқий онгни шакллантириш асосида баркамол авлодни вояга етказиш ва баркамол шахсни шакллантириш концепсиялари ишлаб чиқилган[5]. Демак, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисида акмеологик мотивацияни ривожлантиришда уларнинг ижодкорлик фаолиятига ҳам алоҳида эътибор қаратиш, унинг маънавий оламини ҳам баркамоллаштириш талаб этилади.

Инглиз олими Хэйес ўртачадан юқорироқ интеллект соҳибби ва баъзи бир маълум кўникмаларни эгаллаган ҳар бир инсон ҳатто буюк асарни ҳам яратиши мумкин деган фикр тарафдори эди. У: “Ижодий ва ижодий бўлмаган одамларни ажратувчи қандайдир когнитив қобилиятлар йўқ, ” – деб таъкидлар эди[6]. Шунингдек назардан келиб чиқиб бизнинг кўпчилигимиз ижод учун зарур барча нарсаларга эга эканлигимизни, ижодий фикрлаш ва ижодий тасаввурнинг анча содда жараёнлардан иборатлигини, барчамиз “шоҳ асар”лар ярата олишимиз, фақат бунинг учун акмеологик мотивация зарура эканлигини англаб етиш мумкин.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантиришда педагогик жараённи ижодий ташкил этиш жуда муҳим бўлиб, қуйидаги тавсияларга амал қилиш талаб этилади.

Биринчидан, жисмоний таълимда аудиториядан ташқари машғулотлар даврида талабаларни кўпроқ ижодий топшириқлар билан шуғуллантириш лозим ва бу уларнинг мантиқий фикрлаш қобилиятини ўстиради. Мантиқий фикрлаш қобилияти бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисини ўз акмесига холис ва тўғри баҳо беришига имкон беради.

Иккинчидан, спорт усталари, жаҳон чемпионлари, дунё рекордини янгилаган спортчилар ва бошқа инсонларни аксиологик ёндашув асосида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантиришга йўналтириш, уларнинг ютуқлари, муваффақиятларидан илхомланиш, уларга интилиш ва ўз акмесини ривожлантириш мумкин.

Учинчидан, бўлажак жисмони тарбия ўқитувчилари учун аксиологик ёндашув асосида кадриятлар, урф-одатлар, ижтимоий стереотиплар асосида педагогик жараёни бориш мақсадга мувофиқдир.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантиришда ўқитувчининг шахс тавсифларининг идеал “мажмуи” ҳақиқатда ҳам идеал бўлиб қолаётганлиги сабабли, замонавий таълим муассасаларида касбий фаолият қийинчиликларига маълум даражада таъсир кўрсатадиган омилларни олдиндан аниқлаш зарур. Ечимни талаб этувчи муаммолар жиҳатидан шахснинг акцентуаллашган хусусиятларини инобатга олиш зарурати муаммоси ётади. Шахс акцентуаллашган хусусиятларининг психологик тавсифлари шахсларнинг таснифланган тавсифларини ажратишга имкон беради, булар – намоёишкорона, педантик, беқарор, таъсирчан, гипертим, дистимик, аффектив-лабил, аффектив-экзальтик, триотик (қўрқувли), эмотив.

Психологик-педагогик тадқиқотларнинг ўртача статистик маълумотлари ўқитувчилар характерининг кўрсатиб ўтилган хусусиятларининг рейтингини белгилашга имкон беришини инобатга олиб, А.Е.Личко, К.Леонгард, Н.П.Пизулин тадқиқотларида иштирок этган

шахслар характеридаги устувор хусусиятлари омилини эътиборга оламиз. Белгиланган шахс тавсифларининг рейтингини ифодалаймиз. Энг кенг тарқалганлари қаторини педант, намоёишкор, таъсирчанлар ташкил этади. Иккинчи ўринда аффектив-лабил, беқарор (мувозанатсиз), гипертимлар ташкил этади. Учинчи гуруҳга эмотив ҳавотирланувчан, дистимик шахслар киритилди. Психология ва педагогикада характерларнинг умумқабул қилинган таснифи бўйича шахсларнинг социологик белгиларининг тавсифларини қисқача баёнини ифодалаймиз.

Намоёишкорона (демонстратив) шахслар. Намоёишкорона ёки истерик турининг моҳияти инкор этишга қобилиятнинг аномаллигидан иборат.

Педантик шахслар. Педантик турдаги шахсларда педантик турига қарама-қарши равишда психикфаолиятда инкор этиш механизмлари жуда кам ифодаланади. Улар ҳаракат қилишдан аввал яна бир бор янада яхши ечимнинг йўқлигига, янада муваффақиятли вариантлар мавжуд эмаслигига амин бўлишни истайдилар.

Беқарор шахслар. Шахс акцентуациясининг беқарор, параноик турининг асоси аффектнинг патологик доимийлиги ҳисобланади. Беқарор шахснинг хусусиятлари қуйидагича: аффектнинг таъсири жуда секин яқунланади ва содир бўлганни ҳаёлда эслаш билан дарҳол срессга олиб келувчи эмоциялар жонланади. Бундай шахсдаги аффект узок вақт сақланади, бунда ҳеч қандай янги кечинмалар уни фаоллаштирмайди.

Таъсирчан (қўзғалувчан) шахслар. Характернинг етарли бошқарувига эга бўлмаган шахслар қизиқиш уйғотади.

Бу инсоннинг ҳаёт тарзи ва хулқи учун кўпинча эҳтиётсизлик эмас, балки ўз ниётларининг мантиқсиз амалга ошириш ҳал этувчи ҳисобланади. Ақл билан буюрилган эътиборга олинмайди.

Таъсирчан инсонлар импульсив хусусиятга эга бўлади. Уларга бирор-бир нарса ёқмаса, улар буни қабул қилиш имконини изламайди, улар учун чидамлик хос бўлмайди. Аксинча, имо-ишоралар ва сўзларда улар асабийликни ифодалайди, ўз талабалари тўғрисида очиқ баён этадилар ёки ҳатто жаҳл билан тарқ этадилар. Натижада бундай инсонлар энг арзимас сабаб билан раҳбарият ва ходимлар билан низога йўл қўяди, кўполлик қилади, ишни тажовузкорлик билан отиб юборади, ишдан бўшаш тўғрисидаги аризани беради ва бунингмумкин бўлган оқибатлари тўғрисида ўйлаб кўрмайдилар.

Гипертим шахслар. Гипертим инсонлар ҳаётга доим оптимистик назарда қарайди, хафаликни осонлик билан енгади, улар учун умуман ҳаётда қийинчиликлар халақит бермайди. Бунда кўтаринки кайфият фаолиятни амалга оширишга интилиш, юқори мулоқотчанлик ва суҳбат мавзусидан доимий четлашиш ҳолати билан бирга кузатилади, бу эса баъзан фикрларнинг чалғишига олиб келади.

Дистимик шахслар. Дистимик темперамент гипертим турининг аксини ифодалайди. Бу турдаги шахслар табиатан жиддий ва ҳаётнинг хурсандчилик томонларидан кўра кўпроқ қайғули, ғамгин томонларига диққатлари жамланади. Уларда чуқур таассуротлар уйғотган ҳодисалар улар жиддий пессимистик йўналганликни реактив депрессия ҳолатига олиб келиши мумкин.

Аффектив-лабил шахс тури. Аффек-

тив-лабил ёки циклотимик шахслар – гипертим ва дистим ҳолатларнинг алмашинуви хос бўлган инсонлардир. Баъзан бирор-бир мотивларнинг ифодаланишисиз, баъзан эса у ёки бу аниқ ҳодисалар сабабли олдинга бир у бир бу кутблардан бири чиқади. Хурсандчилик ҳодисалари бу инсонларда нафақат қувончли эмоцияларни туғдиради, балки умумий гипертимия ҳолати билан биргаликда кузатилади, бу: фаолиятга интилиш, юқори фахрланиш, ғояларнинг туғилиши кабилардир. Қайғули ҳодисалар ғамгинлик, шунингдек жавоб таъсирлари ва фикрлашнинг сустлигини уйғотади.

Аффектив-экзальтик темперамент. Аффектив-экзальтик инсонлар бошқаларга нисбатан ҳаётда жўшқин таъсирланадилар, улар хурсандчилик ҳодисаларидан қувонадилар ва қайғули ҳолатлардан бир хил ғамгин бўладилар. Экзальтация нозик, альтруистик мотивлар билан қўзғатилади. Яқинларга, дўстларга боғлиқлик, улар учун, уларнинг муваффақиятлари учун қувончлари жуда кучли бўлиши мумкин. Чуқур шахсий муносабатлар билан боғлиқ бўлмаган кучли ҳаёжонлари кузатилади. Унинг таъсирланишининг бошқа кутби – қайғули ҳолатлардан кучли таъсирчанликдир. Бахтсиз инсонларга, бемор ҳаёвонларга ачиниш, ҳамдардлик бундай инсонни умидсизлик ҳолатига олиб бориши мумкин.

Ҳавотирланувчан (кўркувли) шахслар. Бундай инсонлар уятчанлиги, ўзига ишончсизлиги билан ажралиб туради, камтарлик, ўзини паст баҳолаш компоненти мавжуд бўлади.

Эмотив шахслар. Эмотивлик сезгирлик ва нозик эмоциялар соҳасидаги чуқур таъсирланишлар билан ифодала-

нади. Бу инсонларни кўпол ҳис-туйғулар эмас, балки қалб, инсонпарварлик ва ҳозиржавоблик билан боғлиқ бўлганлари қизиқтиради. Одатда бундай инсонларни юмшоқ кўнгилли деб атайдилар.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг акмеологик мотивацияси унинг касбий фаолиятида ўқувчини ўқитиш, тарбиялаш, ривожлантириш жараёни амалга оширилади ижтимоий муҳитни яхшилашга тайёрлигини кўзда тутади. Бизнингча педагогик фаолиятнинг ижобий ижтимоий йўналганлигини тушуниш керак бўлиб, бу шахснинг айрим акцентуаллашган хусусиятларининг салбий таъсирининг чегарасини пасайтиришга имкон беради.

Ўқитувчилар томонидан юқори ахлоқий мажбуриятларни ўз фаолиятига кўрсатма сифатида идрок этиш нафақат мактабдаги маънавий-психологик муҳитни яхшилади, балки ўқитувчининг ўзининг руҳий ҳолатига ижобий таъсир қилади. Бу ҳолатда ўқитувчиларга мотивацион ўзини-ўзи бошқариш тизимида доно хулқ принципларига риоя этиш тўғрисидаги тавсияларни бериш ўринлидир. Булар қуйидаги принциплардир:

- асосийни иккинчи даражалидан ажратишни билиш;

- ички ҳотиржамлик, вазиятли халақилардан ҳимояланиш, шахсий қадриятларига таяниш;

- эмоционал етуклик ва барқарорлик, олий эмоционал-қадриятли меъёр установакасига таяниш;

- ривожланиш мантиқи, ривожланиш босқичлари, тузатиш учун имкониятлар асосида ҳодисаларга таъсир этиш чораларини билиш;

- муаммога турли нуқтаи назарлардан

- ёндаша олиш, тизимли фикрлай олиш;

- ихтиёрий кутилмаган ҳодисаларга тайёрлик, инқирозга қарши ёндашув, эҳтиёткорлик;

- воқеликни қандай бўлса шундай идрок этиш, реалистлик; воқеликни ноадекват идрок этиш таъсир жавоблари ва унга таъсир этиш натижаларининг ноадекватлигига олиб келади;

- муаммоли вазият доирасидан чиқиш, муаммони ҳодисаларнинг ячнада йирик мажмуи мазмунида, кенгроқ кўра олиш;

- кузатувчанлик, бунда нафақат воқеликни, балки ўз-ўзини, ўз-ўзидаги ўзгаришларни кузатиш;

- бошқаларни тушунишга интилиш;

- узоқни кўра олиш – ҳодисаларнинг мантиқи ва ривожланиш истикболларини тушуниш;

- барча содир бўлаётганлардан ижобий тажрибани эгаллаш кўникмаси.

Таълимдаги етакчи – таълим мазмунини сифатли янгилаш ғояларининг узатувчиси, педагогик жараённинг барча йўналишларини максимал оптималлаштира олувчи, инновацион йўналишларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш имкониятларига эга бўлган ижодий жамоани ташкил эта оладиган инсондир. Бундан ташқари, таълимдаги етакчи – бу юқори синфдаги профессионал бўлиб, ўзининг инновацион ишида издошларига эга бўлиши шартдир. Юқорида келтирилган сифатлар билан бир қаторда, етакчи-раҳбар кадрларни танлаш ва касбий ва ахлоқий компетент педагоглардан ташкил топган ижодий педагогик жамоани бошқариш қобилиятларига эга бўлади. Педагогик етакчи жамоалардаги кўпгина ҳолатлар маъмурларнинг фаол позицияларига боғлиқ бўлади. Айнан улар таълим сиёсатинининг дастлаб-

ки яхлит кўринишини ташкил этади.

Таълим ривожланиши йўналишини белгилаш ва ўзгаришлар кўламини тўғри баҳолаш, ишни такомиллаштириш ва таълим жараёни иштирокчиларини рағбатлантириш учун шароитлар яратиш қобилияти – етакчи муассаса раҳбарининг асосий сифатлари ҳисобланиб, улар мос семинар давомида яққол ифодаланиши мумкин. Фақатгина келажак идеалини ёки таълим сиёсатини амалга оширишдаги аввал эришилган натижаларни тарғиб қилиш билан чекланадиган етакчи таълим муассасаси раҳбарининг тиришқоқлиги бутун муассасанинг етакчилик кўрсаткичи бўлиб хизмат қила олмайди, чунки бундай муассасадаги етакчилик сифатларининг шаклланиши жараён яқунланмаган ҳисобланади.

Шахснинг эҳтиёжли-мотивацион соҳасининг тавсифи педагогик фаолият ва касбий манфаатларнинг етакчи мотивларини аниқлашни кўзда тутаяди. Интеллектуал компонент заковат даражаси, дунёқарашнинг кенглиги, узлуксиз мустақил таълим олиш қобилиятини баҳолашни ўз ичига қамраб олади. Касбий сифатлар ўз ичига ўз фанидан чуқур билимларини, ўз билимларини ўқувчига еткази олиш кўникмаларини киритади. Эксперт баҳолари бўйича таълим етакчиси сезгир ва мулоқотчан, ривожланган тасаввурга эга инсон сифатида ифодаланади. Унга тартиб-интизомлик, шижоат ва етарлича эмоционал барқарорлик ҳамда мулоқотда эҳтиёткорлик, самимийлик ва ишонч хосдир.

Ўқитувчилар учун ўз ишларини такомиллаштиришларида қандай билимлар етишмаслиги тўғрисидаги саволга респондентлар қуйидагиларни санаб ўтдилар: «Замонавий таълим фалсафаси»,

«Инсоннинг ўрганишнинг замонавий психологик методикаси», «Янги таълим технологиялари тўғрисида», «Санъат, психология соҳасида», «Таҳлилий фикрлаш кўникмалари», «Методикаларни билиш», «Мониторинглар бўйича», «Иқтисодий ва юридик», «Риторик маданиятшунослик», «Ўқитиш методикасининг хорижий тажрибалари» ва бошқалар.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантириш ҳам педагогик жараён бўлиб, унга қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим.

1. Таълим муассасаси инсоннинг ўзи етарли тайёрланмаган соҳаларида шахсини ривожлантириш ва унинг ҳар томонлама қобилиятларини ифодалаш учун шароитларни таъминлаши керак.

2. Ўқув модулларининг кенг мажмуи асосида мақсадли интенсив тайёргарлик. Мақсадли тайёргарлик икки даражали ўқитишни мужассамлаштириш орқали амалга оширилади.

3. Фаол ўқитиш методларини ўқув вақтининг умумий ҳажмидан 60-75 фоизгача етказиб, улардан кенг фойдаланиш. Уларга қуйидагилар тааллуқли: ишбилармонлик ва ролли ўйинлар, аниқ вазиятларнинг таҳлили, ғоялар аукцион, давра суҳбатлари, ижтимоий-психологик тренинглар, диалог шаклида кичик гуруҳларда амалий машғулотлар, шахсий компьютердан фойдаланиб дастурлаштирилган ўқитиш. Ўқитишнинг фаол шаклларида фойдаланиш инсоннинг ички имкониятларини фаоллаштиришга ва ўйинли вазиятларда бошқарув муаммоларини ҳал этилишини моделлаштиришга имкон беради.

4. Юқори малакали олимлар, педаго-

глар ва раҳбарларни жалб этиш ва ўқитишни ўқитувчи шахсига йўналтириш. Бунинг учун таълим муассасасида ОТМ ва илмий тадқиқот институтларининг энг яхши ўқитувчилари, маданият ва санъат арбоблари ва бошқалар ишлашлари керак.

5. Замонавий техник воситалардан, аввало шахсий компьютерлар, ўқув телевидения, аудиовизуал техник воситалар. видеокамералардан фойдаланиб ўқув жараёнини автоматлаштириш, техник воситаларни қўллаш, бир томондан ўқитувчилар меҳнати сарфини қискартиради

ва ўқув жараёнини бошқариш фаоллигини оширади, бошқа томондан амалий ишда тингловчиларда техник воситалардан фойдаланишга психологик тўсиқни бартараф этишга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиалрида акмеологик мотивацияни ривожлантириш уларга аксиологик ёндашув устуворлигида таълимни ташкил этиш, қадрияли муносабатни шакллантириш ва шу асосида тизимли ўқув ва жимоний машғулотларни ташкил этишга қаратилади.

Использованная Литература:

- 1.Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
- 2.Бозорова С. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологияси. Монография. Тошкент.: -Б. 70.
- 3.Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. В 2-х т. Москва.: Педагогика, 2002.Т.1. –С.656.
- 4.Ушинский К. Д. Человек как предмет воспитания. Том II (2006)
- 5.Нишонова С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока.: Афтореф. дисс...док.пед.наук. – Т.: 2008. –С.37; Қуронон М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан.докт. ... дисс. – Т.: Турон-Иқбол, 2006. –Б. 592.
- 6.Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, R.Ronning, C.Reynolds, Handbook of creativity, - New York: Plenum, 1989.

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI BOSHQARISHDA AXBOROT MONITORING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

PO'LATOV JAVDAT-O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsent  
vazifasini bajaruvchi(Phd)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini boshqarishda axborot monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar tahlil qilingan.

**Kalitso'zlar:** Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, monitoring, boshqaruv, ijtimoiy muhit, islohotlar, milliy qadriyat.

**Аннотация.** В данной статье проанализирован ряд исследований по совершенствованию системы информационного мониторинга в управлении духовно-просветительской работой студентов в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Духовно-просветительская работа, мониторинг, управление, социальная среда, реформы, национальная ценность.

**Annotation.** This article analyzes a number of studies on improving the information monitoring system in the management of spiritual and educational work of students in higher education institutions.

**Keywords:** Spiritual and educational work, monitoring, management, social environment, reforms, national value.

Kirish. Inson borki, jamiyat bilan, yaqinlari bilan, oila davrasida baxtiyor bo'ladi. Hayotidan ko'ngli to'q, ertangi kuniga ishonchi kuchli inson begonalashuv muammosiga nafaqat yo'liqmaydi, yaqinlarini ham himoya qilib yashaydi. Insonlarga bunday imkoniyat ijtimoiy muhit orqali yetkaziladi. Qulay ijtimoiy muhit yaratish va uni doim, zamon ruhiga mos tarzda o'stirib borish jarayoni - ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tizimini qamrab oladi. Bu hayotning eng dolzarb masalasi ekanligi barchamizga ayon, albatta. Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimiz, milliy an'analarimiz, rasm-rusumlarimiz, diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Ona tilimiz — xalq va davlat turmushidagi o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'ldi.

O'zbekistonda real voqelikka aylanayotgan hayotbaxsh islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar,

davlat dasturlari, turli konsepsiyalarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlarining ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyatimizning barcha jabhalarida, xususan ijtimoiy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar avvalo ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo'naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqeliklar, hodisalar ro'yobga chiqishining negizida, aholida, ayniqsa, yoshlarda ijtimoiy faollikni takomillashtirish muammosi ham yotadi. Ijtimoiy faollik nafaqat yoshlar ijtimoiylashuvining muhim bo'g'ini, balki



shaxsiy va hissiy irodaviy xususiyatlarni tarkib topishi, o'z-o'zini anglashi va baholash kabi shaxs taraqqiyoti omillarini shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ham bevosita shu sohadagi islohotlar tayanch bo'lib xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, — Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan yoshlarimiz bizning faxrimizdir.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi — “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, mamlakatimizdagi ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi:

Birinchiidan, — Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

Ikkinchiidan, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

Uchinchiidan, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

To'rtinchiidan, el-yurttaqdirigaloqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Beshinchiidan, aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

Oltinchiidan, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga erishish;

Yettinchiidan, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Manaviy-ma'rifiy islohotlar o'ziga xos bir tarbiya vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Ma'lumki, tarbiya jarayoni ham uzluksiz jarayon bo'lib, insonni har tomonlama yuksalishiga xizmat qiladi. Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi — bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu — inson ongi va tushunchalar tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgani, xalqimizning jahondagi rivojlangan millatlar qatoridan joy olishga intilishi moddiy — iqtisodiy omillar, yuksak texnologiyalar bilan bir qatorda, ma'naviy omillarni rivojlantirishni, shu bilan birga milliy qadriyatlarimizni munosib himoya qila olishimizni ham taqozo etadi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

“O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasining ishlab chiqilishi ma'naviy yangilanishlarimiz jarayonida

yana bir yangi bosqichni boshlab berdi desak, adashmagan hisoblanamiz. Yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" sifatida belgilanib, uning tamoyillari "Yagona Vatan tuyg'usi, "Adolat-qonun ustuvorligida", "Xalq roziligi", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Innovatsion taraqqiyot" g'oyalarida o'z ifodasini topgan. Muxtasar qilib aytganda, ma'naviy yangilanishlar sohasida amalga oshirayotgan islohotlarimiz ilm-fan, adabiyot, san'at va milliy madaniyatimizning yanada yuksalishiga xizmat qilib, dunyo xalqlarini mazkur sohalarda erishgan yutuqlarimiz bilan tanishtirishga imkon yaratadi.

Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimiz, milliy an'analarimiz, rasm-rusumlarimiz, diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Ona tilimiz — xalq va davlat turmushidagi o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'ldi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash sohalari yuksaldi. Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgardi, aholining turmush saviyasi o'sdi. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, odamlarning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgardi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bugun yurtimizda katta islohotlarni amalga oshirish jarayoni boshlandi. Jamiyatimiz hayotidagi bu islohotlar begonalashuvni oldini olishga qaratilgan. Bularning eng asosiylari ta'lim, sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi islohotlardir. Mazkur choralarning amalga oshirilishi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga to'la mos keladi va o'zbek zaminida tug'ilib, o'sib-ulg'aygan hamda Vatanimizning taraqqiyoti va ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan shaxslarning manfaatlarini

nazarda tutadi va ularda begonalashuv illati paydo bo'lishining oldini oladi.

O'zgartirishlarga ko'ra, namunaviy holatlarning 2 va 3 pozitsiyalari quyidagi pozitsiyalar bilan ifodalanadi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor (filial direktori o'rinbosari) (ilgari – o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektor (filial direktori o'rinbosari));

Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (filial direktori o'rinbosari) (ilgari – o'quv ishlari bo'yicha prorektor (filial direktori o'rinbosari)).

Monitoring va ichki nazorat bo'limi (1500 nafargacha talaba bo'lgan oliy o'quv yurtlarida – monitoring va ichki nazorat sektori) Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va monitoring qilish departamenti (1500 nafargacha talaba bo'lgan oliy o'quv yurtlarida – 1500 nafargacha talaba bo'lgan oliy o'quv yurtlarida – monitoring va ichki nazorat sektori) deb o'zgartirildi. Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va monitoring qilish sektori). Bo'lim (sektor) quyidagi lavozimlar bilan ifodalanadi: bo'lim boshlig'i (sektor mudiri), bosh mutaxassis, inspektor.

Yangi bo'lim – "Muvofiqlik nazorati" tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi joriy etilmoqda. Ushbu bo'lim bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassis tomonidan taqdim etiladi. Talabalar soni 1500 kishigacha bo'lgan oliy o'quv yurtlarida kafedra mudiri lavozimi ko'zda tutilmagan.

Pedagoglar jamoasining mehnatga, o'zgalarga munosabati, yuksak kasbiy mahorati, bilimdonligi, o'z-o'zini tarbiyalashi, ijodkorlikka intilishi o'quvchilar muhitida ana shunday fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan aql-zakovat, xushmuomalalik, xushmuomalalik



## OILAVIY MUNOSABATLARDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

SHARIPOVA SURAYYO-O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti  
dotsenti(Phd)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oiladagi er-xotin munosabatlari, unga umummadaniy dunyoqarashning ta'siri, farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni haqida so'z boradi. Bundan tashqari ushbu maqolada mustahkam oilaviy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oila, farzand tarbiyasi, oilaviy muhit, er-xotin munosabatlari, umummadaniy dunyoqarash, tarbiya, qadriyat, ma'naviy kamolot.

**Аннотация.** В данной статье говорится об отношениях мужа и жены в семье, влиянии на них общечеловеческого мировоззрения, роли родителей в воспитании детей. Кроме того, в данной статье анализируются факторы, влияющие на крепкие семейные отношения.

**Ключевые слова:** Семья, воспитание детей, семейная среда, супружеские отношения, универсальное мировоззрение, образование, ценность, духовная зрелость.

**Annotation.** This article talks about the relationship between husband and wife in the family, the influence of the universal worldview on it, and the role of parents in raising children. In addition, this article analyzes the factors affecting strong family relationships.

**Keywords:** Family, child upbringing, family environment, couple relations, universal worldview, education, value, spiritual maturity.

Kirish. Oila jamiyatning muhim darajadagi mustaqil guruhi bo'lib, ular asosida jamiyat yoki davlat manfaati shakllanadi, rivojlanib boradi va tabiiyki, oilalar ma'naviyati shakllanadi. Bularning asosida esa tarbiya va ayniqsa, milliy tarbiya yotadi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarga mamlakatimizdagi mavjud tuzumning ma'naviy - axloqiy, ma'rifiy va urf - odatlari hamda an'analari jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-ahloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat

qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi. Axloqiy makon va dunyoqarashni shakllantirish - bu o'z-o'ziga, dunyoga va boshqalarga refleksi munosabatda bo'lish va insoniy ahamiyatga ega bo'lish - mazmunli, olijanob, to'g'ri, yaxshi va orzu qilingan narsalarga ochiq bo'lishdir. Bu til va til imkon yaratadigan va mustahkamlaydigan qiymat va ma'noni baholash orqali sodir bo'ladi. Dunyoqarash uzoq vaqt davomida dunyo haqidagi ma'lumotlarni qayta-qayta to'plash, uni qayta ishlash va dunyoning turli tomonlari haqida mazmunli xulosalar chiqarish orqali erishiladi. Dunyoqarash sizdan faqat mahalliy va zamonaviy nuqtai nazardan fikr yuritmaslikni talab qiladi.

Oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelib qolmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam

boy bo‘lib qolsa, birdaniga ma’naviy kamolot darajasiga ko‘tarilmaydi. Pedagog-olimlar mazkur mavzuning ta‘lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rniga alohida e‘tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda. Psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar. Etnograf-tarixchilar ham oilaning kelib chiqishi va oilaviy munosabatlar madaniyatining shakllanishi bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalib, oilaviy urf-odatlar, an’analar, marosimlarning yoshlar tarbiyasiga ta‘sirini o‘rganganlar.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Oilada eng yaxshi va oliyjanob an’analar ruxida tarbiyalangan bola o‘zini anglashga, o‘zligini ko‘rsatib, o‘z shaxsini namoyon etishga harakat qiladi. Uning oldida shafqatsiz taqdirning zarbalariga ma’yuslik bilan bo‘ysinib, ulardan orqaga qarab chekinish kerakmi yoki qiyinchiliklarga qarshi qurashib, uni yengib chiqishmi - qaysi biri sharafli va oliyjanob degan savol ko‘ndalang bo‘lib turadi.

«Oilaviy tarbiyada shaxsni shakllantirishning muhim tomoni shundaki, har bir ota - ona bolasini kuchli, irodali, aqlli vaqobiliyatli bo‘lib o‘sishini orzu qiladi. Kuchli shaxsbo‘lish uchun esa bolada o‘z - o‘zini anglash mavjud bo‘lishi kerak. Bolani shaxs bo‘lib yetishishini muhim tomonlaridan biri ham o‘z - o‘zini anglash, o‘zining «Men»ini namoyon etishdir.

Faylasuf I.Kant, o‘z – o‘zini anglash axloqiylik va ma’naviy mas’uliyatning zarur shartidir, deb hisoblagan edi. Chamasi, o‘z – o‘zini anglash tuyg‘usi bizni faol xizmat ko‘rsatishga da’vat etadi, lekin bunday faoliyat odamni qayerga olib borishi ko‘p jixatdan

u kishi qanday hayotiy - axloqiy qoidalarni o‘ziga dastak qilib olganligiga bog‘liqdir. Bunday shaxslar tabiatan yaxshilikka intiluvchan bo‘ladilar, o‘zlarini qiynab bo‘lsa ham yomonlikka nisbatan keskin kurash olib boradilar va g‘alabaga erishmaguncha bu kurashni to‘xtatmaydilar.

Amerikalik sotsiolog X.Kristensen ma’lumotlariga ko‘ra, oilani tizimli o‘rganilishi XIX asrning oxirida boshlangan. Bunga qadar oila va nikohga bo‘lgan qarashlarga din, mifologiya, falsafa o‘zining kuchli ta‘sirini ko‘rsatgan. Ma’lumki, Platonning sotsiologik konsepsiyasida jamiyatning manfaatlari shaxs manfaatlaridan ustun turadi.«Benuqson, yuksak davlat – ayollar va farzandlar birligidir. Har bir nikoh davlatga foyda keltirilishi lozim» - deb yozgan Platon. Aristotel tahmin qilishicha sog‘ insonning tabiati uning siyosiy tizimga «kirishib ketishi» bilan aniqlanadi. Har qanday oila esa davlatni bir qismini tashkil etadi.

Faylasuf olimlarimiz masalaning mohiyatini ochib berishda shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabati haqidagi umumaxsiologik qonuniyatga suyangan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan nazariy konsepsiyani o‘rtaga tashlaganlar. Xuddi shu konsepsiyadan esa oilada farzand tarbiyasi ijtimoiy xarakterga ega degan boshqa bir nazariy xulosa kelib chiqishi tabiiydir. Madaniyatshunoslar oilaviy munosabatlar madaniyatining yosh avlod tarbiyasiga ta‘sirini tahlil qilib kelmoqdalar.

Oila teoriyasining rivojlanishiga fransuz sotsiologi Fredrik Le Pley(1806-1882) o‘zining sezilarli ulushini qo‘shgan. Uning fikricha, har qanday jamiyatda oila-keyingi avlodlarni dunyoga keltiruvchi, yangi tug‘ilgan odamlarda yaxshilikni rivojlantiruvchi, yomonlikni bostiruvchi eng tinch vositadir.

Agar oila kichik vahshiylarni jilovlashni eplay olmasa, oilaning o'zi aziyat chekadi, oxir oqibatda jamiyat ham vayron bo'ladi. LePley monografik tadqiq etishning asoschisidir. U tekshiruvchi, kuzatish uslubi va texnikasini rivojlantirgan. Ko'p vaqt davomida (taxminan XIX asrning o'rtalarigacha) oila jamiyatning birlamchi o'ziga xos tabiatli bir bo'lagi sifatida o'rganilgan.

Oilaviy jarayonlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni tartibga solishga intilish, bu tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhim bo'lib qolgan. Bu jarayonda amerikalik sotsiolog Talkott Parsonsning (1902-1979) alohida o'rnini ta'kidlashimiz lozim. 50-yillarda u ma'lum darajada fanlarning o'zaro ta'siri uchun ochiq va maxsus masalalarni yechishda yaraydigan «ijtimoiy harakat tizimi» ni ishlab chiqish. Bundan tashqari ijtimoiy borliqni tushunchaviy, lug'aviy talqin etishiga imkon yaratdi. Amerika oilasini tahlil qilishda T.Parsons madaniy antropologiya va etiografiyada keng tarqalgan uslub, ya'ni - qarindoshlik terminologiyasini o'rganish uslubidan foydalangan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Oilada bolaning qanday tarbiya topishi ota - ona ibratiga bog'liqligi hech kimga sir emas. Oiladagi oilaviy munosabatlar er-xotinning umumta'lim darajasi (intellektual salohiyati va ma'naviy dunyoqarash kengligi), umummadaniy saviyasi, o'z farzandlariga tarbiya bera olishlik bilim va ko'nikmalariga egaligi, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantira olishliklariga ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi. Bunda albatta ota - onalar bolalarni sevish va ardoqlash hamda ularning sog'liqlariga g'amxo'rlik qilish, shuning bilan birga ularning shaxsiyatini hurmat qilish va

hech qachon ularga nisbatan qo'pollik qilmaslik kerak va eng asosiysi ota - onalar bu boradagi o'z farzandlariga qiladigan sa'y-harakatlarini talabchanlik, ya'ni adolatli qattiqqo'llik bilan qo'shib olib borish lozim bo'ladi.

Oilada farzandlarni ma'naviy jihatdan qo'llab - quvvatlash, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi hamda ulardagi tortinchoqlik kabi salbiy holatlarni yo'qotishga yordam beradi. Bu orqali farzandlaringizda oilaviy tadbir yoki oilangiz turmush tarziga xayrixohlik shakllanadi va o'zi qatnashayotgan jarayonda faollikni yuzaga chiqaradi. Umuman olganda bolada ijobiy xislatlar yuksaladi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

«Go'dak 1-2 yoshga to'lganda ularda ilk milliy - ma'naviy xususiyatlarning nishonalarini ko'ra boshlaymiz. Chunki, bolada hosil bo'layotgan, to'g'rirog'i, ota-onalar tomonidan o'zlari ham bilib bilmay shakllantirayotgan psixologik, ong, tip, ma'naviyat, dunyoqarash bizning xohishimizdan tashqari holatda milliydir».

Barqaror oilaviy munosabatlar o'z holicha yoqimli – inoq va mehribon oilaning shunchaki bir qismi bo'lish ham yoqimlidir. Ammo mustahkam oilaviy munosabatlar ko'plab boshqa sabablarga ko'ra ham muhimdir. Ular:

- bolalar xavfsizlikda ekanlari va ularni sevishingizni his qilishadi, bu esa ularning miyalari rivojlanishiga yordam beradi;
- bolalarning ovqatlanishi, uxlashi, o'qish-o'rganishi va xulq-atvori bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi mumkin;
- oilangiz muammolarini bartaraf etish va nizolarni hal qilishni osonlashtiradi;
- farzandlaringizning mustaqilligi tobora rivojlanayotgani sababli u fikrlardagi farqni hurmat qilishni o'rganadi;

• bolalar kelgusida o'zlarining sog'lom munosabatlarini qura olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Bir-birini qadrlash – yaxshi oilaviy munosabatlarning negizidir. Bir necha usullardan foydalanishingiz mumkin:

• Bir-biringizning hayotingizga qiziqish bildiring. Masalan, bir-biringizning sport tadbirlaringiz, teatr tomoshalariningiz, badiiy namoyishlaringiz va hokazolarga tashrif uchun vaqt ajrating.

• Kun voqealari haqida gapirganda barchani suhbatga jalb qiling. Masalan, “Sevara, bugun kuning qanday o'tdi, nima yangiliklar bo'ldi?”.

• Oilaviy hikoyalar va xotiralar bilan bo'lishing. Bu bolalarga noma'lum yoki unutilgan narsalarni, masalan, ona yoshligida sport bo'yicha qo'lga kiritgan yutuqlarni yoki opa ukasi chaqaloqligida qaraganini qadrlashga yordam beradi;

• Bir-birlaringizning farqli tomonlaringizni, iste'dod, qobiliyatlaringizni tan oling va bir-biringizning kuchli tomonlaringizdan foydalaning.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations)

Demak, oila jamiyatning muhim darajadagi

mustaqil guruhi bo'lib, ular asosida jamiyat yoki davlat manfaati shakllanadi, rivojlanib boradi va tabiiyki, oilalar ma'naviyati shakllanadi. Bularning asosida esa tarbiya va ayniqsa, milliy tarbiya yotadi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarga mamlakatimizdagi mavjud tuzumning ma'naviy - axloqiy, ma'rifiy va urf - odatlari hamda an'analari jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so'ngi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomilida ham muhim o'rin tutadi.



#### Фойдаланилган адабиётлар:



1. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R., Norqulov X., D. Oila tarbiyasi asoslari. - T.: «G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi», 2009. - 142 b.
2. Mashrikszamin - Xikmat bo'stoni: Xikmatlar xazinasi. Tarj., to'plovchi hamda izoh mualliflari: X-Xomidiy va Maxmud Xasaniy. - T.: «Sharq», 2008. - 464 b.
3. Turaqulova I.X. Oilada bolalarning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash // «Ta'lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlar». IMJ -T .: 2012. 2-son.-B. 15-17.
4. <https://gujum.uz/ozbekiston/oilaviy-munosabatlarda-shaxsning-umummadaniy-dunyoqarashining-shakllanishi/?imlo=l>
5. <https://www.focusonthefamily.com/faith/whats-your-worldview/>
6. [https://www.momjunction.com/articles/family-relationship\\_00460134/](https://www.momjunction.com/articles/family-relationship_00460134/)

## SPORT TURIZMINI SAYOHATLAR YORDAMIDA TALABAL O'RTASIDA OMMALASHTIRISH.

SHOMURZAYEVA NASIBA-Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Maqolada sport turizmi va uning o'qitilishi, hozirgi kunda sohaning Respublikamizda uni rivojlantirish va uni talabalar o'rtasida ommalashtirish haqida so'z boradi. Maqola mavzusibi ochib berish maqsadida qonunchilik hujjatlaridan va ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni sport turizmini talaba yoshlar o'rtasida ommalashtirish targ'ibotlarida foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar.** innovatsion yondoshuv, sport turizmi, ichki turizm, tog' turizmi, suv turizmi, turizm mashg'ulotlari, sayohat.

**Аннотация.** В статье речь пойдет о спортивном туризме и его преподавании, о развитии отрасли в настоящее время в нашей республике и популяризации ее среди студентов. В целях раскрытия темы статьи были использованы законодательные акты и научно-исследовательские разработки. Выводы из статьи могут быть использованы в пропаганде популяризации спортивного туризма среди студенческой молодежи.

**Ключевые слова.** инновационный подход, спортивный туризм, внутренний туризм, горный туризм, водный туризм, туристическая деятельность, путешествия.

**Annotation.** The article will talk about sports tourism and its training, its development in the Republic of the industry and its popularization among students. In order to reveal the topic of the article, legislative acts and scientific research developments were used. The conclusions drawn from the article can be used in propaganda of the popularization of sports tourism among student youth.

**Keywords.** innovative approach, Sports Tourism, Domestic Tourism, mountain tourism, water tourism, tourism training, travel.

Kirish. Turizm sohasi so'nggi yillarda eng rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Sport turizmi yildan yilga rivojlanib bormoqda. Ushbu sohaning rivojlanishi ortidan albatta o'z-o'zidan sifatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu tufayli ham sport turizmi va uni o'qitishning ta'lim tizimida ahamiyati hozirgi kunda ortmoqda. Avvalo sport turizmi o'zi nima?

Sport turizmi bu sportga yo'naltirilgan turizm turi. Siz chempionat yoki o'yinni ko'rish uchun sayohat qilasiz. Shuningdek, sport bilan shug'ullanish uchun sayohat qilish odatiy holdir, masalan, ma'lum bir piyoda sayr qilish marshrutini tanlash yoki plyajda u uchun juda yaxshi bo'lgan kit yoki so'rf. Bugungi kunda sport sayyohligi rivojlanib bormoqda, chunki

kichik sayohatlarga borish avvalgi yillarga qaraganda ancha arzon. Shuning uchun o'yinni tomosha qilish yoki oddiy ko'ngil ochish uchun sport bilan shug'ullanish uchun bir necha kun sayohat qilganlar ko'p. Bizga yoqadigan sport turi va sevimli mashg'ulotlariga yo'naltirilgan sayohatga qarashning yana bir usuli.

Toza havoda va yirik shaharlardan uzoqda sport bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radiganlar uchun O'zbekiston ayni joy hisoblanadi. Yumshoq iqlim deyarli butun yil davomida sportning ko'p turlari bilan shug'ullanishga imkon beradi. Klassik qishki sport turlari uchun to'rtta tog' kurorti mavjud: Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy va Yangiobod. Tez orada ularning soni yanayam ko'payadi. Mamlakat o'zining keng va xilma-



xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi, vaholanki bu sport turlari mamlakatda hali yangilik hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ekstremal chang'i, snoubord;

- moto poygalar (Motorsysle rasing), ralli (Rallying), motokross;

- skeytbording, tog' velosipedi, toqqa chiqish, kanyonning va paraplanerlik.

Mamlakatning ulkan tog'li hududlari alohida jozibadordir.

O'zbekistonda tog' turizmi katta bo'lmagan, ammo faol rivojlanayotgan sohadir.

Go'zal manzaralari ichida yayov yurish, alpinizm, tog' g'orlariga tashriflar, to'rtta zamonaviy kurort komplekslaridan birida qishki chang'i sporti, Axamoniylar (miloddan avvalgi 6-4 asrlar) va Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 4-asr) davridan qolgan qadimgi tog' qal'alari, ming yoshdan oshgan qadimgi g'or rasmlari, 3000 dan 4000 metrgacha bo'lgan balandlikdagi tog' cho'qqilarining hayratlanarli manzarasi, aholisi iliq va mehmondo'st bo'lgan an'anaviy uzoq tog' qishloqlari, noyob nabotot, endemik va nodir yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar, go'zal sharsharalar, tog' ko'llari va toshqin tog' daryolarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Suv turizmi.O'zbekiston dengizga yoki okeanga chiqa olmaydigan sanoqli davlatlardan biridir, ammo shunga qaramasdan suv turizmi uchun juda ko'p joylar mavjud – bular G'arbiy Tyan-Shan etaklarida joylashgan Chorvoq chuqur suv havzasi, son-sanoqsiz toshqin daryolari va dengizga o'xshash ulkan Aydarko'l, Sudoche va Toshkent dengizi kabi ko'llar.Bu yerda dam olayotganda shamol

tezligida skuterda uchish yoki katamaranda atrofni ko'rib chiqish mumkin. Ekstremal dam olishni yaxshi ko'radiganlar uchun ko'plab turoperatorlar Chotqol, Pskem, Ugam, Sirdaryo kabi daryolar va boshqa ko'plab joylarda rafting qilishni taklif etishadi.

Havo turizmi.O'zbekistonda paraplanda deyarli yilning istalgan vaqtida uchishingiz mumkin, yagona cheklov yomg'irdir, chunki paraplaning qanoti matodan qilingan. Yilning eng mashhur vaqti – bu yoz, va eng yaxshi uchish joyi mamlakat tog'lari. Paraplanda uchish uchun eng mashhur joy –Toshkentdan 60 km masofada joylashgan Chorvoq suv ombori atroflari hisoblanadi. Parvozni professional ustoz bilan yoki maxsus tayyorgarlikni o'tgandan so'ng mustaqil ravishda bajarish mumkin.

Tog' turizmi. O'zbekiston tog'lari alpinizm, tog' turizmi va qoyaga chiqish kabi faol dam olish turlarini sevuvchilar uchun juda jozibali.Mamlakat hududining katta qismini asosan tekisliklar egallaydi, ammo o'lkaning ko'pgina mintaqalarida Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalarining g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan zanjirlari ham joylashgan.O'zbekistonning mashhur tog'li hududidan biri – Chimyon tog'lari, eng yuqori cho'qqisi 3309 metrli Katta Chimyon cho'qqisi. Mazkur hudud ko'plab toqqa chiqish yo'llari, piyoda yurish, qoyaga chiqish yo'llari, ot minish marshrutlari, tog' chang'isi yo'laklari va boshqalar uchun xizmat qiladi. Bu yerda uchta tog'-chang'i kurortlari – Chimyon, Bildirsoy va Amirsoy joylashgan bo'lib, ular turli xil qishki sport turlarini sevuvchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Chang'i mavsumi dekabr oyining oxiridan boshlab mart oyining o'rtalariga to'g'ri keladi. Tog' chang'isi uchun eng yaxshi vaqt fevral

hisoblanadi. Boysuntogʻ tizmasidagi Boysun buloq (amplitudasi 1415 m), festivalnaya-Ledopadnaya (-580 m) va Ural (-565 m) kabi chuqur gʻorlar, Qulasoy, Langar va Gulkam daralarining gʻaroyib manzaralari, Zomindagi Turkiston togʻ tizmasi shimoli-gʻarbiy qoyalarning shifobaxsh havosi – sayyohlar va hayajon

Ot turizmi. Mashhur naslli, asl zotli oʻzbek otlarini koʻrish, milliy ot sporti musobaqalarini tomosha qilish va naslli ot minishdan beqiyos quvonchni his etish uchun Oʻzbekistonga tashrif buyuradigan sayyohlar soni ortib bormoqda. Miloddan avvalgi II asrdanoq Fargʻona vodiysidan jang otlari Xitoy imperatori armiyasi uchun Ipak yoʻli boʻylab olib chiqilgan. Toshkent shahridan unchalik uzoq boʻlmagan goʻzal vodiya, Katta va Kichik Chimyon etagida 1600 metr balandlikda, ot sportini sevuvchilar uchun moʻljallangan “Chimyon Oromgohi” kurort majmuasi joylashgan.

Bu yerda siz dam olish maskanining goʻzal atrof-tevarakni aylanib chiqishingiz mumkin. Tajribali ustozlar endi boshlovchilarga otlarni qanday boshqarishni oʻrgatadilar, mohir chavandozlar esa mahoratini oshirishlari mumkin.

Dam olish maskanidan Chotqol va Koʻksu daryolari boʻylab Bildirsoy tizmasi atrofida ot minishingiz mumkin. Tajribali chavandozlar uchun eng mashhur yoʻnalishlardan biri bu Ugam tizmasining shimoliy yon bagʻrida, Pskem togʻli daryosi boʻyidagi yoʻnalish hisoblanadi. Ot safarining davomlilikigi 7-10 kun. Ot minish turli xil va oʻzgaruvchan naboat va hayvonot ega boʻlgan qoʻriqlanadigan hududlarda oʻtkaziladi.

Shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bogʻining Poʻlatxon platosi yaqinida, Gʻarbiy

Tyan-Shan togʻlarida, Nurota tizmasi va Aydarkoʻ koʻllarida ham bir necha kunlik otliq sayohatlari boʻlib oʻtadi. Hisor tizmasi togʻlarida ot minish yoʻnalishlari alohida qiziqish uygʻotadi. Ular Qashqadaryo viloyatining kichik togʻ qishloqlaridan boshlanadi va Surxondaryo daryosi vodiya tugaydi. Yoʻnalishlarning eng yuqori nuqtalari 4000 metrga yetishi mumkin. Yoʻl davomida sayyohlar balandlik zonalari, archa oʻrmonlari, alp yaylovlari, togʻ tundralari va baʼzi yoʻnalishlarda – koʻp yillik qor va muzliklarni kesib oʻtadilar.

Toza va shaffof havosi son-sanoqsiz oʻtlar va gullarning xushboʻy hidi bilan toʻlgan togʻ boʻylab sayohat va minglab yulduzlar bilan toʻla, tubsiz togʻ osmoni ostida olov atrofida romantik kechki ovqat taassurotlari xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Mamlakatda mavjud boʻlgan ot klublari soni sayyohlarni hayratda qoldiradi – ular oʻn beshdan ortiq. Ular Toshkent shahrida va uning atrofida, Fargʻona, Qashqadaryo hamda boshqa viloyatlarda joylashgan.

Veloturizm. Oʻzbekistonda Veloturizm ekzotika, afsonaviy va sharqona mehmondoʻstlikka boy. Mavsum aprel oyining oʻrtalarida boshlanadi va noyabr oyigacha davom etadi. Velosiped turlarini Buyuk Ipak yoʻli boʻylab sayohat, qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlari boʻylab sayohat, shuningdek hayajonli togʻ manzaralari va gulli vodiylar boʻylab sayohat bilan birlashtirish mumkin. Velosipedchilar qishloqlar va togʻ ovullari boʻylab sayohat qilganda, u yerdagi mahalliy aholining turmush tarzi bilan tanishib olishlari mumkin. Ekstremal sport turlarini yaxshi koʻradiganlar uchun esa, Samarqand yaqinida Oqtogʻ tizmasi boʻylab yoʻnalish mavjud.

Bundan tashqari, tog‘li hududlarda va yirik shaharlarda deyarli har oy issiq mavsumda ochiq tanlovlar va velosiped musobaqalari o‘tkazilib, unda hamma qatnashishi mumkin!

Ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan turizm mashg‘ulotlari bolalar bilan tabiat qo‘ynigasafarlar hamda shahar yoki qishloq madaniyat markazlari, muzey va tarixiy yodgorliklar, istirohat bog‘lari, cho‘milish havzalariga sayrlar shakllarida bo‘ladi. Safar mashg‘ulotlari avvalida safar yo‘nalishi belgilanadi. Safarga chiqish muddati, yo‘nalishi, davomiyligi, safar ishtirokchilari haqida mahalliy yashash joylarining rahbariyatlari, ichki ishlar va qutqaruv bo‘linma boshqarmalariga yozma bildirgi beriladi. Safarga chiqadigan guruhlarining ishtirokchilari saralanadi. Guruhlar 3-15 kishilik bo‘lishi mumkin. Sayohatchilar 2-5 guruhdan iborat bo‘ladi. Ularga o‘qituvchi va murabbiylardan rahbarlar tayinlanadi. Sayohatchilarning safardagi mas‘uliyati belgilanadi. Safarlarga oshpaz, shifokor, qutqaruv ishlari bo‘yicha mutaxassislar jalb etiladi. Xo‘jalik qurollari, chodirlar, tunash jihozlari, ovqat tayyorlash jihozlari, qutqaruv anjomlari tayyorlanadi. Turizm mashg‘ulotlari o‘tkazish va sayohatlarga chiqishda safar guruhlari tashkil etish va vazifalarini belgilashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi.

- Sayohatlar maqsadi va vazifasi, safarlar yo‘nalishi belgilanadi. Bunda bolalarning yoshi, jismoniy tayyorgarliklari hisobga olinadi.

- Safar yo‘nalishlari qir adirlarga, soy, daryo, ko‘l va dengizlar sohillariga, o‘rmonzorlarga belgilanadi. Topografik kartasi tayyorlanadi.

- Tog‘ sayohatlari-alpinizm va suv havzalari, dengizlarga safarlarga chiqish

hamda texnik vositalarda safar qilish maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan sayohatchilarga ruxsat beriladi.

- Ommaviy sayohatlar muddati bahor, yoz va erta kuz oylariga belgilanadi.

- Qishda va tabiat hodisalar ko‘p sodir bo‘ladigan mavsumda sayohatlarga chiqish maxsus tayyorgarlik ko‘rilgan guruhlarga ruxsat beriladi.

- Sayohat davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar, jarohatlanishlar kabi salbiy hodisalarda qutqaruv choralari ko‘rish, birinchi tibbiy yordam vositalarini tayyorlash.

- Safar guruhlarida sayohatchilarning mas‘uliyatini taqsimlash, yo‘lboshlovchi, qator oxiridagi harakatlanuvchi, oshpaz va shifokor yordamchilari, xo‘jalik jihozlari uchun mas‘ul, ommaviy tadbirlar tashkil etuvchilar belgilanadi.

- Safar uchun zaruriy jihozlarni tayyorlash: safar kiyimlari, bosh kiyim va poyabzal mavsum hamda safar yo‘nalishi xususiyatiga muvofiq tanlanadi.

- Qo‘shimcha kiyimlar, gigiyenik vositalar, yuvinish jihozlari, sochiqlar, ovqatlanish jihozlari, birinchi tibbiy yordam vositalari, igna, ip, yozuv qurollari, fotoapparat, adabiyotlar, durbin, fonar va boshqalarni tayyorlash.

- Safar chodirlari, uxlash qoplarini tayyorlash, xo‘jalik qurollari, oziq ovqat mahsulotlarini, ommaviy tadbirlar uchun jihozlar olish.

- Aloqa vositalari tayyorlash va ulardan foydalanish uslublarini egallash.

Sport turizmini talaba yoshlar o‘rtasida sayohatlar yordamida ommalashtirishning pedagogik afzalliklari quyidagilar:

- Sayohatlar talabalarni birga harakat qilishga do‘stona munosabat o‘rnatishga

o'rgatadi;

-Sayohatlar orqali talabalarni favqulodda xolatlarda tayyor bo'lishga o'rgatiladi;

-Sayohatlar talaba yoshlarning bo'sh vaqtini band qilish uchun qulay usullardan biri;

Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlar

o'rtasida sayohatlar nafaqat sport turizmi balki, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun va ichki turizmni rivojlantirish uchun ham sport turizmini targ'ib qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega jarayondir. Sayohatlar esa bu jarayonni ilg'orlashtirishning eng oldi usullaridan biridir.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Маринов Б., Райнов Д. Экстремни ситуации в туристическата дей-ност. София: Медицина и физкультура, 1989. - 77 с.
2. Квартальнов В.А. Туризм. М.: Финансы и статистика, 2000 - 314с.
3. Дрогов И.А., Фадеев Б.Г. Подготовка и повышение квалификации кадров самостоятельно-го туризма. М.: ЦРИБ Турист, 1987. -80 с.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ ВОСИТАСИДА ТАЛАБАЛАНИНГ ИЖОДКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШ

СУЛТАНОВ ХАЙТБОЙ ЭРАЛИЕВИЧ, –Чирчиқ давлат педагогика институти t

**Аннотация:** Мақолада ҳозирги глобаллашув даврида вужудга келаётган муаммолар, педагогик таълим инновацион кластери доирасида тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида STEAM таълимини татбиқ этишнинг аҳамияти асослаб берилган. Шу билан бирга -тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳаларида замонавий тадқиқот усулларини ишлаб чиқиш ва долзарб педагогик муаммолар бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари ва илмий-услубий ва тажриба-синов ишларини мувофиқлаштириш мақсадида ташкил этилган “Тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн илмий-амалий тадқиқот лабораторияси” фаолияти натижалари ҳақида гап боради.

**Калит сўзлар:** кластер ёндашуви, тасвирий санъат, STEAM тарбия, устоз-шогирд, ижодий муҳит, ижодкорлик, тўгарак.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы появляющиеся в современной эпохи глобализации, важность реализации STEAM образования как кластерного подхода к изобразительному искусству в рамках инновационного кластера педагогического образования. Кроме того, в целях разработки современных методов исследований в области изобразительного и прикладного искусства также дизайна и координации научно-исследовательской работы по актуальным педагогическим вопросам и научно-методической и экспериментальной работы в «Научно-исследовательской лаборатории изобразительного и прикладного искусства и дизайна».

**Ключевые слова:** кластерный подход, изобразительное искусство, STEAM-образование, наставник-ученик, творческая среда, творчество, кружок.

**Abstract:** The article deals with the problems emerging in the modern era of globalization, the importance of implementing STEAM education as a cluster approach to fine arts within the innovative cluster of teacher education. In addition, in order to develop modern research methods in the field of fine and applied arts, also design and coordinate research work on topical pedagogical issues and scientific, methodological and experimental work in the "Research Laboratory of Fine and Applied Arts and Design".

**Key words:** cluster approach, visual arts, STEAM education, mentor-student, creative environment, creativity, circle.

Бугунги кунда меҳнат бозори хусусияти жуда тез ўзгариб бориши билан таълим муаммолари янада муҳим аҳамият касб этиб, тобора долзарб бўлиб бормоқда. Замонавий жамиятда инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий фаоллиги ошмоқда, табиийки, бундай вазиятда жараён иштирокчиларининг касбий тайёргарлиги ва малакасига юқори талаблар қўйилади. Рўй бераётган барча жараёнлар таълимга фаол таъсир кўрсатади ва мамлакатнинг тарихий ривожла-

нишининг янги шароитида муаммоларнинг самарали ҳал қилиниши, келажақда мамлакат тақдирини ҳал қиладиган ёш авлод таълим-тарбияси жуда муҳим масала эканлиги рўй-рост кўриниб қолди. Меҳнат бозорида рақобатбардош кадрларга бўлган талаблар ўзгарувчанлиги шароитида таълим тизимини янгилаш объектив заруратга айланиб бормоқда.

Жаҳонда педагогик таълим тизимининг рақобатбардошлиги даражасини ошириш ва жаҳон стандартлари дара-

жасига кўтариш замонавий шахсининг ҳис-туйғулари, диди, тафаккури, ахлоқий ва ҳаётий кўникмаларини тарбиялаш ҳозирги глобаллашув шароити учун муҳим аҳамият касб этади. Бундай шароитда тасвирий санъат таълими имкониятларидан фойдаланмай туриб мақсадга эришиш, ҳаётда жамият ва инсон тақдирини тикилган долзарб ғояларни амалга ошириш асло мумкин эмас. Тасвирий санъат воқеликнинг бадиий инъикоси бўлиб, инсон камолотида, жамият ҳаётида улкан аҳамиятга эга. Шунинг учун бугунги инновациялар асрида замонавий бешта соҳани ягона таълим тизимига интеграциялашга асосланган STEAM тизими АҚШ ва Европада асосий таълим тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва кўплаб мутахассислар буни келажак таълими деб эътироф этишмоқда. Бу эса ўз навбатида инновацион технологиялар асосида узлуксиз таълим тизимини ўзаро интеграциялашни талаб этади.

Шундан келиб чиққан ҳолда фанларни интеграциялаш орқали иқтисодий ривожлантиришга қаратилган STEM атамаси пайдо бўлди. STEAM ва STEM ўртасидаги фарқ фақат битта А- Арт (санъат) ҳарфида, лекин ёндашувдаги фарқ жуда катта! Агар ушбу қисқартмани ёйсақ, куйидагиларни оламиз: STEAM - бу ижодкорлик санъати машҳур STEM қисқартма иборанинг ривожланган кўриниши.— S – science ёки фан, T – technology яъни технология, E – engineering, инглиз тилида муҳандислик деган маънони англатади. A – art, яъни, STEAM қисқартма иборанинг янги компоненти сифатида - санъат, яъни, мутлақо бошқа йўналишлар - рангтасвир, архитектура, ҳайкалтарошлик, мусиқа ва шеърят деб тушунилади ва M – math, фанларнинг маликаси - математика. Ин-

глиз тилида бу шундай бўлади: табиий фанлар, технология, муҳандислик, санъат ва математика. Замонавий дунё таракқиётида ушбу йўналишлар жуда машҳур бўлиб, унга бўлган эътибор ошиб кетди. Шунинг учун бугунги кунда STEAM тизими АҚШ ва Европада омалашган асосий тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва кўплаб мутахассислар буни келажак таълими деб эътироф этишмоқда.

Лойиҳалаш ишларида фанлараро боғлиқлик ва амалий ёндашув ёрдамида ўқитиш ғоясига асосланган кластер ёндашуви татбиқ этилиши билан фанлар ўртасида интеграция жараёни ўрнатилди ҳамда санъатнинг кўшилиши лойиҳа иштирокчилари имкониятини кенгайтиради. Бу ерда кучли техник ёки математик қобилиятга эга бўлмаган талабалар гуруҳга эстетик жиҳатдан мукамал лойиҳани амалга оширишда ёрдам бериши мумкин.

Таълимга бундай ёндашув учун аввало илмий ва ижодий муҳит яратилиши зарур. Талабаларнинг фаол иштирокини таъминламасдан туриб, фақат ўқитувчиларнинг сайъи ҳаракати билан жамонавий тадқиқот ишларини амалга оширишнинг иложи йўқ. Чунки ижодкорлик жараёни ҳар доим эркинлик, фидойилик ва янги ғояларга ташналик орқалигина амалга оширилади. Бу жараённи ташкил этишда:

-биринчи навбатда ижодкорлик ва инновацион янгиликка мойиллиги бор ёшларни жараёнга жалб этиш, уларни қизиқтирадиган аниқ мақсадларнинг кўйилиши;

- илмий-тадқиқот ишлари учун шарт-шароитларни яратиш;

- турли йўналишларда ижод қиладиган иштирокчилар ўртасидаги умумий

мақсад ва ўзаро ҳурматга асосланган самимий муносабат;

- ўз имкониятлари ва илмий-ижодий ишининг натижадорлигига ишонч уйғотиш муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда «Учинчи Ренессанс» пойдевори қурилаётган, таълим соҳасида ислохотлар амалга оширилаётган ҳамда таълим тизими тубдан модернизация қилинаётган бир даврда ҳар бир соҳа мутахассисларини тайёрлаш сифатини ошириш муаммоси янада долзарб аҳамият касб этади. Педагогик таълимнинг ушбу муҳим ижтимоий аҳамияти ўз-ўзидан узлуксиз таълим тизимини таълим кластер ҳамкорлиги ривожланиш моделига ўтказиш заруратини белгилайди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 апрелдаги ПФ-5987-сон фармонида таълим кластерларини яратиш соҳада самарадорликни таъминловчи омил сифатида[2] белгилаб берилган. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида “таълим йўналишлари ва мутахассисликларини оптималлаштириш, бунда STEAM йўналишларини (аниқ фанлар, технология, инжиниринг, ижодий санъат ва математика) ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш[1]га алоҳида эътибор қаратилганлигини кўрамиз. Бизнинг фикримизча, айнан кластер ёндашуви ва ўқитиш технологияларини татбиқ этиш узлуксиз таълим тизимида ўзаро назорат, рақобат, интеграция, узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш имконини беради.

Кластер ёндашуви орқали тасвирий санъат таълимида талаба-ёшлардаги ижодкорлик, яратувчанлик кўникмаларини тарбиялаш механизмларини ишлаб чиқиш муаммоларини чуқур тадқиқ қилинишини тақозо этади.

Мана шундай кластер ёндашуви асосида Чирчиқ давлат педагогика институти “Тасвирий санъат” кафедрасида ташкил этилган илмий ва ижодий тўғарақлар фаолияти орқали STEAM таълими йўлга қўйилганлигини кузатиш мумкин. Кафедрада “Тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн илмий-амалий тадқиқот лабораторияси” айнан мана шу мақсадда ташкил этилган. Бу лабораториянинг асосий мақсади:

- Тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳаларида замонавий тадқиқот усулларини ишлаб чиқиш ва долзарб педагогик муаммолар бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларини, илмий-услубий ва тажриба-синов ишларини мувофиқлаштириш;

- илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантириш тизимини шакллантириш, илмий фаолият билан шуғулланиб келаётган иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш, илм-фанга кенг жалб қилиш, соҳа бўйича илмий мактаб яратиш, кафедранинг илмий салоҳиятини ошириш;

- кафедрада амалий ва инновацион илмий-ижодий тадқиқотларни ривожлантириш, янги илмий мактаб яратиш, кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлаш;

- кафедрада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари бўйича тажриба-синов ишларини ўтказиш, фан, таълим ва тарбия ҳамда ижтимоий-сиёсий соҳани модернизация қилиш учун тадқиқот натижаларини амалиётга жорий этилишига кўмаклашиш;

- таълим олиш билан биргаликда талабаларга тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш бўйича амалий кўникмаларга эга бўлган кадрларни тайёрлаш, ёшларда фаол тадбиркорлик фаолияти уқуви ва кўникмаларини шакллантириш

шарт-шароит яратишдан иборат.

Тасвирий санъат таълимига татбиқ этилаётган бундай ёндашув орқали нафақат талабалар, балки, мактаб ўқитувчилари ва ўқувчиларининг ижодий фаолликларини оширишга муваффақ бўлинди. Охирги уч йил ичида талабалар орасидан турли халқаро ва Республика миқёсидаги танловлар, олимпиадалардаги совринли ўринларни олиши 2 бараварга ошди. Мактаблар билан биргаликдаги фаолият натижасида турли ижодий танловлар ва маънавий тадбирларда ўқувчиларнинг фаоллаштирилди ва турли кўрсаткичлар бўйича ижобий ўзгаришлар кузатилди. Бекобод туман 29-умумтаълим мактабида ЧДПИ Тасвирий санъат кафедраси билан ПТИК ҳамкорлиги доирасида шартнома тузилиб, яқин алоқалар ўрнатилгандан кейин ўқувчилардаги тасвирий санъат ва чизмачилик фанларига нисбатан қизиқишлари ортди. Тасвирий санъат кафедраси катта ўқитувчиси И.М. Марасулова ҳамда ушбу мактабнинг ёш ўқитувчиси К. Юнусовалар “Устоз-шогирд” тамойили бўйича ишлаб, Бекобод тумани 29-мактаби ва “Баркамол авлод болалар мактаби”да “Майда пластика” тўғараги фаолияти йўлга қўйилди. Бу билан ўзаро ҳамкорликда рамзий маънодаги таълим кластери занжирини яратишди. 2020 йилда 29-умумтаълим мактаби ўқувчиларидан биринчи марта Нурматова Феруза фан олимпиадаси вилоят босиқичида 3-ўринни эгаллади, яна бир нафар ўқувчи Кенжаев Хасанбой кучли ўнтакликка кирган бўлса, 2021 йилда (19 февраль, Истеъдод кўрик танлови, Камалак-АРТ танлови) ўқувчилардан Нурматова Феруза, Жўрабоева Райхона, Юнусова Муштарий, Ахмадова Сайёралар мактабни Республика миқёсида юқори натижаларга эришишди. Бундай

натижаларни ҳамкорлик шартномаси тузилган бошқа мактабларда ҳам кўриш мумкин.

Хулоса ўрнида шуни шуни таъкидлашни истардикки, тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида СТЕАМ таълимини татбиқ этиш инсонлардаги ўқитиш ва таълимга бўлган замонавий қарашлар ҳамда талабалардаги билим олишга бўлган муносабатларини ўзгартиради. Бундай ёндашув орқали амалий қобилиятлар юзага чиқади, талабалар иродаси, ижодкорлиги, турли вазиятларга мослашувчанлигини ривожлантирилади ва ҳамкорликда ижодий вазифаларни ҳал этишни ўрганади.

Бундан ташқари кафедрада талабаларнинг илмий ва ижодий фаолият юртишлари учун қулай бўлган муҳит яратилади. Эркинлик, фидойилик ва янги ғояларга ташна бўлган талабалар ҳар томонлама фаоллаштирилади, жамоавий тадқиқот ишлари олиб бориш имконияти туғилади.

- аниқ мақсадлар қўйиш орқали ижодкорлик ва инновацион янгиликка мойиллиги бор ёшларнинг ижодий фаолияти рағбатлантирилади;

- илмий-тадқиқот ишлари учун шарт-шароитларни яратилади;

- ҳамкорликдаги изланишлар орқали турли йўналишларда ижод қиладиган иштирокчилар ўртасидаги умумий мақсад ва ўзаро ҳурматга асосланган самимий муносабат шаклланади;

- ўз имкониятлари ва илмий-ижодий ишининг натижадорлигига ишонч ҳосил бўлади.

Тавсиялар: Тадқиқотнинг хулосаларига таянган ҳолда қуйидаги амалий таклифларни келтириш мумкин:

- тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида СТЕАМ таълимини та-



тбиқ этиш тажрибаларидан таълимнинг барча соҳаларида фойдаланиш мумкин;  
- бу мунозара кейинги тадқиқотларнинг бошланиш нуқтаси бўлиши мумкин

деб ўйлаймиз ва ушбу мақолада кўтарилган муаммолар ечимини келажакдаги тадқиқотларда давом эттириш мақсадга мувофиқ бўлади.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон фармони

# OMMAVIY SPORT SOG'LOMLASHTIRISH FAOLIYATIGA TALABALARNI JALB QILISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI(KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MISOLIDA)

**TURG'UNOV BAXTIYOR O'ROLOVICH- Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Jismoniy madaniyat" fakulteti, "Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada ommaviy sport turlari orqali sog'lomlashtirish faoliyatiga talabalarni tayyorlash va bu orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish haqida so'z boradi. Maqola mavzusining dolzarbligi hozirgi kunda sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni ommalashtirish zarurdir. Maqoladan olingan xulosalarni bo'lg'usi jizmoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitishda va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar.** jismoniy tarbiya, ommaviy sport, iqtidorli sportchilar, kasbiy kompetentlik, murabbiy, sog'lomlashtirish, sport tadbirlari, badantarbiya, xalqaro musobaqalar, pedagogik ta'lim uslublari, jismoniy mashqlar

**Annotation.** The article will talk about preparing students for wellness activities through mass sports and the formation of professional competence through it. The relevance of the topic of the article is due to the fact that it is now necessary to popularize physical education and sports in the upbringing of a healthy generation. The conclusions drawn from the article can be used in teaching future teachers of spiritual education and in promoting a healthy lifestyle.

**Keywords.** physical education, mass sports, talented athletes, professional competence, coach, wellness, sporting events, badantarbia, international competitions, methods of pedagogical education, physical exercises

**Аннотация.** В статье речь пойдет о подготовке учащихся к оздоровительной деятельности посредством массовых видов спорта и формировании через них профессиональной компетентности. Актуальность темы статьи заключается в том, что в настоящее время в воспитании здорового поколения необходима популяризация занятий физической культурой и спортом. Выводы из статьи можно использовать в обучении будущих учителей физической культуры и пропаганде здорового образа жизни.

**Ключевые слова.** физическое воспитание, массовый спорт, одаренные спортсмены, профессиональная компетентность, тренер, оздоровление, спортивные мероприятия, физкультура, международные соревнования, стили педагогического воспитания, физические упражнения

Kirish. Yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik,

ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-etibori va sport salohiyati yanada

oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada sport o'yinlari ommalashib borayotgani, ayniqsa, etiborlidir[1].

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va manaviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va istedodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida ta'lim berishning xususiyatlarining maqsadi o'quvchi va talabalarni organizmini jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi kechirish talablariga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya sport va sog'lomlashtirish tadbirlari mutaxassislik mashg'ulotlarini ijobiy o'zlashtirishga katta yordam beradi. O'quvchi va talabalar jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari, sport to'garak mashg'ulotlari, sport sog'lomlashtirish musobaqalari va bayramlari shakllarida bo'ladi.

Xozirgi kunda yurtimizda sport va uning ommaviy turlariga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyatga ega. Shaxsan yurtboshimiz tomonidan axoli o'rtasida sport va uning ommalashgan turlarini tarqatish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar qonunchilikdagi o'zgarishlarda ham aks etgan. Jumladan, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 03.06.2017 yildagi

PQ-3031-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriva uning ijrosi bilan bog'liq jarayonlarda ham aks etmoqda.

Tadqiqot mavzuimizning dolzarbligi, ommaviy sport va ushbu jarayonni talabalar o'rtasida kengaytirishning pedagogik zarurati faqatgin sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq emas, ommaviy sport turlari xozirgi kunda yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, fiziologik jarayonlar bilan tana bandligini ta'minlab, bu orqali intellektual qobiliyatlarini o'stirish kabi maqsadlarga erishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahliliga nazar tashalajak, adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga sport va ommaviy sport borasida yozilgan mahalliy adabiyotlarni misol qilish mumkin. Bular qatoriga, I. Azimov, T. Usmonxo'jayev, D. Safarova va F. Axmedovlarni misol qilish mumkin. O'zbek sportchi pedagogi I. Azimov ommaviy sport turlari orasida milliy mentalitetimiz, ma'naviyatimiz va marifatimizni aks etguvchi kurash, arqon tortish va boshqa bir qator milliy sport turlarini yoshlarimizga o'rgatishning pedagogik zarurati borasida fikr bildiradi[2,35].

Ikkinchi guruhga xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalarini kiritish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport tarixshunosligi turli xil adabiy manbalarni o'z ichiga oladi, monografiyalar, davriy nashrlar, ilmiy konferensiyalar va dissertatsiyalar, tadqiqotlar tezislarini o'z ichiga oladi. Tarixiy rivojlanish bilan bog'liq jismoniy tarbiya va sport harakatini ngturlimavzularinidiqqatmarkaziga qarab tasniflash mumkin. Ommaviy sport va talabalarni o'qitishdagi dolzarbligi masalalaribo'yicha jismoniy madaniyatning umumiy tarixiy tadqiqotchilari-S. D. Sinitsin, V. V. Ustunov, F. I. Samorukov, N. I. Ponomarev, G. D. Xarabuga va boshqa tadqiqotchilartomonida

no'rganilgan. XX asrning ilg'orsport tadqiqot hilaridan G.D. Xarabuga ommaviy sport turlari danyugurishni marafon shaklida o'tkazilishini oliya ta'lim muassasalarida va boshqata'lim muassasalarida tashkilotilishining ilmiy-nazariyas oslarini ishlab chiqadi [4,56].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot o'tkazilishining asosiy usulli sifatida anketa so'rov nomi tashkil etildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida doimiy ommaviy sport bilan shug'ullanadigan Jizzax davlat pedagogika universitetining 102 ta talabasi o'rtasida so'rov nomi o'tkazildi. Anketa so'rov nomi savollari quyidagicha;

1) Ommaviy sport turlarini o'qish jarayoni bilan uyg'unlikda o'tkazilishiga qanday qaraysiz?

2) Ommaviy sportlarda qatnashish sizning kasbiy ko'nikmalaringizga qanchalik ta'sir ko'rsatadi? Sizga foydasi bormi?

3) Ommaviy sport turlarini qaysi birini ta'lim muassasasida o'tkazilishi tarafdorisiz?

4) Kelgusida egallaydigan kasbingiz uchun o'tkazilayotgan ommaviy sport turlari qanchalik ahamiyatga ega?

Ushbu so'rov nomida 102 ta korrespondent qatnashdi. Shundan 12 tasi ayollar, 90 tasi erkaklar qatnashdi. Ulardan 63.3% qismi savollarga ijobiy javob berib, ommaviy sport tadbirlaridan kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish mumkin deya javob bergan. 24.5% qismi ommaviy sport turlariga shunchaki vaqt o'tkazish uchun qatnashishini aytib o'tadi. Qolgan 12.2% qismi esa ushbu tadbirlarga bo'lgan ishtirokni oddiy ko'ngil ochar tadbir sifatida qabul qilishini aytgan. Va korrespondentlarning aksariyati ommaviy sport turlarida ko'proq milliy sport turlarini ommalashtirishni taklif sifatida qoldirgan.

Talabalar va o'smirlar jismoniy tarbiya jarayonida o'smirlar musobaqasida bu narsaga katta e'tibor qaratish kerak. Shuningdek

tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga ahamiyat berish kerak.

- Tarbiya jarayonini milliy istiqlol g'oyasi yo'nalishida bo'lishi.

- Talabalarning yosh xususiyatlariga muvofiq holda har biriga individual yondashish.

- Talabalar oldiga yuksak talablar qo'yish va ularni xurmat qilishi xamda tarbiya jarayonini jonli faol, quvnoq shaklda o'tkazish.

- Pedagogik talablar bilan tarbiyaviy ta'sir bo'lishini ta'minlash [3].

Jismoniy tarbiya mutaxassislari shug'ullanuvchilarni jismoniy qobiliyatlar rivojlanganlik darajasini bilishi, shaxsiy xarakter xususiyatlarini, aql idrok xisssiyot irodalarini ahloqiy sifatleri va statik ehtiyojlardagi individual farqlarni o'rganish zarur. Tarbiyachi talabalarni o'rganishda pedagogik kuzatishlar kundaligi tutishi unga shug'ullanuvchilarni xarakterleri hulq atvori va boshqa faktlarni yozib borishlari kerak. Shug'ullanuvchilarni har tomonlama bilish asosidagina jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlarimizning natijasiga ko'ra, shuni aytish mumkinki, ommaviy sport turlarini ta'lim muassasalarida ommalashtirishning pedagogik zarurati kelgusida quyidagi natijalarni ta'minlash mumkin;

- yoshlarning bo'sh vaqtini foydali va mazmunli o'tkazishi uchun unumli mashg'ulotlar manbai;

- o'sib kelayotgan yosh avlodning tana sog'lomligini ta'minlashga olib keladi;

- tashqi tahdidlarda yoshlarimizni himoya qilish uchun qalqon (narkomanlik, ekstremizm, terrorizm va boshqalar) bo'la oladi;

- ommaviy sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish orqali milliy qadriyatlarimiz

va qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongida mustahkamlashga erishish;

Xulosa.

Talabalarni jismoniy tarbiya va sport turlariga ommaviy jalb etishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining xizmatlari keng o`rin tutadi. Talabalarni jismonan sog`lom va ma'naviy barkamol inson

qilib tarbiyalashda to`g`ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya va sport, sog`lomashtirish tadbirlarining roli katta. Jismoniy tarbiya va sport, sog`lomashtirish tadbirlari talabalarni yetuk mutaxassis kadr bo`lib etishlarida, nazariy va amaliy bilimlari takomillashib borishlarida hamda axloqiy sifatlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega.



#### Фойдаланилган Адабиётлар:



1. "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida" 03.06.2017 yildagi PQ-3031-sonli O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
2. K.D. Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» Toshkent Abu Ali Ibn Sino nashriyoti 2002-yil. 185 bet.
3. Baxtiyor Orolovich Turgunov TALABALARNI OMMAVIY SPORT SOG'LOMLASHTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №10.
4. Матвеев Л.П., Копаев В.П. Спортивные соревнования как фактор расширения физкультурной активности трудящихся // Физическая культура и современные проблемы физического совершенствования человека: материалы всесоюзной науч.-практ. конф. (Ереван, май 1984). - М., 1985. - с.155.

# REFLEKSIV MONITORING ASOSIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI

XAMRAYEVA AZIZA -t

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarni o'qitish texnologiyalarining mazmuni va o'zaro bog'liqligi va turli ta'lim bosqichlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish monitoringi muhokama qilinadi. Talabalarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish yo'nalishlari va tamoyillari belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentsiya, monitoring, talaba, pedagog, kadrlar tayyorlash, modul, o'qitish texnologiyalari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются содержание и взаимообусловленность технологий обучения студентов и мониторинга сформированности профессиональных компетенций на разных этапах обучения. Определены направления и принципы контроля профессионального развития студентов.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, мониторинг, студент, педагог, подготовка кадров, модуль, технологии обучения.

**Annotation.** The article discusses the content and interdependence of the technologies of teaching students and the monitoring of the formation of professional competencies at different educational stages. The directions and principles of monitoring the professional development of students are defined.

**Keywords:** professional competence, monitoring, student, pedagogue, personnel training, module, teaching technologies.

Kirish. Talabalar o'rtasida kasbiy kompetensiyani shakllantirish juda ko'p tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ushbu maqolada biz, bir tomondan, ushbu jarayonning texnologik tarkibiy qismining mazmunini ta'kidlashga harakat qilamiz, ikkinchi tomondan, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini monitoring qilish tamoyillari va yo'nalishlarini muhokama qilamiz. Mashg'ulotning bunday uzluksizligi o'z qiyinchiliklariga ega, ammo shubhasiz afzalliklarga ham ega.

Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma'naviyatga, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur

anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo'lida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik namunalarini ko'rsatishi lozim. Shuningdek o'qituvchida ham mahorat va san'at bo'lishi kerakki, u o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi, darsini qiziqarli qilib o'tishi va o'quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak.

Xususan, amaliy, maxsus malakalarni shakllantirish jarayonini kuzatish ancha oson. Kollejda talabalarni tayyorlashning uslubiy komponenti universitetdagiga qaraganda yuqori bo'lganligi sababli, talabalar birinchi kursdan boshlab pedagogik testlarni o'tkazadilar va u sinfdan emas, balki bola bilan bevosita muloqotda bo'ladi. Talabalarning ta'lim texnologiyalarining izchilligi aniq soxta imkoniyatlarga ega, ya'ni ko'p jihatdan o'quvchining bir ta'lim darajasidan ikkinchisiga o'tishini yumshatishga imkon

beradi.

Bizning fikrimizcha, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini qurishda ularni o'quv kurslari, ta'lim darajalari, fanlar bo'yicha "mexanik qayta taqsimlash" yo'lidan bormaslik kerak (garchi bunday ko'rsatmalar ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lsa ham). Bo'lajak o'qituvchilarda yaxlit pedagogik mahoratni shakllantirishning kompleks va tizimli yo'li haqida gapirish kerak. Va bu ma'lum talablarga javob beradigan vakolatlarning rivojlanish dinamikasini nazorat qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Agar biz pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish uchun ma'lum bir mazmunli algoritmnini tasavvur qilsak, u holda kasbiy maktabning vazifalari quyidagilar zarurati bilan bog'liq:

o'rgatish:

– kasbiy til (terminlar, tushunchalarni bilish va tushunish);

– pedagogik hodisalarni tahlil qilish va izohlash;

- pedagogik va psixologik hodisalarning mohiyatini, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish;

– pedagogik vaziyatlarni ta'limdagi innovatsiyalarga muvofiq loyihalash;

– psixologiya, pedagogika, xususiy metodlar bilimlaridan foydalangan holda amaliy masalalarni yechish algoritmini tushunish va hokazo.

talabning o'zlashtirishi uchun shart-sharoitlar yaratish:

- o'z faoliyatini tahlil qilish usullari;

- keng doiradagi kasbiy vazifalarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

- kasbiy faoliyatni o'z-o'zini baholash usullari va boshqalar;

- bolaning rivojlanish jarayoni va darajasini baholash usullari;

- o'z kasbiy rivojlanishini loyihalash usullari va boshqalar.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Bugungi kunda konsentrlangan yoki ularga yaqin bo'lgan modulli o'qitish texnologiyalari ham qiziqish uyg'otmoqda. Ular talabalar tomonidan fanlararo aloqalarni aniqlash va o'zlashtirishga, kurslarning eng muhim elementlarini chuqurroq bilishga qaratilgan. Birinchi guruh texnologiyalari, aksincha, kasb-hunar maktabida o'quv jarayonini tashkil etishga umumiy yondashuvlarni namoyish etadi. Bu erda nazorat shakllari mantiqiy ravishda talabning ma'lum bir fan bo'yicha bilimlarini kuzatish imkonini beradigan shakllarga aylanadi: terminologik diktant, test, suhbatlar, testlar va boshqalar.

Ikkinchi guruh texnologiyalari kasbiy intellektni rivojlantirishga, shuning uchun kelajakdagi o'qituvchining pedagogik voqelikni va bolaning rivojlanish jarayonini tahlil qilish, umumlashtirish, sharhlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bularga, masalan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, portfolio texnologiyasi, kontekstli ta'lim texnologiyasi va boshqalar kiradi.

Uchinchi guruhga tegishli (kommunikativ, aks ettiruvchi, tashkiliy va boshqalar) amaliy pedagogik mahorat, kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan texnologiyalarni kiritish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Ushbu pozitsiyalardan sizning pedagogik tajribangizni (o'tmish yoki hozirgi) tahlil qilish, aks ettirish imkonini beradigan texnologiyalar qiziqish uyg'otadi. Xususan, xorijiy kasb-hunar maktabida tajribaga asoslangan ta'lim texnologiyasi (D.Kolb modeli) keng qo'llaniladi. Ushbu modeldagi o'quv tsikli to'rtta jarayon shaklida taqdim etiladi: shaxsiy tajribani o'zlashtirish; tajribani tushunish; nazariy

asoslash; amaliyotda qo'llash.

D.Kolbning asosiy modelining variantlaridan biri K.Mellander tomonidan ishlab chiqilgan amaliyotda o'rganish modeli bo'ldi. Unda o'quv tsikli faoliyatning yangi komponentlari bilan kengaytiriladi. Bunda oltita komponent mavjud: motivatsiya - psixologik tayyorgarlik va retseptivlik; axborot - faktlar va ma'lumotlar axborotga aylanadi; qayta ishlash - axborot tajriba va tushunishga aylanadi; xulosalar - tajriba va tushuncha bilimga aylanadigan "idrok" momenti; qo'llash - bilim ko'nikma va yondashuvlarga aylanadi; fikr-mulohaza - keyingi aks ettirish va takomillashtirish.

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimining formal tuzilmasi o'qituvchilar, ta'lim vositalari, talabalar hamda o'qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchilarni kasbiy pedagogik kompetentligini shakllantirish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadi davlat ta'lim standartlariga muvofiq mazkur, ya'ni gumanitar soha pedagogika ta'limi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalardan muayyan fan g'oyalariga ko'ra yetuk, malakali kadrlarni tayyorlashdir. Davlat ta'lim standartida bitiruvchi o'zining kasbiy pedagogik faoliyatida o'qituvchilik, tarbiyachilik, o'quv-metodik ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot vazifalarida faoliyat olib borishi ko'zda tutilgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Pedagogik monitoring turli ta'lim bosqichlarida o'quvchilarni kasbga o'rgatish jarayonining texnologik bilan bir qatorda muhim tomoni bo'lib, taklif etilayotgan ta'lim shakllari va talablarga muvofiqligini doimiy, ob'ektiv monitoring va nazorat qilish tizimi

sifatida qaraladi. Bunday monitoringning mohiyati kamida to'rtta savolga javob shaklida taqdim etilishi mumkin.

Birinchi savol: "Biz nimani kuzatmoqdamiz?"

Vakolatlar mazmuni va ularning tuzilishini tushunish asosida biz quyidagilarni kuzatamiz, nazorat qilamiz va baholaymiz:

- kollejda yoki universitetda o'qish, bilimlarni, birlamchi ko'nikmalarni to'plash, ularni shaxsiy xususiyatlar bilan bog'lash (bola bilan muloqot qilish istagi va qobiliyati, o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish qobiliyati) natijasida shakllanadigan integratsion ko'nikmalar;

- pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi bilim; Shu bilan birga, to'g'ri kasbiy echimlarni topish manbai bo'lgan bilim nafaqat kelajak kasbi haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgan talaba uchun zarur, balki yangilangan, tegishli bilimlar o'qituvchining faoliyatini yaxshilashga yordam beradi;

- rolli o'yinlar jarayonida talaba o'zlashtiradigan birlamchi ko'nikmalar, pedagogik amaliyot bilan tanishish sharoitida birinchi kasbiy testlar; ba'zi talabalar hayotiy tajriba asosida bunday ko'nikmalarga ega;

- o'qitishning boshida professional bo'lmagan (masalan, kommunikativlik), keyin esa o'qituvchining professional profiliga allaqachon professional shaxsning etakchi xususiyatlari sifatida kiritilgan shaxsiy kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlar; bitiruvchi uchun shakllangan shaxsiy tizim xarakteriga ega emasligiga qaramasdan, ularni pedagogik faoliyatning individual uslubining asosi deb hisoblash mumkin.

Ikkinchi savol: "Biz qanday kuzatamiz?"

Ilmiy-metodik adabiyotlarda pedagogik hodisalarni nazorat qilish, baholash masalalari, pedagogik faoliyat natijalari yetarli darajada yoritilgan. Xususan, ta'lim



sifatini, jumladan, mutaxassislar tayyorlash sifatini monitoring qilish funksiyalari ancha aniq belgilangan. Bularga nazorat ob'ektini baholash, prognoz qilish, sozlash, tartibga solish, rag'batlantirish, o'qitish, rivojlantirish funktsiyalari kiradi.

Uchinchi savol: "Nima uchun biz kuzatyapmiz?"

Aslida, bu talabaning kasbiy rivojlanishini nazorat qilishning ma'nosi haqidagi savol. Shubhasiz, bu jihatda pedagogik kompetensiyalarning shakllanish darajasini kuzatishning ikkita yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin - rivojlanish yo'nalishi (tuzatish) va o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishi (o'z-o'zini tuzatish).

Shunday qilib, talabalarning kasbiy rivojlanish darajasini monitoring qilish mazmunini tanlash, tashkil etish va tushunishning eng muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- yaxlit kasbiy shaxsni shakllantirishning eng umumiy tamoyili sifatida izchillik (uning asoslari kollej va universitetda tayyorlash bosqichida);

- rivojlanish tamoyili;
- murakkablik;
- faoliyatda ishtirok etish;
- o'zgaruvchanlik printsiplari;
- bashorat qilish qobiliyati;

- nazorat va o'zini o'zi boshqarishning optimal kombinatsiyasi printsiplari.

Va nihoyat, talabalarida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini nazorat qilish va baholashning mohiyatini tushunish nuqtai nazaridan to'rtinchi savol: "Biz qanday monitoring shakllaridan foydalanamiz?". Shu munosabat bilan talabalarning bilim olish texnologiyalari va bilimlarning rivojlanish darajasini, boshlang'ich va integrativ ko'nikmalarini baholash usullari o'rtasidagi bog'liqlik haqida savol tug'iladi. Biz bunday munosabatni

talabalarning o'qitish texnologiyalari va ularning kasbiy rivojlanish jarayonini o'lchash usullarining birligining alohida printsiplari sifatida ko'rib chiqamiz, bu bir necha jihatlarga ega.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Birinchiidan, texnologiyalarning o'zi ularni qo'llash samaradorligini monitoring qilish va baholash usullarini o'z ichiga oladi. Maqolada biz buni tasvirlashga harakat qildik.

Ikkinchiidan, kasb-hunar ta'limining yangi maqsadlari mazmunini ham o'qitish texnologiyalarini, ham muayyan ta'lim dasturini amalga oshirish doirasida o'quvchi rivojlanishini nazorat qilishni, ya'ni barcha ishtirokchilarning harakatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Uchinchiidan, bitiruvchilarni davlat attestatsiyasining mazmuni o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak, shuning uchun attestatsiya shakllari bitiruvchining kasbiy muammolarni turli pozitsiyalardan - nazariy, amaliy, ijodiy, o'z-o'zini o'qitishga tayyorlik darajasini belgilashi kerak.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamon o'zgarishi bilan ta'lim tizimida ham tubdan yangilanish, modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat



# BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

**KHAMRAYEVA E’ZOZKHON-Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarining bolarlar tarbiyasida nutqiy kompetensiyalarini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishning chora-tadbirlari o‘rganilib tahlil qilingan.

**Kalitso‘zlar:** maktabgacha ta‘lim, innovatsion metod, innovatsion texnologiya, ta‘limni individuallashtirish, pedagogik tadqiqot, bolaning psixik taraqqiyoti, tarbiyachining pedagogik ta‘siri.

**Аннотация.** В данной статье изучены и проанализированы мероприятия по совершенствованию речевой компетенции будущих педагогов дошкольного образования при обучении детей на основе инновационных технологий.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, инновационный метод, инновационная технология, индивидуализация обучения, педагогическое исследование, психическое развитие ребенка, педагогическое воздействие воспитателя.

**Annotation.** In this article, measures to improve the speech competence of future preschool teachers in the education of children based on innovative technologies are studied and analyzed.

**Keywords:** preschool education, innovative method, innovative technology, individualization of education, pedagogical research, mental development of the child, pedagogical influence of the educator.

Kirish. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qayd etilganidek, maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, vaziyatga ko‘ra o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham innovativ g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Maktabgacha ta‘lim muassasalari (MTM) tarbiyachilari bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishi kerak bo‘lib, bu o‘z navbatida tarbiyachilarning kasbiy qiziqishlari ko‘lamini kengaytirishga, ya‘ni ularning adabiyotlar o‘qib o‘rganishdan to nazariy psixologikpedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta‘minlaydi. Innovatsion

jarayonlarda faol ishtirok etuvchi tarbiyachi pedagog muntazam ravishda o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirishning katalizatoriga aylanadi, ya‘ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi o‘z nuqtai nazarlariga o‘ralashib qolmasdan, u pedagogik tajribasining boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o‘zgarib, hissiy tuyg‘ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu tarbiyachining madaniyat va muloqotga shayligi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.

Hamkorlik pedagogikasi kattalarga (tarbiyachilar, ota-onalar va b.) ta‘lim va tarbiya jarayonida muloqotning altruistik uslubidan foydalanish zarurligini uqtiradi.

Pedagog bolaga bunday ta'sirni amalga oshirishda unga hukmronlik qilib, nazorat, majburlash kabi ta'sirlardan voz kechib, tarbiyalanuvchiga erkin tanlash huquqini beradi. Bola muloqotning mazkur uslubida chegarasiz, so'zsiz o'z-o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonch vaziyatiga tushadi. Bunday vaziyat natijasi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda ahloqiy o'z-o'ziga baho berish: o'zganing ishonchini his qilgan holda o'zining imkoniyatlariga ishona boshlaydi. Pedagogning bolaga nisbatan beg'arazligi uni ham beg'araz harakat qilishga undaydi.

MTM tarbiyachilari kasbiy faoliyat jarayonida O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da qo'yilgan vazifalarni bajarishda innovatsion yondashuv ijobiy va samarali natija bera oladi:

1. Tarbiyachilarni ta'limiy vazifalari:

- bolalarda savodxonlikni shakllantirish;
- o'qish, yozish, sanash, oddiy matematik amallardan xabardor qilish, murakkab bo'lmagan mashqlarni bajartirish jarayonida ma'naviy-ahloqiy, odob sifatlarini shakllantirish.

2. Ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonini to'g'ri tashkil etish.

3. Bolalarni xulqida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan salbiy odatlarga jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish.

4. Bolalarni jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etishda ota-ona va tibbiy xodimlar bilan hamkorlikni o'rnatish bilishi lozim. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida tarbiyachi innovatsion faoliyatiga zarurat tug'ildi. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog'liq. Unga tarbiyachining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabati, turli

holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish muammosiga bir qator olimlarning (F.R. Qodirova, L.R. Mo'minova, G.E. Djanpeisova, Sh.A. Sodiqova, G.A. Mardonova, G. Nazirova, N.Sh. Abdullayeva, D.A. Abduraximova, M. Abdullayeva, Z.A. Botirova, A.E. Rustamova va boshq.) ilmiy tadqiqot ishlari bag'ishlangan. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N. A'zamova va Sh.A. Sodiqova o'z ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan bo'lib, maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, bosqichlari, bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi biologik va ijtimoiy omillar, maktabgacha yoshdagi bola psixik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ta'limning didaktik tamoyillari, bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, maktabgacha ta'limni tashkil etish shakl va metodlari hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyada pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari yoritilgan.

Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagog kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotni oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir. MTM tarbiyachisining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy

aytganlar.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Psixologik nuqtai nazardan MTM tarbiyachisi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki tarbiyachilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Masalan, ayrim ota-onalar bolani bog'chasida bo'lish borasida o'z, salbiy tajribalariga ega bo'lib, tarbiyachilar davrasida ba'zan o'zlarini noqulay his qilishadi. Boshqalar esa tarbiyachilar "qanday bo'lishi kerak"ligini hamisha biladilar, deb hisoblaydilar va ular bilan muzokara olib borishga ehtiyoj yo'q, deb o'ylaydi. Shuningdek, tarbiyachilarda ham ba'zan bolalarni qanday tarbiyalash to'g'risida maslahat beradigan ota-onalar bilan aloqada bo'lishga nisbatan salbiy tajriba bo'ladi. Bunday holatlar mo'tadil aloqa o'rnatishga halaqit berishi mumkin. Oiladan olinadigan ma'lumot qanchalik muhimligi haqida avval boshdan ota-onalar bilan gaplashib olish va buni ularga tushuntirish zarur. Diqqat bilan eshita bilish - ochiqcha muloqotning muhim sharti. "Sardor uyda nima bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi?" yoki "Madina bolalar bog'chasi haqida sizga nimalarni hikoya qiladi?" kabi ochiq savollarni berish bilan tarbiyachi ota-onalarga o'z bolalari to'g'risida hikoya qilishlari uchun imkon yaratishi, hamda muloqotga kirishar ekan, tarbiyachilar ota-onalar uchun tushunarli, ravshan bo'lgan tildan foydalanishlari va ularga savol berish imkoniyatini berishlari kerak.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar (Namangan, Jizzax, Toshkent, Samarqand, va Qashqadaryo viloyatlari misolida) samaradorligi tahlil

qilinganda quyidagilar aniqladi:

- 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha eng samarali natijalarga Jizzax viloyatida (15 foizga o'sish) erishildi;

- 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrab olish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinayotgan hududlar orasidan Samarqand viloyatida muvaffaqiyatliroq amalga oshirildi;

-nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish borasida Toshkent viloyatida eng muvaffaqiyatli natijalarga erishildi, ya'ni so'nggi 5 yil davomida 167 ta yangi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etildi.

«O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi»ning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda hududlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatning sohaga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirish siyosati ham imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bolada inson sifatidagi individuallikning asoslari – ijodiy va obrazli tafakkur, boshqalarga (ko'pincha kattalarga) taqlid, o'z xulq-atvorini boshqarish va "ijtimoiy" hissiyot kabi sifatlar shakllanadi va rivojlanadi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bolalar rivojlanishning eng faol nuqtasi 5-6 yoshga to'lguniga qadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ta'lim jarayoni ularning individualligiga yo'naltirilishi hamda idrok mexanizmlarining o'ziga hosliklari hisobga olinishi kerak bo'ladi.

3. Bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini texnik nuqtai nazaridan

jadallashtirish ularni kattalar qatoriga kirib borish jarayonini tezlashtiradiganday ko'rsada, normal psixik rivojlanish jarayonini sekinlashtirishi ehtimolini ko'paytiradi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini takomillashtirish muammosining yechim yo'llaridan biri, eng avvalo, o'qitish va tarbiyalashda tarbiyachilarning innovatsion metodlarini amaliyotga joriy qilish – ta'lim jarayoniga tarbiyalanuvchi shaxsi va individualligiga yo'naltirilgan o'qitishning innovatsion texnologiyalarini ta'lim-tarbiya

jarayonida qo'llanilishidir.

“Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat...” - deydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017 yil 30 sentyabrdagi PF5198-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PQ-4312-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4327235>
3. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. –Toshkent, 2020. – 45 b. (B.18)
4. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. O'quv qo'llanma. - Toshkent. – 2015-yil. B. 109.
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/sunggi-5-yilda-maktabgacha-talim-sohasida-olib-borilgan-islohotlar-va-ularning-natijalari>

## PEDAGOGIK QOBILIYATNI INTEGRATIV YO'NALISHDA TAKOMILLASHTIRISH ADABIYOTLAR TAHLILI(MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI)

**XASANOVA GULNOZA ILXOM QIZI-Jizzax davlat pedagogika  
universiteti “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi.**

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini integrativ yo'nalishda takomillashtirish bo'yicha jahon va amahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalarining ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Maqola mazvusining dolzarbligi hozirgi kunda aynan yurtboshimiz boshchiligida maktabgacha ta'lim masalasiga alohida e'tibor qaratayotganligi va ta'limning boshlang'ich nuqtasi sifatida maktabgacha ta'lim bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Ushbu yo'nalishdagi kadrlarni tayyorlash esa hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda bizga albatta jahon tajribasi va bu sohadagi adabiyotlar katta ko'mak beradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi kadrlarni tayyorlash, integrativ yondoshuv.

**Аннотация.** В статье рассматриваются механизмы совершенствования педагогических способностей педагогов дошкольного направления в высшем образовании в интегративном направлении. Актуальность содержания статьи заключается в том, что в настоящее время именно под руководством главы государства особое внимание уделяется вопросу дошкольного образования, и этап дошкольного образования как отправная точка образования имеет важное значение. А подготовка кадров в этом направлении-одна из актуальных задач на сегодняшний день. С целью раскрытия темы был использован ряд зарубежных и отечественных литератур.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, дошкольное образование, подготовка педагогических кадров, интегративный подход.

**Annotation.** The article will talk about the mechanisms for improving the pedagogical abilities of teachers of the preschool educational direction in higher education in an integrative direction. The relevance of the article theme is due to the fact that at present it is under the leadership of our president that he pays special attention to the issue of preschool education, and the stage of preschool education as a starting point of education is important. And the training of personnel in this direction is one of the urgent tasks of the present day. In order to reveal the topic, a number of foreign and domestic literature was used.

**Keywords:** educational process, preschool education, training of teaching staff, integrative approach.

Kirish. XXI asr ilm-fan va tehnikaning rivojlanish asridir. Rivojlanayotgan dunyoning nostandart talablaridan biri bu xar bir soha uchun yetuk kadrlarni tayyorlashdir. So'nggi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning aksariyat qismi, ta'lim va uning bosqichlarini rivojlantirish va xar bir soha uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasiga urg'u berilmoqda. Ushbu jarayondagi islohotlar qonunchilikdagi o'zgarishlar va me'yoriy hujjatlar bilan birga mustahkamlab

borilmoqda. Albatta, raqobatbardosh va ahborot texnologiyalari bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan soha mutaxassislarini tayyorlovchi kasb egalari bu o'qituvchi pedagoglardir. Oliy ta'lim muassasalarida xar bir yo'nalish o'qituvchilarining o'ziga xos bo'lgan ma'suliyati mavjud. Tadqiqotimizni asosiy obe'kti sifatida ta'limning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim o'qituvchilarini oldik.

Avvalomobor, integrativ yondoshuv

nima? Pedagogika fani tarixida "integratsiya" so'zining kelib chiqishi tarixi qanday? Ushbu savollarga javob beramiz. "Integratsiya"-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi "Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Texnologiyalar va yondashuvlar asrlar davomida sayqallanib bugungi kunda maromiga yetish holati bilan birga yangi turlari va yondashuvlar ham kirib kelmoqda. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. "Integratsiya - differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

a) o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;

b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash

Zamonaviy pedagog mutaxassis ma'lumotli, axloqiy, harakatchan, mas'uliyatli bo'lishi, hamkorlik, ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi va faoliyatda integral yondashuvdan foydalanishi kerak. Integrativ yondoshuv raqamli ta'lim muhitidagi innovatsion hodisalardan biridir.

Integrativ yondoshuv borasida umumiy yoritilgan mahalliy va xorijiy adabiyotlar bir qator. Lekin aynan maktabgacha ta'lim yo'nalishlaridagi o'qituvchilar qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan integrative yondoshuv borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Mavzuimizning dolzarbligini yana bir elementi uning hozirgi zamonaviy pedagogika fanlarida keng yoritilmaganligidir. Pedagog olim Z. Sh. Karimov yozganidek: "integrativ yondoshuv

boshqa barcha pedagogik yondoshuvlardan eksperimental mujassamlanishning kengligi, ijodiy rejaning chuqurligi, tarixiy rivojlanishning davomiyligi va dialektikasi bo'yicha ustundir"[1,58]. Rus olimlaridan O. B. Akimova, I. A. Zimnaya, E. V. Zemtsova, V. M. Lopatkina, B. J. Muhammadiyeva, Chapaeva, I. P. Yakovleva, E. V. Yakovleva, N. O. Yakovleva va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarini integral yondashuvga bag'ishlangan[2,62]. Integrativ yondashuv-bu ta'lim pedagogik integratsiyaning jarayoni va natijasi sifatida qaraladigan fanlararo, shaxslararo, tadqiqot pozitsiyasidir.

Integrativ yondoshuv pedagog olimlar turli yo'llar bilan talqin qilinadi. I. A. Zimnaya, E. V. Zemtsova integrativ yondashuvni "umumiylik tomonidan kamida bitta xususiyat bilan birlashtirilgan ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar majmuini yaxlit aks ettirish, natijada uning yangi sifati yaratiladi" deb ta'riflaydi; V. M. Lopatkin uchun biroz boshqacha pozitsiya, u integrativ yondashuv "olam tasvirini yaxlitligini" ta'minlaydigan vosita deb hisoblaydi; nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda insonning tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O. B. Akimova, N. K. Chapaev haqli ravishda integrativ yondashuv texnologik va mazmunli darajada amalga oshirilishini ta'kidlaydilar. Integrativ yondashuv quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi: talabning intellektual salohiyatini ochib beradi; talabalarning shaxsiyati; kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi; o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish, sotsializatsiya uchun psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratadi. Ijtimoiy ta'lim muhiti ta'lim va tarbiya uchun katta imkoniyatlarga ega[3,98].

Pedagogik fanlarni o'rganishda integrativ yondashuvning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- sub'ektivlik,
- madaniyatlilik,
- ijodkorlik,



- fuqarolik-vatanparvarlik qadriyatlari va
- qadriyat munosabatlariga yo'naltirish,
- sinergiya,
- o'z-o'zini tarbiyalash,
- madaniyatlar muloqoti,
- o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari vositalarini tanlashda o'zgaruvchanlik,
- dialogizatsiya[4,62].

Integrativ yondashuvning tarkibiy qismlari maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari uchun quyidagilar bo'lishi mumkin: tashkiliy-uslubiy, faoliyat-amaliy va nazariy-mazmunli, tashkiliy va uslubiy tarkibiy qism o'qitish usullarini (munozara, loyiha usuli, moderatsiya, deliberatsiya, biznes o'yinlari, munozaralar, davra suhbatlari, festivallar, tanlovlar, konferensiyalar, ish texnologiyalari va boshqalar) birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Faoliyat va amaliy tarkibiy qism tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga, shaxsning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan ijodiy vazifalardan foydalanishga yordam beradigan ta'lim shakllarini birlashtirishni o'z ichiga oladi. Resurs tarkibiy qismi o'quv va kognitiv faoliyat uchun zarur bo'lgan resurslarni (sinf va sinfdan tashqari) birlashtiradi, mazmuni, vositalari, usullari va texnikasi tufayli kasbiy kompetentsiyani shakllantirishga yordam beradigan integrativ maxsus kursning mazmunini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari o'quv fanlarini o'qitishda integrativ yondashuvning asosiy maqsadlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish muhim: fuqarolik ongini shakllantirish, o'qituvchi shaxsining o'zini o'zi anglashi, ijtimoiy-huquqiy, fuqarolik-vatanparvarlik va axloqiy me'yorlar, bilimlar; tadqiqot, dizayn, kommunikativ, aks ettiruvchi va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish; shaxsning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini tarbiyalash va boshqalar[5,71].

Ta'limda har doim dialektik birlikni tashkil etadigan va bilim rivojlanishining murakkabligi

va nomuvofiqligini aks ettiradigan integratsiya va farqlash jarayonlari mavjud. Sobiq ittifoq pedagoglaridan (V. S. Bezrukova, G. M. Dobrov, I. P. Yakovlev va boshqalar) va psixologlar (V. ya.Stoyunin, N. V. Bunakov, V. I. Vodovozov, B. G. Ananyev va boshqalar) maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari bilimlarni birlashtirish g'oyasiga murojaat qilishdi. Ular o'quv jarayonida integratsiya muammolari, integratsiyani amalga oshirish vositalari va shakllari; integral pedagogik tizimning samaradorligi kabi masalalarni tahlil qildilar[6,78].

Masalan, B. G. Ananiev maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun barcha o'quv dasturlar ibo'yicha ilmiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlarini belgilab berdi, bu o'qituvchilar gao'quv jarayonida aushbug'oyalardan foydalanishga, o'quv jarayonining yaxlitligini, "insonning o'ktiv voqelikni hissiy aksettirishini yaxlitligini, moddiy dunyoning birligini" ta'minlashga imkon berdi. I. P. Yakovlev [6,85] integratsiya jarayoni muayyan sharoitlarda samarali bo'lishini ta'kidlaydi.

Integratsiya – ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning maqsadlari, tamoyillari va mazmuni birligining ifodasi, natijasi asosiy vakolatlardir. Zamonaviy sharoitda fan va ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi tendensiyadan qat'iy qonunga aylanadi. V. F. Tenishchevning nuqtai nazarga ko'ra, [3,69] integrativ yondashuv pedagogik tizimning yanada yaxlitligiga o'tishi tufayli o'quv jarayoni darajasining oshishiga olib keladi. Integratsiya natijasi talabalar o'rtasida shakllangan kompetensiyalardir.

Tadqiqotchilar I. D. Zverev, S. I. Arxangelskiy, V. G. Razumovskiy va boshqalar o'quv jarayonida "integratsiya" tushunchasining belgilarini (yaxlitlik, munosabatlar, o'quv jarayonining yo'nalishi) ajratib ko'rsatishadi [8,89]. Ko'rib chiqilayotgan muammoning aspektida kognitiv faoliyatni faollashtirishga yordam beradigan, shaxsning ijtimoiylashuviga hissa qo'shadigan integratsiyalashgan darslarni o'tkazishga qiziqish

uyg'otadi. Shunday qilib, masalan, "ta'lim – bu fuqarolar madaniyati va jamiyatni rivojlantirish yo'li" mavzusidagi dars. Ilgari o'rganilgan bilimlar aktualashtiriladi. "Kelajak uchun o'tmish darslari" (pedagogikaning tarix bilan aloqasi) masalasi muhokama qilinadi, so'ngra 21 – asrdagi ta'lim muammolari va ta'limni rivojlantirish vazifalari - pedagogikaning iqtisodiyot, siyosat, ekologiya, huquq bilan aloqasi, o'rganilayotgan mavzuning asosiy savollarini taqdim etish Internet-resurslar, videofilmlar, muammoli vaziyatlar, kognitiv vazifalar yordamida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining o'quv jarayonini optimallashtirish uchun zarur nazariy asos sifatida ma'lum prinsiplar va uslubiy qoidalarga tayanish kerak. Dunyoqarashni shakllantirishga integral yondashuv tamoyillari quyidagilardan iborat:

- izchillik,
- yaxlitlik,

- rivojlanish,
- pozitivlik
- doimiylik printsipli.

Xulosa. Integrativ yondashuvga oid jahon pedagoglarining ilmiy ishlanmalariga qarab quyidagi hulosalarga kelish mumkin. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagogik fanlarni o'rganishda integral yondashuvni qo'llash natijalari quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonini optimallashtirish;
- o'quv va kognitiv faoliyatni tizimlashtirish;
- asosiy kompetentsiyalarni shakllantirish.

Integrativ yondashuvga murojaat qilish oxir-oqibat o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashga olib keladi. Shunday qilib, integrativ yondashuv maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari uchun qobiliyatlarini shakllantirishning zamonaviy raqamlashgan ta'limning istiqbolli uslubiy yo'nalishlaridan biridir.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Каримов З.Ш. Теория и практика институциональной интеграции высшего профессионального педагогического образования на основе синтеза внешнего и внутреннего компонентов: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Уфа, 2009. – 158 с.
2. Акимова О.Б., Чапаев Н.К. Интегративный подход к созданию акмеологически ориентированной системы общепедагогической подготовки педагога профессионального образования /О.Б. Акимова, Н.К. Чапаев // Философия образования. Образовательная политика. – 2012. – Вып. 10. – С. 175.
3. Зимняя И.А., Земцова Е.В. Интегративный подход к оценке единой социально- профессиональной компетентности выпускников вузов /И.А. Зимняя, Е.В. Земцова // Высшее образование сегодня. – 2008. – № 5. – С.140.
4. Лопаткин В.М. Интеграционные процессы в региональной системе педагогического образования: монография /В.М. Лопаткин. – Барнаул: Изд-во БГПУ, 2000. – 162 с.
5. Мухаммадиев Б.Ж. Интегрированный подход в подготовке учителя высшей школы /Б.Ж. Мухаммадиев // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2015. – С. 335.
6. Яковлев И.П. Интеграция высшей школы с наукой и производством / И.П. Яковлев. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1987. – 190 с.
7. Яковлев Е.В., Яковлева Н.О. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов / Е.В. Яковлев, Н.О. Яковлева. – Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010. – 317 с.
8. Гревцева Г.Я., Циулина М.В. Патриотическое воспитание и гражданская социализация: научно-теоретические и практические аспекты / Г.Я. Гревцева, М.В. Циулина // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – 2013. – № 11. – С.189.

# XALQARO BAHOLASH DASTURI PISA TOPSHIRIQLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING TABIIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

XOJIYEVA SARVINOZ SADRIDINOVNA-Jizzax Davlat pedagogika universiteti "Kimyo va uni o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro baholash dasturi PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarning tabiiy savodxonligini oshirish va PISA topshiriqlari tarixi haqida so'z boradi. Zamonaviy pedagogika doimo innovatsion pedagogik metodlarga muhtojdir. PISA(The Programme of International Student Assessment) – O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturi ham shunday zamonaviy innovatsion yondoshuvlardan biridir. U orqali tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda talabalarning savodxonlik darajasini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar;** PISA topshiriqlari, savodxonlik, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD), innovatsion, globallashuv.

**Аннотация.** В статье рассматривается естественная грамотность учащихся на основе заданий международной программы оценки PISA и история заданий PISA. Современная педагогика постоянно нуждается в инновационных педагогических методах. PISA (The programme of International Student Assessment) - международная программа оценки грамотности учащихся-также является одним из таких современных инновационных подходов. Благодаря ему преподавание естественных и точных наук имеет большое значение для повышения уровня грамотности студентов. С целью раскрытия темы статьи были использованы научно-исследовательские разработки ученых. Выводы из статьи могут быть использованы в процессе преподавания естественных наук.

**Ключевые слова;** задания PISA, грамотность, Организация экономического сотрудничества и развития(ОЭСР), инновации, глобализация.

**Annotation.** The article will talk about the development of natural literacy of students and the history of PISA assignments on the basis of the International Assessment Program PISA assignments. Modern pedagogy always needs innovative pedagogical techniques. PISA (The program of International Student Assessment) – the international student literacy assessment program is also one of such modern innovative approaches. Through it, it is of great importance in improving the level of literacy of students in teaching natural and Exact Sciences. In order to reveal the topic of the article, scientific research developments of scientists were used. The conclusions obtained from the article can be used in the process of teaching Natural Sciences.

**Keywords;** PISA assignments, literacy, organization for Economic Cooperation and Development(OECD), innovation, globalization.

Kirish. Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday kadrlar uchun dunyoga yuz tutmoq kerak. 1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy

hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA(The Programme of International Student Assessment) – O'quvchilar savodxonligini

baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECDdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi. Shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamalakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish belgilab olindi.

O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment- PISA);

PISA Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

PISA 2000- yildan buyon har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021- yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ham qatnashishi ko'zda tutilgan.

Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

2021- yil PISA tadqiqotida ilk bor

ishirok etsak, o'quvchilarimizni bu baholash dasturiga puxta tayyorlashimiz kerak, chunki bizning aksariyat o'quvchilarimiz oddiy savollarga ko'nikib qolishgan.

PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib ham qo'yishi mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;

- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;

- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadilar;

- o'quvchilarning "mustaqil hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

- o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish (matni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;

- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar

ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Bundan tashqari, PISA – 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchilar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECD ga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. 2001-yilga PISA tadqiqotlarida “matematik savodxonlik” yo'nalishi ustuvor etib belgilangan.

PISA tadqiqotida topshiriqlar savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning to'liqligiga qarab, “javob to'liq qabul qilinadi”, “javob qisman qabul qilinadi”, “javob qabul qilinmaydi” mezonlari bo'yicha baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli Farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy- axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv- tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion

PISA ta'lim turi bu o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi

va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi yani hayotiy muommoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlarni mustaqil ravishda hal eta oladi. Bu turdagi topshiriqlar PISA topshiriqlarining asosi bo'lmish kontekst deb yuritiladi. Kontekstlar uchta darajada bo'ladi: shaxsiy, mahalliy – milliy, global

1 . Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo'ladi

2 . Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi – texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash;

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi–ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo'llarini taklif etish; Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi – turli ko'rinishdagi ilmiy ma'lumotlar, dalillarni tahlil qilish va baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish. O'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalarini namoyish etishlari ilmiy bilishning uchta turiga bog'liq

PISA tadqiqotlariga ko'ra, ilmiy bilish turlariga quyidagilar kiradi:

- fizik sistemalar (fizika va kimyo), tirik sistemalar (biologiya), yer va fazo sistemalari (geografiya, geologiya, astronomiya)ga oid bilimlar, ya'ni fanning mazmuniga oid bilimlar;


- ilmiy ma'lumot (bilim)lar olish uchun qo'llaniladigan turli xil metodlarni, shuningdek, standart tadqiqot jarayonlarini bilishga oid metodologik bilimlar;

- epistemik bilimlar, ya'ni bizning ilmiy tasavvurlarimiz ilmiy tadqiqot metodlarining imkoniyatlarini tushunishimiz natijasi

ekanini, shuningdek, faraz, gipotezaning kuzatish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilish.

PISA topshiriqlarini quyidagi topshiriini misol qilish mumkin.

“Issiqxonada kimyo” Etilen moddasini anesteziya xossasini 1908 yili bir ajoyib voqeyadan keyin bilib olishgan. Gul sotuvchi Chikagolik gulchi chinni gullarini yopilib qolish hodisasini kuzatgach. Uni aniqlash maqsadida u botanik olimni taklif etgan. Gullarni uxlatishiga sababchi deb, issiqxona burchagidan ajralib chiquvchi bir noma'lum



gaz deb topilgan.

1-SAVOL. Yoritgich gazni asosini qaysi gaz tashkil etishini aniqlangan.

2-SAVOL. Etilen gulni uxlatib qo'yish mexanizmini tushuntirib bering.

3-SAVOL. Tibbiyotda jarrohlik operatsiyalarida umumiy narkoz sifatida ham ishlatiladi. Neftni qayta ishlash orqali va tabiiy gazdan ko'p miqdorda arzon etilen olinadi.


Etilen - bu juda keng biologik ta'sirga ega bo'lgan birinchi gazsimon o'simlik gormoni. Etilen o'simliklarning hayot aylanish jarayonida turli xil funktsiyalarni bajaradi, shu jumladan ko'chatlarning rivojlanishini nazorat qilish, mevalarning pishishi (xususan, mevalar), kurtaklarning ochilishi (gullash jarayoni), barglar va gullarning qarishi va tushishi. Etilenni stress gormoni deb ham atashadi, chunki u o'simlikning biotik va abiotik stressga ta'sirida ishtirok etadi va

- 1)  $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$  - bu moddani nomlang.  
A metil spirt B kislota C etil spirt D efir

- 2)  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$  bu qaysi organik birikmalarga xos formula hisoblanadi?  
A to'yingan uglevodorodlar B spirtlar C keton D alken



- 3) Bu xayvonda kislota bormi?  
A yoq B oqil C uglevod D sut kislota



- 4) BU TUZILISH FORMULASI QAYSI MODDAGA TEGISHLI?  
5) A) AMMONIY NITRAT B) AMMONIY NITRID C) AMMONIY NITRIT D) AMMIK



5) Rasmda qaysan o'simlikning ta'sirini ko'rsatadi?



- 6) Bu idishni nomlang?  
A stakan B probirka C menzurka D chinni idish



- 7) Bu asbob nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?  
A shatativ B pallali tarozi C elektron tarozi D qizdirgich



- 8) Bu moddaning allotropik shaklini toping?  
A azot B olmos C karbin D ozon



- 9) Bu idishni nomlang?  
A O'lchov silindri B o'lchov kolba C menzurka D kolba



- 10) Bu idish nimsadan yasalgan?  
A shisha B chinni C yog'och D plastmassa



- 11) Rasmda qaysi elementning allotropik shakli ko'rsatilgan?  
A klorod B fosfor C azot D uglerod

Активация  
Чтобы активировать раздел "Па

uning o'simlik organlarida sintezi har xil zararlariga javoban kuchayadi. Bundan tashqari, uchuvchan gazsimon moddalar sifatida etilen turli xil o'simlik organlari va populyatsiyada o'simliklar o'rtasida tezkor aloqani amalga oshiradi, bu ayniqsa, stressga chidamlilikni rivojlantirish davrida muhimdir. Bundan tashqari PISA testlari ham tabiiy savodxonlikni oshirishning asosiy yo'lidir.

Xulosa. Umuman olganda PISA topshiriqlari XX asrdan meros qolgan

metodika bo'lishiga qaramay, yangi zamonaviy innovatsion tamoyillar bilan to'yintirilgan holda bilan birgalikda olib borilsa, samarali usullardan biridir. Eng muhimi, PISA topshiriqlari maktab uchun ham, o'rta ta'limda ham va oliy ta'limda ham tabiiy fanlarni o'qitilishining eng samarali usullaridan biridir. PISA topshiriqlari, eng muhimi, oddiy lekin murakkab natijani bera olishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi.

Использованная литература:

1. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar oq'uv qo'llanma/ Ixtiyarova G. Bekchanov D. Ahadov M. Toshkent- 2019.223-230 bet
2. Эпштейн Д. А. Наглядные пособия по химическим производствам для средней школы: Пособие для учителей. М. Просвещение, 1958. - 110 с.
3. Цветков Л.А. Преподавание органической химии в 10 классе: Пособие для учителей. Изд.2-е. перераб. М.: Просвещение, 1973. - 287 с

## ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЁШЛАРНИ КАСБИЙ ИЖТИМОЙЛАШУВИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ

БЕГМАТОВА ДИЛНОЗА МУХТАРОВНА

Самарқанд давлат чет тиллар институти доценти,  
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

**Аннотация.** Мақолада ўзбек оилаларида ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг имкониятлари ва муаммолари таҳлили берилган. Ота-оналар ўзларини мана шундай тарзда намоён қила олсаларгина, оилавий педагогик жараён натижаллиги, унинг самарадорлиги таъминланган бўлади.

**Калит сўзлар:** оила, ўзбеклар оиласи, оилавий тарбия, оилавий педагогик жараён, ота-она, ёшлар, касб-ҳунар, ижтимоийлашув.

**Аннотация.** В статье проводится анализ возможностей и проблем обеспечения профессиональной социализации молодежи в узбекских семьях. Только в том случае, если родители смогут таким образом выразить себя, семейный педагогический процесс будет эффективным и действенным.

**Ключевые слова:** семья, узбекская семья, семейное воспитание, семейный педагогический процесс, родители, молодежь, профессия, социализация.

**Abstract.** The article analyzes the possibilities and problems of ensuring the professional socialization of young people in Uzbek families. Only if parents can express themselves in this way will the family pedagogy process be efficient and effective.

**Key words:** family, Uzbek family, family education, family pedagogical process, parents, youth, profession, socialization.

Кириш (Introduction). Ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашда оиланинг педагогик аҳамияти жуда муҳим бўлиб, илк бор гўдак айнан оилада бошқа инсонлар билан турли мулоқот жараёнига киришади ва мулоқот қилиш тартибларини ўрганади. Касбий мулоқотга ҳам гўдак илк бор оила муҳитида дуч келади. Ана шунда фарзандда тўғри, ижтимоий шароитга мутаносиб ҳамда давр талабларига жавоб берадиган мос касбий ижтимоийлашув таъминланса, фарзанднинг ижтимоий ҳаётдаги униб ўсиши, жамият ҳаётида унинг ўз ўрнини тўғри ва мукамал даражада эгаллаши учун маънавий-руҳий асос ва инсоний-ижтимоий база яратилган бўлади.

Бугунги кунда ўзбек оилаларида ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш аслида стихияли тарзда амал қи-

лаётган жараён бўлиб, бу жараён бирор бир педагогик тамойил, дастур ёки метод орқали ташкил қилинмаган, яъни оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш жараёни зарур педагогик билим ва малакаларга доир шакллар, воситалар ва усуллар билан қуроллантирилмаган. Қўпчилик оилаларда ота-оналарнинг ўзида ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш бўйича тегишли билимларни ўстириш, уларга маълум даражада таълим бериш, ижтимоийлашув моҳияти ва унинг замонавий давр учун аҳамиятини кўрсатиб бериш зарур. Ота-оналар орасида ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш сўзини эшитмаган ва унинг мазмунини тушунтириб бера олмаганлар ҳам учраб туради. Демак, оилаларда ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш учун касбий ижти-



мойлашувни таъминлаш тафаккури энг аввало отаоналарда шакллантирилиши лозим.

Адабиётлар тахлилива методологияси (Methods). Ёшларни касбий шакллантириш, касбий маҳорат, касбга йўналтириш масалалари Р.Жўраев, У.Нишоналиев, Э. Чориев, Н.Шодиев, Ш.Шарипов, Н.Саидахмедов, Н.Муслимов, К.Мирсаидов, К.Зарипов, Ж.Йўлдошев, Б.Нуриддинов, А.Акмалов, А.Тўраев, С.Ражабова, С.Умаров, Г.Исаева, Н.Акбаровларнинг тадқиқотларида ўз аксини топган. Талабаларни касбий ижтимоийлашуви масаласи Н.М.Эгамбердиева, З.Т.Салиева, З.М.Махмудовлар томонидан махсус тадқиқ этилган. Уларнинг тадқиқотларида ёшлар ва ўспиринлар ижтимоийлашуви жараёнининг миллий-ментал хусусиятлари, ижтимоийлашув жараёнида оила ва мактаб ҳамкорлигини ўрганишга алоҳида эътибор қаратишган

Таҳлил ва натижалар (Results). Ота-оналар маълум билим, кўникма ва малакаларни аввал ўзлари эгаллашлари, кейин эса белгиланган инновацион педагогик технологиялар билан қуролланган ҳолда мана шу билим, кўникма ва малакаларни ўз фарзандларига сингдира олишлари талаб этилади.

Мамлакатимиздаги мавжуд барча ўзбек оилаларида ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашни олий даражага кўтармасдан туриб, жамиятда демократик ислоҳотлар устунлиги, шахс тараққиёти, иқтисодиётнинг модернизацияси, бошқарув соҳасининг либерализацияси, шунингдек фуқаролик жамияти асосларини барпо этиб бўлмайди. Баъзи оилаларда ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш бўйича ота-оналар ҳамда ёшларнинг билим, кўникма ва малакалар даражаси талаб қилинган даража билан муқояса қилинса, жуда катта тафо-

вут, жуда катта фарқ мавжудлиги аёнлашади.

Ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг мураккаб тизими бўйича педагогик жараён иштирокчиларининг мавжуд билим доирасини кенгайтириш учун оилалардаги педагогик жараёни мақсадли равишда тегишли дастурлар, методик тавсиялар, қўлланмалар, методик адабиётлар билан бойитиш ва қуроллантириш талаб этилади. Чунки, ота-оналар оилавий таълим жараёнига масъул субъектлар ҳисобланади. Улар: таълим жараёнини ташкил қилувчи; таълим жараёнини бошқарувчи; таълим мазмунини белгиловчи; таълим сифати ва самарадорлигини мониторинг қилувчи субъектлар сифатида ўзларини намоён қилишлари шарт. Ота-оналар ўзларини мана шундай тарзда намоён қила олсаларгина, оилавий педагогик жараён натижаллиги, унинг самарадорлиги таъминланган бўлади.

Агар ўзбек оилаларида педагогик жараёнга масъул бўлган мутасаддиларнинг педагогик фаолиятини таҳлил қиладиган бўлсак, унинг ўзига хос хусусиятлари мавжудлиги ойдинлашади. Энг аввало, биз мутасаддиларни ота-она тарзида умумлаштириб номлаймиз. Аслида эса улар икки ўзига хос одамлар эканлиги аниқ. Улар бетакрор, ўз хусусиятлари ва характери, билим даражаси ва дунёқарашига эга бўлган одамлар мажмуасидир. Улар аслида оилада бир тизим, бир яхлитлик асосида амал қилишлари лозим. Агар отаоналар ўртасида яхлитлик, бир мақсадга йўналтирилганлик мавжуд бўлмаса, тарбия жараёнида баъзи камчиликлар вужудга келади ва унинг самарадорлигига путур етказилади. Аммо биз ҳар доим ҳам шундай, талаб даражасидаги тизимли педагогик фаолиятни оилада учратмаймиз. Шу билан бирга, уларнинг ҳар бири жуда кучли тарзда педагогик жараён сифатига

ўз таъсирини ўтказиши мумкин.

Шунга кўра, оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш жараёнида ота ва она ролини алоҳида таърифлаш зарур. Шундай қилинганда уларнинг ўзaro яқин хусусиятлари билан бирга, уларнинг ўзига хос хусусиятлари аниқ намоён бўлади ҳамда уларнинг биргаликда ўз фаолиятларини ташкил қилишларида қандайдаяк тамойил ва йўналишларга эътибор қилишлари зарурлиги ойдинлашади.

Ўзбеклар хонадонидаги оилавий тарбияда ота ва оналарнинг алоҳида ҳолда қаралган хусусиятларини қуйидагича белгилаш мумкин: Ота хусусиятлари – ўзбек оилаларида ота кўпчилик ҳолларда оила бошлиғи ролини бажаради. Аммо ҳар доим ҳам ота оила бошлиғи ролида мазкур оиланинг педагогик манфаатлари нимада эканлигини, айниқса педагогикжараёни бошқариш учун қандай билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиш зарурлиги тўлиқ идрок этмайди. Энг муҳим бўлган талаб оталарни оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш жараёни учун масъуллигини ошириш, уларни мана шу вазифага қамарбаста қилишдир. Чунки, оилавий тарбияда агар биз оталарни ўз педагогик мақсадларимизга кўндира олсаккина, қўйилган педагогик вазифани амалга ошира олишимиз учун қулай шароит яратилади. Чунки, оталар оила бошқарувчилари сифатида оилавий муҳитни педагогик экспериментга қарши қилиб қўйиши мумкин, ёки тушунтириш ишлари асосида оилавий муҳитни педагогик эксперимент ҳамкорларига айлантиришлари мумкин.

Оилавий тарбияда ўзбеклар менталитетида —ота рози - худо рози| тамойили қўлланади. Педагогик жараён самарадорлиги бевосита ота иродаси, унинг кўмаги, унинг педагогик мақсадларни нечоғли англаганлиги, унинг масъулияти

ва иродасига боғлиқ бўлади. Аммо ота оилада педагогик амалларни бажарувчи бўлмайди. Ўзбек оилаларида ота кўпинча амалларни бажарувчи сифатида эмас, мана шу амалларни бажаришга барчани рағбатлантирувчи, йўналтирувчи инсон сифатида ўзини намоён қилади. Яъни ота буйруқлар бериш, хулосалар чиқариш, йўл кўрсатиш, рағбатлантириш, жазолаш орқали ўз бошқарувчанлигини намоён этади.

Ота кўпроқ – бошқарувчи ролида бўлади. Унинг бошқарувчанлиги онага, фарзандларга йўналтирилган бўлади. Одатда, отанинг бошқарувчанлик ролига итоат этилади. Яъни, ота ўзини амалларни бажарувчи сифатида эмас, балки мазкур амалларга бошқаларни йўналтирувчи сифатида ўз функционаллигини кўрсатади. Отага қўйиладиган бош педагогик талаблар: масъуллиқ, 0 тўлиқ, кенг ва ҳартомонлама билим ва дунёқараш, бошқариш малакалари, мақсадга йўналганлик, фаоллик, ижодийлик, оила ва жамият манфаатларини бирлаштира олиш, самимийлик, очиқлик, демократизм, тўлиқ талабга жавоб бериш, рефлексия, мониторинг, салбий оқибатларни кўра билиш, уларнинг олдини олиш кабилардан иборат бўлади. Она хусусиятлари – ўзбек оилаларида она ҳам оилавий тарбия учун мутасадди бўлган шахслардан саналади. Аммо мутасаддиликнинг хусусияти шундаки, она оилавий тарбияни зимдан бошқаради. У ўзини очиқойдин ҳолда бошқарувчи сифатида жамиятга кўрсатмайди. Онанинг бошқарувчилиги педагогик амалларни жорий этувчи шахс эканлигида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, агар ота оилавий таълим-тарбия жараёни учун зарур бўлган мақсадларга —бўйруқ| берган, уларнинг амалда таъминланиши учун оилада шароит яратган бўлса, она ўз педагогик вазифаларини бажариш учун кенг фа-

олиятни ташкил қила олади. Аммо, агар ота вазифаларни англамаган ва —буйруқ| бермаган ҳолларида, онанинг ўз педагогик вазифаларини бажаришида маълум кийинчиликлар вужудга келади.

Онадан оилавий тарбияда кенг педагогик ва касбий ижтимоийлаштириш борасидаги билим, кўникма ва малакалар талаб этилади. Улар онага оилада таълим жараёнини ташкил қилиш ва —буйруқ|ни бажариш учун зарур бўлади. Агар ота кўпроқ —масала моҳиятини англаган ҳолда ўз оталик иродасини намоён қилиши талаб этилса, онадан мана шу масала юзасидан аниқ амалларни бажариши ва педагогик жараённи бевосита ташкил қилувчи, педагогик амалларни бажарувчи сифатида ўз имкониятларини ишга солиши тақозо этилади. Шу нуқтаи назардан онадан отага нисбатан кўпроқ айнан педагогик шакллар, воситалар ва усуллар бўйича билим, кўникма ва малакалар талаб этилади. Агар она оилавий тарбия бўйича мана шундай билимлар билан тўлиқ қуроллантирилган бўлсагина, у педагогик жараённи мақсадли ташкил қила олади ва педагогик самарадорликни таъмин эта олади.

Ўзбек оилаларида онага қўйиладиган бош педагогик талаблар: ўта масъулиятлилиқ, фаоллик ва сайи-ҳаракат, оила ва жамият манфаатларининг бирлигини англаш, билим, самара, натижалилик, йўл кўрсата олиш, ишонч, талабга жавоб, самимийлик, очиқлик, ижодийлик, педагогик шакл, восита ва усулларни эгаллаганлик, кундалик бевосита фаолият, рефлексия, таҳлил қила олиш, фарзандлар шахсий ва касбий хусусиятлари ва лаёқатларини мос англаш, шароит яратиб бера олишлиқ, тўғрилиқ, педагогик маҳорат кабилардан иборат бўлади.

Муҳокама (Discussion). Демак, оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини

таъминлашда отанинг инсоний, мутахассислик, билим ва дунёқараши, турли воқеаҳодисаларга муносабати масаласи кўпчилиқ ҳолларда педагогик жараёнга ижобий, ёки салбий, ўта ижобий, ёки ўта салбий таъсирини ўтказиши мумкин.

Ижобий (ўта ижобий) таъсир ўтказиш ва унинг оқибатлари — фарзандда касб-ҳунарли бўлиш, меҳнат қилиш, меҳнатдан роҳатланиш, ўз устида ишлаш, қизиқиш, ўзини ва ўз имкониятларини намоён қилиш, фаол бўлиш, ўз ўрнини топиш, ўзига, оиласи ва жамиятга фойдали инсон бўлиб вояга етиш, удабуролик, яқинларига меҳр-мурувват, тўкинлик, раванқ, ҳар томонлама баркамол бўлиш, илғорлик, ташаббускорлик, креативлик, мақсадга йўналганлик, муаммолардан чўчимаслик, муваффақият, ютуқ, ўз келажагига тўлиқ ишончи, келажакни қандай қуришни билиш, унга сари интилиш, конфликтларечимига тайёрлик, мунтазам ўсиш-улғайиш хохиши, ўз лаёқатларини ишлатиш ва намоён қилиш, муносиб иш ўрнига эгаллик касби хислат ва фазилатлар уйғонади. Салбий таъсир (ўта салбий) ва унинг оқибатлари — девиантлик, асоциал хис-туйғулар, ўзига ишонмаслик, эринчоқлик, пассивлик, муаммолардан қочиш, ўз имкониятларини мос англамаслик, тушкунлик, ўзининг бефойдалигини англаш, турли эмоционал-психологик комплекслар, жамиятдан қочиш, конфликтотенлик, ўз ношудлигини оқлаш ва уни агрессия ортига яшириш, барчага қарши бўлиш, ўз манфаатлари ва фойдасини мос англамаслик, муваффақиятсизлик, ўз истиқболига ишончнинг йўқлиги, яқинларини ўз хатоларида айблаш, ҳаётда тўғри йўлни топа билмаслик, боқимондалиқ, ўз масъулиятдаги вазифаларни бошқаларга юклаш, масъулиятдан қочиш, суестлик, қарорлар қабул қила олмаслик ва бошқалар.

Хулоса (Conclusion). Ўзбек оиласида

ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш жараёнида мутасаддиларнинг ўз педагогик фаолиятига нисбатан тайёрлик даражалари қуйидагича белгиланади: Шундай қилиб, ўзбек оилаларида одатда ота - буйруқ берувчи ва бошқарувчи сифатида, она - буйруқни амалга оширувчи ва педагогик амалларни бажарувчи сифатида ўзини намоён этади.

Хулоса қилиб айтганда, оилада касбий ижтимоийлашувни таъминлаш жорий қилингандагина, бутун жамият ва конкрет шахс ҳаётида ижобий ўзгаришларни

таъминлаш мумкин бўлади. Бинобарин, касбий ижтимоийлашув ва уни оила шароитида таъминлашнинг педагогик ва ижтимоий мазмуни, унинг категориялари, уни шакллантиришнинг педагогик тизимлари, педагогик жараён хусусиятларининг тўғри англаниши ва тўғри танланиши, касбий ижтимоийлашувни қандай қилиб, қайси шакллар, воситалар ва усуллар билан таъминлаш кераклиги масаласини ҳал этиш ва мазкур қўпқиррали педагогик мазмунни оилавий таълим-тарбия жараёнига татбиқ этиш лозим.

#### Адабиётлар рўйхати :

1. Бегматова Д. Оилада касбий ижтимоийлашув // Халқ таълими. – Тошкент, 2011. – № 6. – Б. 84-86.
2. Бегматова Д. Оилада касбий ижтимоийлашувни шакллантиришда узвийлик ва узлуксизлик муаммоси // Узлуксиз таълим. – Тошкент, 2012. – № 4. – Б. 94-98.
3. Бегматова Д. Касбий ижтимоийлашув истилоҳининг илмий-педагогик мазмуни борасида // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2012. – № 1. – Б. 17-19.
4. Бегматова Д. Оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлаш долзарб вазифа сифатида // Самарқанд давлат университети илмий ахборотномаси. – Самарқанд, 2014. – № 2/84. – Б. 119-122.
5. Mukhtarova B. D., Kudratova D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. – 2022.
6. Muxtarova B. D., Uktamova S. Z. ERTAKLARNI O'RGATISH ORQALI TA'LIM-TARBIYANING ENG MUHIM QIRRALARINI SINGDIRISH //Yosh Tadqiqotchilari Jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 2. – S. 34-36.
7. Бегматова Д. М. КАСБИЙ ИЖТИМОЙЛАШУВДА ЗАМОНАВИЙ КАСБЛАР ТАҲЛИЛИ // Педагогика ва психологияда инновациялар. – 2020. – Т. 10. – №. 3.
8. Бегматова Д. М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 127-129.
9. Mukhtarova B. D. Professional socialization of youth as a pedagogical problem //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1207-1212.
10. Muxtarova B. D. et al. OILADAYOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 25-33.

## «БИТ-ДАРС» ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ БЎЛАЖАК ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.

**ИГАМБЕРДИЕВА ШАХНОЗА АДХАМОВНА-Фарғона Давлат универси-  
тетининг мустақил тадқиқотчиси.**

**Аннотация.** Мақолада «Бит-дарс» технологияси орқали бўлажак хорижий тил ўқитувчилари ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш технологияси ёритилган. Ҳозирги кунда хорижий тилларни ўқитиш долзарб масалага айланмоқда. Дарсларни турли инновацион технологиялар орқали ташкил этиш эса педагогик таълимнинг нозик нуқтасидир. Мақолада Шунингдек, бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришда ушбу технологиядан фойдаланишнинг самрадорлиги таҳлил қилинган. Мақоладан олинган хулосаларни хорижий тил ўқитувчиларини ўқитишда фойдаланиш мумкин.

**Калит сўзлар.** «Бит-дарс» технологияси, инновацион фаолият, ўқиш, ўрганиш, фаолият юри-тиш, технологиялар.

**Аннотация.** В статье рассматривается технология развития навыков творческого сотрудничества будущих учителей иностранного языка с помощью технологии "бит-урок". В настоящее время преподавание иностранных языков становится актуальной проблемой. Организация занятий с использованием различных инновационных технологий является чувствительным моментом педагогической подготовки. В статье также анализируется самрадорность преимуществ этой технологии в развитии навыков творческого сотрудничества у будущих учителей иностранного языка. Выводы, сделанные из статьи, могут быть использованы при обучении учителей иностранного языка.

**Ключевые слова.** Технология "Бит-урок", инновационная деятельность, учеба, учеба, деятельность, технология.

**Annotation.** The article covers the technology of developing the skills of creative cooperation of future Foreign Language teachers through the technology of "bit-lesson". Currently, the teaching of foreign languages is becoming an urgent issue. The organization of classes through various innovative technologies is a sensitive point of pedagogical training. The article also analyzes the samradaorality of the benefits of this technology in the development of creative cooperation skills in future Foreign Language teachers. The conclusions drawn from the article can be used in teaching Foreign Language teachers.

**Keywords.** "Bit-lesson" technology, innovation activity, study, study, activity, technology.

Бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида «бит-дарс» технологияси асосида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришга доир хулосалар орқали махсус таълим технологиясини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ иш бўлади. Чунки таълим технологияси тадқиқот иши илмий фаразини тажрибадан ўтказиш ва унинг самрадорликни аниқлаш механизми ҳисобланади. Кўплаб таълим технологиялари асосида энг юқори натижани намоён этган таълим технологияси

танлаб олинадиган ва уни оммалаштириш методикаси ишлаб чиқилади.

«Технология» тушунчаси, ҳам кенг, ҳам тор маънога эга бўлиб, у инсоннинг аниқ, мураккаб жараёни кетма-кет ўзaro боғлиқ амаллар тизимига тақсимлаш орқали кафолатли натижадорликка эришиш мақсадида амалга ошириладиган усуллар, воситалар, йўналишлар тушунилади. Ижтимоий соҳа билан боғлиқ технологияларда инсон ҳаёти ва фаолиятини шунингдек, унга хизмат кўрсатишни ях-

шилашга қаратилганлиги билан фарқланади. Ижтимоий технологияларнинг афзал жиҳатларидан бири уни ҳар қандай янгиликка мослаша олишидир. Улар технологик жараёни ташкил этадиган алоҳида ёндашув ва амаллардаги камчиликларни тузатишга қаратилган бўлади.

Илмий ишнинг энг умумий гипотезаси асосида педагогик жараёни ташкил этиш қодалари ва механизмларини кўрсатиб бериш мумкин муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Шу билан бирга таълим технологияси илмий тадқиқот мазмунини, самарадорлигини аниқлашга ҳизмат қилади. Замонавий шароитда «бит-дарс» технологияси асосида бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш самарадорлигини оширишнинг зарурий шартларидан бири – мазкур жараёни технологик асосда ташкил этишдир. Шу боис, биз ҳам диссертация иши доираида бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг таълим технологиясини ишлаб чиқдик.

«Бит-дарс» технологияси асосида бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришга эҳтиёжни кучайтирувчи қатор асослар мавжуд. Бундай асосни хорижий тилларни ўқитиш самарадорлигини оширишда, чет тилларини ўқитиш сифатини ўстиришда юқори самарадорликни намоён қилишини кўриш мумкин. Айнан ижодий ҳамкорлик бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида инноваторликни ва креативликни янги босқичга кўтаради. Шу билан бирга, бўлғуси педагогда яратувчанлик, бунёдкорлик фазилатлари ривожланади, аниқроғи ижодий ҳамкорлик ана шундай сифатларни ривожлантирувчи ва даъват этувчи восита ролини ба-

жаради. Шунингдек, хорижий тилларни ўқитишда «бит-дарс» технологиясидан фойдаланиш ижодий ҳамкорликка доир янгича билим ва кўникмаларни ривожлантиради.

Бўлажак хорижий тилларни ўқитишда, чет тилларни ўқитувчи мутахассисларни тарбиялашда «бит-дарс» технологияси асосида мутахассислик дарсларини қизиқарли суҳбат, ўйин ва мунозара асосида ташкил этиш бир томонда дарс сифатини оширсан, иккинчи томондан талабаларда ижодий ҳамкорлик қилиш кўникмаларини, вазиятларга янгича ёндашувни, дунёқарашни намоён қилишга ундайди. Бу эса, хорижий тилларни ўқитишга креатив муносабатни ҳосил қилади. Шунингдек, мазкур технология асосида ҳамкорликда ўрганиш, бир бирига ёрдам беришга асосланган таълимни шакллантириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ривожланган халқаро олий таълим муассасаларида таълим олишда талабани мустақил ўрганишга кўпроқ йўналтириш, уни доимий изланишда бўлишини таъминлаш, аудиторияда пасив маъруза тинглашдан бахс-мунозараларга асосланган таълимни ривожлантириш, шу билан бирга мустақил таълимда талабаларнинг ўзаро ҳамкорликка киришишлари, биргаликда илмий изланишларни олиб боришга йўналтирилган, ўз қизиқшлари доираида жамоа бўлиб илмий фаолиятни йўлга қўиш имкониятини берадиган таълим технологиясини яратиш юқори самарадорликни намоён қилади. Бу орқали талабаларида қизиқишлари бўйича ҳамкорлик қилиш, бир бирига ёрдам кўрсатишни ташкил этиш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Шу маънода хорижий тилларни ўқитишда интерактив суҳбат, ўйин ва мунозараларга асосланган қизиқарли даср

машғулотларига урғу бериш, ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантирувчи педагогик жараёни ривожлантиришга қаратилган таълим модулини ишлаб чиқиш самарали бўлади. Бунда бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришда «Ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришда «бит-дарс» технологияси» модулини ўқитиш ва мазкур курсга доир билим, дунёқараш, малака ва кўникмаларни шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Мазкур курс орқали бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг ижодкорликгини, инноваторлигини, таълимга янги ёндашувларни олиб кириш лаяқатини, шунингдек, уларни касбий қизиқши, иқтидори ва салоҳиятига қараб йўналтириш мақсад қилинади. Бу орқали бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг ижтимоийлашувини ривожлантириш, ижтимоий муносабатларда ўзининг шахсиятини намоён қилиш, фаол фуқаролик позициясини, гуманитар муносабатларда ўзининг билим ва ёндашувини намоён қила олдаган кадрларни тарбиялашдир. Муаммо шундаки, биринчи босқичга қабул қилинган талаба базавий фанларни ўқиш билан бир ўқув йилини ўтказиб юбориши, уни ўз соҳаси ва турдош соҳаларга йўналтириувчи, қизиқтирувчи, иқтидорини намоён қилувчи илмий-педагогик муҳитнинг йўқлиги, уларни одадий таълимга мослашишларини мажбур қилади. Шу боис бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида «бит-дарс» технологияси асосида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш ва бу орқали инновацион таълим муҳитида кичик бўлса ҳам ўзгариш қила оладиган мутахасисни тарбиялаш муҳим аҳамият касб этади.

«Ижодий ҳамкорлик кўникмаларини

ривожлантиришда «бит-дарс» технологияси» модулини ўқитиш ва таҳлил этиш орқали талабада ижодий ҳамкорликка доир хулосаларини кенгайтириш мумкин. Талаба таълимдги ижодий ҳамкорлик асосида ижодкор ва инноваторлик сифатлари ривожланиб боради. Шунингдек, ижодий ҳамкорлик кўникмалари бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг келгуси касбий фаолиятида фойдали бўлганлиги учун, ўқувчиларга хорижий тилларни ўргатишда бундай кўникмалар жуда муҳим бўлганлиги учун ҳам унга алоҳида эътибор билан ёндашиш керак бўлади.

Бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида «бит-дарс» технологияси асосида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш ва бу асосида фаол илмий тадқиқотлар олиб бора олдаган, қизиқшлари ва салоҳиятини эркин намоён қила олдаган, киришимли кадрларни тарбиялаш ва бу асосда хорижий тилларни ўқитишда ижодий ҳамкорлик муҳитини қарор топтириш мумкин бўлади. Демак, тадқиқот ишининг бош мақсади бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида «бит-дарс» технологияси асосида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш ва унга йўналтирилган педагогик жараён технологиясини аниқ ва тезкорликда амалга ошириладиган тизимхолатига келтириш зарур.

Шунингдек, бўлажак хорижий тил ўқитувчиларида «бит-дарс» технологияси асосида ижодий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган таълим тамойилларини ҳам аниқлаб олиш керак. Бунинг учун мазкур технологиянинг диалогик, ўзаро мослик ва креативлий тамойилларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин.

Диалоглик тамойили. Ижодий ҳамкорлик талабалар жамоасининг ўзаро





## ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ КОМПЕТЕНТЛИГИ ЎЗ-ЎЗИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТИЗИМИ СИФАТИДА

КАРИМОВ ИЛХОМ НОРМАМАТОВИЧ

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти “Электр энергетикаси”  
кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада интеллектуал компетенциянинг кўп босқичли ўз-ўзини персоналлаштириш асосида фаолиятини ташкил қилишнинг мураккаб тизими эканлиги, интеллектуал компетенцияни ақлий операцияларни ривожлантириш билан боғлиқ бўлган интеллектуал қобилиятларни қуйи тизимлар сифатида бирлаштирган тизимли таълим сифатида тушунилиши, улар асосида турли билимлар юзага келиши ва шахснинг индивидуал тажрибаси шаклланиши масалалари талқин қилинган.

**Калит сўзлар:** талаба, интеллект, ривожланиш, компетентлик, таълим, жараён, тизим, натижа, қобилият, фаолият, шаклланиш.

**Аннотация.** В статье интерпретируется тот факт, что интеллектуальная компетентность представляет собой сложную систему организации деятельности на основе многоступенчатой самоперсонализации, что интеллектуальная компетентность понимается как систематическое образование, объединяющее интеллектуальные способности, связанные с развитием ментальных операций как подсистем, на основе которых возникают различные знания и решаются вопросы о формировании индивидуального опыта

**Ключевые слова:** студент, интеллект, развитие, компетентность, образование, процесс, система, результат, способность, деятельность, формирование.

**Annotation.** The article interprets the fact that intellectual competence is a complex system of organizing activities on the basis of multi-stage self-personalization, that intellectual competence is understood as a systematic education that combines intellectual abilities associated with the development of mental operas as subsystems, on the basis of which various knowledge arises and the issues of the formation of individual experience

**Key words:** student, intelligence, development, competence, education, process, system, result, ability, activity, formation.

Интеллектуал компетенция - бу интеллектуал қобилиятлар асосида олинган ва касбий фаолият ва мулоқотда намоён бўладиган индивидуал ақлий тажриба бўлиб, улар асосида турли билимлар олинади ва шахснинг индивидуал тажрибаси шаклланади. Интеллектуал компетентлик ҳар қандай назарий ва амалий фаолиятга ва инсон ҳаётига киради ва уни шакллантиришнинг зарур шарти бўлиб хизмат қилади.

Шахс ва унинг хусусиятларини ҳамда психикасини ахборотни қайта ишлайдиган ягона тизим деб ҳисоблайди. Ушбу тизим қуйидагиларни ўз ичига олади:

билимларни ўзлаштириш, қўллаш ва ўзгартириш  
мавжуд муаммоларга асосланиб, муаммо-

ларни ҳал қилиш қобилияти

билимларни эгаллаш қобилияти ва ижодкорлик

билимларни қўллаш қобилияти [1, 17 б.].

Талабанинг интеллектуал ривожланиши фақат маълум бир тарзда ташкил этилган мавзу мазмунини ўзлаштириш, ушбу таркибни ривожлантириш ва кейинчалик ушбу мавзу мазмунининг баъзи янги шакллари яратиш орқали мумкин, яъни мақсад фақат мавзунини ўзлаштириш эмас, аксинча, предмет мазмуни орқали шахснинг индивидуал интеллектуал ресурсларини кенгайтириш ҳисобига амалга оширилади. Интеллектуал компетентлик билимларни ташкил этишнинг махсус тури бўлиб, у икки турдаги билимларни ўз ичига олади - декларатив ("нимани" билиш) ва про-

цессуал ("қандай" билиш). Бу билимлар хилма-хил бўлиб, уни турли вазиятларда қўллаш мумкин ва у категория хусусиятга эга. Бу компетенция, шунингдек, фикрлаш орқали олинган ўз билимлари ҳақидаги қарашларини ҳам ўз ичига олади. М.А.Холодная фикрича, "билимли ва малакали шахс ўртасидаги фарқ билимнинг ҳажмида, унинг кучида ва ўзлаштириш чуқурлигида эмас, балки индивидуал билимнинг қандай ташкил этилганлиги ва у қанчалик ишончли эканлигидадир, самарали ечимларни қабул қилиш учун асосдир" [2, 206 б.].

С.Л.Рубинштейн билим ва интеллект ўртасидаги диалектик муносабатни қайд этди: бир томондан, билим инсоннинг билиш фаолиятининг натижаси бўлса, иккинчи томондан, инсон фаолиятига киритилиб, билим интеллектнинг, интеллектуал маданиятнинг таркибий қисми сифатида ишлайди. Аниқроқ айтганда, бу С.Л.Рубинштейннинг муносабатлари куйида таърифланган. «Предмет мазмуни муносабатларини умумлаштириш умумлаштирилган предмет мазмуни бўйича бажариладиган амалларни умумлаштириш сифатида ҳаракат қилади ва қабул қилинади; бу умумлаштирилган операцияларнинг индивидуалда умумлаштирилиши ва мустаҳкамланиши шахсда мос келадиган қобилиятларнинг шаклланишига олиб келади» [3, 228 б.], бир сўз билан айтганда, С.Л.Рубинштейн интеллектуал компетентликнинг барча компонентларининг ўзаро боғлиқлигини кузатади. Интеллектуал компетенциянинг мазмун компоненти олинган билимларни ўз ичига олади

Асосан назарий жиҳатдан инсониятнинг тарихан шаклланган тажрибасини адекват ва тўлиқ ўзлаштириш воситаси сифатида ҳаракат қиладиган тушунчалар орқали индивидуал интеллектни энг самарали ижтимоийлаштириш (инсонлаштириш) амалга оширилади, бу бошқа шахсларни ва бошқа маданиятларни тушуниш учун зарур шарт-шароитларни яратади. Тушунчаларни шакллантириш функцияси билан синтез асосида элементар когнитив функцияларни қайта қуриш (интеллектуализация) содир бўлади: идрок аслида визуал фикрлашга айланади, ёдлаш семантик алоқа-

ларга таянишни бошлайди, диққат ўзбошимчалик хусусиятига эга бўлади.

Психологик нуқтаи назардан, тушунчаларнинг шаклланиши объектив мавжуд билимларнинг маълум бирликларини аллақачон мавжуд бўлган субъектив психик тузилмаларга айлантириш жараёнидир.

Руҳий неоплазмалар сифатида инсоннинг ички тажрибаси саналади [4, 14 б.]. Тушунчалар категория ва мантикий муносабатлар ёрдамида идрок қилинадиган дунёни тартибга солиш воситасидир, яъни эмпирик таассуротларнинг тартибсизлигига дош беришга ва уларни оқилона даражада тартибга солишга ёрдам берадиган интеллектуал воситадир [5, 109 б.].

Ҳар қандай ақлий фаолият, шу жумладан интеллектуал фаолият ҳам ўз ривожланишини ташкил қила олади. Ўқув жараёнида оддий ақлий операциялар ҳам (таҳлил, синтез, таққослаш, умумлаштириш, мавҳумлаштириш) ва мураккаб (кўчириш қобилияти, аналогия бўйича излаш, умумий стратегияларни ишлаб чиқиш, ғояларни шакллантириш) ривожланади. С.Л.Рубинштейн иккита компонентни ажратиб кўрсатади - интеллектуал фаолият амалга ошириладиган операциялар (ақлий ҳаракатлар) ва интеллектуал қобилиятлар таркибига кирувчи ушбу операцияларнинг (таҳлил, синтез, умумлаштириш) ишлашини тартибга солувчи жараёнларнинг сифатлари.

Қобилият маълум бир фаолият (шу жумладан интеллектуал) учун ўзлаштирамагунча, тегишли операциялар тизимини ўз ичига олади, бундай операциялар тизими билан чекланмайди. Унинг зарурий бошланғич компоненти - бу операцияларни самарали ривожлантириш учун ички шароитларни ташкил этувчи муносабатларни умумлаштириш жараёнлари. [6, 548 б.]. Шундай қилиб, интеллектуал қобилиятлар уларга киритилган операциялар мажмуидан иборат эмас, балки ушбу операцияларни қобилиятга айлантиришнинг ички шarti бўлган жараёнларнинг (жумладан, муносабатларни умумлаштириш) табиати билан белгиланади. Бу С.Л.Рубинштейн ғоясига асосланади, янги тузилмаларни шакллантиришнинг психологик усули сифатида умумлаштириш

механизми (шахс ва фаолият) белгиланади. Бу бизга интеллектуал компетенцияни инсоннинг интеллектуал қобилиятларини (интеллектуал фаолият) ривожлантириш жараёнида пайдо бўладиган вазият сифатида кўриб чиқишга имкон беради. Инсоннинг алоҳида қобилиятлари алоҳида элементлар сифатида мавжуд эмас, уларнинг ривожланиши ўзаро боғлиқ ва маълум ва айна пайтда ҳаракатчан тузилмаларда бирлаштирилган. Аммо, шунга қарамай, кўп қирралик, ҳаракатчанлик, уларнинг фазилатларидаги муносабатлар турли даражадаги интеллектуал қобилиятларга эга бўлган одамлар учун фарқ қилади [7, 33 б.].

Фаолиятда муваффақиятга эришиш ўз-ўзини тартибга солишнинг шаклланишига боғлиқ бўлиб, улар ўзаро муносабатлардаги ақлий фаолият билан биргаликда қобилиятларнинг ягона асосий принципнинг турли томонларини ифодалайди. Бу томонларнинг мувофиқлик даражаси муҳим аҳамиятга эга кўринади. Н.С.Леитеснинг сўзларига кўра, ўз-ўзини тартибга солиш ва фаолият фаолиятни амалга ошириш учун универсал ички шартлардир. Ўз-ўзини тартибга солиш ақлий чидамлик, тезлик ва барқарорликка таъсир қилади, фаолиятнинг "услуги", яъни фаолиятнинг муваффақияти ўз-ўзини бошқариш хусусиятларига боғлиқ. Шахснинг барқарор томонлари бўлган самарали тартибга солиш усулларига эга бўлган шахс турли хил фаолиятда, шу жумладан интеллектуал фаолиятда сезиларли ютуқларга эриша олади. Тартибга солишнинг этарлича мукамал усуллари фаолият даражасининг умумий пасайишига олиб келади [8, 196-211 б.].

Э.Ф.Зеернинг сўзларига кўра, ўз-ўзини персоналлаштириш, компетентликнинг муҳим хусусияти саналади ўқитишда талабаларнинг уюшган ташаббуси сифатида шаклланади ва ривожланади. Ўз-ўзини персоналлаштирувчи таълим ўқув мотивациясини етакчига айлантиришга ёрдам беради, талабаларнинг ўзини-ўзи бошқариш, ўзини-ўзи ташкил этиш, ўзини-ўзи белгилаш ва ўзини-ўзи бошқариш компетенцияларини мустақил равишда эгаллаш қобилиятини ривожланти-

ришга ёрдам беради. Таълим жараёнида ўз-ўзини ривожлантириш ижобий натижаларга олиб келади [9, 55 б.].

Ҳар қандай фаолият турида, шу жумладан ўқув ва интеллектуал фаолиятда функционал компонентлар мавжуд бўлиб, уларнинг энг муҳими индикатив бўлиб, улар муаммоли вазиятни баҳолашга, муаммони ҳал қилиш режасини белгилашга, ечим стратегиясини ишлаб чиқишга ва ҳоказоларга имкон беради, шунингдек, фаолиятнинг муваффақияти ва натижаларини текшириш учун доимий назоратни амалга оширадиган тартибга солувчи фаолият ва жараён натижалари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Шундай қилиб, агар ихтиёрий фаолият натижага эришишга қаратилган бўлса, ўз-ўзини тартибга солиш эса муаммони ҳал қилиш учун зарур бўлган фаолият даражасини таъминлайди. Бу нуқтаи назарни Э.А.Голубева, фаоллик ва ўз-ўзини тартибга солиш асосий омиллар деб ҳисоблайди [10, 21 б.].

Мақсадни белгилаш, режалаштириш, прогнозлаш, қарор қабул қилиш шаклида интеграл ақлий жараёнлар ва бошқалар талабаларнинг интеллектуал фаолиятини ташкил этиш ва тартибга солишни таъминлайди. Уларнинг интеллектуал фаолиятини тартибга солишда муҳим рол ўйнайди

Рефлексия ўз тарбиявий ишини куриш, уни бошқариш, уни амалга оширишда ўзининг кучли ва заиф томонларини англаш қобилияти сифатида талабага ўз билимини, ҳам мавзунини, ҳам ўз билиш фаолиятини ташкил этиш ҳақидаги билимларини баҳолашга ёрдам беради.

Самарали ақлий фаолиятдаги акс эттириш предмет мазмунида ўз ҳаракатининг асосларини англаш деб тушунилади [11, 112 б.], муаммоли вазиятда одамнинг ўзини ўзи англаши [12, 71 б.], интеллектуал ва таълим фаолиятини рефлексли бошқариш муаммоси уларни тартибга солиш шакллари ва механизмлари масаласининг бир қисми сифатида кўрсатилиши мумкин.

И.Н.Семенов ва С.Ю.Степановлар шартли равишда рефлексиянинг иккита шаклини ажратади: интеллектуал ва шахсий. Интел-

лектуал рефлексия “муаммоли вазият мазмунида субъект томонидан амалга оширилган ҳаракатни тушунишга ва ушбу таркибнинг элементларини ўзгартирадиган ҳаракатларни ташкил этишга” қаратилган. Шахсий рефлексия – “инсоннинг ўз-ўзини англаши ва умуман ақлий фаолиятини ўзининг ажралмас “мен”-ни амалга ошириш усули сифатида ўзини ўзи ташкил қилиш” ҳақида, у инсоннинг ўзига қаратилган ва шунга мос равишда уни тушуниш ва қайта кўриб чиқишга олиб келади [13, 163 б.]. Фикрлашнинг иккала тури ҳам интеллектуал компетенцияга киради ва уларнинг процессуал динамикаси талабаларнинг ўзгаришига, уларда янги субъектив фазилатларнинг шаклланишига ёрдам беради [14, 23 б.] ва таълим фаолиятида юзага келадиган доимий шахсий ривожланиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Интеллектуал компетенциянинг шахсий компонентида унинг барча таркибий қисмлари билан алоқаси аниқ намоён бўлади.

Мотивацион-қийматли хусусиятлар тизимни шакллантирувчи белгиловчи, рағбатлантирувчи асосий ролни ўйнайди, индивидуал позицияни, йўналишни ва когнитив фаолликни белгилайди. Таълим фаолиятининг кўплаб мотивлари орасида, В.Н. Дружинин, таърифига кўра, [1, 17 б.] муваффақият мотивацияси - бу фаолият мотивациясининг кўринишларидан бири, шу жумладан таълим, биринчи навбатда, муваффақиятга эришиш ёки муваффақиятсизликка йўл қўймаслик учун шахснинг асосий йўналиши билан боғлиқдир.

Психологик нуқтаи назардан, муваффақият мотивацияси моҳиятини тушунишга, ўз-ўзини ҳурмат қилиш истагини, малакасини оширишга ва ўз фаолиятини тартибга солишга ёрдам беради [15, 28 б.]. Шундай қилиб, муваффақият мотивациясини муваффақият мезонлари қўлланилиши мумкин бўлган турли фаолиятларда муваффақиятга эришиш учун шахснинг доимий эҳтиёжи сифатида аниқлаш мумкин.

Ютуқларга (маҳорат сифатида) барқарор йўналишни шакллантириш орқали ўрганиш мотивациясига оригинал ёндашув К. Двеск томонидан ишлаб чиқилган. Унинг таъкид-

лашича, баъзи талабалар натижаларга йўналтирилган мақсадларни танлашади (ижобий баҳолаш улар учун муҳим) ва муваффақиятсизликларга йўл қўймаслик, бошқалари эса маҳоратни ўзлаштиришга қаратилган [16, 31 б.]. Бир қатор муаллифларнинг фикрига кўра, муваффақият мотивацияси ўз компетенциясига ишончни (Э. Деси, 1980), ривожланган ташаббус туйғусини (К. Эриксон, 1996) фаолият билан биргаликда ўз ичига олади.

"Шахсий қадрият йўналишлари, мотивацион тенденциялар, уларнинг ўзаро боғлиқлиги табиати зарур шартларини белгилайди, унинг тартибга солувчи роли функционал тузилиш жиҳати билан ўз-ўзини тартибга солиш орқали амалга оширилиши мумкин [17, 43 б.].

Интеллектуал компетенция, О.Г.Берестнева ва И.А.Дубинина психологик таркибий қисм сифатида интеллектуал ижодкорликни субъектив равишда янги, ўзбошимчалик билан оригинал ғояларни яратиш ва стандарт талаблардан ташқарига чиқиш қобилиятини ўз ичига олади [18, 230-238 б.]. Ижодкорлик (ижодкорлик) шахсий сифат сифатида интеллектуал компетенцияда намоён бўлади. Ижодий жараённинг мантикий натижаси янги маҳсулот олиш эмас, балки шахснинг ўзида содир бўладиган ўзгаришлар, янги фаолият усуллари, билим ва кўникмаларнинг пайдо бўлишидир. Бу кўп жиҳатдан "ўз-ўзини кашф қилиш", гарчи одам буни ҳар доим ҳам билмайди.

Ҳақиқий когнитив фаолиятда ақл ва ижодкорлик (тадқиқот қобилиятлари) бирликни ташкил қилади. Э.П. Торранс шундай деб ёзган эди: "Мен ақл ва ижодкорлик ўзаро таъсир қилувчи ёки қисман бир-бирига мос келадиган ўзгарувчилар эканлигини таъкидлайман ва улар ўртасидаги аниқ фарқларни мажбурлашга уриниш ҳақиқий ҳаётда мавжуд бўлмаган ёлғон фарқлар тасвирини яратади" [19, 8 б.].

Интеллектуал компетенциянинг ушбу қонидасининг тўлдирилиши, ўзгартирилиши ва такомиллаштирилиши мумкин бўлган очик динамик тизимидир. Динамик тизимнинг асосий хусусияти ўз-ўзини ташкил қилишдир, бу

ўз фаолиятини англатади: бир ёки бир нечта параметрларнинг доимий ўзгариши билан чиққли бўлмаган ўзаро таъсирлар функцияси сифатида янги ҳолат ўз-ўзидан пайдо бўлиши мумкин [20, 16 б.].

Интеллектуал компетенция яхлитлик, бу шахсни “динамик мувозанат ҳолатида ушлаб туриш ва янги тузилмаларни яратиш қобилия-

тига эга бўлган жуда мураккаб, очиқ кўп даражали ўзини ўзи ташкил этувчи тизим” сифатида тушунишни назарда тутлади. Яхлитликнинг услубий принципи алоқаларни очиб беришга, хусусиятларни очишга ва интеллектуал компетенция каби психологик ҳодисанинг сифат аниқлигини очиб беришга имкон берди.

#### Использованная литература:

1. Дружинин В.Н. Психология общих способностей / В.Н. Дружинин. СПб.: Питер, 2007. С. 17.
2. Холодная М.А. Психология интеллекта: Парадоксы исследования / М.А.Холодная. 2-е изд. перераб. и доп. СПб.: Питер, 2002. С. 206.
3. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. 2-е изд. М., 1976. С. 228.
4. Веккер Л.М. Психические процессы. Мышление и интеллект / Т. 2. Л.: изд-во ЛГУ, 1976. С. 14.
5. West С.Н. Cognitive structure and conceptual change / С.Н. West, А. Pines. Orlando etc; Acad. Press, 1985. P. 109.
6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. СПб.: Питер Ком, 1999. С. 548.
7. Иванова В.П. Развитие интеллекта как основание личносно-профессионального становления студентов: дис. ... д-ра психол. наук / В.П.Иванова. М., 2013. С. 33.
8. Лейтес Н.С. К проблеме сензитивных периодов психологического развития человека / Н.С. Лейтес // Принцип развития в психологии. М.: Наука, 1978. С. 196-211.
9. Зеер Э.Ф. Саморегулируемое учение как образовательная технология формирования компетенции у обучаемых / Э.Ф. Зеер // Психология образования: проблемы и перспективы: материалы Первой Международ. научно-практической конференции. М., 2004. С. 55.
10. Голубева Э.А. Способности и индивидуальность / Э.А. Голубева. М.: Прометей, 1993. С. 21.
11. Семенов И.Н. Исследование рефлексивного аспекта принятия решения как фактора оптимизации мышления / И.Н. Семенов, Е.А. Сиротина, В.Н. Зарецкий // Эргономика. Исследование процессов принятия решений. М., 1977. Вып. 14. С. 110-133.
12. Степанов С.Ю. Методологический анализ психологических подходов к проблеме формирования творческого мышления / С.Ю. Степанов, И.Н. Семенов // Философско-методологические аспекты гуманитарных наук. М., 1981. С. 69-72.
13. Семенов И.Н. Рефлексия в организации творческого мышления и саморазвития личности / И.Н. Семенов, С.Ю. Степанов // Исследование проблем психологии творчества / под ред. Я.А. Пономарева. М.: Наука, 1983. С. 163.
14. Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности / А.В.Карпов. М.: ИП РАН, 2004. С. 23.
15. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения / Х. Хекхаузен. СПб.: Речь, 2001. С. 28.
16. Dweck С.S. Self-Theories: Their Role in Motivation, Personality, and Development / С.S. Dweck. MI., 1999. P. 31.
17. Морасанова В.И. Развивающее и традиционное образование. Эффекты в личностном развитии старшеклассников / В.И. Морасанова, Е.А. Аронова // Психологическая наука и образование. 2004. № 1. С. 42-54.
18. Берестнева О.Г. Технология оценки конвергентных и дивергентных способностей как факторов интеллектуальной компетентности студентов / О.Г. Берестнева, И.А. Дубинина // Известия ТПУ. 2006. № 6. С. 230-238.
19. Torrance Е.P. Creative intelligence and “anagendaforthe 80’s” / Е.P. Torrance // Arteducation. 1980. V. 33 (7). P. 8-14.
20. Thelen E. Dynamic systems approach to the development of cognition and action / E. Thelen, L. Smith. Cambridge, MA: MIT Press, 1994. P. 16.

## ЯПОН ТИЛИ ИЕРОГЛИФЛАРИНИ ЎҚИТИШДА МНЕМОТЕХНИКА МЕТОДИНИНГ ЎРНИ

ЛУТФИЛЛОЕВА ФАХРИНИСО МАХМУДОВНА,  
Самарқанд давлат чет тиллар институти доценти в.б.,  
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

**Аннотация.** Мақолада бугунги кунда япон тилини ўқитишда мнемотехника асосида компьютер технологияларидан фойдаланиб иероглифларни образлар (кўрсатмалар) кўринишида тасвирлаш муаммосига алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** ёндашув, япон тили, иероглифлар, мнемотехника, компьютер технологиялар, компьютер имитацион модел

**Аннотация.** В статье особое внимание уделяется проблеме изображения иероглифов в виде изображений (обучающих) с использованием компьютерных технологий на основе мнемотехники при обучении японскому языку на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** подход, японский язык, иероглифы, мнемотехника, компьютерные технологии, компьютерная имитационная модель.

**Abstract.** The article pays special attention to the problem of depicting hieroglyphs in the form of images (training) using computer technologies based on mnemonics in teaching the Japanese language today.

**Key words:** approach, Japanese language, hieroglyphs, mnemonics, computer technology, computer simulation model.

Кириш (Introduction). Ҳозирги кунда мамлакатимизда чет тилини билиш ва компьютер саводхонлиги ҳаммининг дикқат этиборида. Зеро Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони асосида мамлакатимизда таълимни ривожлантириш стратегиясини белгилаб берди ва бу соҳадаги вазифалар мувофақият билан амалга оширилмоқда. Ушбу дастур фуқароларга таълим тарбия бериш, касб-хунар ўрганишининг ҳуқуқий асосларини белгилайди ҳамда билим олиш учун конституциявий ҳуқуқини таъминлашга қаратилган. Ўтган даврда кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этиш ва бошқаришининг тузилмавий функционал ислоҳоти амалга

оширилди[1].

Адабиётлар таҳлили ва методологияси (Methods). Бугунги кунда япон тилини ўқитишда мнемотехник схема асосида компьютер имитацион моделлардан фойдаланиб иероглифларни образлар (кўрсатмалар) кўринишида тасвирлаш муаммосига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Япон тилини компьютер ва имитацион технологиялардан фойдаланиб ўрганиш борасида тадқиқот олиб борган олимлардан Г. Воробьева ва В. Воробьев, И. Ҳидеаки, С. Томизава, К. Мацумото, М. Эндо, Н. Лин, Ш. Кажита, К. Масе, Н. Ҳаристиани, Д.Б. Фирмация, С. Либренжак, П. Таэл, Т. Ҳаммонд ва бошқаларни келтириш мумкин[2]. Шунинг алоҳида таъкидлаш жоизки, келтирилган тадқиқотлар ва яратилган дастурларнинг асосий вазифаси бу иероглиф сўзнинг семантик маъносини ёдда сақлаш жиҳатига алоҳида эътибор қаратилган. Би-

рок, Цуда университетининг ўқитувчиси С. Маюмининг фикрини инобатга олган ҳола шуни айтиш мумкинки[3], шу вақтгача ишлаб чиқилган ишланмалар иероглифларнинг ўқилиш турига айнан морфемик бирликларини бошланғич даражада ўзлаштирилишига эътибор берилмаган ва татқиқ этилмаган. Шу боис, илмий изланишнинг мақсади, япон иероглифларнинг ўқитилишда муҳим ҳисобланган ўқилиш турдаги мавжуд мофемик бирликларни образли тарзда мнемотехник ҳикоя асосида миллий контекста ишлаб чиқиш ва компьютер имитацион модел орқали талабага етказиб бериш дарс жараёнини яна ҳам самарали ва қизиқарли бўлишини таъминлайди.

Таҳлил ва натижалар (Results). Бишкек Давлат университет доценти Г. Воробьева япон тили иероглифлари борасида бир неча йил давомида ўз илмий тадқиқот ишларини олиб борди. Унинг дастлабки “Сказки об иероглифах” номли ўқув қўлланмасида иероглифларни чет тили сифатида ўрганувчиларга ўргатиш йўллари тўғрисидаги таклифлари берилган[4]. Бунга кўра, 220 та иероглифнинг келиб чиқиши ва таркиби мнемотехника асосида ишлаб чиқилган бўлиб, бу бошланғич босқичдаги талабалар учун жуда қулай ҳисобланади. Ўқув қўлланма япон тилини рус гуруҳида ўргатувчи ўқитувчилар учун ишлаб чиқилган.

Бундан ташқари, Г. Воробьева ва В. Воробьевлар иероглифлар борасида тадқиқот ишлари олиб боришган ва бир қанча мақолалар эълон қилишган. Масалан, охириги икки мақолада улар иероглифларни таркибий таҳлил қилиб, уни ўрганувчилар учун энгил усулда англантиш ечимлари устида илмий изланишлар олиб боришган. Бошқа бир мақолада иероглифларни самарали ўргатиш учун айнан электрон дарслик устида иш олиб борила-

ётганлигини кўришимиз мумкин.

Бу борада Индонезия университети тадқиқотчилари Н. Ҳаристиани, Д.Б. Фирмансях томонидан компьютер технологияси ёрдамида иероглифларни осон ўрганиш ва энгил эса сақлаб қолишга қаратилган андроид дастури алоҳида эътиборга эга. Бу дастурдаги иероглифлар миқдори япон тили таълим стандартининг билиш даражасини аниқлаш имтиҳони (JLPT) N5 га мослаб яратилган. Бошқа медиа дастурдан фарқи шундаки, смартфонда мустақил ўрганиш жуда қулайдир. Бундан ташқари, иероглифларни ўрганиш босқичидан уларни текшириб кўриш, яъни имтиҳон қилиш босқичли дастурий таъминот билан жиҳозланган. Иероглифларни 105 таси жамланган бўлиб, ҳар бир иероглифнинг ўқилиш турлари КУНёми ва ОНёми ҳамда жумлаларнинг индонез тилида таржимаси ва сўз ясалиши намуналари ҳам батафсил келтирилган. Бу дастурдан фойдаланган ўқувчи нафақат иероглифларни мустақил ўрганишга, балки ўқилиш усулини, сўзларнинг маъноси ва луғатда қўлланиш йўллари ҳам билиб олиш имкониятига эга бўлади.

Япон тили иероглифларини мантикий ҳикоявий схема асосида ҳар бир иероглифнинг мазмун моҳиятини очиб бера оладиган компьютер имитацион моделини яратиш ва тажриба-синовдан ўтказиш муаммоси қўйилган.

Ҳозирги кунда иероглифларни ўргатиш амалиётида учта асосий йўналишни ажратиб кўрсатиш мумкин[2;с.2]. Булар:

1. Академик ёндашиш. Назарий омилларга таянган ҳолда ўргатиш усули бўйича кимлар тадқиқот олиб борганлигига эътибор бериш лозим бўлади.

2. Яхлит ёндашиш. Бу метод бўйича Н. Китани, Н. Ерофеева, М. Роули, Дж. Хейсиг, К. Хеншал, Ё. Кавагучилар ўз тадқиқотларини олиб боришган. Бу усул-

нинг натижаси ҳам муҳим. Чунки иероглифни ўрганувчилар бу метод орқали ҳар бир иероглифни тўлиқ семантик маъноли белги сифатида қабул қилишади.

3. Таркибий таҳлил. Бу метод тарафдорлари А.Толлини, М. Флагерти, М.Ногутти, Дж.Кесс, Ю.Миямото, В. Смоленский, А. Талышханов каби тадқиқотчилар ҳисобланади. Бу методиканинг ўзига хослиги шундан иборатки, ҳар бир иероглиф белгига синтетик-аналитик ёндашув билан таҳлил қилинади.

Ушбу илмий тадқиқот усулиларидан, асосан, иккинчи яхлит ёндашиш методи бўйича иш олиб борилган. Бунга япон тили иероглифларини ўргатишда асосан морфемик кўникмаларини образли тарзда шакллантириш мақсадга мувофиқ деб қаралади. Чунки, ҳар бир иероглиф сўз ўзи билан бир нечта морфемик бирликларни жамлаб келади. Айнан ана шундай ҳолат талабанинг япон тилидаги мавжуд иероглифларни мукамал ўзлаштиришига катта тўсиқ яратиши мумкин.

Шу боис ҳам мавжуд иероглиф сўзни осон тушуниш усулини яратиш учун, компьютер имитацион модел ёрдамида мнемотехник ҳикоя тузиш асосида талабага етказиш, самарали усуллардан бири саналади.

Япон тилини компьютер ва имитацион технологиялардан фойдаланиб ўрганиш борасида тадқиқот олиб борган олимлардан Н. Нагата, Х. Нара, К. Хатаса, И. Ҳидеаки, С. Томизава, К. Мацумото, М. Эндо, Н. Лин, Ш. Кажита, К. Масае, Н. Ҳаристиани, Д.Б. Фирмасыя, С. Либренжак, К. Вукович, З. Довдан, П. Таэл, Т. Ҳаммонд ва бошқаларни келтириш мумкин[5;6-8 б].

Шуни таъкидлаш лозимки, япон тилини ўрганишда компьютер технологияларидан фойдаланиш масаласига хусусий ҳолларда эътибор берилган. Масалан, Е.Э.Войтишекнинг диссертация ишида

(“Место интеллектуальных карточных игр в традиционной духовной культуре Японии”) карточкали ўйинлар ёрдамида япон тилини ўргатиш масаласи тадқиқ этилган[6;38 б].

Муҳокама (Discussion). Яқин кунлардан бошлаб япон тили ёзув тизими япон тилини ўргатиш методикасида алоҳида тадқиқот мавзуси сифатида қаралмоқда. Жуда кўп тадқиқотчилар фикрига кўра, (С. Маюми, Ж. Мажима, К. Самими, М. Табусе ва ҳоказо) япон тили илк босқичида ўрганилаётган ёзув тизимитил ўргатишнинг бир аспекти сифатида шаклланиши ва тилдаги мавжуд икки алифбога ҳамда иероглиф ёзувга ҳам кўникма ҳосил қилиш, психологик барьерни енгиб ўтиш жуда муҳим босқич ҳисобланади.

Амалиёт шуни кўрсатадики, япон тилини ўрганишдаги энг катта тўсиқ бу иероглифлардир. Чунки япон тили иероглификаси мураккаб кўп даражали структурага эга. Унда лексик бирликнинг идеографик ва морфемик ифодаси мужассамлашган. Айнан шу сабабли япон тили иероглификасини ўрганиш ўқув жараёнида кўплаб мураккабликларни вужудга келтиради. Ўқув жараёнини шундай ташкиллаштириш керакки, япон тили ёзув тизимида мавжуд бўлган ўзига хос қийинчиликлар талабанинг бошланғич босқичдаги тилни ўрганишдаги иштиёқига асло салбий таъсир қилмаслиги керак. Акс ҳолда янги тилнинг лексик, ёзув усуллари, психологик идрокнинг мураккаблиги туфайли тилни ўрганиш жараёнидаги ўтиб бўлмайдиган тўсиқнинг юзага келиши мураккаб вазиятга сабаб бўлиши мумкин. Япон тили ёзув тизимини ўрганиш жараёнида иероглифларнинг психологик хусусиятлари тушунчасига эга бўлмаслик, иероглифика материални ўзлаштириш самарадорлигини камайтиради ҳамда япон тилини ягона тил тизими сифатида қабул қилиш мотива-



циясини пасайтиради.

Хулоса (Conclusion). Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, япон тили дунё тиллари орасида энг мураккаб тиллардан бири сифатида қаралиши ва унинг мураккаблиги тилдаги иероглиф сўзларнинг мавжудлиги билан белгиланиши ҳамда иероглиф сўзларни самарали ўқитиш тизими кўникмаларни такомиллаштириш эҳтиёжи борлиги аниқлаштирилди. Малакали кадрлар тайёрлашнинг муҳим омилларидан бири таълим сифати ва самарадорлигини оширишдир. Таълим сифати ва самарадорлигини юксалтиришда ўқитишнинг замонавий усуллари, шакл ва воситалари, ўйин технологиялари, муаммоли ўқитиш, хусусан, мустақил таълимнинг усуллари

муҳим ўрин тутади. Бу эса, олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларни тайёрлаш жараёни учун мустақил таълим мазмунини ишлаб чиқиш усуллари такомиллаштириш борасида илмий ҳамда педагогик изланишлар олиб боришни талаб этади.

Бу эса, малакали кадрлар тайёрлашда муҳим омил ҳисобланган таълим сифатини ва самарадорлигини ошириш, олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларни тайёрлаш жараёнида мустақил таълим мазмунини ишлаб чиқиш ҳамда илмий ва педагогик изланишлар олиб боришда долзарб мавзулардан бири эканлигидан далолат беради.

Использованная литература:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармон // <https://lex.uz/docs/5073447#5074186>
2. Стрижак У.П. Система обучения иероглифической письменности (японский язык): Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Москва, 2005. – 32 с.
3. Маюми С. С какого времени следует изучать морфемике в качестве стратегии изучения иероглифов // Ассоциация преподавателей японского языка Кыргызской Республики. № 4. 2020-С.40-50.
4. Воробьева Г. Анализ структуры иероглифов и его использование в преподавании // Материалы научно-методической конференции “Японский язык в вузе: актуальные проблемы преподавания”. Выпуск 18.- М., Издательство “Ключ-С”, 2018. – С. 39-48.
5. Лутфиллоева Ф.М. Компьютер имитацион моделларидан фойдаланиб, ҳикоялар (мнемотехника) асосида япон тили иероглифларини ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2022. –Б.6-8.
6. Войтишек Е.Э.. Место интеллектуальных карточных игр в традиционной духовной культуре Японии: Автореферат дисс. ... д-ра. исторических наук. –Новосибирск, 2002. –С.38.
7. Лутфиллоева Ф.М. Мураккаб 高い、上、下、雨、日 уч ва унданортиқ ўқилиш турига эга иероглифларнинг ҳикоя асосида компютеримитацион моделлар ёрдамида ўқитиш методикаси // Илмий ахборотнома. Гуманитар фанлар серияси. – Самарқанд, СамДУ, 2020.- № 6(124) –сон. – Б. 134-140.
8. Лутфиллоева Ф.М. Япон тилини ахборот технолологиялари асосида ўқитишнинг инновацион технолологиялари // Хорижий тилларни ўрганишнинг инновацион технолологиялари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарқанд, СамДЧТИ.- 2020 йил 16-17 октябрь. – Б.98-100.
9. Lutfilloeva F.M. Yapon ierogliflarini mnemotexnika asosida kompyuter mitasion modellaridan foydalanish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2021. -№2. –Б.63-67.
- Lutfilloeva F.M. Yapon tili iyerogliflarini mnemotexnika asosida onlayno'qitish usuli//Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2021. -№6. – В. 28-30.

## BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGI

SAYDULLAEVA NARGIS-Jizzax davlat pedagogika universitetining  
o‘qituvchisi.

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish va shakllantirish haqida so‘z boradi. Maqola mavzusining dolzarbligi hozirgi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalari ta‘lim poydevori hisoblanadi. Maqola mavzusini yoritishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarnioliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar;** tarbiyachi, kreativlik, maktabgacha ta‘lim muassasalari, tarbiyalanuvchi, ta‘lim jarayoni.

**Аннотация.** В статье речь пойдет о развитии и формировании творческой компетентности воспитателей будущих ДОО. Актуальность темы статьи заключается в том, что дошкольные учреждения в настоящее время являются образовательной базой. В освещении темы статьи использованы научно-исследовательские разработки зарубежных и отечественных ученых. Выводы из статьи могут быть использованы при обучении будущих воспитателей ДОО в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова;** воспитатель, креативность, дошкольные учреждения, воспитанник, образовательный процесс.

**Annotation.** The article will talk about the development and formation of the creative competence of educators of future preschool educational institutions. The relevance of the topic of the article is currently the foundation of education of preschool educational institutions. Scientific research developments of foreign and domestic scientists were used to cover the topic of the article. The conclusions obtained from the article can be used in higher educational institutions to educate educators of future preschool educational institutions.

**Keywords;** educator, creativity, preschool educational institutions, educator, educational process.

Kirish. Maktabgacha ta‘lim muassasalari ta‘limning poydevori va boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e‘tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetikva jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz- bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim

yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olinishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta‘lim qamrovini 65%ga, 2023 yil oxirida esa 75% yetkazishimiz kerak” deya fikr bildirgan.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan ham maktabgacha ta‘lim muassasalari va ularning rivojiga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Buning yaqqol isbotini 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ta‘lim tizimini rivojlantirishning ko‘plab yo‘nalishlari belgilab berilganida ham ko‘rish mumkin. Xususan, maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar

shaxsan Prezidentimizning o'zi tomonidan qo'yilgan edi. Prezidentimizning 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni[1] hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga[2] muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Prezident SH. Mirziyoyevning 2019- yil 19- oktyabrdagi maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ta'kidlaganlaridek: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi"

Xarqanday sohaning gullab yashnashi bu o'sha sohadagi yetuk kadrlarning salohiyati va sifatiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyachisi ham bola tarbiyacsisi uchun jamiyatda ota onadan keyingi o'rinda turuvchi shaxs hisoblanadi. Uning kasbiy kompetentliklari esa faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Shunday kompetentliklaridan biri kreativ

kompetentlikdir.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli

rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kreativlik tushunchasi asrlar davomida pedagog olimlar uchun o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Kreativlik va ta'lim o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bir nechta yondashuvlar mavjud. Bir guruh olimlar shuni ko'rsatadiki, kreativlik va ta'lim o'rtasidagi munosabatlar, mustaqil omillardir (Thurstone L., Guilford J. Getzelts J., Jekson P., Teylor C., Gruber H., Ponomarev ya, Drujinin B. H.), ammo ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativlik va ta'lim o'rtasida qo'shimcha omillar tufayli rivojlantirishning bog'liqlik mavjud (Torrance E. ning "intellektual chegara" nazariyasi, Vollach M. va Kogan N. tushunchasi, Drujinin V. N. ning "intellektual diapazon" modeli). Ijodkorlik fikrlash jarayonlarini rivojlantirish natijasi sifatida qaraladi va aqlning yuqori darajada rivojlanishi yuqori darajadagi ijodkorlikni ta'minlaydi va aksincha (Wechler D., Eysenk N., Terman L., Sternberg R.). Yana bir yo'nalish (Barone A., Maslow A., D. B. Epiphany va boshqalar) ijodkorlikning kognitiv bo'lmagan omillarini ta'kidlashga qaratilgan bo'lib, motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar, sub'ektiv qadriyatlar tizimi va boshqalar katta rol o'ynaydi deya

ta'kidlashadi[4,56].

Tadqiqotlarga ko'ra, aql-idrok, ijodkorlik va shaxsiyat xususiyatlarining o'zaro ta'sirini o'rganadigan tadqiqotlar, qoida tariqasida, shaxsiy xususiyatlarning sinov ko'rsatkichlari va aqlning rivojlanish darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rib chiqadi (Sperman S, Cattell R, Brand C.R, Egan V. Robinson D, Sternberg R, Rusalov B.M. va boshqalar); ijodkorlik darajasi va individual xususiyatlar agressivlik, konformizm, o'ziga ishonch, mas'uliyat va boshqashu kabi masalalarda quyidagi shaxslar (Motkov O, Petraytite A, Dunchev V, Soldatov E, Kachelaeva N, Kozlenko V, Poltavtseva J.I, Fomenko N, Barone F, Raskin R, Taylor S, Bakkon J, Torrance E va boshqalar) x[3,95].

Tadqiqot metodologiyasi. Kreativlikni: ijodgaintilish, hayotgajodiy yondashish, o'zigadoimiy tanqidiy nazarsolish va tahlil etishd eyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab – eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarida kreativlik kompetentlarini rivojlantirish u

tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilariga mashg'ulotlarni o'tkazishda va ularning aql intellektualqobiliyatlarini yuzagachiqarishda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi yoshida uning ruhiyati bir hillikdan zerikish va tez qiziqishni yo'qotish kabi jarayonlar bilan to'la bo'ladi. Agar xar kuni mashg'ulotlar bir hil bo'ladigan bo'lsa, bora bora bolalar mashg'ulotlarga qatnashmaslik yoki undan kerakli natijani ola olmaslik xolatlari ko'payadi. Ushbu holatlarning oldini olish uchun ham tarbiyachi o'z kreativligidan foydalangan holda turli hil ko'rinishda turli yondoshuv bilan olib borishi juda muhimdir.

Xulosa.Xulosa sifatida aytsih

mumkinki, maktabgacha tarbiya yoshi eng g'ayritabiiy va o'zgaruvchan ekanligi bilam tarbiyachiga yuqori ma'suliyatni yuklaydi. Mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy,kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish,ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Использованная литература:

- 1.2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda
- 2."O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
- 3.Акатова Р. В. Педагогические условия развития творческого воображения учащихся колледжа: Автореф. дис. . канд. пед. наук. -М., 2000. — С.180.
4. Беркман Т. JL Исполнительское творчество в художественном воспитании детей // Известия Академии педагогических наук. Вопросы художественного воспитания / Отв. ред. Т. JL Беркман. М.-JI., 1947. - С.210.

## БЎЛҒУСИ ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ФАНЛАРАРО ҲАМКОРЛИК АСОСИДА МЕДИА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МОДЕЛИ.

**УМУРЗАКОВА БОНУХОН АЗИЗОВНА-Фарғона Давлат Университети-  
мустақилтадқиқотчиси.**

**Аннотация.** Мақолада бўлғуси хорижий тил ўқитувчиларини фанлараро ҳамкорлик асосида медиамаданиятини ривожлантиришнинг педагогик модели ҳақида сўз боради. Мақолада олиб борилган илмий изланишлар ушбу мавзу доирасидаги қонунчилик ҳужжатлари ва олимларнинг илмий тадқиқот ишланмаларидан фойдаланилган. Мақоладан олинган хулосаларни бўлажак хорижий тил ўқитувчиларини ўқитишда фойдаланиш мумкин.

**Калит сўзлар:** фанлараро ҳамкорлик, медиамаданият, ахборот майдони, ОАВ.

**Аннотация.** В статье говорится о педагогической модели развития медиакультуры будущих учителей иностранного языка на основе междисциплинарного сотрудничества. Научное исследование, проведенное в статье, базировалось на законодательных документах и научно-исследовательских разработках ученых в рамках данной темы. Выводы из статьи могут быть использованы при подготовке будущих учителей иностранных языков.

**Ключевые слова:** междисциплинарное взаимодействие, медиакультура, информационное пространство, СМИ.

**Abstract.** The article talks about the pedagogical model of developing media culture of future foreign language teachers based on interdisciplinary cooperation. The scientific research carried out in the article was based on legislative documents and scientific research developments of scientists within the scope of this topic. Conclusions from the article can be used in the training of future foreign language teachers.

**Key words:** interdisciplinary cooperation, media culture, information space, mass media.

Кириш. Жамиятимизнинг янги тараққиёти учун "...глобал медиа маконда кескин рақобатга дош бера оладиган, фаол гражданлик позициясига эга замонавий кадрлар тайёрлаш олдимизда турган энг муҳим вазифадир"[1]. Чунки "бугунги кунда дунё шиддат билан ўзгармоқда. Барча соҳалар каби ахборот олиш ва уни етказиш, таъсирчан жамоатчилик фикрини шакллантириш борасида ҳам рақобат кескин тус олмоқда. Бундай мураккаб шароитда ҳаёт янги-янги талаб ва вазифаларни олдимизга қўймоқда"[1]. Мамлакатимиз янги тараққиёт босқичига кўтарилаётган, очиклик ва ошкоралик, сўз ва фикр эркинлиги ҳаётимиз мезонига айланиб бораётган ҳозирги даврда бу масъулият янада кучаймоқда.

Инсониятнинг бугунги авлоди катта

орзу-умидлар билан қадам қўйган XXI аср, инсониятнинг юксак тараққиётини таъминлаши билан бир қаторда, бутун дунёда ахборотлар қўламини ва таъсир кучининг мислсиз даражада ортиши, медиа рақобатнинг шаклланиши ва ушбу соҳадаги хавфсизликни таъминлаш масалалари ниҳоятда долзарб аҳамият касб этиши, ушбу йўналишдаги хуружлар ва таҳдидлар кучайиб боришига доир ушбу таҳликали жараёнларнинг авж олиши билан бошланди. Бугунги кунда ҳам ўзларининг маънавий бузғунчилик, ахлоқсизлик, экстремистик ғояларини турли ахборот коммуникация воситалари орқали ёйиб, ёшларимизни маънан бузиш, ғоявий заифлаштириш, уларни сохта ғоялар таъсирига тортиш ва улар ўртасида маънавий бузғунчилик ҳаракатларини

келтириб чиқариш билан боғлиқ уринишлар давом этмоқда.

Медиа воситаларининг маданий аҳамияти ғарб давлатларида муттасил ортиб бормоқда. Бу ерда медиалар жамиятдаги воситачи ролини бажармоқда: борган сари кўпроқ инсонлар билимларни ўз тажрибаси орқали эмас, балки медиалар воситасида олмақда. Медиа шунингдек, касбий маданиятга ҳам таъсир кўрсатмоқда: уларда доимий равишда янги иш ўринлари вужудга келмоқда, турли соҳаларда ахборотни бошқаришнинг аҳамияти ортиб бормоқда. Воситачиликнинг кейинги босқичи «медиатизациялашув» деб номланади ва у билвосита тажрибага эмас, балки медиада ўз аксини топаётган ҳодиса, масалан, сиёсат ёки илм-фанга тааллуқли бўлади. Улар медиасиз мавжуд бўла олмайдди, шу боис сиёсатчилар ҳам худди машҳур инсонлар сингари медиа ёрдамида одамларнинг диққат марказида бўлишга интилади. Медиатизациялашув натижасида медиалар ташкилот ва муассасалар ҳамда жамиятнинг шаклланишига таъсир кўрсатади ва улар медиаларга боғланиб қолади[2]. Бундай шароитда медиаларнинг салбий таъсири ва ғоя ташувчанлик роли ортиб боради ва глобал майдонда медиа янгилик улашиш, ахборот тарқатиш билан бир вазиятда таҳдидлар, тажовузларни тарқатувчи воситага айланади. Шу боис хорижий медиадан фойдаланишда медиамаданиятни шакллантириш, уни биринчи қабул қилувчилари бўлган хорижий тилга ихтисослашган касб эгаларини медиасаводхонлигини ошириш масалалари долзарблик касб эта бошлайди.

Ўтган асрнинг 40-йилларида “Рейтер” агентлигини бошқарган Кристофер Чанселлор “янгиликни тарғиботдан

фарқлаш зарур. Тарғибот бошқа нарса, янгилик эса мутлақо бошқа нарса. Инглизча ёки америкача янгиликлар бўлмайдди, у халқаро товардир”[3],- деб ёзган эди. Бугун мутлақо бошқача сифатий ҳолат юзага келди. Ҳар куни дунёда миллионлаб воқеалар содир бўлади. Аммо кишилар диққатига медиа муайян ижтимоий-сиёсий кучлар манфаатидан келиб чиқиб эътибор қаратган масалаларгина ҳавола этилади. Бу уларнинг ҳодисаларни ёритишнинг устувор йўналишларини белгилаб беришини, муайян маълумотларни олиш, талқин қилиш, баҳолаш ва тарқатиш орқали фуқароларда тегишли фикр ва хулосалар шаклланишига хизмат қилишини кўрсатади. Бу медианинг ижтимоий фикрни керак бўлган шаклга йўналтира олиши, у билан манипуляция қила олишидан далолат беради. Мазкур жараёнда сохта, тўқиб чиқарилган ахборотни ҳақиқат сифатида тақдим этиш, воқеликни бир ёқлама тақдим этиш ёки бузиб кўрсатиш, реалликни адекват қабул қилишга ёрдам берадиган муҳим, керак элементларни яширишга алоҳида эътибор берилишини таъкидлаш зарур. Бўлажак хорижий тил ўқитувчилари ҳам ахборотни қабул қилувчи ва тарқатувчи биринчи бўғин сифатида масъулиятни англашлари, ўзларида медиамаданиятни шакллантириш, ахборотнинг таъсири ва яширин маъносини англай билимшлари талаб этилади.

Медиа бу сўз, образлар, мусиқа ва шу каби шаклларда ахборотларнинг тезликда узатилиши ва оммавий тарқатилишини таъминлашга хизмат қилади. Бундай воситаларга оммавийлик, даврийлик, тингловчи ёки талабалар аудиториясининг кенлиги каби хусусиятлар хосдир. Шу нуқтаи назардан қараган-

да, ҳозирги даврда медиа имконияти ва қамровининг кескин даражада ўсганини қайд этиш лозим. Медианинг қамров даражаси, бошқача айтганда, маҳаллий, умуммиллий, минтақавий ёки халқаро (глобал) миқёсда фаолият кўрсатиши ҳам унинг таъсир доирасини кўрсатувчи омиллардан бири ҳисобланади. Шу боис бўлажак хорижий тил мутахассисларида у билан мулоқот қилиш ва у орқали ўз ўқувчиларига тил ўргатиш кўникмаларини шакллантиришда лоқайдлик қилмаслиги, масъулиятни англаши, ҳар қандай медиа маҳсулотдан ҳам фойдаланавермасликни шакллантириш олий педагогик таълим учун жуда муҳим вазифалардан биридир. Чунки хорижий тил ўқитувчиси тилни ўргатишда ўша тилга оид ахборот, маданият ва бошқа медиа маҳсулотдан фойдаланади. Шунда педагогдан бу воситаларнинг зарарли таъсирга эга бўлмаслиги тўғрисида билимга, аналитик таҳлилкорлик кўникмасига, фарқлай олиш дунёқарашига эга бўлиш талаб этилади.

Медиа имкониятлари орқали хорижий тилни ўргаувчиларга медианинг кудрати туйғуларига, тафаккурига, қадриятлар тизимига, хатти-ҳаракат ва феъл-атвориға таъсир этишини кўриш мумкин. Ушбу таъсир шахс ривожиди ва дунёқарашида ижобий ёки салбий из қолдириши мумкин. Хорижий тилни ўргатиш дастурлари ёки қўлланмалар бир томондан тилни ўргатиш билан бирга ўз маданиятига ҳам ўргатиб бориш методикасига асоланиши мумкин, бошқа томондан эса тил ўргатиш ортида яширин ғоялар, диний иддаолар, сийсий мақсадлар яширинган бўлиши мумкин. Шу боис бўлғуси хорижий тил ўқитувчисида медиамаданияни ривожлантириш асо-

сида хорижий тилни ўргатиш дастурлари воситасида кириб келадиган медиа тажовузларни олдиндан кўриш, англаш ва ундан ҳимояланиш дунёқарашига эга бўлишига эришиш лозим. Шу боис хорижий тил ўқитувчиси кўраётган, эшитаётган, ўқиётган ва шахсий тажрибада қабул қилаётган маълумотларни танқидий жиҳатдан таҳлил қилиши жуда муҳимдир. Сабаби, айрим медиа воситалари нотўғри ёки холис бўлмаган ахборотларни ҳам тақдим этади[2]. А.Эркаевнинг фикрича, “оммавий коммуникация воситалари – радио, кино (кейинчалик телевидение, интернет ва ҳоказоларнинг) вужудга келиши, комикслар, кўнгилочар асарлар ҳамда бошқа маданий истеъмол буюмларининг саноат усулида “улгуржи” ишлаб чиқарилиши сабабли моддий буюмлар қаторида маънавий маҳсулотларнинг ҳам стандартлашуви юз берди. Маънавий-маданий маҳсулотлар истеъмол товарига айланди. Уларнинг шакли ва мазмуни маҳаллий, минтақавий ва миллий қиёфаларини, хусусиятларини йўқота бошлади”[4]. Натижада медиа маданият ва қараш, анъана ва урф-одат экспорт қилувчи бозорга айланди. Ким нимани ҳохласа, ўшани топа олади, тафаккури кенгроқ бўлмаса алданиб қолиши ҳам мумкин. Шу боис, мамлакатимизда замонавий ОАВ фаолияти учун барча шароитлар яратилмоқда, жамиятда медиамаданиятни ривожлантириш бўйича ҳукуқий асослар ҳам ишлаб чиқилмоқда.

Медианинг энг фаол таркибий қисмларидан бири телевидение ўзида намоиш этилаётган кўрсатувлар, дастурлар, жамиятдаги мавжуд муаммоларнинг нечоғлик акс этиши билан ва кишилар онгига қай даражада катта таъсир қилиш



каби хусусиятлари билан ажралиб туради. Телевиденияда воқеликни бир ёқлама ёритилиши баъзан ижтимоий-сиёсий беқарорликка олиб келиши, турли зиддиятларга сабаб бўлиши ҳамда салбий натижаларга олиб келиши мумкин. Шу боис бўлғуси хорижий тил ўқитувчиларини ахборот хавфсизлигига ўқитиш, ахборий таҳдидларга қарши тура оладиган, психологик иродага эга мутахассисларни тайёрлаш энг муҳим вазифадир. Бундай мураккаб ва таҳликали даврда маънавий-мафкуравий ишларни замон талаблари асосида ташкил этиш қўйидагиларга боғлиқ:

-хорижий тил ўқитувчиларида медиа ва ахборот маданиятини шакллантириш орқали уларни турли мафкуравий хуржлардан ҳимоя қилиш;

-талабаларда ҳаётга онгли муносабатини шакллантириш;

-бўлғуси педагогларда атрофда юз бераётган воқеа-ҳодисаларга дахлдорлик ҳиссини ошириш;

-диний экстремизм, халқаро терроризм, “рангли инқилоблар”, “эркинлик ва демократияни олға силжитиш” доктринасини зўрлик билан жорий этиш оқибатида халқаро майдондаги зиддият ва қарама-қаршилиқлар кучайиб бораётган бир вазиятда бўлажак ўқитувчида фаол фуқаролик позициясини ва шахсий танловини шакллантириш ва бу орқали уларда дахлдорликни ошириш;

-мафкуравий таҳдидларни айнан нимага қаратилганлигини ҳар томонлама англаб олиш ва ўзи дарс бераётган ўқувчиларга етказа олиши;

-давлат суверенитети, тинч ва осойишта ҳаётга хавф туғдириши мумкин бўлган медиа тажовузларга қарши теран тафаккур ва залворли ғоя билан

қарши тура олиш;

-мамлакатимизда амалга оширилаётган “миллий тикланишдан – миллий юксалиш ғояси” тарғиботи ва мафкуравий жараёнларнинг амалий ишлари ва ижобий натижаларини бўлажак хорижий тил педагогларига тушунтириш;

Бугунги кунда оммавий коммуникация ва ахборот воситаларининг инсоннинг шахсий ҳаётига аралашishi, бунда матбуот, радио, телевидениедан фойдаланиб инсон онгига кўрсатиладиган таъсир ахборотнинг инсонларнинг ҳаёти устидан ҳар томонлама назорати одамлар ҳаётининг энг яхши идеалларини амалга ошириши ҳақидаги орзу-умидларини шубҳага солиб қўйди[5]. Ахборот технологиялар томонидан таъминландиган портлашнинг хавфи ер сайёраси аҳолисининг ортиб кетиши ёки ифлосланишидан кам эмас. Бугунги кунда медиа ресурслар ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ҳаётда етакчи роль ўйнай бошлади.

Кўнгилочар функцияни амалга ошириш билан бир қаторда медиа-маданият тарбия ва таълим беради, медиалар олами ҳақидаги билим ва тасаввурларимизни бойитади, кенгайтиради. Шахсий ҳис-туйғуларимизга қўшимча равишда китоб, фотосурат, газета, журналлар, радио ва телевидение, Интернет хатто энг кичик ёшдаги болаларга ҳам катта ҳажмдаги ахборотни тақдим этади. Бугунга келиб ахборот тақчиллиги эмас, балки унинг ҳаддан зиёд кўплиги муаммо туғдирмоқда. Шу боис зарур ахборотни излаб топиш ҳамда унинг ҳаққонийлигини баҳолай олиш кўникмасига эга бўлиш долзарб аҳамият касб этмоқда[5]. Бунинг учун бўлғуси ўқитувчиларни, айниқса хорижий тил педагогларини ахборот билан ишлаш-

га, тилни ўқитишда хорижий ахборий таъсирни юзага келтириб қўймасликка, қолмаслигига ўргатиш муҳим педагогик вазифалардан биридир. ғарбпарастликни тарғиботига айланиб

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқ. –Б. 378.
2. Маматова Я, Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиётини ўқув қўлланма. –Тошкент: «Extremum-press», 2015. –Б.8.
3. Кастельс Мануэль. Информационная эпоха: экономика, общества и культура. Пер. с англ. П.И.Шкаратона. –М., 2000, -С.342.
4. Эркаев А. Курашади икки тўлқин...//. – Тафаккур-2013. 3-сон Б.13.
5. Козырев А.А. Информационные технологии в экономике и управлении. Из.во: Михайлова, Санкт-Петербург, 2000, -С. 57.

## ЎҚУВЧИЛАРДА ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

УСМОНОВ НЕЪМАТУЛЛО АКМАЛОВИЧ-Фарғона давлат университети тадқиқотчиси.

**Аннотация.** Мазкур мақолада ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантириш технологияси тизимини такомиллаштиришда нималарга эътибор қаратиш кераклиги, мактаб таълимидаги муаммолар, жисмоний таълимнинг мавжуд ҳолатини ҳам кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** жисмоний тарбия, мактаб талими, жисмоний камолот, жисмоний тарбия, маънавий-ахлоқий тарбия, жисмоний ҳолат диагностикаси, жисмоний тарбия маданияти.

**Аннотация.** В данной статье также рассматривается, на что следует обратить внимание при совершенствовании системы технологий формирования физической культуры у учащихся, проблемы в школьном образовании, существующее состояние физического воспитания.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, школьное образование, физическая зрелость, физическое воспитание, духовно-нравственное воспитание, диагностика физического состояния, культура физического воспитания.

**Annotation.** This article also examines what should be paid attention to in improving the system of technology for the formation of Physical Culture in students, problems in school education, the existing state of physical education.

**Keywords:** physical education, school education, physical maturity, physical education, spiritual and moral education, diagnosis of physical condition, culture of physical education.

Дунёда ўқув жараёнларининг интеграция масалалари, жумладан, ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жисмоний тарбия фанининг бошқа фанлар билан боғлиқлигини таъминловчи интеграл дарсларнинг хоссалари, миллий ва умуммаданий анъаналар, кадриятларга асосланган педагогик технологияларнинг имкониятларига оид илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Амалга оширилаётган илмий тадқиқот натижалари жисмоний тарбия фани орқали ўқувчиларда ёши ва жинсига мувофиқ куч, тезкорлик, чакқонлик, сабр-тоқат, сабот-матонат, чидамлилиқ, ирода ва ҳиссиётни бошқара олиш сифатларини такомиллаштириш, уларда шахсий гигиенани сақлашга нисбатан онгли муносабатни ўстириш жараёнларининг муваффақиятида акс этмоқда.

Ҳар бир даврда тарбия моҳияти турлича бўлиб, унинг мазмунини ижтимоий

мақсадлардан келиб чиқади. Тарбия ғояси турлича ифодаланган бўлсада, аммо йўналтирувчанлик хусусияти ҳамда объектига кўра яқдилликни ифода этади. Тарбия шахсни мақсадга мувофиқ такомиллаштириш учун уюштирилган педагогик жараён бўлиб, тарбияланувчининг шахсига мунтазам ва тизимли таъсир этиш имконини беради. Тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ҳаёти ва фаолиятини педагогик жиҳатдан тўғри уюштириш ғоят муҳимдир. Жумладан ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш ва мунтазам шуғулланишларини таъминлаш уларни тарбиясига ижобий таъсир этади.

Жисмоний тарбия – педагогик жараён бўлиб, инсон организмни морфологик ва функционал жиҳатдан такомиллаштиришга, унинг ҳаёти учун муҳим бўлган асосий ҳаракат малакасини, маҳоратини, улар билан боғлиқ бўлган

билимларни шакллантириш ва яхши-лашга қаратилган.

Ёшларнинг жисмоний-интеллектуал ресурсларини уйғун ривожлантиришда, айниқса, жисмоний тарбия ва спортнинг имкониятларидан кенг фойдаланиш давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида белгиланиши бежиз эмас. Спорт билан шуғулланиш фақат организмда муҳим биологик ўзгаришлар пайдо қилибгина қолмай, балки шахснинг киши маънавий дунёсини характерловчи дунёқарашларини, ахлоқий эътиқодларини, характер хислатларини, одатларини, диди ҳамда бошқа хислатларини ҳам маълум даражада белгилайди ва қайта қуради. Тарбия жараёнида ўқувчининг онгигина эмас, балки ҳис-туйғуларини ҳам ўстириб бориш, унда жамиятнинг шахсга қўядиган ахлоқий талабларига мувофиқ келадиган хулқий малака ва одатларини ҳосил қилиш лозим. Бунга эришиш учун ўқувчининг онги, ҳиссиёти ва иродасига таъсир этиб борилади. Агар буларнинг бирортаси эътибордан четда қолса, мақсадга эришиш қийинлашади. Тарбия жараёнига ўқитувчи раҳбарлик қилади. У ўқувчилар фаолиятини белгилайди, уларнинг ижтимоий жараёнда иштирок этишлари учун шарт-шароит яратади.

Мардлик, жасурлик ва матонат фазилатларини тарбиялаш жараёни жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларининг барча шаклларида – у соғломлаштириш жисмоний маданияти машғулотлари таркибидами, оммавий спорт тури билан шуғулланиш машғулотларидами, шуғулланувчини истагисиз намён бўлиши амалиётда исботланган. Бу тарихий, умуминсоний фазилатлар юксак маънавиятли, ҳар томонлама жисмо-

нан гармоник ривожланган интеллектуал ресурсларнинг шаклланишига замин бўлади.

Бугунги кунда мамалакатимизни янги тараққиёт стратегиясида ҳам жамиятда жисмоний маданиятни ривожлантириш, инсонларда соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантириш, уларни соғлом ҳаёт кечириш кўрсаткичларини оширишга қаратилган кўплаб ташкилий-ҳуқуқий ислохотлар олиб борилмоқда. 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясига мувофиқ инновацион фикрлайдиган кадрларни тайёрлаш ва танлашни ташкил этиш тизими яратилди. Бу ҳам жамиятимизда жисмоний маданиятни шакллантириш орқали соғлом авлодни трабиялаш, миллатни соғломлаштиришга қаратилган педагогик жараён имкониятларини оширишга асосланади.

Ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантириш ҳар доим давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири сифатида кўрилиши лозим. Таълим тизимида ҳам Давлат таълим стандарти асосида ўқувчилардасоғлом турмуш тарзи маданиятини босқичма босқич, узвийлик асосида Жисмоний тарбия таълимининг жорий қилиниши, алоҳида дарс соатларини белгиланиши муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Бу орқали давлат ўқувчиларнинг жисмоний ривожланиши, ҳар томонлама баркамолликка эришувига тизимли ёндашиб, аниқ стратегия асосида ишлар ташкил қилина бошланди. Педагогик жараёнда ҳам соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантириш методикаси, шакллари ва таълим технологиясини яратишга доир фундаментал

тадқиқотлар йўлга қўйилди.

Жисмоний ва маънавий-ахлоқий тарбия интеграциясининг функцияларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- таълимий,
- тарбиявий,
- умуммаданий,
- ривожлантирувчи,
- жисмоний соғломлаштирувчи,
- маънавий.

Жисмоний ва маънавий-ахлоқий тарбия интеграцияси функциялари умуминсоний тарбия жараёнининг асосини ташкил этиб, ўқувчиларда фуқаролик ҳиссини таркиб топтиришда моддий ва маънавий бойликлар, маънавий-ахлоқий билимлар, жисмоний сифатлар (кучлик, эпчиллик, камтарлик, чаққонлик, эгилувчанлик), ижтимоий-иқтисодий таракқиёт ҳақидаги тасаввурлар, миллий ва умуминсоний кадриятлар билан ҳамкорликда амалга ошади. Шунга асосан жисмоний ва маънавий-ахлоқий тарбия интеграцияси функциялари инсоннинг кундалик ҳаётида, турмуш тарзида, ўзгалар билан муносабатда, ақлий ҳамда жисмоний меҳнати жараёнида шаклланиди ва ривожланиб боради.

2019-2023 йиллар мўлжалланган спортни ривожлантириш концепциясида «Спорт - турмуш тарзи» остида жисмоний тарбия ва оммавий спортни оммавийлаштириш компаниясини ташкил этиш ва ижтимоий тармоқларда оммалаштириш, SPORTS.UZ ахборот порталини шакллантириш вазифалари[1] ҳам белгиланган. Кейинроқ Жисмоний тарбия Дастури қайта таҳрир қилинди ва ўзгартирилди. Унда ўқувчиларни “Алпомиш” ва “Барчиной” махсус талабларига ҳам тайёрлаш ва жисмоний ривожлантириш

шартлари киритилди. Бу орқали ўқувчиларни меҳнат, касб-ҳунар ва муҳофаа ишларига тайёрлаш вазифалари юклатилган эди. Бу жараёни давом эттирган ҳолда ўқувчиларни ҳам касбга йўналтириш, ҳам «руҳий ва маънавий иродасини спорт орқали чиниқтириш»[2] ҳамда жисмоний тайёргарлигини ўстиришга доир педагогик амалиёт ишлаб чиқилди.

Ижтимоий жараёнда фаол иштирок этиш орқали ўқувчиларнинг мустақиллиги, ижодий ташаббускорлиги ортиб боради. Фаолият ўқувчилар жамоаси манфаати ва истаги асосида уюштирилса, бу жараёнда ўқувчининг тенгдошлари ва ўзини ўзи англаш жараёни юзага келади. Ўқувчи ўз хулқи, хатти-ҳаракати учун жамоа олдида жавобгарликни сезишга эришгач, ижрочи эмас, балки умумий ишнинг фаол қатнашчиси бўлиб қолади. Тарбияни самарали йўлга қўйиш учун унинг ҳаракатлантирувчи кучи, тарбия жараёнининг манбаини яхши билиш ва ҳисобга олиш муҳимдир. Демак, ўқувчиларнинг жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари билан доимий равишда шуғуллантириш натижасида, боланинг жисми ҳам, руҳи ҳам тетик бўлади, унинг бутун вужуди уйғун тарзда камол топади. Унинг ўй-хаёли фақат ўз истеъдодини намоён этиш, турли мусобақаларда ғалаба қозониш ишқи билан банд бўлади. Умумий педагогика жараёнида тарбия муҳим ўрин тутади. Шахсни шакллантириш, бошқариш, назорат ҳаракатига эга бўлиб, бу борада белгиланган вазифалар тасодифий ҳаракатлар орқали эмас, балки олдинда белгиланган ва пухта ўйланган режалар асосида ҳал этиб борилади.

Инсон жисмоний ва маънавий камолотининг ягоналиги туфайли жисмоний

тарбия жараёнида ақлий, ахлоқий ва эстетик тарбия вазифаларини ҳал этиш учун жуда катта имкониятлар бор. Бу вазифаларни ҳал этиш шахсни ҳар тарафлама камол топтириш омили сифатида жисмоний тарбиянинг ролини кенгайтирибгина қолмайди, балки бевосита жисмоний тарбиянинг ўз муваффақиятини таъминлайди.

Мамлакатимизда таълим тизими, жумладан жисмоний тарбия педагогик жараён сифатида миллий минталетимизга мос йўналишда олиб борилаётганлиги юксак ахлоқий ва иродавий сифатларни тарбиялашга қаратилган. Тўғри ташкил қилинган спорт машғулоти жараёнида уюшқоқлик, онгли интизом, ташаббускорлик топқирлик каби ахлоқий ва иродавий сифатлар тарбияланади.

Ўқув жараёнининг технологик тузилишини тушуниш учун калит – бу кетма-кет аниқ белгиланган мақсадларни мўлжаллаб фаолият кўрсатишдир. Шу сабабли ҳам, энг аввало, таълимнинг педагогик технологияси учун марказий муаммо бўлган – мақсадни белгилаш муаммосида ва таълимда мақсадли йўналтирилганлик муаммосида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ.

Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларда жисмоний маданиятини шакллантиришда илғор хорижий тажрибадан фойдаланиш, ривожланган халқаро таълим муассасаларининг таълим-тарбия методикасини ўзлаштириш, тажриба алмашиш билан боғлиқликда олиб борилди. Юксак самарадорликка эга хориж тажрибасига таянилган ҳолда кўпчилик тадқиқот марказларида оммавий спорт соғломлаштириш жараёни ўқувчилар қизиқишига қараб спорт ўйинлари, енгил атлетика каби турлардан

кўпроқ фойдаланишга асосланади.

Технология икки қисмдан ташкил топган: мазмунли-процессуал ва ташкилий-педагогик. Технологиянинг мазмуни ўзида когнитив – амалий фаолият – рефлексия бирлиги ва ана шу босқичларни ҳар бирида ўзига хос тарзда намоён бўлувчи ўқувчиларда жисмоний маданиятни намоён бўлиш даражалари (англаш, тушуниш, муносабат ва фикрлаш)ни акс эттиради.

Ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ташкил қилувчи таянч қисмлари бўйича баҳолаш мезонлари:

Билимларни назорат қилиш методлари:

1. Сўраш методи – оғзаки ва ёзма шаклда машқларни бажариш орасидаги тўхтаб олишларда, топшириқларни бажаришдан олдин ёки кейин қўлланилади. Ушбу методдан жисмоний юкламлар кўп бўлгандан кейин фойдаланиш тавсия қилинмайди.

2. Дастурлаштирилган метод шундан иборат-ки, бунда ўқувчилар саволлар ёзилган карточкаларни ва уларга елпиғич шаклида берилган жавобларни оладилар. Ўқувчи тўғри жавобни танлаб олиши лозим.

Мазкур метод вақт бўйича тежамли ва сўрашни ёппасига амалга ошириш имкониятини беради.

3. Намойиш қилиш методи ўқувчилар билимларини муайян фаолиятда текширишга имкон туғдиради.

Жисмоний тарбиянинг мактаб ўқувчилари ҳаётидаги ўрни ва ролининг умумий тенденцияси шундан далолат беради-ки, илмий-техника тараққиёти натижасида болаларнинг ҳаракатлантувчи фаолияти кескин камайган. Агарда олдин шифокор болалар соғлиғи ўқув



## ПРОЕКТИРОВАНИЕ РАБОЧЕГО МЕСТО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ШИТЬЯ С ПОМОЩЬЮ ЭРГОНОМИКИ

**ХАЛДАРОВ ХИКМАТУЛЛО АХМАТОВИЧ** - к.т.н., доцент  
**ДЖАМАЛДИНОВА МАЛОХАТ БАХОДИРОВНА** - соискатель  
Ташкентский государственный педагогический университет  
имени Низами

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена проектированию профессионального учебного класса (ПУК), на основе автоматизированного рабочего место (АРМ) технологического процесса обучения в профессиональном образовании – шитья, с помощью эргономики в оценки [1] качества приобретенного знания.

**Ключевые слова и направления:** проектирование, качество, процесса обучения, приобретение знаний, эргономика, эргономическая модель, интеллектуализация процесса обучения, рабочее место. учебный класс.

**Abstract:** This scientific article is devoted to the design of a professional training class (PUC), based on an automated workplace (AWP) of the technological process of training in vocational education – sewing, using ergonomics in assessing [1] the quality of acquired knowledge.

**Keywords and directions:** design, quality, learning process, knowledge acquisition, ergonomics, ergonomic model, intellectualization of the learning process, workplace. a training class.

Целью данной исследовательской работы является, проектирование учебного класса с помощью автоматизированного рабочего место – шитья, для проведения лабораторных и практических занятий в профессиональном образовании.

В отличие от аудиторий образовательных учреждений, учебные классы для проведения технологических операций в профессиональном образовании отличаются по своему строению и расположению - рабочих столов, как: стол кроя, стол пошива и т.д., а также место-участок для установки оборудования.

Та как, проведение практических занятий в профессиональном образовании связано с микроэлектроникой, электронной аппаратурой, измеряющими приборами, механизмами т.д., то приходится пользоваться специфическими рабочими столами.

Из-за этого, любое разрабатываемое автоматизированное рабочее место явля-

ется проблемно – ориентированным, в зависимости от разрабатываемой и создаваемой спецификации и специальности.

Для разработки АРМа необходимо, - создать управляющую программу в зависимости от ее выполняемой функции для каждого вида операции, где она должна быть теоретически обоснована и описана алгоритм функции управления качества образовательного процесса [2] (1).

Функцию управления качеством образовательных процессов в обучении мы представляем в следующем виде [3,4]:

$K_{\Sigma} = (K_{\text{уч.проц}}, K_{\text{эксперт.}}, K_{\text{эргоном.}}, K_{\text{экология}}, K_{\text{тест}}, K_{\text{уч.мет.обесп.}}, K_{\text{зн.иностран.яз.}}, K_{\text{квал.исслед.}}, K_{\text{обесп. орг.культ.}}, K_{\text{инфор.обесп.}}, K_{\text{тсо}}, \text{ИМ}, W_n, \text{ИО}), (1)$

где:

$K_{\text{уч.проц.}}$  – подсистема, определяющая качество проводимого учебного процесса;

$K_{\text{эксперт.}}$  – подсистема, определяющая



экспертизу проводимого учебного процесса;

$K_{\text{эргоном}}$  – подсистема, определяющая качество приобретенного знания с помощью эргономической модели;

$K_{\text{экология}}$  – подсистема, определяющая качество экологии в образовании;

$K_{\text{тест}}$  – подсистема, определяющая качество проводимых тестов;

$K_{\text{тсо}}$  – подсистема, участвующая в процессе обучения и дающая дополнительное знание с помощью разных технических, электронных, программных и интеллектуальных разработок в управлении качеством приобретения знаний;

$K_{\text{уч.мет.обесп.}}$  – подсистема, определяющая качество учебно-методических разработок;

$K_{\text{зн.иностр.яз.}}$  – подсистема, определяющая качество знания иностранного языка обучающихся и преподавателей с учетом спецификации выпускаемых специалистов;

$K_{\text{квал.исслед.}}$  – подсистема, определяющая качествометодом проведенияквалиметрии;

$K_{\text{обес.орг.культ.}}$  – подсистема, определяющая качество обеспеченности организационно-культурных мероприятий;

$K_{\text{инфор.обесп.}}$  – подсистема, определяющая качество информационного обеспечения процесса образования;

$K_{\text{тсо}}$  – подсистема, участвующая в процессе обучения и дающая дополнительное знание с помощью разных технических, электронных, программных и интеллектуальных разработок в управлении качеством приобретения знаний;

ИМ – подсистема, определяющая качество инновационного менеджмента, которая совершенствуется за счет новых методов, подходов, педагогической тех-

нологии, технической оснащенности и обеспеченности учебного процесса;

$W_n$ – матрицы, которые участвуют в подсистемах, логически и информационно взаимосвязанные в системе образования, которые организуют очередных таблиц для вычисления с очередными приобретенными знаниями/данными в приобретении знаний (матрицы, которые организуется в виде массива должны быть учтены в разработке программы управления системы);

ИС – информационная подсистема, которая проектируется, создается и эксплуатируется с начальными, промежуточными, подготовительными и сортирующими данными в процессе функционировании системы управления.

Эргономика – как наука, которая разрабатывается и создается для исследования разных областей науки, техники, а также образования. Она используется в: технических разработках/решениях, спорте, машиностроении, медицине, педагогике и т.д.

Эргономика – как наука исследования и преподавания.

Анализ полученных результатов исследований и предложений.

Анализ и синтез процесса преподавания с учетом эргономики.

Установление логических и информационных взаимосвязей педагогической эргономики в вузах.

Системный подход ведения исследований задач в области эргономики преподавания.

Выбор методов, по которым ведутся расчеты эконометрических моделей эргономики преподавания.

Анализ полученных результатов исследований и предложение[13].

В проектировании профессионального учебного класса (ПУК) [3-5], где установленные «рабочие столы» должны выполнять определенные операции технологического процесса, т.е. пошива. Единственное требование к проектированию учебного класса/технологического процесса/линии, это учет стандарта по размещению столов, установление измерительных приборов.

Например, рассмотрим одного из рабочих мест швеи (АРМ-швея) [14] рисунок 1, где приведена эргономическая модель процесса шитья с участием: видео

глаза для наблюдения за выполняемой операцией, рабочий стол, манипуляторы, микропроцессор, швейная машинка, «эталон/шаблон», конвейер для транспортировки и обучаемый.

На основе выше приведенного и разрабатываемого АРМа, с учетом разновидностей выполняемых технологических операций, с применением

приборов/видео глаза, электронных устройств, манипулятора, швейных машин, спроектируем интеллектуальный учебный класс для проведения лабораторных и практических занятий.




Рисунок 1. Эргономическая модель процесса шитья.

Из разных инженерных соображений и из - за многофункциональность процесса шитья проектируемый профес-

сиональный класс с помощью автоматизированного рабочего места будет выглядеть как на рисунки 2.




Рисунок 2. Профессиональный учебный класс для проведения практического занятия.

С помощью этих АРМов можно будет комплектовать автоматизированные линии цеха рисунок 3..




Рисунок Автоматизированные линия учебног цеха.

Для каждой производимой операции в управлении процессом шитья с помощью АРМа будет выделено стандартный «участок» или «объем площади», так называемый «эталон-шаблоном». Она заранее создается с помощью программы, которая закладывается в память микропроцессора, где обучаемый ориентируется по ней, и учится точности выполнения всех вариантов операций шитья.

За операцией шитья будет контролировать видео глаз подключенный к микропроцессору с заранее разработанной стандартной программой, где сопоставляя выполненную операцию со стандартной будет выявлять произведенную «ошибку».

Одним из подсистем при разработке и создании АРМов является учет всех видов допускаемых ошибок процесса обучения, которое должно быть занесено в подпрограмму «Ошибка», которое в процессе обучения «подскажет» вид допущенной ошибки обучаемому при выполнении каждой/данной технологической операции.

Необходимо сказать, что, в обучении выполняемые операции на каждом АРМе являются разными по количеству и качеству исполнения, которые должны пройти обучение.

Все функции манипулятора в данном образовательном процессе управляется временной диаграммой:

- во-первых, где каждая операция шитья выполняется по заранее разработанному такту времени;

- во-вторых, подставка очередного «эталон-шаблона» на стандартный участок для выполнения следующей операции;

- во - третьих менять позицию расположения «эталон-шаблона» направо – налево, вперед, назад или вокруг иголки швейной машины;

- в-четвертых складывать или вставлять на конвейер для выполнения следующей операции.

Например, процесс пошива сорочки, которая состоит из восьми операций, следовательно, обучаемый выполняя восемь обработок с помощью «эталон-шаблона», последовательно выполняя все эти операции приобретает определенное знание. Каждый «эталон-шаблон» отличается друг от друга по выполняемыми индивидуальными операциями от вида производимого операции пошива, а по объему они стандартны.

Для этого каждая операция, связанная с пошивом сорочки [5,6], заранее программируются по отдельности для контроля качества выполняемой операции. Контроль в управлении технологическим процессом шитья, по качеству исполнения, определяется в сопоставлении с эталоном и подсказывает допу-

ценную ошибку обучаемого.

**РЕЗЮМЕ:** На основе проектирования ПУК использование искусственного интеллекта в Профессиональном образовании по направлению «Дизайнер одежды» дает огромную возможность обучаемому облегчить проведения практических занятий в приобретении знаний, и не допускать брак в процессе работы, экономия во времени на обучение и на материале и т.д.

Также студент приобретает знание и навык:

- в разработке программы управления технологическим процессом:

- и разработке методики технологического процесса шитья с использованием новых инструментов искусственного интеллекта;

- набирает опыт для кроя и шитья других видов одежды/изделий.

В работе рассмотрена только один вариант из существующих, но еще необходимо разработать и создать и для других видов операций швейного дела.

В процессе эксплуатации ПУК будет возможность с помощью имеющихся оборудования перепроектирование нового класса на пошив других видов изделий.

Также разработка новых алгоритмов исследования и внедрение элементов искусственного интеллекта в учебный процесс, приводит к приобретению новых дополнительных знаний - операций шитья, и учету других параметров и характеристик для оценки качества знания обучаемого.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

#### Фойдаланилган адабиётлар:

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. Халдаров Х.А., Кадырова Г.А. Программа методики оценивания знаний учащихся с использованием педагогической технологии таблично - опросного метода Инсерт в образовании. Агентство по интеллектуальной собственности РУз. Авторская справка № DGU 04556. Ташкент 13.07.2017.
2. Халдаров Х.А. Алимарданова Н. Управление качеством образования в процессе проектирования образовательных систем. Межд. НПК «Новая наука и формирование культуры знаний современного человека», Москва, 2018, С. 358-363.
3. Абдуллаева Б. С., Халдаров Х.А. Концептуальное управление качеством образования в проектировании образовательных систем. Eastern European Scientific Journal, Ausgaba 1-2019 ISSN: 2199-7977, Auris. Pages: 130-134. Германия, 2019, 8 с.
4. Khaldarov H. A. Research of sensitivity to external parameters the learning process with the help of ergonomics in the acquisition of knowledge. Technical sciences № 1(2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9696-2021-1>, volume 4, issue 1, p. 50-55.
5. Халдаров Х.А., Примкулова А.А., Жаббарова И.Р. Определение информационной взаимосвязи элементов системы обучения в приобретение знаний с помощью эргономической модели. «Илмий - услубий» амалиймаърифий Касб -хунартаълим, Журнали, №1, 2021, 50-56 б.
6. Халдаров Х.А., Примкулова А.А., Жаббарова И.Р., Построение математической модели процесса обучения с помощью эргономики. Proceedings of GLOBAL TECNOVATION, An International Multidisciplinary Conference, Samsun, Turkey. October 31st 2020. Ст. 114-118.
7. Халдаров Х.А. Эргономические исследования качества обучения. (1ST International Conference "The role of women and girls in the development of science and gender equality in renewing Uzbekistan") мавзусидаги 1-ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллар тўплами, 2-3 март, 2021. – Тошкент: "Tadqiqot", 2021, 114-118. б.
8. Халдаров Х.А., Шарипов Н. Цифрирование педагогика-психологических параметров процесса приобретения знаний с помощью эргономики. Межд. НПК «Цифровая педагогика: состояние и перспективы развития». ТГПУ, Ташкент, 2021, С.105-110.
9. H.Khaldarov., About one approach to determining audience voiced in the process of learning with the help of ergonomics. Word Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online of: <https://www.scolarexpress.net> vol.8, March, 2022. p.87-91.
10. H.Khaldarov., Calculation of the radial type of audience in the process of learning with the help of ergonomics. Word Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online of: <https://www.scolarexpress.net> vol.8, March, 2022. p.92-97.
11. Халдаров Х.А., Мухамедова Х.Б. Искусственный интеллект в приобретении знаний швейном деле с использованием эргономики. Межд. НПК «Цифровые технологии в образовании: проблемы и их решения». Ташкент, ТГПУ, 24 май, 2022, с. 525-530.
12. Халдаров Х.А., Мухамедова Х.Б. Проектирование учебного класса с помощью искусственного интеллекта для приобретения знаний в профессиональном образовании. Межд. НПК «Цифровые технологии в образовании: проблемы и их решения». Ташкент, ТГПУ, 24 май, 2022, с. 530-536.
13. Халдаров Х. А. Эргономическое моделирование в образовании. "INNOVAION IN TECHNINOLOGY AND SCIENCE EDUCATION", SCIENTIFIC JORNAL, 1, 2020/2, p.300-309.
14. Халдаров Х.А., Джамлидинова М.Б. Об одном подходе автоматизации технологического процесса шитья с помощью эргономики. "INNOVAION IN TECHNINOLOGY AND SCIENCE EDUCATION", SCIENTIFIC JORNAL, 2, 2020/2, p. 6.

## ОЛИЙ КАСБИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЛОЙИҲАЛАШ – ЎҚУВ МАСАДИГА ЭРИШИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

**ХИДИРОВА ДИЛДОРА ЗАЙНИДДИНОВНА,**  
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти тадқиқотчиси

**Аннотация.** Мақолада таълим жараёни самарадорлиги педагог ва талаба фаоллигига, таълим воситаларининг мавжудлигига, таълим жараёнининг ташкилий, илмий, методик мукамаллигига, жамиятда илмий кишиларга бўлган эҳтиёжга ва бошқа ҳали аниқланмаган омилларга боғлиқ эканлиги, педагогик технологияни лойиҳалашда таълим жараёни натижаси кафолатли бўлишини, жараён боришидан кўзда тутилган мақсад амалга оширилиши ва натижалари бўлишининг режалаштирилиши масалалари талқин қилинган.

**Калит сўзлар:** касб, таълим, талаба, дарс, талаб, жараён, тизим, тажриба, билим, қизиқиш, фаоллик, ўзлаштириш, тавсия, мақсад, моҳият, режалаштириш.

**Аннотация.** В статье указано, что эффективность образовательного процесса зависит от активности педагога и учащегося, наличия средств обучения, организационного, научного, методического совершенства образовательного процесса, потребности в знающих людях в обществе и других факторов, которые еще не выявлено, что результаты образовательного процесса гарантируются при проектировании педагогической технологии, а намеченная цель процесса выполняется, интерпретируются вопросы планирования повышения и результативности.

**Ключевые слова:** занятие, образование, ученик, урок, потребность, процесс, система, опыт, знание, интерес, деятельность, овладение, рекомендация, цель, сущность, планирование.

**Annotation.** The article states that the effectiveness of the educational process depends on the activity of the pedagogue and the student, the availability of educational tools, the organizational, scientific, methodological excellence of the educational process, the need for knowledgeable people in society and other factors that have not yet been identified, that the educational process results are guaranteed in the design of pedagogical technology, and the intended goal of the process is fulfilled. the planning issues of increase and effectiveness are interpreted.

**Keywords:** occupation, education, student, lesson, demand, process, system, experience, knowledge, interest, activity, mastery, recommendation, goal, essence, planning.

Таълим жараёни ниҳоятда мураккаб. Таълим самарадорлиги педагог ва талаба-ўқувчи фаоллигига, таълим воситаларининг мавжудлигига, таълим жараёнининг ташкилий, илмий, методик мукамаллигига, жамиятда илмий кишиларга бўлган эҳтиёжга ва бошқа ҳали аниқланмаган омилларга боғлиқ. Жамият ўзининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий эҳтиёжлари асосида таълим самарадорлиги юқори бўлишини талаб этади.

Педагогик технологиянинг асосий моҳияти талабаларни қизиқтириб ўқитиш ва билимларни тўлиқ ўзлаштиришга эришишдир. Таълимда берилаётган би-

лимларни талабаларнинг кўпчилик қисми пухта ўзлаштириши педагогик технология жорий этилишининг асосий мақсади ҳисобланади [1, 568 б.].

Педагогик технология асосида дарс ўтишда энг асосий талаб талабанинг ҳаётий тажрибаси аввал ўзлаштирган билимлари ва қизиқишлари асосида билим беришни кўзда тутати. Педагогик технология ўрганилаётган соҳа бўйича талабаларда билим етарлича бўлмаган ҳолда ҳам талабада салбий кечинмага ўрин қолдирмасликни, бу талабанинг айби эмаслигини тан олишни талаб этади. Фаоллик кўрсатилса, билимларни ўзлаштириб олишга

талабаларда ишонч ҳосил қилиш тавсия этилади.

Педагогик технология талабаларнинг ўрганилаётган соҳа бўйича билимларни эсга тушириш, жонлантириш янги билимни ўзлаштиришга асос бўлади деб кўрсатади. Билимлар ва тайёргарликни аниқлаш талабани фаоллаштириш ва билим ўзлаштиришга ижобий мотивни келтириб чиқаради. Мавзунини ўрганишга киришишда эркин суҳбат, мунозара, ақлий ҳужум ва бошқа шаклларда жонлантириш мумкин [4, 79 б.].

Педагогик технология таълим амалиётида тўртта даражада қўлланилади:

1. Умумий педагогик даража. Умумий педагогик (умумдидактик, умумтарбиявий) технология ўқув-тарбия жараёнининг яхлит тизимлилиги, маълум бир регион, ўқув юрти томонидан узлуксиз таълим тизимининг муайян бир босқичидаги технологиянинг умумий қонуниятлари, илмий-назарий асослари, тамойиллари, амалиётда қўллашнинг умумий хусусиятлари, шарт-шароитларини ифодалайди. Шу ўринда қайд этиш керакки, узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир босқичида таълим мазмуни орқали тегишли ўзига хос мақсад ва вазифаларни амалга ошириш кўзда тутилганлиги сабабли, педагогик технология ҳам ўзига хос хусусиятга эга бўлади. Бу даражада педагогик технология педагогик тизим тушунчасига синоним ҳисобланади. Унинг таркибига таълим-тарбия жараёнининг мақсад ва вазифаси, мазмуни, восита ва методлари, тарбия жараёнининг объекти ва субъекти фаолиятининг алгоритмлари киради.

2. Хусусий методик даражада педагогик технологиянинг муайян бир предмет, курсни ўқитиш жараёнининг мақсад ва вазифаларини амалга ошириш мақсадида фойдаланиладиган таълим мазмуни, ўқитиш воситалари, методлари ва шакллари-

нинг мажмуаси тушунилади.

3. Локал (модул) даражада ўқув-тарбия жараёнининг маълум бир қисмининг хусусий дидактик ва тарбиявий мақсадини ҳал этишга қаратилган технология тушунилади. Унда ўқувчи – талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш, улар билимини назорат қилиш, шахсий фазилатларини шакллантириш каби масалалар кўзда тутилади.

4. Нолокал даражада ўқув-тарбия жараёнининг умумий педагогик, хусусий методик ва локал даражалари қўшилиб келиши натижасидаги аралашган ҳолати тушунилади. Бунда педагогик технология таълимнинг мазмуни ва мақсадига эришишда жараённи ташкил этиш восита ва методларидан фойдаланган ҳолда ўқувчи-талабанинг яқка тартибдаги хусусиятларини инобатга олиш, ҳамда шакллантиришга асосланади.

Педагогик технологиянинг юқорида қайд этилган тўртта даражаси бир-бирини тўлдирди. Ўзбекистонда педагогик технология масалалари, асосан, таълим доирасида ўрганилмоқда [2, 238 б.]. Таълим технологияси деб, ўқув-тарбия жараёнида ўқувчи мақомини ўзгартириш, янгилаш йўли билан маълумот мазмунига ва моделлаштириш даражалари – ўқув материаллари, ўқув предметига педагогик ишлов бериш, ўрганиладиган мавзунини ўқувчи-талабаларнинг реал билиш имкониятларига мослаштириш, таълим натижасини қабул қилинган эталон даражасига кўтариш ва баҳолашга оид усуллар, воситалар ҳамда таълимнинг ташкилий шакллари тушунализ. Таълим технологияси ўқув-тарбия жараёнини бошқаришнинг ҳозирги етакчи тамойили (субординация) ни чегаралайди, унда координация ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талаба фаолиятини ўзаро мувофиқлаштиришнинг етакчи тамойилига айланади. Координация таълимни ташкил

қилиш, бошқариш ва назорат қилишнинг бош тамойилига айланганда ўқувчи-талаба таълим жараёнининг ўқитувчи (педагог) билан тенг ҳуқуқли субъектига айланади, таълим жараёнини ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талаба биргаликда амалга оширади.

Педагогнинг белгиланган ўқув-тарбия вазифаларини меъёрий ҳужжатларда кўрсатилган талаблар асосида йўл қўйиладиган чегаравий кўрсаткичлар доирасида бажариш ҳолати ишлаш қобилияти деб аталиши мумкин [3, 192 б.]. Демак, у ёки бу фан ўқитувчисининг маҳоратини аниқлашда унинг фаолияти давлат таълим стандартлари талабларига ва педагогик шартларга нечоғлик мос келиши назарда тутилади.

Педагогик нашрларда педагог фаолиятини баҳолаш учун қатор кўрсаткичлар тавсия этилади, жумладан:

педагогик натижавийлик – педагог гуруҳида фан бўйича ўзлаштиришнинг ўртача қиймати;

таълим мазмунини методик тайёрлаш – умумийлиги, изчиллиги, ҳаракатдалиги, ортиқча эмаслиги каби талабларнинг эътиборга олинishi;

таълимда у ёки бу натижани қўлга киритиш йўлларида самарали фойдаланиш;

экстенсив ёки интенсив шароитда ва ҳоказо.

Умуман олганда, педагог учун асосий касбий-меъёрий кўрсаткич – биринчи навбатда ўз ҳолатини педагогик жараёнда бунёдкор сифатида ҳис этиши ва англаб етишидир. Педагог ўзининг иш фаолиятига хусусий касбий ярқилигини, педагогик воқеликдаги ўз ўрнини баҳолай олмас экан, ундан ҳеч қачон ижодкорликни талаб қилиб бўлмайди. Демак, педагогик фаолиятга кириб келаётган ҳар бир инсон ўзининг унга мосланувчанлигини, шу касбга

лаёқати, қизиқиши борлигини тўлиқ тасаввур этиши керак.

Таълим технологиясининг асосий мақсади ўқув предметларини тўлиқ ўзлаштиришга мос келадиган таълим лойиҳасини яратишдир. Бундай лойиҳа ҳозирги замон психологияси, дидактикаси ва педагогик амалиётининг асосий ва илғор ғояларига таянган ҳолдагина яратилади.

Демак, мақсаддан эталонга етиб келгунча ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талаба онги жуда кўп ҳодисалар билан учрашади [6, 324 б.]. Таълимга технологик ёндашиш маълумот ва таълим мазмунини атрофлича таҳлил қилиш йўли билан ўқув-тарбия жараёнининг умумий, хусусий мақсадларини таҳлил қилиш, ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талаба мақсадларининг учрашган нуқталарида (ўқитиш мақсади, ўқиш мақсади) таълимнинг дидактик мақсадини белгилаш асосида таълимни лойиҳалаш ва амалга ошириш йўллари билан мўлжалдаги эталонга эришишдир. Умуман, таълим технологияси ҳақида гап кетганда ўзаро дахлдор қуйидаги ҳодисаларни бир-биридан фарқлашга эҳтиёж туғилади: таълимни дидактик лойиҳалаш; лойиҳани амалга ошириш; таълимнинг жорий ва оралик натижасига кўра дидактик лойиҳага тузатиш ва ўзгартиришлар киритиш; таълимни такрорлаш ва якуний назоратдан иборат. Бу ҳодисаларнинг биринчи ва иккинчиси анъанавий таълим тажрибасида ҳам учрайди. Таълим технологиясининг анъанавий таълим тизимидан фарқи шундаки, таълим натижаси ва унинг эталон даражасида бўлиши доимо ўқитувчи (педагог) ҳамда ўқувчи-талабанинг диққат марказида туради. Ўқитувчи (педагог) таълим натижасини тез-тез текшириб, ўқувчи-талабаларни ўзлари эришган ютуқлардан огоҳ қилиб туради ва ўқувчи-талабалар ўзлари эришган ютуқ ва камчиликларни англаб, ютуқларини янада

кўпайтиришга, камчиликларини эса бар-тараф этишга ҳаракат қилади. Ўқувчи - талабалар таълимнинг зарурийлигини, улар таълим жараёнининг ҳақиқий субъектига айланган пайтида сезишади.

Таълим технологияси бўйича қилинадиган ишлар икки қисмдан иборат:

1. Таълим лойиҳасини тайёрлаш. Лойиҳа ўқитувчи ёки эксперт аъзолари туза олиш фаолиятининг маҳсули бўлиб, қатор умумий хусусиятларга эга. Лойиҳа асосида ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи - талабаларнинг келажакда биргаликда амалга оширадиган фаолияти ётади.

Таълим лойиҳаси маълумот мазмунини давлат стандартлари талаблари асосида таҳлил этишдан бошланади. Таҳлил маълумот мазмуни элементлари (билимлар, кўникма ва малакалар, ижодий фаолият тажрибаси, муносабатлар) дастурларда қандай берилганлиги, дарсликларда қандай акс этирилганлигига қаратилади. Кейин таълим мазмуни ўрганилади, у ёки бу мавзунини ўрганишдан кўзда тутилган мақсад, таълимнинг дидактик мақсади, ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талабалар мақсади ҳамда мақсадларни амалга ошириш, ҳисобга олиш варақалари, бериладиган уй ишлари миқдори, мавзулар бўйича ўтказиладиган тест саволлари, рейтинг назорати босқичлари, эталон даражасида ўзлаштириш усули олдиндан белгилаб қўйилади. Бу ишларнинг барчаси онгда таълим моделини яратишга олиб келади.

2. Таълим лойиҳасини амалга ошириш. Таълим лойиҳаси бевосита таълим шароитида амалга оширилади. Бу жараёнда қуйидаги ишларга алоҳида эътибор қаратилади:

ўрганилаётган мавзу бўйича мақсад ва вазифалар билан ўқувчи-талабаларни олдиндан таништириш, муаммо, топшириқларни, шунингдек уй вазифалари, мустақил бажариладиган ишларни, уларни

бажариш тартиби, пайтини эълон қилиш, мавзунини тўлиқ ўзлаштириш бўйича кўрсатмалар бериш, ўзлаштириш меъёрларини айтиб бериш;

ўқувчи-талабаларни фаол, мустақил фаолиятга рағбатлантириш, улар диққатини бўлим ёки мавзу мазмунига тортиш, уни қандай ўрганиш зарурлигини айтиб бериш, билишга қизиқиш уйғотиш, ўқиш-ўрганишга ҳавас, муаммоларни бажаришга эҳтиёж уйғотиш, эмоциялар, тафаккур ҳодисалари, билимларни ўқув ҳолатларига татбиқ этиш йўллари орқали мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, тўпланган маълумотлар юзасидан жорий назоратни ташкил этиш, мавзунини тўлиқ ўзлаштиришга оид ўзгариш, қўшимча, тузатишларни белгилаш;

бўлим ёки мавзу бўйича умумий хулосалар чиқариш, чиқарилган хулосаларни мураккаб ўқув ҳолатларига татбиқ қилиш, оралиқ назорат натижаларига кўра мавзу ёки бўлим бўйича ахборот тўплаш, тўпланган ахборотларга ишлов бериш жараёнида ўқувчи - талабалар эришган ютуқларини таҳлил қилиш, ўқувчи-талабаларнинг билим ва малакаси, ижодий фаолият тажрибасидаги камчиликларини кўрсатиш, гуруҳдаги ҳар бир ўқувчи - талабага якуний назоратгача бажариладиган қўшимча топшириқларни бериш, ўқув материалини янада атрофлича ўзлаштиришга рағбатлантириш;

якуний назоратнинг асосий вазифаси ўқувчи - талабаларнинг маълумот ва таълим мазмуни элементларини эталон даражасида ўзлаштиришларини аниқлаш, эталон даражасидан паст ўзлаштирган ўқувчи - талабаларни огоҳлантириш, қўшимча топшириқлар бериш кабилардан иборат.

Замонавий педагогик технология таълим мақсадини аниқ ўрнатишдан бошлаб, унинг натижаларини баҳолашгача бўлган



босқичларнинг ҳар бири учун ижодий фаолиятни талаб этади. Педагог фаолиятининг технология даражасини проф.Н.Саидахмедов [5, 111 б.] қуйидаги мезонлар асосида алоҳида ажратиб кўрсатган:

1.Ташхисланган мақсад – ўқувчи-талаба томонидан дидактик жараён маҳсули сифатида ўзлаштирилган аниқ ўлчамли тушунчалар, амаллар ва фаолият турлари.

2.Таълим мазмунини ўқув элементлари ёрдамида баён қилишда абстракция поғоналари ва ахборотларни ўзлаштириш даражасининг ҳисобга олиниши.

3.Ўқув материалларини ўзлаштириш босқичларининг етарлича мантиқий қатъиянлиги – дидактик жараён тузилмасига мослиги.

4.Ўқув жараёнига янги воситалар ва ахборотлаштириш усулларининг жорий этилиши.

5.Ўқитувчининг қоидабоп (алгоритмли) ва эркин, ижодий фаолиятидаги мумкин бўлган четга чиқиш чегарасининг кўрсатилиши.

6.Ўқувчи-талаба ва ўқитувчи фаолиятида шахсий сабабларнинг таъминланиши (эркинлик, ижодиёт, курашувчанлик, ҳаётий, касбий моҳият ва бошқалар).

7.Ўқитиш жараёнининг ҳар бир босқичида коммуникатив муносабатларнинг, ахборот техникалари билан муомала қилишнинг мақсадга мувофиқлиги.

Замонавий педагогик технологияни мунтазам таҳлил қилиб бориш, лойиҳалаштирувчи воситаларнинг энг зарурини танлаш методларининг мақсадга мувофиқлигини аниқлай билиш (таълим методлари), олиниши зарур бўлган натижани олдиндан таҳлил қилиш (мақсадларнинг амалга ошишига эришиш), ўқув жараёнининг яхлитлигини таъминлаш каби тамойилларга асосланади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, педагогик технологияларни таълим жа-

раёнига жорий қилиш, айниқса хорижий давлатлардаги педагогик технологиялар тажрибаларидан фойдаланган ҳолда тизимлаштирилган таълим жараёнининг замонавий педагогик технология тизимини вужудга келтириш борасидаги амалга ошириладиган ишларни умумлаштириш ва ҳаётда қўллаш учун қуйидаги тадбирларга амал қилиш мақсадга мувофиқдир:

1. Таълим жараёни иштирокчилари – ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи - талабалар ўртасида: ўқув режасини ишлаб чиқиш, яъни ўқитувчи (педагог) бўлим ва бобни ўрганиш режасини тузар экан, ушбу режада ўқувчи - талаба ва ўқитувчи (педагог) фаолияти ўз ифодасини топмоғи лозим. Замонавий педагогик технология тамойилларидан бири бўлган ўқув меҳнатининг ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи - талаба ўртасида изчил режалаштирилган тақсимоли ўқитувчи (педагог)дан таълим жараёнини изчил бошқаришни талаб қилади.

2. Фаннинг ички боғланиши ва фуқаролараро боғланиш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш. Ҳар бир ўрганиладиган кичик ва йирик ўқув бирликлари аввал ўрганилганларга таянади. Бунда фанлараро боғланишлар ва ўқувчи- талабаларнинг тайёргарлик даражаларини билиш ҳам муҳим томонлардан биридир. Демак, ўқувчи - талабани янги бўлим, бобни ўрганишга олиб киришда ундаги мавжуд билимларга таяниш, агар мавжуд билимлар янги бобни, бўлимни ўрганишга етарли бўлмаса, оралиқ тайёргарлик олиб бориш ва шундан кейингина билимларни ўрганишнинг навбатдаги босқичига ўтиш мумкин.

3. Ўқув бирликларини (мезонларини) белгилаш. Ўқув бирликлари ўқувчи-талаба ўрганиши лозим бўлган тушунчалар, таърифлар, қоидалар, қонунлар, ҳодисалар, воқеалардан иборат бўлиб, улар орасидаги мантиқий боғланишнинг таъминланиши

шу боб ёки бўлимнинг ўзлаштирилишига олиб келади. Ўқитувчи (педагог) боб, бўлим учун ажратилган соатларда ўқувчи-талабалар ўрганиши лозим бўлган мезонлар ҳисобланиб, ўқувчи-талаба билимини баҳолашнинг чегаравий қиймати аниқлаб олинади. Ўқув режасини тузишда ўқитувчи (педагог) ва ўқувчи-талабалар билиши керак бўлган ўқув бирликларини бўлимлар, боблар бўйича аниқлайди ва уларга мустақил топшириқ сифатида бўлимни ўрганишдан олдин вазифа қилиб беради.

4. Ташхисий таҳлил. Ўқувчи-талабалар билимидаги нотекикликларни аниқлаш, уларни тўлдириб ва навбатда-

ги ўзлаштириш босқичига кўтариш мақсадида ташхислаш амалга оширилади. Ташхислаш қўйидаги мақсадларни амалга оширади:

ўқувчи-талабалар ўзлаштириш даражасини ташхислаш;

улар билимидаги етишмовчиликларнинг олдини олиш;

аниқланган етишмовчиликларни тўлдириш мақсадида махсус топшириқлар ишлаб чиқиш;

махсус топшириқларнинг бажариш соатларини белгилаш;

якуний ташхисий таҳлил қилиш.

## ТАЪЛИМГА ТЕХНОЛОГИК ЁНДАШУВ – НАТИЖАДОРЛИК ОМИЛИДИР

**ЯНГИБАЕВ КАМОЛ НОРБОЕВИЧ**

**Қарши муҳандислик-иқтисодит институти тадқиқотчиси**

**Аннотация.** Ўқув-тарбия жараёнига замонавий педагогик технологияларни жорий қилиш, педагогик технология технологик ёндашувга асосланиши, технологик ёндашув деганда таълим жараёнида қўлланиладиган технология ва методларни лойиҳалаш, ташқи имкониятлар, яъни, назарий-амалий, ўқув қуроллари ва воситалари мавжудлиги ҳақида тўлиқ маълумотларга эга бўлиши лозимлиги, илғор ўқитиш услубларини кўзлаган мақсадга йўналтириш масалалари талқин қилинган.

**Калит сўзлар:** таълим, жараён, технология, метод, ёндашув, сифат, изланиш, лойиҳалаш, назария, амалиёт, восита, маълумот, натижа.

**Аннотация.** Внедрение современных педагогических технологий в образовательный процесс, педагогическая технология должна основываться на технологическом подходе, технологический подход означает проектирование технологий и методов, используемых в образовательном процессе, необходимость иметь полную информацию о наличии внешних возможностей, теоретико-интерпретируются практические, образовательные инструменты и инструменты, направленные на передовые методы обучения, ориентированные на проблемы.

**Ключевые слова:** образование, процесс, технология, метод, подход, качество, исследование, дизайн, теория, практика, инструмент, информация, результат.

**Annotation.** The introduction of modern pedagogical technologies into the educational process, pedagogical technology should be based on a technological approach, technological approach means the design of technologies and methods used in the educational process, the need to have complete information about the availability of external opportunities, theoretical and practical, educational tools and tools aimed at advanced problem-oriented teaching methods are interpreted.

**Key words:** education, process, technology, method, approach, quality, research, design, theory, practice, tool, information, result.

Ўзбекистон Республикаси тараққиётида халқнинг бой маънавий салоҳияти ва умуминсоний кадриятларига ҳамда ҳозирги замон маданияти, маърифати, илми, техникаси ва технологиясининг сўнгги ютуқларига асосланган мукамал таълим тизимини барпо этиш долзарб аҳамиятга эга. Етарли интеллектуал салоҳиятга эга, илм-фаннинг замонавий ютуқлари асосида мустақил фикр ва мулоҳаза юрита оладиган шахсларни тарбиялаш ҳамда рақобатбардош, юқори малакали кадрларни тайёрлашнинг мукамал тизимини шакллантириш Ўзбекистон тараққиётининг муҳим шартидир.

Илм-фан жадал тараққий этаётган, замонавий ахборот-коммуникация тизимлари, воситаларини тез янгиланиб бориши, таълим олувчилар олдида уларни жадал эгаллаш билан бир қаторда мунтазам ва мустақил равишда билим излаш вазифасини қўймоқда. Бу вазифаларни ҳал қилиш учун эса биринчи навбатда ўқув жараёнини тубдан ислоҳ қилиш, унга жаҳоннинг ривожланган давлатларида кенг қўлланилаётган замонавий информация ва педагогик технологияларни изчиллик билан татбиқ этиш зарур. Маълумки, барча даврларда ҳам ўқитиш мазмуни, таълим тизими ижтимоий тараққиёт билан ўзаро

мувофиқликда ривожланиб келган. Рўй берган ижтимоий ўзгаришларнинг барчаси муайян даражада таълим мазмунида ўз аксини топади. Буни илм-фан, техника ва технология соҳаларида рўй берган ўзгаришларнинг ўқитиш жараёнига татбиқи мисолида ҳам кўриш мумкин. Бугунги кунда таълим муассасаларида асрлар давомида инсоният томонидан асосланган илмий билимлардан ёш авлодни хабардор этиш мақсадида тизимли, изчил, узлуксиз ва, албатта, мақсадга мувофиқ равишда педагогик фаолият олиб борилади. Жамиятда бозор иқтисодиёти муносабатларининг қарор топиши билан боғлиқ равишда ишлаб чиқариш жараёнида фаолият юритаётган, шунингдек, олий таълим муассасаларида тайёрланаётган кадрларда назарий билимларни амалиётга бевосита, самарали татбиқ эта олиш қобилиятини ривожлантиришга бўлган эҳтиёж шаклланди. Олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларнинг ўқув-билиш фаоллигига эга бўлишлари юқорида қайд этилган эҳтиёжни қондиришнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Ижтимоий соҳаларда яққол намоён бўлаётган тезкорлик ўз навбатида таълимнинг мобиллашувини ҳам юзага келтирмоқда. Зеро, шиддатли ахборот оқимининг юзага келганлиги ҳамда глобаллик касб этганлиги бугун ўқув жараёнида талабаларга етказиб берилаётган ўқув материалининг изчил янгилаб бориш зарурлигини тақозо этмоқда [1, 44 б.]. Ўзбекистон Республикаси тараққиётида халқнинг бой маънавий салоҳияти ва умуминсоний кадриятларига ҳамда ҳозирги замон маданияти, маърифати, илми, техникаси ва технологиясининг сўнгги ютуқларига асосланган мукамал таълим тизимини барпо этиш долзарб аҳамиятга эга. Етарли интеллектуал салоҳиятга эга, илм-фаннинг замонавий ютуқлари асосида мустақил фикр ва мулоҳаза юри-

та оладиган шахсларни тарбиялаш ҳамда рақобатбардош, юқори малакали кадрларни тайёрлашнинг мукамал тизимини шакллантириш Ўзбекистон тараққиётининг муҳим шартидир.

Илм-фан жадал тараққий этаётган, замонавий ахборот-коммуникация тизимлари, воситаларини тез янгиланиб бориши, таълим олувчилар олдида уларни жадал эгаллаш билан бир қаторда мунтазам ва мустақил равишда билим излаш вазифасини қўймоқда. Бу вазифаларни ҳал қилиш учун эса биринчи навбатда ўқув жараёни тубдан ислоҳ қилиш, унга жаҳоннинг ривожланган давлатларида кенг қўлланилаётган замонавий информацион ва педагогик технологияларни изчиллик билан татбиқ этиш зарур. Маълумки, барча даврларда ҳам ўқитиш мазмуни, таълим тизими ижтимоий тараққиёт билан ўзаро мувофиқликда ривожланиб келган. Рўй берган ижтимоий ўзгаришларнинг барчаси муайян даражада таълим мазмунида ўз аксини топади. Буни илм-фан, техника ва технология соҳаларида рўй берган ўзгаришларнинг ўқитиш жараёнига татбиқи мисолида ҳам кўриш мумкин. Бугунги кунда таълим муассасаларида асрлар давомида инсоният томонидан асосланган илмий билимлардан ёш авлодни хабардор этиш мақсадида тизимли, изчил, узлуксиз ва, албатта, мақсадга мувофиқ равишда педагогик фаолият олиб борилади. Жамиятда бозор иқтисодиёти муносабатларининг қарор топиши билан боғлиқ равишда ишлаб чиқариш жараёнида фаолият юритаётган, шунингдек, олий таълим муассасаларида тайёрланаётган кадрларда назарий билимларни амалиётга бевосита, самарали татбиқ эта олиш қобилиятини ривожлантиришга бўлган эҳтиёж шаклланди. Олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларнинг ўқув-билиш фаоллигига эга бўлишлари юқорида қайд этилган эҳти-

ёжни қондиришнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Ижтимоий соҳаларда яққол намоён бўлаётган тезкорлик ўз навбатида таълимнинг мобиллашувини ҳам юзага келтирмоқда. Зеро, шиддатли ахборот оқимининг юзага келганлиги ҳамда глобаллик касб этганлиги бугун ўқув жараёнида талабаларга етказиб берилаётган ўқув материалининг изчил янгилаб бориш зарурлигини тақозо этмоқда. Янги муносабатларнинг ўзига хос жиҳати анъанавий таълимдагидан фарқ қилиб, ўқувчи-талабаларнинг мустақиллиги ва ўқув фаолиятини тақиқламасдан, балки белгиланган мақсадга йўналтириш, ўқув фаолиятини ҳамкорликда ташкил этиш, уларни фаолиятга онгли равишда йўллаш, бирор-бир фаолиятни буйруқ орқали амалга оширмасдан, балки самарали ташкил этиш орқали ўқувчи-талабаларда фан асосларини ўрганишга бўлган қизиқишларини орттириш, шахснинг эҳтиёжи, қизиқиши ва имкониятларини чегараламасдан эркин танлаш ҳуқуқини бериш саналади.

Педагогик технология технологик ёндашувга асосланади. Технологик ёндашув деганда тайёр маҳсулот (ишлаб чиқариш технологиясига ўхшаш) олиш учун ишлаб чиқариш жараёнида қўлланиладиган усул ва методлар тўплами тушунилиб, қўйилган мақсадларга эришишда қўрилган натижаларни кафолатлайдиган усул методлари мажмуаси тушунилади. Агар метод билиш йўли, тадқиқот йўли ёки бирор фаолиятдаги маълум амалиёт ва назарий билимлар соҳасини эгаллашни ҳаракатлар, операциялар, усуллар мажмуаси деб тушунсак, педагогик технологиянинг таълим усули, маълум маънода таълим-тарбия жараёнлари, воситалари, шакл ва методлари мажмуасини англатади.

Педагогик технологияни анъанавий ўқитиш методикасидан фарқловчи белги-

лари кўп. Педагогик технология анъанавий методикадан, аввало мақсадларнинг қўйилиши ва унга эришиши билан фарқланади [2, с. 26]. Педагогик технология усули таркибий қисмига таълимнинг умумий мақсадлари (ўқитувчи ва талабанинг мақсадлари)ни ишлаб чиқиш, таълим мақсадларини назорат (тест) топшириқларига ўтказиш, мақсадга эришиш усуллари киради.

Лойиҳалаштириш фаолияти ўқувчи-талабалар билан ишлашни ташкиллаштиришнинг энг оммабоп шакллари-дандир [4, 568 б.]. Лойиҳалаш методи – ўқитишнинг ташкиллаштирилиши бўлиб, ўқувчи-талабалар режалаштириш ва амалий вазифаларни бажаришлари орқали лойиҳа кўринишида билим олади. Лойиҳалаштириш методини қўллаш натижасида лойиҳа (проект) кўринишидаги билим ўзлаштирилади.

Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатларни ифодаловчи ҳамкорлик педагогикасига таяниб, талабаларнинг биргаликда таълим олишлари амалга оширилади. Талабаларни ҳамкорликда таълим олишлари, таълим жараёнларини лойиҳалаштириш, талабалар билан ишлашни лойиҳалаштириш кабилар замонавий педагогик технологияларнинг асосий методлари ҳисобланади [5, с. 9.].

Ўқув-тарбия жараёнида вужудга келган янги педагогик муносабатлар мазкур жараёнда замонавий педагогик технологияларни қўллашни тақозо этади. Педагогика фани ва амалиётида турли хил ёндашувлар қўлланилади. Улар оғзаки-кўргазмали, тадқиқий, изланувчан, тизимли, функционал, комплекс, технологик, фаолиятли ёндашувлардир.

Ўқув-тарбия жараёнига замонавий педагогик технологияларни жорий қилиш педагогдан ижобий ишлашни талаб этади. Педагог ўзида унга ёрдам берувчи ташқи имкониятлар, яъни, назарий-амалий, ўқув

куроллари ва воситалари мавжудлиги ҳақида тўлиқ маълумотларга эга бўлиши керак. Педагог ўзидаги мавжуд маълумот ва имкониятлар асосида қаралаётган таълим йўналиши бўйича маълумотлар ҳамда илғор ўқитиш услубларини кўзлаган мақсадга йўналтириш қобилиятига эга бўлиши лозим.

Педагогда шаклланган билим, кўникма, малака, ўқитиш воситалари, замонавий педагогик технологиялар имкониятларини мақсадга мувофиқ йўналтира олиш қобилиятлари мавжуд бўлиб, у давлат таълим стандартлари асосида таълим олувчига аниқ мақсадини белгилаб беради [6, 79 б.]. Бу эса, ўз навбатида, педагогик технологияларни қўллаш режасини ишлаб чиқишга, яъни вазифаларини белгилаб олишга олиб келади. Белгиланган мақсад ва вазифаларни эътиборга олган ҳолда таълимнинг ҳаракатчан модели яратилади. Моделни ишлаб чиқиш асосан тизимли ёндашув услуби, мақсадлар тизимини яратиш ва унга эришиш кетма-кетлигига асосланган ҳолда олиб борилади. Таълим моделини яратиш замонавий таълим технологиясининг асосий талабларидан биридир.

Бир-бирига боғлиқ бўлган талабларнинг мажмуи, педагогнинг умумлаштирилган моделини ташкил этади. Умумлашган моделга мувофиқ асосий талаблар қуйидагилардан иборат, яъни:

педагогнинг таълим бериш маҳорати;  
педагогнинг тарбиялай олиш маҳорати;

таълим-тарбия жараёнида инсон омилини таъминловчи шахс фазилати;

таълим олувчиларнинг билимларини холисона баҳолай олиш ва назорат қила олиш маҳорати.

Бугунги кунда Ўзбекистонда жаҳон таълим майдонига киришга йўналтирилган янги таълим тизими қарор топмоқда. Бу жараён билан бир вақтда педагогик

ўқув-тарбия жараёнининг назарияси ва амалиётида сезиларли ўзгаришлар содир бўлмоқда. Таълимдаги ёндашувлар таркиби ўзгармоқда ва бошқача муносабатлар, педагогик менталитетлар ўрнатилмоқда. Таълим тизими янги ахборотлар билан ишлаш қобилияти ижодий ечимининг таълим дастурини индивидуаллаштиришга қаратилиши билан бойитилмоқда.

Таълим – педагогик жараённинг муҳим таркиби бўлиб, ўқувчи-талаба билан ўқитувчи (педагог) нинг шахсга йўналтирилган ўзаро муносабатлари ҳисобланади. Ижтимоий билимга тенг бўлган педагогик технологияларнинг ташкил топишида фаннинг роли ортиб бормоқда.

Замонавий педагогик технологияларнинг психологик-педагогик нуқтаи назардан такомиллашувининг асосий йўналишлари қуйидагилар билан ифодаланади:

ўқувчи-талабанинг ёдлашдан эслаб қолиш функциясига ўтиши, яъни ўзлаштирилганини ишлатиш имконини берувчи ақлий ривожланиш жараёнига ўтиши;

ўртача ўқувчи-талабага йўналтирилганликдан ўқитишнинг табақалашган ва индивидуаллаштирилган дастурларига ўтиш;

ўқувчи-талабанинг ташқи мотивациясидан ички маънавий тартибга ўтиш.

Таълимда замонавий дидактика ва таълим таркибларининг самарадорлигини ошириш, янги ғоя ва технологияларнинг илмий ишлаб чиқилиши ва амалий асосланишига ўтилмоқда. Бунда ҳар хил педагогик тизим билан ўқитиш технологиялари ўртасида боғлиқлик, амалиётда давлат таълим тизимининг янги шакллариининг апробацияси, ҳозирги замон шароитида ўтмишнинг педагогик тизимларини қўллаш муҳим ҳисобланади.

Педагогик технология пайдо бўлгунга қадар бошқа масалалар қаторида мураккаб қурилма ва жараёнлар ўрганиладиган

таълим тизими доирасида айнан таълим жараёнини етарлича самарали лойиҳалаш қоидаси ишлаб чиқилмади [7, 111 б.]. Бу бўшлиқни педагогик технология педагогининг лойиҳалаштирилган ўқув жараёнига ижодий ёндашуви учун кенг ўрин қолдирган ҳолда тўлдиради. Педагогик технологиянинг ўзига хос томони шундан иборатки, унда ўқув мақсадларига сўзсиз эришиш ўқув жараёнида лойиҳалаштирилади ва амалга оширилади. Технологик ёндашув, энг аввало, юзакиликда эмас, балки режалаштирилган натижани амалга ошириш имконини берувчи конструктив, кўрсатмали схемада ўз ифодасини топади.

Мақсадга йўналтирилганлик, жараён натижаларининг ташхисли текшируви ўқув жараёнининг барча қирраларини қайта ишлаб чиқиш даврига мужассамлаштириш имконини яратади. У асосан ўз ичига қуйидагиларни олади:

таълимда умумий мақсаднинг қўйилиши;

тузилган умумий мақсаддан аниқ мақсадга ўтиш;

ўқувчи-талабаларнинг билим даражаларини дастлабки (ташхисли) баҳолаш;

бажариладиган ўқув ишлари мажмуаси (бу босқичда тескари боғланиш асосида зудлик билан таълим жараёнига тузатиш киритиш бўлиши лозим);

натижани баҳолаш.

Ўқув мақсадларининг тўлиқ стандартлаштирилишининг меъёри қуйидагича бўлиши мумкин:

- а) юқори, аммо мутлақ эмас;
- б) мутлақ.

Биринчи ҳолатда мақсаднинг мураккаблиги туфайли уни тўлиқ кузатувчан ҳатти-ҳаракатлар турига айлантириш имконини бермайди, давр тўлалигича қайта ишлаб чиқилмайди. Иккинчи ҳолатда конвейрли жараён бўлган таълимнинг репродуктив тури билан иш юритилади.

Ўқув жараёнининг барча босқичларида бутун тизимнинг асосий технологик жиҳати – ўқув жараёнининг сўнгги натижаларига йўналтирилганлигини кузатиш мумкин.

Умумий кўринишда педагогик технология таркибига қуйидагилар киради:

идентификацияланган ўқув мақсадларини ишлаб чиқиш;

ўқув мақсадлари таксономияси;

ўқув мақсадларини назорат (тест) топшириқларига айлантириш;

мақсадга эришиш усуллари;

эришилган ўқув мақсадларини баҳолаш.

Педагогик технологияни тушунишнинг асосий йўли аниқ белгиланган мақсадларга қаратилганлик, таълим олувчи билан мунтазам ўзаро алоқани ўрнатишдир. Ўзаро алоқа педагогик технология асосини ташкил қилиб, ўқув жараёнини тўлиқ қамраб олади [8, 67 б.]. Ўқитувчи (педагог) ўз олдида ўқувчи-талабалар ўқув материалининг мазмунини тушуниб, ўзлаштириб, маълум билимларни эгаллаб, амалиётда қўллашга ўргансин деган мақсадни кўяди. Педагогик мақсадга эришганлик ёки эришмаганликни билишнинг аниқ воситалари бўлгандагина, ўқитувчи (педагог) ўзининг меҳнати самарали эканлигига ва танлаган методлари мақсадга мувофиқлигига ёки аксинча, самарасиз эканлигига ишонч ҳосил қилиши мумкин.

М.В.Кларин фикри [3, с.18.] бўйича ўқитувчи (педагог)лар томонидан мақсадларни белгилашнинг ўзига хос усуллари қуйидагича:

1. Ўқув материалининг режасидан келиб чиқиб, мақсадни белгилаш.

2. Мақсадни ўқитувчи (педагог) фаолияти орқали аниқлаш.

3. Ўқувчи-талабанинг интеллектуал, эмоционал, шахсий ривожланиш ички жараёнлари ва қонуниятлари орқали ўқув





## TA'LIM TEXNOLOGIYASI TRENDLARI

**JO'RAYEVAKMALRAZZOQOVICH**

**Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrası professori,  
p.f.f.d (PhD)**

**AKOBIROVA MADINA BO'RONOVNA**

**Buxoro davlat universiteti "Elektronika va texnologiya" kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarga an'anaviy matnga asoslangan ta'limdan tashqari ta'limni yaxshilashga yordam beradi va talabalarni amaliy ta'lim usullariga jalb qiladi. Ushbu maqolada siz o'quvchilarni yaxshilash uchun kelajakda ta'limda qanday texnologiyalar qo'llanilishini bilib olasiz. Kalit so'zlar: Ta'lim texnologiyalari tendentsiyalari, Ta'lim kommunikatsiyalari va texnologiyalari assotsiatsiyasi, texnologik jarayonlar va resurslar, texnologiya ta'limida integratsiya, ta'limda animatsiya, innovatsion usullar, multimedia, jonli video, onlayn kurslar, "zamonaviy" yordamchi.

**Аннотация:** современные технологии помогают учителям улучшить преподавание, выходящее за рамки традиционного текстового обучения, и вовлечь учащихся в практические способы обучения. В этой статье вы узнаете, какие технологии будут использоваться в образовании в будущем для улучшения учащихся.

**Ключевые слова:** Тренды образовательных технологий, Ассоциация образовательных коммуникаций и технологий, Технологические процессы и ресурсы, Интеграция в технологическое образование, Анимация в образовании, Инновационные методы, Мультимедиа, Живое видео, Он-лайн-курсы, «Современный» помощник.

**Abstract:** Technology today is helping teachers to enhance their teaching beyond traditional text-based learning and engage students with practical ways of learning. In this article, you will find what kind of technologies will be used for education in the future for the betterment of students.

**Key words:** Educational Technology Trends, Educational Communications and Technology Association, Technological Processes and Resources, Integration into Technological Education, Animation in Education, Innovative Methods, Multimedia, Live Video, Online Courses, "Modern" Assistant.

Introduction. President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev said: "The solution of another problem is extremely important: this is the professional level of the composition of teachers and professors, their special knowledge. In this regard, it is necessary to create an environment that actively contributes to the processes of obtaining education, issues of spiritual enlightenment and formation of true values". The current scientific and technical development requires the introduction of innovative technologies not only in the sphere of production, but also in the sphere of cultural, socio-humanitarian knowledge, education. It is known that "in the national program of Personnel Training "it was noted that "providing the educational process with

advanced pedagogical Technologies" was defined as one of the serious tasks performed at the stages of improving and improving the quality of continuous education. In this sense, the rich spiritual potential and universal values of the people in the development of the Independent Republic of Uzbekistan, as well as modern culture, economy, science, technique and innovation creation and implementation of an excellent educational system based on the latest advances in technology, as well as theoretical and methodological foundations of national pedagogical and innovative pedagogical technologies the need to implement it is necessary to reform the national education system, bring its potential to the world level, create an educational market and train

competitive specialists.

Big Data, Machine Learning, and the Internet of Things (IOT) were the biggest educational technology trends of 2019. However, distance learning has become the one trend that rules them all. The COVID-19 pandemic has drastically changed the way we teach and learn. Students now have to get used to distance learning via digital platforms due to social distancing. Even though some schools are reopening, this trend may continue until 2021. The latest Educational Technology trends in 2020, and further into 2021 are being revolutionized with a strong focus on connectivity, versatility, and student-centered learning. Let's take a look at the latest top 10 trends in educational technology.

Literary analysis. Many people can recognize that Educational Technology is devoting technology to promote education. It's true, but not sufficient. The Association for Educational Communications and Technology (AECT) has defined Educational Technology as "facilitating learning and improving performance by creating, using, and managing appropriate technological processes and resources." On the other hand, educators who actually use Educational Technology have a much simpler definition of the term. They say that it is a concept of transforming traditional book teaching and learning to digital form. For them, the main difference lies in the way knowledge is delivered (thanks to technology innovation) to make teaching more effective.

In short, Educational Technology is simply. This is a process of integrating technology into education to build better teaching/learning experiences that result in higher learning outcomes. For example, several hospitals are training their new nurses with online safety courses by using animation. There are lots of reasons why educators shifted to Educational Technology, replacing

the traditional paper-and-pen teaching method. Particularly, we list some common advantages of Educational Technology that you can easily see. Technology is an innovation of humans, so when an educator can apply technology to teaching, it is also innovative. Educational Technology allows teachers to provide multimedia to address diverse learning styles, such as animation, live video, etc. Besides, Educational Technology enables teachers to create online courses where students can learn in their own space and at their own pace.

Technology has made it possible for everyone to stay connected. Students and teachers connect, discuss, share their opinions, and act upon situations collaboratively. For example, Learning is an educational tool that features collaboration by enabling students to share and discuss. Instead of being in a classroom and listening to teachers speak for 30 minutes, eLearning students can join an online group/platform and learn together by interacting with their peers. In this case, teachers are more accessible and act as mentors to help students develop themselves. This collaborative learning approach has bridged the gap between teachers and students and also helps students strengthen their interpersonal skills.

Main part. Firstly, Educational Technology benefits how teachers teach, both online and offline. Not always having to go to a specific class at a specific time, students can learn whenever and wherever. Secondly, Educational Technology changes the way students approach learning. Educational Technology makes learning more fun and exciting for students. When we feel engaged in learning, we learn better, remember better, and also apply knowledge better to real life. Lastly, technology makes education smarter, more effective, thus, satisfying learners' needs more. True educators bring valuable


knowledge to learners, both in theory and in real life. But smart educators are those who can create teaching from what learners want to learn. To sum up, Educational Technology doesn't mean teachers have to become IT experts. But it's true that teachers can do these fascinating things only with technology, and that's why we need Educational Technology in life.

If you are an innovative educator, following the trends in education is probably not something new but rather essential. Even with this list, however, it is still up to you to choose the most suitable "trendy" aid for your

teaching and training. Here we select the 10 latest educational technology trends that are must-know when diving into this industry.

### 1. Learning

Distance learning became the top 2020 educational technology trend overnight because of the rapid spread of COVID-19 and school closures. This led to a rising demand for online educational platforms. Learning is education or training delivered electronically. It can be slide-based online activities, or it can also be an online course that helps a business train employees in necessary skills.




With learning, educational content is delivered to learners through computers, laptops, tablets, or smart phones. Not only saving time but opening many doors for interactive learning. Rather than being in a passive experience, learners can choose what they need to learn quickly and easily, wherever they are. They also learn through interacting directly with on-screen information through, for instance, dragging content from one place to the next. Moreover, the decision-making scenarios in eLearning also encourage learners to make their own choices on what they will learn next. In Learning, learners just soak in knowledge through reading or viewing content, it changes the way education is delivered. Also, many eLearning courses include animation, podcasts, and videos that create a multimodal and practical learning experience. The last point is, although Learning has been around for a long time, it is staying green and continuously developing. Educators are using the advantages of technology

to make learning more effective. That's why more and more online and blended learning courses are produced nowadays. Variety is the outstanding feature of online learning platforms. You can teach your students in real time (synchronous) via live stream or group meetings using Zoom or Microsoft Teams, or you can use recorded (asynchronous) methodologies with a wide range of media and digital functions available to enrich lessons. A good online learning platform can also be combined with a Learning Management System (LMS) so you can keep track of your students' learning outcomes.

### 2. Video-Assisted Learning

In recent years, video-assisted learning has become more and more popular as classroom displays. The "video day" is no longer a television on a trolley being wheeled into a class. With the internet and digital devices, every day can be a "video day." This trend is also booming in distance learning conditions, which students learn



through computer screens. Videos, especially animated videos, are extremely beneficial to enrich lessons and make content comprehensible. It improves students' outcomes and reduces teachers' workload.

### 3. Blockchain Technology

The Distributed Ledger Technology (DLT) from block chain brings so many benefits to education, especially data storage. Every time new data is added, it adds another "block" to the system, so the storage is technically limitless.

Simultaneously, the data will be encrypted and distributed across multiple computers in the system. It makes transacting data decentralized and transparent.

Block chain technology is used in Massive Open Online Courses (MOOC) and portfolios to verify skills and knowledge. The DLT systems will answer the problems of authentication, scale, and cost for learning agencies. Moreover, it can help student applicants publish their accomplishments during the job-seeking phase.



### 4. Big Data Will Get Bigger

To cater to learners' needs, the learning experience needs to be personalized. And with COVID-19 and online learning booming, we now have bigger data than ever before. Instructional Designers have relevant information about learners' experiences to customize and present the course in a suitable format. Some information you should look for is the course's topic, learner


enrollment, learner performance (time per course, completion, test result), and learner feedback (rating, survey).

### 5. Artificial Intelligence (AI)

AI now is the "in thing" in the US Educational Technology market. People have predicted that through 2021, AI could become the primary trend and grow by more than 45%. So why is the trend booming in one of the world's largest markets

for Educational Technology? First and foremost, AI can automate basic activities in education, like grading. It's now possible for teachers to

automate grading of the multiple-choice and fill-in-the-blank questions. Thus, automated grading of students' writing may not be far behind.



Furthermore, both learners and educators could benefit from AI. For example, students could get help from AI tutors when teachers are too busy to take care of everyone. Also, AI-driven programs can give both learners and educators helpful feedback. That's why some schools use AI systems to monitor student progress and to alert teachers when there might be an issue with students' performances. Therefore, it's not too farfetched that AI is a powerful assistant for in-class teaching. Meanwhile, why don't you help your learners get more out of the educational experience via AI?

#### 6. Learning Analytics

The current landscape of learning analytics has dramatically expanded, especially for higher education. Learning analytics allows educators to measure and report student learning just by the web. From that, it's possible for them to better understand and optimize learning.

When teachers read insights from students' learning processes, they can improve the knowledge and skill acquisition of their students accordingly. For instance, teachers are able to see what type of information (text, images, info graphics, or videos) that students enjoy most and use it more in their following lessons. Also, teachers are able to notice what pieces of knowledge weren't effectively delivered and

enhance them next time. Moreover, learning analytics helps educators identify blocks of students who may have academic or behavioral challenges. From that, teachers could develop a way to help students reach their full potential. If you are looking for a way to turn learning into a more fun and engaging process, gamification is the most suitable educational technology trend. There is no reason for students not to be actively involved in classroom games. Students can learn and practice while they are joining in on exciting game activities. Gaming elements help create a funny and positive learning environment for learners. The adoption of gamification is most popular in the K-12 education sector. It's because kids are quickly engaged in gaming videos or getting higher scores in a game. However, it doesn't mean that higher education or corporate training doesn't need fun elements to improve the engagement level of learners.


#### 7. Immersive Learning with VR and AR

The class learning experience has undergone a tremendous change since Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) came to education. The rise in demand for experiential learning pushes forward the development of learning with VR and AR.

Learning has become much more interactive than traditional methods. While VR provides a

constructed reality, AR gives an enhanced view of a real image. Thus, they help explain complex concepts that plain images or even a lab's hands-on experiments couldn't show students. For

example, VR is pretty helpful when you are attending a medical training course. In detail, VR creates a chance for students to experience real-world surgeries in a low-risk environment.



## 8. STEAM

STEAM-based programs are the new Educational Technology improvement over the STEM programs. This new trend of Educational Technology applies meaningful Science, Technology, Engineering, Art (the new element), and Math content to solve real-world problems through hands-on learning activities and creative

design. Concerning the advantages of STEAM, the first thing is that it helps students become increasingly curious about the world around them. Moreover, it also creates a safe environment for the learners to express and experience their ideas while thinking outside the box. The comfort of hands-on learning also helps students collaborate better with others.



## 9. Social Media in Learning

Have you ever thought that social media would be a part of the learning process? When every student, both young and mature, spends so much time on social media, why don't we turn it into a powerful tool to enhance learning? It's how the idea to use social media for teaching came about. Many educational institutes have started

using social media as a communication tool in which students can interact with others easily. Students can share study materials, discuss with others in a group, or easily comment on someone else's post. Even an animated learning video could go viral on social media. And Educational Technology is the typical example of this trend! This organization creates lessons worth sharing



